ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2025

6-son
(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
P. Maxsudov	4	O'qituvchilarning metodik kompetentligi tushunchasiga zanonaviy qarashlar
M. Kuchkarov, V. Ergashev	8	Kimyo ta'limida o'quvchilarning konseptual tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslari
V. Rajapov	14	Sinf rahbarining o'smir qizlarda ma'naviy dunyoqarashni shakllantirishdagi roli
D. Tursunova	19	Gospital ta'lim: bolaning tiklanishida pedagog, shifokor va ota-ona hamkorligi
M. Usmonova	23	"Yangi O'zbekiston mard o'g'lonlari" – yosh avlodda yurtga sadoqat tuyg'usini shakllantirish yo'llari
A. Raxmatov	29	Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
N. Kamolova	33	Kimyo ta'limida aksiomatik yondashuvning didaktik mohiyati
M. Farmonova	40	Matematikani o'qitishda matematik modellashtirishdan foydalanish amaliyoti
Sh. Ostonova	43	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik atamalarni axborot-kategorik yondashuv asosida o'rgatish holati va istiqbollari
X. Maxamadaliev	50	XIX asrga qadar yaratilgan forsiy izohli lug'atlardagi turkiy so'zlarning fonetik xususiyatlari
		ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI
N. Karimova	55	"3D" modellashtirish texnologiyalari asosida "an'anaviy arxitektura uslublari" fanini o'qitishning zamonaviy metodologiyasi
S. Azimova	61	Bo'lajak filologlarning plurimadaniy kompetensiyasini multimodal ta'lim (mall) asosida rivojlantirish
K. Usanov	65	Matematika fanini zamonaviy dasturiy ta'minotlar va ilovalar asosida o'qitish metodikalarini takomillashtirish
N. Matchanova	71	Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda interaktiv texnologiyalarning samaradorligi va baholash mezonlari
E. Mirzayev	76	Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarning konstruktiv kompetensiyalarining asosiy mazmuni va o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish
R. Eshimov	81	Kompyuter imitatsion modellardan masofaviy ta'limda foydalanishning istiqbolli yo'nalishlari
J. Xayitov	87	Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli ta'lim muhitining xususiyatlari
		TA'LIMDA MENEJMENT
X. Xusanov	90	Inson resurslarini rivojlantirishda umumta'lim maktablarining zamonaviy boshqaruv modellari: xorijiy tajriba va strategik yondashuvlar
		HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA

S. Maxmudova	98	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari tarbiya jarayonida musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish
		JISMONIY TARBIYA VA SPORT
M. Toshboyeva	102	Oliy ta’lim muassasalaridagi qizlarni milliy kurash va dzyudo sport turlari texnik harakatlariga o‘rgatish texnologiyasi
F. Karimov	107	Para armrestlingchilarni texnik tayyorgarligini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish
		MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
G. Xudoyberdiyeva	112	“Musiqa madaniyati” darslarida milliy cholg‘ularni o‘rganish texnologiyalarini takomillashtirish
R. Djumaniyazov	115	O‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida germenevtik yondashuv asosida nutq madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari
		MAKTABGACHA TA’LIM
M. Tairova	120	Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari va tamoyillari
S. G‘aniyeva	124	Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda “Steam” texnologiyasidan foydalanish
G. Abdumutalipova	129	Maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik omillari
		KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH
Z. Yulchiyeva	132	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda sharq allomalarining ma’naviy merosidan foydalanishning pedagogik asoslari
		PSIXOLOGIYA
S. Ruzmetova	135	Oilada mehnat tarbiyasini rivojlantirish asosida tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirishning psixologik asoslari
N. Umarova	138	Abdulla Oripov lirikasining psixologik o‘ziga xosligi
		МЕНЕДЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ
Н. Цай	141	Особенности управления дошкольным и школьным образованием в условиях реформ

Po'lat MAXSUDOV,
Namangan davlat texnika universiteti, "Mexanika" kafedrasi, dostent, p.f.d.

O'QITUVCHILARNING METODIK KOMPETENTLIGI TUSHUNCHASIGA ZANONAVIY QARASHLAR

Annotatsiya

Maqolada o'qituvchilarning metodik kompetentligi va metodik kompetentlik hozirga qadar yetarlicha tadqiq etilmagan va o'qituvchi kasbiy faoliyatining mustaqil turlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, professional ta'lim o'qituvchisi tomonidan olib boriladigan metodik kompetentlik komponentlari keltirilgan va ular ahamiyatliligi bo'yicha tabaqalashtirilganligi aytib o'tilgan.

Tayanch so'zlar. Metodik faoliyat, metodik kompetentlik, kognitiv komponentlar, kommunikativ komponentar, refleksiv komponentlar, mahsuldorlik komponentlari.

В статье методическая компетентность учителей и методическая компетентность до сих пор недостаточно исследованы и рассматриваются самостоятельные виды профессиональной деятельности учителя. Также представлены компоненты методической компетентности, осуществляемые преподавателем профессионального образования, и отмечено, что они дифференцированы по значимости.

Ключевые слова. Методическая деятельность, методическая компетентность, когнитивные компоненты, коммуникативные компоненты, рефлексивные компоненты, продуктивные компоненты.

In the article, the methodological competence of teachers and methodological competence have not yet been sufficiently studied, and independent types of professional activity of teachers are considered. Also, the components of methodological competence carried out by a vocational education teacher are presented, and it is noted that they are differentiated by significance.


Key words. Methodological activity, methodological competence, cognitive components, communicative components, reflective components, productive components.

Kasbiy ta'limga oid adabiyotlarda "kasbiy kompetentlik" tushunchasi kasbiy bilimlar, ko'nikmalar, shuningdek, kasbiy faoliyatni amalga oshirish usullari majmui sifatida talqin etiladi

Kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, metodik kompetentlik xizmat qiladi. O'qituvchining kasbiy kompetentligi bilan bog'liq masalalar bugungi kunda yetarlicha ilmiy tadqiq etilgan. Biroq o'qituvchining metodik kompetentligi masalasiga bag'ishlangan ishlarni yetarli, deb bo'lmaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda "metodik kompetensiya" va "metodik kompetentlik" iboralari deyarli bir xil ma'nodagi tushunchalar sifatida ishlatiladi. "Metodik kompetentlik" atamasidan to'g'ri foydalanishni asoslash uchun "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. "Kompetensiya" tushunchasiga faoliyatning tayinli sifatiga erishishda zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malakalarga qo'yilgan tashqi talablar majmui deb, qarash o'rinli hisoblanadi. Bunda "kompetensiya"ga o'qituvchining bilim, ko'nikma qobiliyat va shaxsiy fazilatlarining tizimli namoyon bo'lishi sifatida qaraladi.

Kompetensiya funksional imkoniyatlarning muvaffaqiyatli amalga oshishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Uni kasbiy faoliyat mohiyatini tashkil etuvchi vazifa deb ham qarash mumkin bo'ladi.



“Metodik kompetentlik” tushunchasini o‘rganishga oid ilmiy aspektlar

Kompetentlik bu – mavjud nazariy va amaliy bilimlar asosida u yoki bu sohaga oid holda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tayinli faoliyatda natijali maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishni ta’minlashda yordam beruvchi integrativ resurs (qo‘shimcha imkoniyat) hisoblanadi.

Boshqacha qilib aytilsa, kompetensiya – maqsadlar, kompetentlik esa – natijalarga erishtiruvchi imkoniyatlardir. Maqsadga erishish doim ham rivojlanishga xizmat qiladi. O‘qituvchi o‘z kompetensiyalarini yangilab borar ekan, bu bilan u rivojlanib boradi, uning kasbiy kompetentligi oshib boradi.

Kasbiy kompetentlik tizimining mustaqil komponenti sifatida metodik kompetentlik faqat alohida tadqiqotlarda N.V. Kuzmina, T.V. Syasina, T.A. Zagrivnaya, T.S. Mamontova, R.P. Milrud, N.I. Sylyapina, M.A. Kudaykulov va boshqalar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda metodik kompetentlik tushunchasiga quyidagidek turlicha izoh beriladi (1-rasm):

– o‘qituvchining turli xil o‘qitish metodlari bilan qurollangan bo‘lishi, didaktik metodlar, usullarni bilishi va ularni o‘quv jarayonida qo‘llay olishi, o‘quv jarayonida bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishning psixologik mexanizmlarini bilishi (N.V.Kuzmina);

– o‘qituvchi shaxsining integrativ, ko‘p darajali, kasbiy ahamiyatli xarakteristikasi bo‘lib, o‘qituvchilik kasbiga, kasbiy bilim va ko‘nikmalarga birlikda qabul qilingan qadriyat munosabati mavjudligida ifodalanadi (T.V.Syasina);

– o‘qituvchining ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlarining, metodik bilim, ko‘nikma, tajriba, motivatsiya, qobiliyatlari va yaxlitlikda metodik va pedagogik faoliyatda o‘zini o‘zi ijodiy anglashga tayyorligini aks ettiruvchi integral xarakteristikasi (T.A.Zagrivnaya);

– o‘qituvchining o‘quv-metodik faoliyatni sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan metodik bilimlar, metodik ko‘nikmalar va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar to‘plami (T.S. Mamontova);

– shaxsning u yoki bu sohada tashqi dunyo bilan samarali o‘zaro ta’sir qilish imkoniyatini ta’minlaydigan kompleks shaxsiy resursi, integral xossasi (R.P. Milrud);

– o‘qituvchining ilgari egallagan maxsus va kasbiy bilim hamda ko‘nikmalari asosida o‘zi uchun yangi sharoitlarda o‘quv faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati (N.I. Shlyapin);

– pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabasining o‘zining psixologik-pedagogik va metodik bilimlar tizimi asosida fan o‘qituvchisi malakaviy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati (M.A. Kudaykulov).

Keltirilgan ma’lumotlar bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi tarkibida metodik kompetentlik yetakchi rol o‘ynaydi va bo‘lajak o‘qituvchida uning qaror toptirilishi kasbiy fanlarni o‘qitish maqsadlarini amalga oshirish yo‘lidagi vazifalarni hal qilishda katta ahamiyat kasb etadi, deyishga imkon beradi.

Yuqoridagi ta’riflarni umumlashtirgan va tadqiqotchilar tomonidan taklif qilingan metodik kompetentlik strukturasiga asoslangan holda, o‘qituvchining metodik kompetentligi strukturasini kognitiv, kommunikativ, refleksiv va mahsuldor komponentlarning sintezi deb hisoblash imkonini beradi (jadval).

1-jadval. O‘qituvchi metodik kompetensiyalarining komponentlari

Kognitiv komponentlar	Kommunikativ komponentlar	Refleksiv komponentlar	Mahsuldorlik komponentlari

1. Kasbiy bilimlar (maxsus fanlar; pedago-gik fanlar – umumiy metodik va xususiy metodik). 2. Kasbiy malakalar – tahliliy; – bashoratlovchi; – refleksiv; – pertseptiv (idrok etuvchi); – psixologo-pedagogik;	– emotsional barqaror-lik; – ekstraversiya (ochiq ko‘ngillilik); – to‘g‘ri va teskari aloqani tuza olishlik qobiliyati; – nutqiy ko‘nikmalari; – tinglash ko‘nikmasi; – nozik didlilik.	– o‘z faoliyat darajasi-ni anglay olish ko‘nik-masi; – kasbiy takomilla-shish usullarini bilish-ligi; – o‘z-o‘zini rivojlanti-rishga tayyorliligi;	– o‘qituvchi mehnatini mahsuldorligi – maqbullik (eng yaxshi natija).

Jadvaldan ko‘rinadiki, kognitiv (bilishga oid) komponentlarning asosini o‘qituvchining kasbiy bilim va malakalari tashkil etadi. Kommunikativ komponentlar o‘qituvchining emotsional barqarorligini, o‘quvchilar va hamkasblari bilan beg‘araz munosabatlar qura olish qobiliyatini ifoda etadi, ta’lim jarayonida uning “subyekt-subyekt” munosabatlariga tayyorligini belgilaydi. Refleksiv komponentlar o‘qituvchining o‘zini o‘zi baholay olishini va o‘zini o‘zi tanqidiy rivojlantirishga tayyorligini ko‘rsatadi. Mahsuldorlik komponentlari o‘qituvchini o‘z kasbiy faoliyatida ijodkorlik xislatlari bilan qurollanganligini bildiradi.

Metodik kompetentlikning yuqoridagi komponentlarini darajalar tartibida ifoda-lasak, kognitiv (bilishga oid) komponentlar 1-daraja, kommunikatsiya komponentlari 2-daraja, refleksiya komponentlari 3-daraja va mahsuldorlik komponentlari 4-darajalarga to‘g‘ri keladi. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qitish tizimining yuqori yakuniy natijasi sifatida metodik kompetentlikka tayyorlik, faqat alohida, eng harakatchan va qobiliyatli talabalarda uchraydi, xolos. Bo‘lajak o‘qituvchi- larining ko‘pchiligi oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv jarayonini 1-, 2- yoki 3-darajadagi (yoki unga yaqin) tayyorlik darajalarida tamomlaydilar. 4-darajadagi metodik kompetentlik komponentlarini ularda shakl toptirish masalasi ochiq qolmoqda, ya’ni 4-darajadagi komponentlar ularning kelgusida orttirajak pedagogik tajribalari asosida shakllanadi. Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarda mahsuldorlik komponentlarni shakllantirishni qaror toptirish uchun pedagogik amaliyotlar sifati va samaradorligiga katta e’tibor qaratish lozim.

Shunday qilib, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda o‘qituvchining metodik kompetenligi masalasining bir qator jihatlari munozarali bo‘lib qolmoqda va maxsus tadqiqotlar o‘tkazishni, ayrim jihatlari esa o‘ziga xos rivojlantirishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая история парадигма результата современного образования // Интернет-журнал “Эйдос”. – 2016. http://www.eidos.ru/journal.htm. – С. 56-63

2. Muslimov N.A. va oshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 60 v.

3. Загривная Т.А. Исследовательская деятельность педагога как условие повышения качества образования. Человек и образование №3 (44) 2015. – С. 203-2007

4. Кудайкулов МЛ. Дидактические проблемы формирования основ профессионально-методических умений будущего учителя: Автор. ... дисс. уч. степени д-ра пед. наук. - Алма-Ата, 1975. - 48 с.

5. Мильруд Р.П. Коммуникативная компетенция как готовность учащихся к общению на иностранном языке. М.:2017. – 60 с

Mexriddin KUCHKAROV,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, “Kimyo” kafedrasi, dotsent, p.f.f.d. (PhD)
Vahob ERGASHEV,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, “Kimyo” kafedrasi, v.v.b. dotsent, p.f.f.d. (PhD)

KIMYO TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING KONSEPTUAL TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada kimyo ta’limi orqali o‘quvchilarning konseptual tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari tahliliy bayon etilgan. Unda konseptual tafakkurning mohiyati, uning o‘quv jarayonidagi roli va o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida kimyoviy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash, chuqur bilim hosil qilish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlariga urg‘u berilgan.

Tayanch so‘zlar. Konseptual tafakkur, kimyo ta’limi, ta’lim sifati, fanlararo integratsiya, muqobil tushuncha, xatolik, konseptual modellashtirish, tizimli fikrlash, diagnostika vositalari, konstruktivizm nazariyasi, didaktik sharoitlar.

В данной статье аналитически изложены педагогические основы формирования концептуального мышления учащихся через обучение химии. В ней раскрыта сущность концептуального мышления, его роль в учебном процессе и влияние на процесс усвоения знаний учащимися. Также акцентируется внимание на возможностях осмысления взаимосвязей между химическими понятиями, получения глубоких знаний и развития способности к самостоятельному мышлению на основе современных педагогических технологий.

Ключевые слова. Концептуальное мышление, обучение химии, качество образования, межпредметная интеграция, альтернативное представление, ошибка, концептуальное моделирование, системное мышление, диагностические средства, теория конструктивизма, дидактические условия.

This article provides an analytical exposition of the pedagogical foundations for developing students’ conceptual thinking through chemistry education. It highlights the essence of conceptual thinking, its role in the learning process, and its impact on students’ acquisition of knowledge. The article also emphasizes the opportunities created by modern pedagogical technologies for understanding the interrelation between chemical concepts, fostering deep knowledge, and developing independent thinking skills.

Key words. Conceptual thinking, chemistry education, quality of education, interdisciplinary integration, alternative concept, misconception, conceptual modeling, systemic thinking, diagnostic tools, constructivist theory, didactic conditions.

Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim olish jarayonida chuqur va asosli fikrlashga yo‘naltirilgan metodlarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, tabiiy fanlar, xususan, kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarning konseptual tafakkurini shakllantirish orqali ularning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.Konseptual tafakkur - bu o‘quvchining mavzularni yuzaki eslab qolishga emas, balki chuqur anglab, tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni

tushuna olishga asoslanadi.Ushbu tafakkur turi o‘quvchining fanlararo integratsiyalashgan bilimlar asosida fikr yuritish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, muammolarga yechim topishdagi faolligini oshiradi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda “konseptual tafakkur” atamasi ko‘pincha o‘quvchilarning nazariy tushunchalar (konseptlar), ularning munosabati, strukturasini tushunish va ularga muvofiq fikrlash qobiliyatlarini anglatuvchi kategoriya sifatida ishlatiladi. Kimyo ta’limida bu, o‘quvchilarning atom, molekula, reaksiyalar, energiya almashinuvi kabi tushunchalarni faqat yodlab emas, balki ular orasidagi munosabatlarni tushunib, yangi vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan tafakkurdir. So‘nggi yillarda kimyo ta’limida “tizimli fikrlash” va“konseptual modellashtirish” kontseptsiyalari keng o‘rganilmoqda. Ushbu yondashuv orqali o’quvchilarga konseptual bog‘lanishlarni ko‘rish, turli sistemalar orasidagi o‘zaro ta’sirni anglash, nazariy tushunchalarni eksperimental loyiha va gipotezalarga aylantirish ko‘nikmalari shakllantirilishi mumkin. Konseptual tafakkur va kimyoviy fikrlashni markaziy komponent sifatida belgilash ta’lim metodlarida strukturaviy yondashuvlarni mustahkamlaydi. Kimyo ta’limida konseptual tafakkurga qaratilgan tadqiqotlar so‘nggi yillarda ilgari surilgan bo‘lsa-da, konseptual tafakkur shakllanishining uzoq muddatli barqarorligi, o‘qituvchilarning konseptual yondashuv bo‘yicha tayyorgarligi, ularning metodik savodxonligi, o‘quvchilar tafakkurining barcha jihatlarini to‘liq aks ettiruvchi konseptual tafakkur darajasini aniqlash uchun ishlatiladigan diagnostik testlar, konsept xaritalari, ochiq savollar va kodlash sxemalari, motivatsiya, ilmiy qiziqish, metakognitsiya, til faktori kabi omillar konseptual tafakkurga qanday ta’sir qilishimasalalari yetarlicha o‘rganilmagan. Kimyo darslarida o‘quvchilarning konseptual tafakkurini shakllantirish – bu murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unga metodik vositalar (simulyatsiyalar, muammoga yechim strategiyalari, konsept xaritalar, eksperimentlar) va pedagogik yondashuvlar (diskussiya, savol-javob, refleksiya) zarur bo‘ladi. Shu bilan birga, uzoq muddatli effektlar, o‘qituvchilarning roli va baholash vositalarining bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazish zarurati mavjud.

Mazkur tadqiqotning metodologiyasi, avvalo, o‘quvchilarning konseptual tafakkurini kimyo darslari orqali shakllantirish jarayonini chuqur tahlil qilishga yo‘naltirilib, unda pedagogik jarayonning tabiati va o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini shakllantirish mexanizmlari induktiv yondashuv asosida o‘rganiladi, aniq kuzatishlar, amaliy tajribalar va muayyan holatlardan umumiy xulosalarga kelish asos qilib olinadi. Sifat va miqdoriy ma’lumotlarni uyg‘unlashtirish, konseptual tafakkurning shakllanishi va rivojlanishini kompleks yondashuv asosida tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.Kimyo fani o‘quvchilarni nafaqat fakt va formulalarni yodlab olishga, balki ularni tushunish, izohlash va yangi holatlarga tatbiq qilishga o‘rgatadigan fanlardan biridir. Bu jihati bilan kimyo konseptual tafakkurni shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Konseptual tafakkur o‘quvchining kimyoviy hodisalarni umumiy tushunchalar asosida tahlil qilishi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay olishi va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlay olishini anglatadi. Kimyo fanida “konseptual profil” yondashuvi ham mavjud bo‘lib, u fan sohasining o‘ziga xosliklarini hisobga olib, kimyoviy nazariyalar, modellar va tushunchalarni yagona tizimda birlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarning mavhum tushunchalarni real hayotiy misollar bilan bog‘lay olishini ta’minlaydi. O‘qituvchining vazifasi esa – o‘quvchilarni faktlardan konseptlarga, tajribalardan nazariy modellarga, modellar orasidagi bog‘lanishlarga olib chiqadigan o‘quv muhitini yaratishdan iborat. Konseptual tafakkurni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bular orasida konstruktivizm nazariyasi alohida

o‘rin tutadi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilar yangi tushunchalarni ilgari mavjud bilimlariga tayanib, faol ravishda o‘zlashtiradi. Kimyo o‘qituvchilari esa, o‘quvchilarning mavjud bilimlarini aniqlab, ularni yangi konseptlar bilan solishtirish, muhokama qilish va qayta ko‘rib chiqishga imkon yaratishlari zarur. Donald J.Wink o‘z tadqiqotlarida pedagogik va falsafiy konstruktivizmni bir-biriga aralashtirmaslik zarurligini, ularning metodologik farqlarini tushunish muhimligini qayd etadi. Yana bir muhim metodologik yondashuv - ilmiy tafakkurni shakllantirish yondashuvidir. I.V.Pavlova izlanishlariga ko‘ra, kimyo darslarida interaktiv uslublar, tahliliy mashg‘ulotlar, eksperimentlar va muammoli vaziyatlardan foydalanish o‘quvchilarning konseptual bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kimyo fanida konseptual tafakkurni shakllantirish uchun bir qator samarali pedagogik vositalar mavjud:

– model va visualizatsiyalar, kimyoviy hodisalar ko‘pincha mikrodarajada sodir bo‘lganligi sababli, ularni tasavvur qilish uchun model, animatsiya, diagramma va boshqa ko‘rgazmali vositalar zarur. Masalan, kristall panjara yoki molekulyar orbital modellari o‘quvchilarning konseptual tushunchasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi;

– konseptual konturlar va tarmoqlar, o‘qituvchi darsni boshlashdan avval asosiy tushunchalar o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatadigan “konseptual xarita” tuzishi mumkin. Bu orqali o‘quvchi bilimni gorizontal (tushunchalararo) va vertikal (oddiydan murakkabga) yo‘nalishda bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi;

– muammoli vaziyat va savol-javob uslubi, muammoli savollar va kognitiv inqiroz holatlari o‘quvchilarni yangi bilimlarni izlashga undaydi. Masalan, “Kimyoviy muvozanat buzilsa nima bo‘ladi?” kabi savollar fikrlashni rag‘batlantiradi. Shuningdek, ikki nuqtali savollar orqali o‘quvchilarning tushunchalari chuqurroq tahlil qilinadi;

– eksperiment, laboratoriya faoliyati va simulyatsiyalar, kimyo fanining amaliy yo‘nalishi uni eksperimentlar orqali o‘qitishni talab qiladi. Bu usullar o‘quvchilarda nazariyani amalda sinash, kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Simulyatsiyalar esa murakkab reaksiyalarni vizual ko‘rsatish imkonini beradi;

– fanlararo integratsiya va o‘quv loyihalari, kimyoni boshqa fanlar – matematika, biologiya, geografiya bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar mavzuni kengroq doirada tushunadi. Loyiha asosidagi yondashuvlar, tadqiqot ishlariga yo‘naltirilgan darslar o‘quvchilarda mustaqil izlanish, tahlil va tafakkur qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quvchilarda konseptual tafakkur shakllanayotganini aniqlash uchun an’anaviy testlardan tashqari diagnostik vositalardan foydalanish zarur. Bular jumlasiga ikki bosqichli savollar, ochiq tipdagi testlar, konsept xaritalari, tushunish diagrammalari va fikr yuritish jarayonini yozib borish kabi uslublar kiradi. Bunday baholash vositalari samarali bo‘lishi uchun konseptual tushunchalar aniq va izchil ta’riflangan bo‘lishi kerak. Konseptual tafakkurning shakllanishi o‘quvchilarning yoshi, ilgari o‘zlashtirgan bilimlari, qiziqish darajasi va motivatsiyasi bilan bevosita bog‘liq. O‘quvchilarga murakkab nazariy tushunchalarni birdan berish samarasiz bo‘lishi mumkin, shuning uchun bilimlar bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab joriy etilishi kerak. Bunda didaktik shart-sharoitlar – sinf hajmi, texnik ta’minot, laboratoriya jihozlari va kompyuter resurslarining mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kimyo ta’limida “konseptual tushuncha”ni ta’lim jarayonida faktik bilimlardan farqli ravishda bilimlar orasidagi struktura, sabab-oqibat munosabatlari, tushunchalarning tizimi va uzviyligi jihatdan tushunishni anglatadi. Kimyo ta’limidagi konseptual darajalarni o‘rganishda o‘quvchilar tomonidan ishlatiladigan asosiy tushunchalar va ularning

tushunish darajalarini aniqlashda muhim metodologik yondashuvlar talab etiladi. Konseptual tafakkurning shakllanishida yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar va muqobil tushunchalarni qo‘llash masalasiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Muqobil tushuncha – bu o‘quvchining muayyan ilmiy tushuncha yoki hodisa haqida ilmiy haqiqatga zid, lekin ichki mantiqqa ega bo‘lgan tushunchasidir. Bu tushunchalar o‘quvchining oldingi tajribasi, oddiy kuzatuvlar, kundalik atamalar, mahalliy til yoki noto‘g‘ri o‘rgatilgan bilimlar asosida shakllanadi. Muqobil tushuncha ham noto‘g‘ri, ammo o‘quvchi uchun “mantiqiy” bo‘lgan tushunchalardir.

Xatolik esa ko‘pincha tasodifiy, bexosdan yoki sust e’tibor tufayli yuz beradigan, mantiqqa ham ega bo’lmagan noto‘g‘ri javob yoki harakatdir. Xatolik – bu bilim emas, balki vaqtinchalik noto‘g‘ri amaliyot.

1-jadval.

Muqobil tushuncha va xatoliklar farqlari.

Ko‘rinishi	**Muqobil tushuncha**	**Xatolik**
Belgisi	Ilmiy haqiqatga zid, ammo ichki mantiqqa ega	Behosdan qilingan noto‘g‘ri amal yoki fikr
Kelib chiqishi	Ilgari shakllangan noto‘g‘ri tushuncha	E’tiborsizlik, charchoq, noaniqlik
Takroriyligi	Ko‘p hollarda bir xil vaziyatda takrorlanadi	Doimiy emas
Tuzatish usuli	Didaktik ish, kontrast misollar, tushuntirish	Eslatma, e’tiborni jamlash

2-jadval.

Muqobil tushunchalar va xatoliklarga doir misollar.

T/r	Vaziyat	Tushuncha turi	Izoh
1	“Kimyoviy reaksiyada modda yo‘q bo‘ladi yoki paydo bo‘ladi”	Muqobil tushuncha	O‘quvchi massa saqlanish qonunini tushunmagan, lekin ko‘z bilan ko‘rmagan gaz yoki eritmalarni “yo‘qoldi” deb o‘ylaydi.
2	“Atomlar reaksiyada yo‘q bo‘lib ketadi yoki yangi atom hosil bo‘ladi”	Muqobil tushuncha	Atomlar reaksiyada faqat qayta joylashishini anglamaslik - bu tushuncha noto‘g‘ri, lekin o‘quvchi uchun “mantiqiy” tuyuladi.
3	“Ion va atom bir xil narsa”	Muqobil tushuncha	Zaryadli va zaryadsiz zarracha farqini tushunmaslik - bu o‘quvchining noto‘g‘ri modelga asoslangan bilimidir.
4	“Tuzli suv – bu yangi kimyoviy modda”	Muqobil tushuncha	Kimyoviy aralashmalar va kimyoviy birikmalar orasidagi farq tushunilmagan – bu konseptual darajadagi xatolik.
5	“Energiya reaksiyada yo‘q bo‘ladi yoki iste’mol qilinadi”	Muqobil tushuncha	Energiya saqlanish qonuni buzilgan deb o‘ylash – bu o‘quvchi uchun mantiqli, chunki u issiqlikni ko‘rmaydi yoki “his qilmaydi”.
6	“Har qanday bog‘ bir xil bo‘lib, zarrachalarni bog’lab turadi”	Muqobil tushuncha	Ion va kovalent bog‘lar orasidagi farq tushunilmagan – makro va mikro tushunchalar o‘rtasida bog‘ yo‘q.

7	Kimyoviy tenglamani yozishda indeks yoki koeffitsiyentni chalkashtirib yozish	Xatolik	Oddiy e’tiborsizlik yoki mexanik xatolik bo‘lib, tushunchaning noto‘g‘riligidan emas, balki e’tibordan chetda qolgan detal natijasidir.
8	Laboratoriya tajribalarini bajarishda yoki masalalar yechishda bir son o’rniga boshqa sonni qo’llab ketish	Xatolik	E’tiborsizlik, bexosdan yozish yoki hisoblashda yo‘l qo‘yilgan xato, bu ilmiy qarash emas, balki vaqtinchalik noto‘g‘ri amal.

Muqobil tushuncha ilmiy jihatdan noto‘g‘ri, lekin o‘quvchining o‘z dunyoqarashi asosida mantiqan asoslangan tushunchasi hisoblanadi. Xatolik bu tasodifiy yoki mexanik noto‘g‘ri fikr yoki amal, doimiy tushunchaga asoslanmaydi.Ta’limda muqobil tushunchalarni aniqlash va bartaraf etish konseptual tafakkurni shakllantirishda markaziy vazifa bo‘lib qoladi. Muqobil tushuncha“bilim” sifatida shakllangan va o‘quvchi uchun ichki mantiqqa ega bo‘lib, uni to‘g‘rilash uchun faqat ma’lumot berish emas, balki tajribada ko‘rsatish, qarama-qarshi isbotlash, muhokama qilish talab qilinadi.Muqobil tushuncha noto‘g‘ri bilim zanjirini yaratadi va o‘quvchining keyingi tushunchalarini ham izdan chiqarishi mumkin. Xatolik esa vaqtinchalik bo‘lib, uni to‘g‘rilash nisbatan oson, oqibati ham jiddiy emas.

Kimyo ta’limida konseptual tafakkurni shakllantirish - o‘quvchilarning kimyoviy tushunchalar tizimini chuqur anglash, ularni o‘zaro bog‘liq holda fikrlash va real hayotdagi hodisalarga tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ushbu jarayon o‘qituvchining o‘quv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi, o‘quvchilarda nazariy bilimlarni mantiqan tahlil qilish, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishini talab etadi. Kimyo fanida bunday tafakkurni shakllantirish, avvalo, asosiy kimyoviy tushunchalar modda, atom, molekula, reaksiya, kimyoviy bog‘lanish, energiya, muvozanat kabi kategoriyalarni chuqur va tizimli o‘rganish orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim jarayonida konseptual tafakkurni rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

– konstruktivistik yondashuv, bunda o‘quvchilar yangi bilimlarni mavjud bilimlar asosida quradi, o‘qituvchi tayyor bilimni emas, balki muammo, kuzatuv yoki tajriba orqali bilimni mustaqil kashf etish sharoitini yaratadi;

– muammoli o‘qitish, kimyoviy hodisalar mohiyatini tahlil qilishda o‘quvchilarda savol tug‘diruvchi, fikrlashga undovchi vaziyatlar yaratish orqali mantiqiy izlanishni faollashtiradi;

– kontekstual ta’lim, kimyoviy tushunchalarni hayotiy, ekologik yoki texnologik kontekstda o‘rganish o‘quvchilarning bilimni real muhitda qo‘llash kompetensiyasini shakllantiradi;

– tajriba va kuzatuv asosidagi o‘qitish, konseptual fikrlashni shakllantirishda eksperimentlar markaziy o‘rin tutadi, chunki ular o‘quvchini natijani ko‘rishga, sababni izohlashga va xulosa chiqarishga o‘rgatadi;

– reflektiv faoliyat,o‘quvchining o‘z fikrlash jarayonini tahlil qilishi, xatolarni anglash va ularni tuzatish orqali o‘z bilimini ongli ravishda boshqarishiga imkon beradi.

Kimyo fanining o‘ziga xosligi shundaki, u nazariy tushunchalar, mikrodunyo modellarini amaliy tajribalar bilan bog‘lab o‘rganishni talab etadi. Shu sababli konseptual tafakkurni shakllantirishda modellashtirish, sxemalar va grafik tasvirlardan foydalanish,

virtual va reallaboratoriya tajribalari muhim ahamiyat kasb etadi.Pedagogik nuqtai nazardan, konseptual tafakkurni rivojlantirish o‘quvchilarning bilim olish faoliyati faol, tahliliy va ijodiy xarakter kasb etishi, o‘qituvchi tomonidan bilimlarning mantiqiy tizimi, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniq ko‘rsatilishi, o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning oldingi bilimlari va tajribasiga tayangan holda yangi tushunchalarning bosqichma-bosqich shakllantirilishi kabi shart-sharoitlar mavjud bo‘lgandagina samarali kechadi. Kimyo darslarida konseptual tafakkurni shakllantirish o‘quvchilarda ilmiy fikrlash madaniyatini tarbiyalash, ularni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va nazariy bilimni amaliyotga tatbiq eta olishga o‘rgatish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon faqat bilim berish emas, balki bilimni anglash va qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kimyo ta’limida o‘quvchilarning konseptual tafakkurini shakllantirish, ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadigan muhim pedagogik vazifadir. Konseptual tafakkur o‘quvchiga faqatgina fakt va formulalarni yodlab olish emas, balki ilmiy tushunchalar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni anglash, ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Konstruktivizm nazariyasi, tizimli fikrlash, konseptual modellashtirish, fanlararo integratsiya, diagnostik vositalar va innovatsion pedagogik texnologiyalar konseptual tafakkurni rivojlantirishning asosiy metodik poydevorini tashkil etadi. Shuningdek, muqobil tushunchalarni aniqlash va bartaraf etish, xatoliklarni to‘g‘rilash, o‘quvchilarni mantiqiy va tanqidiy tafakkurga yo‘naltirish konseptual bilimlarni mustahkamlashda alohida o‘rin tutadi.

Shu nuqtayi nazardan, kimyo darslarida konseptual tafakkurni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlar o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish hamda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Freire M., Talanquer V., Amaral E.Conceptual profile of chemistry: a framework for enriching thinking and action in chemistry education. International Journal of Science Education, 2019. 41(5), 674692.

2. Weinrich M. L., Talanquer V. Mapping students’ conceptual modes when thinking about chemical reactions used to make a desired product. Chemistry Education Research and Practice, 2015. 16, 561577.

3. Khunpeng C., Pratoomtong W. Effects of Chemistry Teaching Emphasizing Conceptual Development with Polya’s Technique on AcidBase for Eleventh Grade Students. Journal of Education Rajabhat Maha Sarakham University, 2022. 19(1), 239252.

4. ПавловаИ.В. Методические подходы к развитию научного мышления школьников при изучении химии. ЦИТИСЭ, 2022 №2б -32.

5. Taber K.S. An alternative conceptual framework from chemistry education. International Journal of Science Education, 1998. 20(5), 597608.

6. Donald J. Wink. J. Using the Activity Model of Inquiry to Enhance General Chemistry Students’ Understanding of Nature of Science. Chem. Educ., 2011, 88, 1041-1047.

7. Harrison, Allan G. Conceptual change in secondary chemistry: the role of multiple analogical models of atoms and molecules. PhD Thesis, Curtin University, espace.curtin.edu.au. 1996. -200.

Vahobjon RAJAPOV,
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

SINF RAHBARINING O‘SMIR QIZLARDA MA’NAVIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Annotatsiya

Maqolada sinf rahbarining roli o‘smir qizlar shaxsiga, sinf jamoasiga ko‘rsatiladigan tashqi ta’sirlarni boshqarish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ma’naviy dunyoqarashni tarbiyalashning tarkibiy qismlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Ma’naviy dunyoqarash, intellektual, qadriyatlar, axloqiy ideallar, tamoyillar, xulq-atvor normalari, emotsional.

В статье рассматривается роль классного руководителя в управлении внешними воздействиями на личность девочек-подростков и классный коллектив. Также освещены составные части воспитания духовного мировоззрения.

Ключевые слова. Духовное мировоззрение, интеллектуальное, ценности, нравственные идеалы, принципы, нормы поведения, эмоциональное.

The article discusses the role of the class teacher in managing external influences on the personality of adolescent girls and the class collective. Also, the components of the upbringing of a spiritual worldview are highlighted.

Key words. Spiritual worldview, intellectual, values, moral ideals, principles, norms of behavior, emotional.

Har bir xalq, millat o‘zining kelajagini qurar ekan, bir masalaga ya’ni yoshlarning ma’naviyati, jismoniy kamoloti, salomatligi, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Shuning uchun ham bugun mamlakatimiz Prezidenti tomonidan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning dunyoqarashini boyitish maqsadida beshta tashabbus bugungi hayotimizga tadbiq qilinmoqda. Prezidentimizning besh tashabbusni mamlakatimizda yashayotgan barcha aholi, jumladan, yoshlarning ma’naviyatini boyitish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda dasturil amal hisoblanadi. Yoshlar haqida so‘z yuritganda, oliy ta’lim muassasalarining talaba-yoshlari ular ichida eng faol yoshlar hisoblanadi. Talaba yoshlar jamiyatning kelgusi hayotidagi islohotlar bunyodkori, rivojlanish yo‘nalishlari darajasini belgilab beruvchi kuch. Shuning uchun bugungi talaba-yoshlar har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagan, jismonan baquvvat va barkamol bo‘lishlari nihoyatda muhimdir.

Sinf rahbarining roli o‘smir qizlar shaxsiga, sinf jamoasiga ko‘rsatiladigan tashqi ta’sirlarni boshqarishdan iborat. Boshqarish – bu ta’sirlarning borishini yo‘naltirish, ularni ko‘rsatayotganlarning harakatlarini boshqarish deganidir.

“Tashqi ta’sirlar tarbiyaviy ishlar, jamoaviy ijodiy ishlar, o‘smir qizlar bilan individual ishlar jarayonida amalga oshiriladi. Tashqi ta’sirlar tizimi chuqur fanlararo aloqalar, ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligi bilan ta’minlanadi, maktabda va undan tashqarida amalga oshiriladi. Tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘smir qizlarda axloqiy, ijtimoiy qadriyatli xulq-atvorni rag‘batlantirish san’ati, ya’ni ularda “yaxshi bo‘lish” istagini tarbiyalashdir”, – deb ta’kidlaydi V. P. Sozonov.

Tarbiya – bu tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi juda nozik, begona ko‘zga ko‘rinmaydigan ma’naviy o‘zaro ta’sir jarayonidir. Bu qalb aloqasi rivojlanmagan, qo‘pol,

beparvo odamga tushunarsiz. Axloqsiz, mas'uliyatsiz, mehribon bo'lmagan odam tarbiyalay olmaydi. Tarbiyachi aniq ijtimoiy qabul qilinadigan qadriyatlarga ega bo'lishi, ichki erkin, rivojlangan o'z qadr-qimmatini his qiladigan bo'lishi kerak. Chunki, aslida, tarbiya – bu tarbiyachining o'zini, o'z qadriyatlari va munosabatlarini, o'z hayot tarzini tarbiyalanuvchiga o'tkazishidir, bunda taqlid, ishontirish, yuqtirish mexanizmlari "ishlaydi".

Sinf rahbari ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish rejasida ustuvor tarbiyaviy ish shakllarini belgilar ekan, o'qituvchi va o'smir qizlarning sinfdan tashqari faoliyatini, muloqotini qamrab oluvchi individual shakllardan foydalanishi mumkin. Bular: "suhbat, dildan suhbat, maslahat, birgalikda topshiriqni bajarish, muammoning yechimini birgalikda izlash va hokazo. Sinf rahbari oldida turgan eng muhim vazifa, individual shakllardan foydalanib, o'smir qizni anglash, uning iste'dodlarini ochish, uning xarakteriga, intilishlariga xos bo'lgan barcha qimmatli narsalarni aniqlashdir".

Guruhli ish shakllariga ijodiy guruhlar (vaqtinchalik ham, doimiy ham), o'zini o'zi boshqarish organlari, ishlar kengashlari va boshqalarni kiritish mumkin. Bu yerda o'qituvchi guruhning teng huquqli a'zosi yoki maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Asosiy vazifa – "yo'nalish berish", o'smir qizlarga o'zlarini ko'rsatishlariga yordam berish. Jamoaviy shakllarga turli xil spektakllar, tanlovlar, madaniy yurishlar (sayyohlik yurishlari), tashviqot guruhlarining chiqishlari, xayriya aksiyalari, birdamlik yarmarkalari va boshqalar kiradi.

Hodisa – bu muayyan ahamiyatga ega, o'z-o'zidan paydo bo'lgan yoki maxsus qurilgan vaziyat bo'lib, u ishtirokchilarga o'ziga xos psixologik burilish, mavjud hayot tajribasidan tashqariga chiqishni ta'minlaydi. Birgalikdagi hodisa uning ishtirokchilarining ma'naviy dunyolarining uchrashuvi sifatida sodir bo'ladi, bu ularni ma'lum bir makonda qadriyat-ma'no va hissiy jihatdan birlashtiradi va hodisaning yaxlitligiga kirishish tajribasiga jalb qiladi.

Marosimlar – ijtimoiy xulq-atvorni tashkil etishning ijtimoiy-normativ shakli sifatida shaxsga, atributga, hodisaga yoki voqelikka nisbatan kerakli (ijtimoiy zarur) munosabatni namoyish etishga qaratilgan. Shu sababli, ular muayyan etalon namunalari bo'yicha o'zlashtiriladi va takrorlanadi. To'g'ri bajarilgan marosimlar insonga katta estetik ta'sir ko'rsatadi.

Bayram – birgalikdagi harakatlarni tashkil etishning madaniy-estetik shakli sifatida ijtimoiy hayotning dinamikasi va ritmidan kelib chiqadi. U doimo jamoaviy xarakterga ega, odamlar o'rtasida ma'naviy aloqalar, umumiy ideal intilishlar mavjud bo'lgan joyda paydo bo'ladi. Bu o'smir qizlarning o'ziga xos ijtimoiy muloqot tajribasini o'taydigan alohida hayotiy vaziyatidir. Bayram faol o'z-o'zini ifodalash, ijodiy o'z-o'zini tasdiqlash imkoniyatini beradi.

Tarbiyaviy ishlar – har bir ishtirokchining bu jarayonga ijobiy motivasiyalangan holda kirishishini talab qiladi. Vazifalar va mas'uliyat me'yorining aniq taqsimlanishi sinf rahbarlari va o'smir qizlarning yuqori darajadagi ijodiy erkinligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bu ishlar ularning ishtirokchilarining umumiy manfaatlari va ehtiyojlariga asoslanadi. Odatda jamoa hayoti uchun muhim bo'lgan muammoni hal qilishga qaratilgan va uni tashkil etish va o'tkazish uchun maxsus tayyorgarlikni, birgalikdagi sa'y-harakatlarni, shuningdek, umumiy xulosa chiqarishni talab qiladi.

Asosiy ishlar – asosiy umummaktab ishlari bo'lib, ular orqali sa'y-harakatlarni birlashtirish va jamoaga va o'smir qizlar shaxsiga yaxlit ta'sir ko'rsatishga harakat qilinadi.

Sinf bilan ishlash haqida gapirar ekanmiz, bu yerda sinf rahbarlari, o'smir qizlar va ota-onalarning birgalikdagi muhokamasida u yoki bu ish shaklini aniqlash an'anasi

shakllanishi juda muhimdir. Yangi ish shakllarini izlash va yaratish allaqachon yaxshi ma’lum bo‘lgan, yangi mazmun bilan to‘ldirilgan shakllardan kelib chiqishi yoki asos sifatida qandaydir mazmunli g‘oya olinib, unga kerakli shakl tanlanishi mumkin.

Ba’zi ish shakllarini batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Suhbat – bu ko‘proq noan’anaviy muhitda o‘tkaziladigan dildan suhbat. U yoki bu muammolar bo‘yicha suhbatni rejalashtirar ekan, sinf rahbari suhbat quriladigan savollarni o‘ylab topishi, o‘smir qizlarga kerakli manbalarni, ular o‘ylab ko‘rishi kerak bo‘lgan bir qator asosiy muammolarni, ehtimol guruhli topshiriqlarni, shuningdek, suhbat o‘tkaziladigan xonaning intererini ko‘rsatishi kerak. Suhbat hayotdan uzoqlashmasligi, o‘smir qizlarga taqdim etiladigan barcha materiallar taniqli odamlarning hayotidagi haqiqiy faktlarga yoki atrof-muhitdagi voqelik materialiga asoslanishi kerak. Bundan tashqari, sinf rahbari muhokama qilinayotgan muammo bilan bog‘liq holda sinfdagi mavjud ishlar holatini tahlil qilishi, o‘smir qizlarning u yoki bu sifatlarini yoki sinfdagi vaziyatni aniqlash uchun maxsus metodika va diagnostikadan foydalanishi kerak.

O‘smir qizlarda axloqiy materialni idrok etish va o‘zlashtirishga qiziqishni uyg‘otish uchun T.A.Stefanovskaya quyidagi usullardan foydalanishni taklif qiladi:

a) o‘smir qizlarga suhbat mavzusi bo‘lgan axloqiy tushunchaning mohiyatini aniqlash bilan bog‘liq savollar berish (mehribonlik nima? odob nima? va hokazo);

b) suhbat mavzusini e’lon qilishdan oldin, belgilangan mavzuga aloqador bo‘lgan biror bir muhim fakt yoki voqea haqida gapirib berish kerak;

v) mavzuni e’lon qilishdan oldin, sinf hayotidan shunday hodisani eslash kerakki, u tegishli axloqiy normani chuqurroq ochib berish va anglash zaruratini asoslashga imkon beradi;

g) mavzuni e’lon qilgandan so‘ng, unga alohida ahamiyat berishga va uning ahamiyatini mazmunli ibora yoki aforizm yordamida ta’kidlashga harakat qilish kerak.

Axloqiy materialni bayon qilish metodikasi savol-javob shaklini, o‘qituvchining hikoyasi va tushuntirishini, o‘smir qizlarning alohida masalalar bo‘yicha qisqacha ma’ruzalarini, kitoblardan, gazeta va jurnal maqolalaridan parchalar o‘qishni, san’at asarlaridan foydalanishni va hokazolarni o‘z ichiga olishi mumkin. Ammo asosiy rol hamon o‘qituvchida, u suhbatning borishini kerakli yo‘nalishga yo‘naltiradi, asosiy xulosalarni shakllantirishga va to‘g‘ri xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Kitob bilan ishlash – zamonaviy o‘smir kitob bilan yolg‘iz holda minimal vaqt o‘tkazishini hisobga olsak, bu ancha murakkab usul. Demak, sinf rahbari shunday asarlarni yoki ulardan parchalarni tanlashi kerakki, bolalar qiziqib qolishlari va butun kitobni boshidan oxirigacha o‘qishga “intilishlari” kerak. Bu ish hukmlar, e’tiqodlarni shakllantirishga qaratilgan.

Mashq – bu usul uchun turli rolli o‘yinlardan foydalanish mumkin, bunda o‘smir qizlar tanlov oldida qo‘yiladi: yaxshi-yomon; mumkin-mumkin emas va hokazo. Bunday mashqlarni ko‘p marta bajarishda (rollarni o‘zgartirish, vaziyatni biroz o‘zgartirish bilan) biror bir hodisa yoki shaxsga nisbatan aniq pozitsiya ishlab chiqiladi va hokazo.

Shu yerda o‘smir qizlarga tarbiyaviy vaziyatlar deb ataladigan vaziyatlarni taklif qilish mumkin, ular shaxsning rivojlanish darajasini, “odamlar o‘rtasida shakllangan munosabatlarni” ko‘rish imkonini beradigan, “demak, ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va tuzatilishi jarayoniga ongli, maqsadli ta’sir ko‘rsatadigan” ma’lum bir holatlar majmuasini ifodalaydi.

Sinf rahbarining o‘smir qizlarda ma’naviy dunyoqarashni shakllantirishdagi roli yana shundaki, o‘smir qizlarni bunday vaziyatlarga jalb qilish ularga turli jamoalarda bo‘lish

tajribasini to‘plash imkonini beradi, bu esa o‘smir qizlarga turli guruhlar va jamoalarda samarali harakat qilish va muloqot qilish imkonini beradi. Asosiysi – refleksiya, o‘zini boshqa odamning o‘rniga qo‘yish qobiliyati, vaziyatni aqlan ko‘rish va prognoz qilish. O‘zini boshqaning o‘rniga qo‘yish, uning uchun eng maqbul qarorlarni qabul qilish qobiliyati – bu ish shaklining asosiy vazifasidir.

Topshiriq – o‘smir qizning toblanganligini tekshirish usuli. Topshiriq turli vaziyatlarda berilishi mumkin, vaziyatga bog‘liq. Aynan topshiriq yordamida o‘smir qizning mas’uliyat darajasi qanday ekanligini, uning jamoaning haqiqiy a’zosi ekanligini tekshirish mumkin.

Namuna – ma’lumki, o‘qituvchining shaxsiy namunasi o‘smir qizlarning ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omildir. Sinf soatida chekishning zarari haqida gapirib, tanaffusda boshqalar bilan birga maktab burchagida chekishi qabul qilib bo‘lmas holatdir. Shuning uchun o‘qituvchi har doim o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishi kerak, u “ommaviy” odam ekanligini yodda tutishi kerak.

Musobaqa – bizning fikrimizcha, bu ish usuli uzoq vaqt davomida nohaq unutilgan. Vaholanki, musobaqa sog‘lom raqobatni keltirib chiqaradi (agar maqsad to‘g‘ri qo‘yilgan bo‘lsa), kuch va g‘alabaga ishonch bag‘ishlaydi. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida bu juda dolzarb.

Munozara – bu shakldan foydalanish o‘smir qizlarning hayotimizdagi muhim voqea va hodisalarga nisbatan faolligi va ijodiy munosabatini tarbiyalashga yordam beradi. Munozara davomida o‘smir qizlar fikr almashishni, to‘g‘ri pozitsiyani himoya qilishni, noto‘g‘ri qarashlarga qarshi ochiq kurashishni o‘rganishlari muhim, bu esa prinsipiallik, e’tiqodning mustahkamligini shakllantiradi, – deb ta’kidlaydi olima. Munozaralar g‘oyaviy-siyosiy, estetik yo‘nalishga, shuningdek, ma’naviy dunyoqarash masalalariga qaratilgan yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Munozara mavzusini o‘smir qizlar bilan oldindan muhokama qilish, muammoli bo‘lgan qiziq savollarni o‘ylab topish kerak.

Sinf rahbari uchun o‘smir qizlarning ko‘tarilgan muammoni muhokama qilishda jonli qiziqishi muhitini yaratish muhim. Bu har qanday munozarani tayyorlashning juda muhim shartidir – o‘smir qizlar bilan ishni shunday tashkil etish kerakki, ularning o‘z fikrlarini ochiq muhokama qilish jarayonida nima deyishlari va nimani himoya qilishlari bo‘lsin. Hatto munozarada ishtirok etishning o‘zi ham o‘smir qizlarga ma’naviy dunyoqarashga oid bilimlarini to‘ldirish va tizimlashtirish, shakllangan qarashlarni mustahkamlash yoki rad etish, pozitsiyalarni himoya qilish imkoniyatini beradi.

Ma’rifiy funksiyaning mohiyati shundaki, sinf soati o‘smir qizlarning o‘quv dasturlarida aks ettirilmagan bilimlari doirasini kengaytirish imkoniyatini beradi. Bu bilimlar shaharda, mamlakatda va xorijda sodir bo‘layotgan voqyealar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Sinf soatining muhokama obyekti har qanday hodisa yoki voqea bo‘lishi mumkin.

Yo‘naltiruvchi funksiya o‘smir qizlarda atrof-muhit ob’ektlariga nisbatan muayyan munosabatni shakllantirishga va moddiy va ma’naviy qadriyatlar ierarxiyasini ishlab chiqishga hamda atrof-muhitda sodir bo‘layotgan hodisalarni baholashga yordam beradi. Ma’rifiy va yo‘naltiruvchi funksiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq, chunki o‘smir qizlarga ular tanish bo‘lmagan hodisalarni baholashni o‘rgatib bo‘lmaydi. Garchi ba’zida sinf soati keng ma’lum bo‘lgan hodisani muhokama qilishda faqat yo‘naltiruvchi funksiyani bajaradi.

Boshqaruvchi funksiya u yoki bu hodisani muhokama qilishni o‘smir qizlarning haqiqiy tajribasi doirasiga o‘tkazishga qaratilgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha funksiyalarni shakllantiruvchi funksiya amalga oshiradi,

u o‘smir qizlarda o‘z xatti-harakatlari va o‘zlarini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantiradi, muloqotni mohirona olib borish va fikr bildirish, o‘z fikrini himoya qilish qobiliyatini ishlab chiqishga yordam beradi.

Sinf soatlarining tipologiyasi haqida gapirar ekan, tadqiqotchi ko‘p narsa o‘smir qizlar faoliyatining xarakteriga, ularning mustaqilligi, faolligi darajasiga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Birinchi turga shunday sinf soatlari kiradiki, ularga tayyorgarlik ko‘rish keng bilimlarni, hayotiy va pedagogik tajribani talab qiladi. O‘smir qizlar faqat suhbat davomida biror bir masalani muhokama qilishga, faktlarni bayon etishga jalb qilinadi. Ushbu turdagi ba’zi sinf soatlarini yurist, psixolog, shifokor va boshqalarni taklif qilgan holda o‘tkazish maqsadga muvofiqdir (“O‘z-o‘zini tarbiyalash haqida”, “Qalb tarbiyasi”, “Badiiy did va moda”, “Yoshlar modasi. U qanday?” va hokazo).

Ikkinchi turdagi sinf soatlari sinf rahbarlari va o‘smir qizlarning birgalikdagi faoliyati bilan tavsiflanadi. Asosiy g‘oyani aniqlash sinf rahbariga tegishli, yo‘llarni, usullarni ishlab chiqish esa bolalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. O‘smir qizlar sinf soatining fragmentlarini (sahnalashtirishlar, musiqiy parchalar, she’riy parchalar) tayyorlashlari mumkin (“Tashqi ko‘rinish madaniyati haqida”, “Do‘stlik va sevgi”, “Go‘zallik nima?”, “Butun yerda yaxshilik qil” va hokazo).

Uchinchi turdagi sinf soatlari o‘smir qizlarning o‘zlarining faol mustaqil ishini nazarda tutadi. Vaqtinchalik ijodiy guruh sinf soatini tayyorlash va o‘tkazish uchun javobgar bo‘ladi. Sinf rahbari faqat g‘oyani o‘ylab topadi, uni o‘smir qizlar bilan muhokama qilishni taklif qiladi, ular bilan birgalikda umumiy kompozitsiyani yaratadi. Sinf soatini ham o‘smir qizlarning o‘zlari olib boradilar, o‘qituvchi esa faqat ularni yo‘naltiradi.

Shunday qilib, sinf soatlarining mazmuni shunday tuzilishi kerakki, asta-sekin “predmetli” axborotdan uni baholashga, umumiy baholardan – batafsil mulohazalarga o‘tish kerak. Qo‘yilgan savollarni muhokama qilish jarayonida sinf rahbari o‘smir qizlarning chiqishlariga juda e’tiborli bo‘lishi, kerakli tuzatishlar kiritishi, qo‘shimcha savollar berishi, muhim jihatlarga e’tibor qaratishi, bolalar bilan birga fikr yuritishi va ularga axloqiy muammoning to‘g‘ri yechimlarini topishga yordam berishi kerak. O‘smir qizlarning materialni idrok etishning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, diqqatni kuzatib borish va u pasayganda mazmunli materialdan foydalanish yoki “o‘tkir” savol berish, musiqiy pauzadan foydalanish, faoliyat turini o‘zgartirish va hokazolar zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov M., Daminov I., Bozorov O., Akramova Sh. Milliy tarbiya va yoshlar. –T.: “Kamalak”. 2016. – B. 92.

2. Hamidov J.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi // Ped. fan. bo‘y. dok. diss (DSc).– T., 2017. – B. 259.

3. Hasanboev J., To‘raqulov X.A., Ravshanov O. A., Kushvaqtov N.X. Milliy pedagogikamiz tarixiy ildizlari va barkamol a vlod tarbiyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Jizzax.: 2007. – B. 116

4. Jamoliddinova O.R. Yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Avtoref. ...ped. fan. dok. – T., 2015. – B. 83.

7. Juraeva Z. Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda oilaning o‘rni.. Academik Resarch, Uzbekistan.2021. -915. www.ares/uz/.

Dildora TURSUNOVA,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

GOSPITAL TA'LIM: BOLANING TIKLANISHIDA PEDAGOG, SHIFOKOR VA OTA-ONA HAMKORLIGI

Annotatsiya

Maqolada onkologik kasalliklar bilan uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun gospital ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda pedagoglar, shifokorlar va ota-onalarning o'zaro hamkorligi masalasini tahlil qiladi. Shuningdek, bu hamkorlikning asosiy tamoyillari, har bir tomonning o'rni va vazifalari, ma'ruzada O'zbekistonlik pedagoglar tajribasi va xalqaro tajriba tahlil qilingan. Lev Vigotskiy, Benjamin Blum, Karl Rojers kabi olimlarning fikrlariga asoslanib, samarali hamkorlik mexanizmlari, jumladan, muntazam uchrashuvlar, axborot almashinuvi, ta'lim dasturini birgalikda rejalashtirish va malaka oshirish treninglarini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar. Gospital ta'lim, onkologik kasalliklar, pedagogik hamkorlik, masofaviy ta'lim, integrativ ta'lim, raqamli texnologiyalar, psixologik qo'llab-quvvatlash, tizimli yondashuv.

В статье анализируется вопрос взаимодействия педагогов, врачей и родителей в повышении эффективности системы госпитального образования для детей, проходящих длительное лечение онкологическими заболеваниями. Также были проанализированы основные принципы этого сотрудничества, роль и задачи каждой стороны, опыт узбекских педагогов и международный опыт. Основываясь на мнениях таких ученых, как Лев Выготский, Бенджамин Блум, Карл Роджерс, даны практические рекомендации по эффективным механизмам сотрудничества, включая регулярные встречи, обмен информацией, совместное планирование образовательной программы и организацию тренингов по повышению квалификации.

Ключевые слова. Госпитальное образование, онкологические заболевания, педагогическое сотрудничество, дистанционное обучение, интегративное образование, цифровые технологии, психологическая поддержка, системный подход.

The article analyzes the issue of interaction between teachers, doctors, and parents in improving the effectiveness of the hospital education system for children undergoing long-term treatment for oncological diseases. The main principles of this cooperation, the role and tasks of each side, the experience of Uzbek teachers and international experience were also analyzed. Based on the opinions of such scientists as Lev Vygotsky, Benjamin Bloom, and Carl Rogers, practical recommendations were given on effective mechanisms for cooperation, including regular meetings, information exchange, joint planning of educational programs, and organization of advanced training sessions.

Key words. Hospital education, oncological diseases, pedagogical cooperation, distance learning, integrative education, digital technologies, psychological support, and a systematic approach.

Uzoq muddatli kasalliklar, xususan, onkologik xastaliklar bilan kurashayotgan bolalar uchun ta'limni uzluksiz davom ettirish – nafaqat akademik ehtiyoj, balki psixologik qo'llab-quvvatlashning muhim shaklidir. Gospital ta'lim – aynan shu maqsadga xizmat qiladigan tizim bo'lib, u bolalarning kasalxona sharoitida bilim olishini, ijtimoiy muloqotdan uzilib qolmasligini va hayotga bo'lgan ishonchini saqlab qolishini ta'minlaydi.

Uzoq muddat onkologik kasalliklar bilan kurashayotgan bolalar uchun ta'lim jarayoni

nafaqat bilim olish, balki ularning psixologik va ijtimoiy tiklanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu murakkab jarayonda muvaffaqiyatga erishish uchun faqat bitta mutaxassisning sa’y-harakatlari yetarli emas. Gospital ta’lim, aslida, barcha manfaatdor tomonlar: pedagoglar, shifokorlar, hamshiralar va ota-onalar o‘rtasidagi samarali va uzluksiz hamkorlikka asoslanadi. Bu maqolada aynan shu hamkorlikning ahamiyati va uni amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi.

Erik Eriksonning fikricha, “Bolaning eng asosiy ehtiyojlaridan biri – bu o‘zining kimligini va jamiyatda qanday o‘rin tutishini anglashdir. Kasallik tufayli yuzaga keladigan ijtimoiy izolyatsiya bu jarayonga to‘siq bo‘lishi mumkin.”

Erik Eriksonning rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalikning har bir bosqichida u o‘ziga xos psixologik inqirozni yengib o‘tadi. Gospitalda yotgan bola uchun bu inqiroz, ayniqsa, kuchli bo‘ladi, chunki u ijtimoiy aloqalardan uzilib qoladi. Gospital ta’lim bu izolyatsiyani yengishga, bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini va ijtimoiy bog‘liqlik hissini saqlab qolishga yordam beradi.

Kohlberg Lawrence ta’kidlaganidek, “Ma’naviy rivojlanish – bu to‘g‘ri va noto‘g‘ri tushunchalarni o‘zlashtirishdan tashqari, shaxsning o‘z hayotini nazorat qila olishiga bo‘lgan ishonchidir”. Gospital ta’limdagi bolalar ko‘pincha o‘z hayotini nazorat qila olmayotgandek his qilishadi. Davolanish rejimi, kasalxona qoidalari va jismoniy cheklovlar ularning erkinligini cheklaydi. Ta’lim jarayonida ularga o‘z o‘quv rejasini tanlash, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish kabi imkoniyatlarni berish ularning o‘z hayotini boshqara olishiga bo‘lgan ishonchini qaytaradi. Bu esa o‘z navbatida, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlaydi.

Gospital ta’lim, uzoq muddat onkologik kasalliklar bilan kurashayotgan bolalar uchun faqat akademik bilim berish emas, balki ularning psixologik va ijtimoiy tiklanishiga ko‘maklashishdir. Bu murakkab va nozik jarayonda muvaffaqiyatga erishish uchun bir necha tomonlarning birgalikdagi, muvofiqlashtirilgan harakatlari juda muhim. Pedagog, shifokor va ota-onaning har birining o‘ziga xos o‘rni va vazifasi bor, ammo ularning umumiy maqsadi bitta: bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash va uning psixologik holatini yaxshilash.

Ota-ona bu jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. Ular kasalxona va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi asosiy bog‘lovchi, ya’ni ko‘prik vazifasini bajaradi. Ota-onalar farzandining kasallik holati, kayfiyati va ehtiyojlari haqida eng to‘liq ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslardir. Ular farzandining darslarga bo‘lgan munosabati va ularni rag‘batlantirish yo‘llarini juda yaxshi bilishadi.

Psixolog Karl Rojers aytganidek, “Qo‘llab-quvvatlash – bu shunchaki so‘z emas, balki harakat va pedagogik amaliyotdir.” Bu fikr aynan ota-onalarga tegishli. Ularning bolaga doimiy ma’naviy ko‘mak berishi, darslarga qiziqtirishi va ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi bolaning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Ota-onalar pedagog va shifokorlar bilan muntazam aloqada bo‘lishi, har bir yangilik va o‘zgarishdan xabardor bo‘lishi lozim. Ular o‘qituvchiga bolaning hozirgi holati haqida axborot berish orqali dars jarayonini yanada samaraliroq qilishga yordam berishadi.

Onkogematologik bo‘limlarda ishlovchi shifokor va hamshiralar gospital ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilaridandir. Ular bolaning kunlik sog‘liq holatini, davolanish jadvalini va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan cheklovlarni (charchoq, og‘riq, dori ta’siri) to‘liq bilishadi. Ularning beradigan ma’lumotlari pedagog uchun ta’lim jarayonini to‘g‘ri rejalashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta’lim psixologi Benjamin Blum ta’limda individual yondashuv muhimligini ta’kid-

lab, “Eng samarali ta’lim – bu o‘quvchining bugungi holatiga moslashgan ta’limdir,” deb aytgan. Shifokor va hamshiralar pedagogga bolaning jismoniy holati haqida aniq ma’lumot berish orqali ushbu tamoyilni amalga oshirishga yordam beradi. Masalan, “Bugun darsni qisqartirish kerak” yoki “Bola yaxshi his qilyapti, darslarni davom ettirish mumkin” kabi tavsiyalar asosida pedagog o‘quv jarayonini o‘zgartira oladi. Bu bolaning sog‘lig‘iga zarar yetkazmagan holda ta’limni davom ettirishga imkon beradi.

Gospital pedagog faqatgina bilim beruvchi shaxs emas, balki bolaning ruhiyatini tushunadigan, unga umid beradigan psixolog hamdir. U shifokor va ota-onadan olingan ma’lumotlarni inobatga olgan holda darslarni tashkil qiladi. Uning vazifasi shunchaki mavzuni tushuntirishdan iborat emas.

Pedagogika sohasining yetuk namoyandasi Mariya Montessorining fikricha, “O‘qituvchi – bu shunchaki bilim ulashuvchi emas, balki bolaning hayoti qiyinchiliklarga to‘la bo‘lganda ham uning umidini yoquvchi inson.” Pedagogning gospital sharoitdagi asosiy vazifasi bolaning o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndirmaslik, hatto qiyin sharoitlarda ham uning kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlashdir. Bu esa o‘z navbatida, Lev Vigotskiy aytganidek, “Bilimga bo‘lgan ishtiyoq – bu kasallik bilan kurashishdagi eng kuchli quroldir,” degan g‘oyani amalga oshiradi. Pedagog darslarni qiziqarli va ijodiy tarzda tashkil etish orqali bolani ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi, bu esa uning tiklanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Gospital ta’limning muvaffaqiyati nafaqat alohida mutaxassislarning mahoratiga, balki ularning birgalikdagi, muvofiqlashtirilgan harakatlariga bog‘liq. Onkogematologik kasallikka chalingan bolaning ta’lim olish jarayonida pedagog, shifokor va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta’minlash uchun quyidagi mexanizmlar juda muhimdir.

Muntazam uchrashuvlar. Pedagog, shifokor va ota-onalar o‘rtasida muntazam uchrashuvlar tashkil qilish – bu eng asosiy va muhim qadamdir. Bunday uchrashuvlar har hafta, hatto tez-tez zarur bo‘lganda, o‘tkazilishi lozim. Bu uchrashuvlarda bolaning akademik yutuqlari, o‘zlashtirishi, shuningdek, uning ruhiy holati, kayfiyati va davolanish jarayonining unga ta’siri muhokama qilinadi. Shifokor bolaning salomatligi bo‘yicha so‘nggi ma’lumotlarni beradi, ota-ona bolaning kasalxona tashqarisidagi kayfiyati haqida aytib beradi, pedagog esa ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklarni tahlil qiladi. Bunday ochiq muloqot barcha tomonlarga birgalikda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga imkon beradi, bu esa bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Axborot almashinuvi. Samarali hamkorlikning asosi – uzluksiz axborot almashinuvidir. Bolaning salomatligi va ta’lim jarayoni bo‘yicha maxsus yozma yoki elektron jurnal yuritish bu jarayonni tartibga soladi. Bu jurnalda har bir tomon bolaning holati, uning darslarga qatnashishi, o‘zlashtirishi, davolanish jadvalidagi o‘zgarishlar va hatto uning kayfiyatidagi o‘zgarishlar haqida qaydlar qoldirishi mumkin. Masalan, hamshira bolaning darsdan oldin o‘zini qanday his qilgani, pedagog esa darsdagi faolligi haqida ma’lumot yozadi. Bu jurnal barcha tomonlar uchun yagona ma’lumot bazasi vazifasini o‘taydi va har bir inson bolaning holatidan to‘liq xabardor bo‘lishini ta’minlaydi.

Birgalikda reja tuzish. Gospital ta’limdagi eng muhim yondashuvlardan biri – bu ta’lim dasturini birgalikda rejalashtirishdir. Pedagog dars dasturini shifokor va ota-ona bilan maslahatlashgan holda tuzishi kerak. Bolaning davolanish rejimi, dori-darmonlar qabul qilish vaqtidan keyingi charchoq holati, yoki operatsiyadan keyingi tiklanish davri kabi barcha jihatlar inobatga olinishi lozim. Shifokorning maslahati bilan dars vaqti va davomiyligi o‘zgartirilishi mumkin. Bunday yondashuv bolaning jismoniy holatiga

zarar yetkazmagan holda ta’limni uzluksiz davom ettirishga yordam beradi va uning ta’limdan zerikib qolishini oldini oladi.

Treninglar o‘tkazish. Gospital ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari borligi sababli, uning ishtirokchilari maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi zarur. Pedagoglar uchun gospital ta’limga ixtisoslashgan treninglar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Bunday treninglarda shifokorlar onkogematologik kasalliklarning turlari, davolanish usullari va ularning bolaning ruhiy hamda jismoniy holatiga ta’siri haqida ma’lumot beradi. Psixologlar esa bolalarda uchraydigan ruhiy holatlar (depressiya, xavotir, qo‘rquv) bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatadi. Bunday treninglar pedagoglarga bolaning har bir harakatini tushunishga, uning ehtiyojlariga moslasha olishga va ta’limni yanada samaraliroq tashkil qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, onkogematologik kasalliklar bilan kurashayotgan bolalar uchun gospital ta’lim – bu shunchaki o‘quv dasturini o‘zlashtirishdan iborat bo‘lmay, balki butunlay yangi pedagogik yondashuvni talab qiladigan murakkab jarayondir. Maqolada tahlil qilinganidek, bu jarayonning muvaffaqiyati yakka tartibdagi sa’y-harakatlarga emas, balki pedagog, shifokor va ota-onaning tizimli va uzluksiz hamkorligiga bog‘liq.

Maqolada ko‘rsatilganidek, har bir tomon o‘ziga xos vazifaga ega. Ota-onalar bolaning asosiy ruhiy tayanchi va ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida, kasalxona va maktab o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini o‘taydi. Shifokor va hamshiralar bolaning jismoniy holati haqida aniq ma’lumot berib, o‘quv jarayonining bolaga moslashuvini ta’minlaydi. Pedagog esa nafaqat bilim beruvchi, balki bolaning ruhiyatini tushunadigan, unga umid va ishonch bag‘ishlaydigan shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Ta’kidlash joizki, gospital ta’limda samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun muntazam uchrashuvlar, tizimli axborot almashinuvi va birgalikda reja tuzish kabi aniq mexanizmlar zarur. Bu mexanizmlar yordamida har bir bola uchun uning jismoniy va ruhiy ehtiyojlariga mos keladigan individual ta’lim trayektoriyasini yaratish mumkin. Natijada, ta’lim jarayoni nafaqat bilimlarni saqlab qolishga, balki bolaning ijtimoiy izolyatsiyadan chiqishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchini qayta tiklashiga va kelajakka umid bilan qarashiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erikson Erik H. (1963). Childhood and Society. W. W. Norton & Company.

2. Kohlberg Lawrence (1984). The Psychology of Moral Development: The Nature and Validity of Moral Stages. Harper & Row.

3. Montessori Maria (1912). The Montessori Method: Scientific Pedagogy as Applied to Child Education in “The Children’s Houses”. Frederick A. Stokes Company.

4. Rogers Carl R. (1951). Client-Centered Therapy: Its Current Practice, Implications, and Theory. Houghton Mifflin.

5. Vygotsky Lev S. (1987). Thought and Language. The MIT Press.

Matluba USMONOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internati, oliy toifali tarix fani o‘qituvchi

“YANGI O‘ZBEKISTON MARD O‘G‘LONLARI” – YOSH AVLODDA YURTGA SADOQAT TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur va har tomonlama o‘rganish, ularning yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni va rolini to‘g‘ri aniqlash, ular o‘rtasidagi o‘ziga xos bog‘lanishlarni, urf-odatlar, marosimlar, qoidalarga bo‘lgan munosabatini aniqlash haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz fuqarolari va o‘quvchilari orasida milliy-mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish, shuningdek, bugungi kunda jamiyatda kuchayib borayotgan loqaydlik, beparvolik, milliy qadriyatlarimizga bepisandlik kabi ijtimoiy illatlar jamiyat va davlat uchun zararli ekanligini yoritib berish, avloddan avlodga meros bo‘lib qoladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarix darslarida tarbiyalash usullari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, milliy urf-odatlar, oila, mahalla, axloqiy madaniyat, “Yangi O‘zbekiston mard o‘g‘lonlari” konsepsiyasi.

Глубокое и всестороннее изучение национальных и общечеловеческих ценностей в современных условиях, правильное определение их места и роли в воспитании молодого поколения, конкретных связей между ними, обычаев, обрядов, правил важно для определения взаимоотношений. Весьма актуально совершенствовать национально-идеологическое воспитание среди граждан и студентов нашей страны, а также пролить свет на то, что такие социальные пороки, как равнодушие, безразличие, неуважение к нашим национальным ценностям, которые сегодня возрастают в обществе, наносят вред обществу и государству. В данной статье выдвигаются идеи о методах воспитания национальных и общечеловеческих ценностей, которые передаются из поколения в поколение на уроках истории.

Ключевые слова. Национальные и общечеловеческие ценности, национальные традиции, семья, соседство, нравственная культура, методика преподавания истории.

Deep and comprehensive study of national and universal values in modern conditions, correct determination of their place and role in the education of the young generation, specific connections between them, customs, rituals, rules it is important to determine the relationship. It is very urgent to improve national-ideological education among the citizens and students of our country, as well as to shed light on the fact that social evils such as indifference, indifference, disrespect for our national values, which are increasing in society today, are harmful to society and the state. In this article, ideas about methods of education of national and universal values that are inherited from generation to generation in history lessons are put forward.

Key words. National and universal values, national traditions, family, neighborhood, moral culture, history teaching methodology.

Jahon ta’lim tizimida g‘oyaviy jarayonlarning globallashuvi, raqamli texnologiyalarning transformatsiyasi jarayonida sun’iy intellekt, onlayn makon, jismoniy va virtual voqelik konvergensiyasi, jarayonlarning o‘zgaruvchanligi hamda ma’lumotlarning tez eskirishi kabi xususiyatlarga ega ekani e’tirof etilmoqda. Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot hamda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tar-

biyalash ta’lim jarayonining mazmunini boyitish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida amalga oshirilayotgani e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, Anglo-sakson (Angliya, Kanada, Irlandiya, Yangi Zenlandiya, Avstaraliya va sh.k) davlatlarida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ta’lim dasturlariga “Fuqarolik” tarbiyaviy fanlari kiritilgan hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ta’lim tizimining turli ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorligini ta’minlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga to‘xtalar ekan: “Ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarga mustaqillik g‘oyalariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ish olib borish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy omillar o‘rtasidagi sog‘lom muvozanatni to‘liq ta’minlashga yordam beradigan, kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega xalqimizning ma’naviyatini asrlar mobaynida mustahkamlashga xizmat qilib kelgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar, azaliy an’ana va urf-odatlarning qadrsizlanishiga, deideologizatsiyaga yo‘l qo‘yish hollari uchramoqda. Dunyoqarashi keng, ma’nan barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladigan g‘oyaviy tarbiya mexanizmining ta’siri kamaygani sezilmoqda. Jumladan, uzluksiz ta’lim tizimida milliy g‘oya turkumidagi fanlarga yetarlicha e’tibor berilmayotganligi yosh avlod qalbi va ongida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha ishlarning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda” deb takidlaganlari ham bejiz emas. Shu maqsadda yurtimizdagi barcha ta’lim muassasalaridagi o‘quvchi-yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali Vatan taqdiriga mas’uliyat hissini, ertangi kunga ishonchni kuchaytirish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish davr talabi hisoblanadi.


Respublikamizda ayni damda 45 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning metodikasi va modelini, mezonlarini ishlab chiqish va pedagogik shart-sharoitlarini yaratish pedagogika nazariyasida muhim o‘rin tutadi. Respublikamizdagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari ta’lim-tarbiya jarayonida qay darajada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning metodik xizmati asosan o‘qituvchi shaxsiga yo‘naltirilgandir.Viloyat va tumanlarda metodik xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassislarning asosiy vazifasi o‘qituvchilarning ma’naviy-siyosiy saviyasini va pedagogik mahoratini oshirib borishdan iborat. Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablarida muammoli va mavzuli seminarlar, ilmiy-metodik konferensiyalar, pedagogik o‘qishlar, ilg‘or-tajriba maktabi, ochiq-ijodiy namunaviy darslar, trening-seminarlar tashkil etilgan bo‘lib, bunda o‘quvchi shaxsini kamol toptirishda kerak bo‘ladigan barcha metod va texnologiyalar yuqori malakali mutaxassislar tomonidan o‘tkazib kelinmoqda.

Ilg‘or pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar ahil jamoada tashkil etilgandagina tarbiyaviy ishlarni olib borish va muvaffaqiyatni ta’minlash osonroq bo‘ladi. Yaxshi tashkil etilgan, sog‘lom jamoada o‘quvchilarning fikri katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘lib, tarbiya jarayonida pedagoglarning asosiy tayanchiga aylanadi. Shu bilan birga aytish kerakki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va qadriyatlarni ta’lim muassasalarida tarbiyalashning o‘ziga xos pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi.

Bu borada tadqiqotlar olib borgan H.Giesecke o‘z tadqiqotlarida maktablarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta’limi o‘quvchilarda shakllantirilishi kerak bo‘lgan qadriyatlarni uzatishga qanday hissa qo‘shishi mumkinligining uchta jihatini ko‘rsatib o‘tadi. Unga ko‘ra, birinchi navbatda, bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning shakllanishining asosiy qismi ularning yoshi va zamon modasidan kelib chiqadigan


tanlovlar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning bir qismi ommaviy axborot vositalari, ya’ni bolalar o‘z hayotlarini olib boradigan ijtimoiy sohalar, faqat kichik bir qismini o‘qituvchilar tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchilar o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayonini mustaqil shaklda yarata olmaydilar, ular faqat to‘ldiruvchi va tuzatuvchi pozitsiyada aralashishlari mumkin. O‘qituvchilarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va qadriyatlar nuqtayi nazaridan maktabdan tashqarida ta’sir o‘tkaza olmasligi bu sohadagi pedagoglarning ta’sirini cheklaydi. Ikkinchidan, xolislik tamoyiliga ko‘ra, o‘qituvchilar mafkuradan yuqori darajada, asosan kasbiy tashvishlar bilan ishlaydilar. Maktabning maqsadi “to‘g‘ri” qadriyatlarni targ‘ib qilish yoki ularni o‘quvchilarning ongi va qalbiga o‘tkazish bo‘lishi bilan birga, maktablar davlat muassasasi bo‘lganligi sababli, ular konstitutsiya ko‘rsatmalarga, umumiy huquqiy qoidalar va qarorlarga va shundan kelib chiquvchi qadriyatlar va me’yorlarga bog‘liqdir. Ammo bu milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasida maktablarning rolini ikkinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini anglatmaydi. Maktablar vositachi va tarbiyachi rolida mustahkam pozitsiyada qolaveradi.

Va nihoyat, milliy qadriyatlar ijtimoiy munosabatlar va xatti-harakatlarda qanchalik mujassamlangan bo‘lsa, ular tushunarli va tajribali bo‘ladi. Maktabning qadriyatlarni tarbiyalash jarayoniga ta’siri qo‘llab-quvvatlash va yordam berishga asoslanadi.



Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bolalikdan mavhum emas, balki ularni hayotda ijtimoiy xatti-harakatlar sifatida idrok etishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy ta’lim va qadriyatlar ta’limi ikki xil tushuncha sifatida bir-biriga bog‘langan. Qadriyatlarni o‘rganish, asosan, shaxsiy harakatlar chegaraga, ya’ni qoidalar va me’yorlarga yetib kelganida va o‘zaro ta’sir bilan muvozanatlashganda sodir bo‘ladi. Ota-onalar va o‘qituvchilar bolaning ichki dunyosini xushmuomalalik bilan bog‘laydigan ichki hisob-kitoblarga yordam beradi. Shu nuqtayi nazardan, maktablarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ta’limi maxsus va yangi soha emas, u allaqachon qilingan yoki qilinishi kerak bo‘lgan narsalarni, mavzularni ta’kidlash va tushuntirishdan iboratdir.

Yuqorida ko‘rsatilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rish mumkinki, ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda “Yangi O‘zbekiston mard o‘g‘lonlari” tamoyilli Konsepsiya tadqiqot natijasida yaratildi. Ushbu Konsepsiya o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlarni mazmunan yangi bosqichga olib chiqadi.



Xususan:

– ixtisoslashtirilgan maktab-internat o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning yangi tizimini joriy qilish maqsadida darsdan tashqari mashg‘ulotlar ko‘lamini kengaytirish ko‘zda tutiladi: Masalan, 5-8 sinflarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkardalarimiz jasoratlarini bugungi harbiylarimiz jasoratiga bog‘lab, Vatan himoyachisi ko’nikmasini shakllantirish;

– har yili o‘quvchilar o‘ratsida “Turon qoplonlari” nomli harbiy sport musoboqalari o‘tkazish. Bunda “Temur tuzuklari” bilimdonlari, kamondan o‘q otish, qurolni yig‘ish, sport qurolida o‘q otish, “Yashil chiroq”, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish kabilar;

– tarixiy siymolar hayotini “Besh tashabbus” doirasida teatrlarda badiiy talqin etish, milliy qadriyatlarni ulug‘lashga chaqirish.

– “Milliylik-ma’naviyatda” nomli etnik-folklor ko‘rik-tanlovlarni o‘tkazish;

– ta’lim muassasalarda “Milliy qadriyatlar burchagi”ni tashkil etish;

– individual kompetensiyaviy yondashuv asosida “Motivatsion kundalik”ni o‘quvchilarga berib, yaxshi xulqlarni shakllantirishga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish;


– taqdimotlar, savol-javob kechalari, davra suhbatlari, kitobxonlik, mahallalardagi ma’naviyat, adabiyot, tarix, san’at namoyondalari va mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tashkil etish.

Yangi Konsepsiya ota-onada mas’uliyatni, o‘qituvchida majburiyatni, o‘quvchida ishonchni, ta’lim-tarbiyada sifatni, mahallada nazoratni yanada kuchaytiradi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va kamol toptirishda – barkamol shaxs tarbiyasi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu rasmda keltirib o‘tilgan bosqichlar orqali ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o‘quvchilarining ijtimoiy hayotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik shartlari asosiy ta’sir etuvchi omil bo‘lib xizmat qilishini ham ta’kidlash lozim.

Ixtisoslashtrilgan maktab-internat o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash – bu millati, tili, dinidan qat’iy nazar, ularda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularda fuqarolik burchini va majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar qilib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari, oila, mahalla, maktab va boshqa tashkilotlar vertikal tarzda tizimli, maqsadli faoliyatdir.

Ixtisoslashtrilgan maktab-internat o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tizimi uzluksiz jarayon bo‘lib, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va tarbiyaviy tadbirlardan tashqari “Vatanparvarlik asoslari” darslaridagi metodlar, pedagogik texnologiyalar jarayonigacha yangilangan darslar majmuasidan iboratdir. Quyidagi ixtisoslashtrilgan maktab-internat o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning asosiy prinsiplar hisoblanadi:



Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o‘quvchilari o‘rtasida tarbiyaviy soatlar, ertalabgi saflanish, ma’naviyat kunlari, oyliklari kabi tadbirlarda Amir Temur avlodlari yoki Amir Temur tarixi bilimdonlari, sarkardalarning shonli yo‘llari, Manguberdi izdoshlari, “Temur tuzuklari bilimdoni”, Buxoriy avlodlari, Marg‘inoniy izdoshlari, Moturidiy va Naqshband davomchilari, Islom sivilizatsiyasi bilimdoni shiori ostida ochiq darslarni o‘tishdan eng asosiy maqsad ham maktab o‘quvchilarining vatanparvarlik e’tiqodini

shakllantirishdir. Vatanni sevmoq uchun, dastavval, uning ma’nosini, tarixini, taqdiri va istiqbolini chuqur anglab yetmoq kerak.

Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy siftalarini oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda:

• xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an’analari, urf-odatlari va umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish;

• milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhini singdirish orqali keng jamoatchilik kuchi va tajribasiga tayanish zarur.

Xulosa shuki, o‘sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalashda milliy iftixor hissini qaror toptirishning muhim shartlari:

birinchidan, yosh avlodga o‘zligimiz, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu fazilatlarini, jamiyat oldida turgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugungi kunda mavjud bo‘lgan hurfikrlilikka tayangan holda yoshlarni xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash. O‘yin yakuni sifatida odamlar nega taqiqlangan xatti-harakatlarni sodir etishlari, oilaviy hayotga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishlarining sabablari aniqlanadi. Ushbu yakuniy xulosalar kichik guruhlarda ham ishlab chiqilishi mumkin.

uchinchidan, yoshlarni O‘zbekistonga munosib voris bo‘la oladigan baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash;

to‘rtinchidan, yosh avlodni ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. 298-299-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-iyul 2021-yildagi “Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori //PQ-5188-son

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-aprel 2021-yildagi “Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirish Konsepsiyasi”//PQ-5050

4. Giesecke H. Was kann die Schule zur Werteerziehung beitragen?, (Eds: Sabine Gruehn, Gerhard Kluchert, Thomas Koinzer), Was Schule macht: Schule, Unterricht und Werteerziehung. Basel:Beltz Verlag, 2004, p. 236.

A’zam RAXMATOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik” kafedasi, katta o‘qituvchi

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada raqamli texnologiyalar yordamida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayoniga raqamli vositalarning keng joriy etilishi bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va ijodiy yondashuv kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil hisoblanishi aytib o‘tilgan. Muallif raqamli ta’lim platformalari, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar, virtual haqiqat va boshqa interaktiv texnologiyalarning kreativ tafakkurga ta’siri tahlil qilib, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining innovatsion salohiyatini oshirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqgan.

Tayanch so‘zlar. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, virtual haqiqat, innovatsion metodlar, kreativ g‘oya, ijodiy fikrlash, fanlararo integratsiya.

В статье освещены вопросы развития креативного мышления будущих учителей технологического образования с помощью цифровых технологий. Также было отмечено, что широкое внедрение цифровых инструментов в образовательный процесс является важным фактором формирования у будущих учителей технологического образования таких навыков, как самостоятельное мышление, анализ проблемы, выдвижение новых идей и творческий подход. Автор проанализировал влияние цифровых образовательных платформ, программ на основе искусственного интеллекта, виртуальной реальности и других интерактивных технологий на креативное мышление и рассмотрел возможности повышения инновационного потенциала будущих учителей технологического образования за счет эффективного использования цифровых технологий.

Ключевые слова. Цифровые технологии, искусственный интеллект, виртуальная реальность, инновационные методы, креативная идея, творческое мышление, междисциплинарная интеграция.

The article examines the issues of developing the creative thinking of future teachers of technological education using digital technologies. It was also noted that the widespread introduction of digital tools into the educational process is an important factor in the formation of such skills in future teachers of technological education as independent thinking, problem analysis, putting forward new ideas, and a creative approach. The author analyzed the influence of digital educational platforms, programs based on artificial intelligence, virtual reality, and other interactive technologies on creative thinking and considered the possibilities of increasing the innovative potential of future teachers of technological education through the effective use of digital technologies.

Key words. Digital technologies, artificial intelligence, virtual reality, innovative methods, creative idea, creative thinking, interdisciplinary integration.

Hozirgi bo‘layotgan rivojlanishlar nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak zamon ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri texnologiya fani o‘qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishdir. Chunki bugungi kunda axborot texnologiyalari tez sur’atlar bilan rivojlanib, har bir sohaga chuqur kirib bormoqda.

Ayniqsa, maktablarda texnologiya darslariga robototexnika bo‘limining kiritilishi zamonaviy yondashuv asosida dars tashkil qilishni talab qilmoqda. Buning uchun ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Raqamli texnologiyalar nafaqat o‘qitish samaradorligini oshiradi, balki o‘qituvchilarni yangicha fikrlashga, kreativ yondashuv asosida muammolarni hal eta olishga undaydi. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularda mustaqil qaror qabul qilish, o‘zgacha yondashuvni shakllantirish kabi ko‘nikmalar aynan zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq.

Raqamli texnologiyalar – bu faqat vosita emas, balki o‘quv jarayonining sifatini oshirish, interaktivlikni kuchaytirish va o‘qituvchilarni faol ishtirok etishga jalb qilish imkonini beradigan kuchli mexanizmdir. Shu bois, ta’limda raqamli texnologiyalarning o‘rni va ularning kreativ tafakkurini rivojlantirishdagi roli chuqur o‘rganishni talab qiladi.

“O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot” va “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy asoslari” kabi kitoblar va maqolalarda raqamli transformatsiya, raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt, blockchain texnologiyalari kabi mavzular yoritilgan. Ularning ishlarida raqamli texnologiyalarni O‘zbekistonda joriy etishning nazariy va amaliy jihatlari, xususan, iqtisodiyotni raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, raqamli ta’lim, tibbiyot va boshqa sohalarda texnologiyalardan foydalanish usullari haqida so‘z boradi.

Raqamli iqtisodiyot:

Abduqodirovning asarlarida raqamli iqtisodiyotning O‘zbekistonda rivojlanish istiqbollari, uning iqtisodiy o‘sishga ta’siri va raqamli transformatsiya jarayonlari atroflicha tahlil qilinadi.

Huquqiy asoslar:

Raqamli texnologiyalarni huquqiy jihatdan tartibga solish, xususan, blockchain, sun’iy intellekt kabi yangi texnologiyalar uchun huquqiy bazani yaratishning muhimligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Raqamli transformatsiya:

Raqamli transformatsiya, raqamli texnologiyalarni jamiyatning barcha sohalariga tadbiq etishning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy oqibatlari tadqiq qilinadi.

Sun’iy intellekt:

Sun’iy intellektning raqamli iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishdagi roli, uni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari, shuningdek, uning inson faoliyatiga ta’siri haqida fikrlar bildirilgan.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar va kreativ tafakkur masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilishga xizmat qilmoqda. Jahon va mahalliy tadqiqotchilarning ishlari shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga kirib kelishi o‘quvchilarning faolligi, mustaqilligi va ijodkorligiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, J. Dewey va H. Gardner singari g‘arb olimlari ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhit va vositalarning o‘rni muhimligini alohida ta’kidlab o‘tgan. O‘zbekistonda esa A. Abduqodirov, M. Normurodov, G. Qurbonova kabi olimlar raqamli texnologiyalarning ta’limdagi funksional imkoniyatlarini, ayniqsa interaktiv metodlar orqali kreativ yondashuvni rag‘batlantirishini o‘rganib kelmoqdalar. Ularning tadqiqotlarida multimediya vositalari, onlayn platformalar, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv tizimlari orqali talabalarni o‘z fikrini erkin ifoda etishga, yangi g‘oyalar yaratishga undash borasida ijobiy natijalar qayd etilgan.

Texnologiya darslarida raqamli platformalar va vositalardan foydalangan holda o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirishi, hamda o‘quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkoniyatlarini yaratishi mumkin. Biroq, raqamli ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi bilan bog‘liq ba’zi muammolar ham mavjud. O‘qituvchilar va o‘quvchilar ba’zi hollarda texnologiyalarga qaram bo‘lib qolishlari yoki ularni to‘g‘ri va samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Shuningdek, barcha o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun barqaror internet aloqasi va kerakli qurilmalarga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Natijada, raqamli ta’lim texnologiyalarining axborot kompetentligini rivojlantirishdagi roli juda katta, ammo bularni amalga oshirishda ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar tomonidan ehtiyotkorlik bilan yondashish lozim. Kelajakda raqamli ta’lim texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati yanada oshishi kutilmoqda, bu esa ta’lim jarayonini yanada rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu tadqiqot raqamli ta’lim texnologiyalarining bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishdagi o‘rni va samaradorligini o‘rganishga qaratilgan. Olingan natijalar quyidagi asosiy xulosalarni taklif etadi:

1. Axborot kompetentligining oshishi: Raqamli ta’lim texnologiyalari bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilariga axborotni izlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini oshirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari onlayn kutubxonalar, resurslar va multimedia vositalari yordamida o‘z bilimlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Interaktiv ta’lim jarayoni: Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli holga keltiradi. Innovatsion usullar, masalan, flipped learning va gamification, talabalar o‘rtasida faol ishtirokni rag‘batlantiradi, bu esa o‘qitish jarayonini yanada samarali qiladi.

3. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari: Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari raqamli texnologiyalar yordamida mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim tajribalarga ega bo‘ladilar. Ushbu ko‘nikmalar ularni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda, shuningdek, professional hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi.

4. Challengerlar va yechimlar: Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar, jumladan, texnologiyalarga qaramlik va ularni to‘g‘ri foydalanish qiyinchiliklari, ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar tomonidan hal qilinishi lozim. Bu, o‘z navbatida, ta’lim jarayonining sifatini oshirish va bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari uchun yanada samarali o‘quv muhitini yaratish imkonini beradi. Natijada, raqamli ta’lim texnologiyalarining axborot kompetentligini rivojlantirishdagi roli katta ahamiyatga ega. Ularning ta’lim jarayonida to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishi bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari uchun yangi imkoniyatlar va yutuqlarni ochadi. Kelajakda raqamli ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi va ularning ta’lim jarayonida qo‘llanilishi yanada muhim bo‘lib qoladi, shuning uchun ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarini yanada takomillashtirishga e’tibor qaratishlari zarur.

Ta’lim texnologiyalarining bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Raqamli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi: Raqamli texnologiyalar, jumladan onlayn resurslar, multimedia materiallar va interaktiv dasturlar, talabalarga axborotni izlash va tahlil qilishda yordam beradi. Bu esa ularning axborot kompetentligini oshirishga imkon yaratadi.

2. Innovatsion ta’lim usullarining qo‘llanilishi: O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida faol ishtirokni rag‘batlantirish va o‘quv jarayonini qiziqarli qilish uchun innovatsion ta’lim usullari, masalan, flipped learning va gamification, muvaffaqiyatli qo‘llanilishi lozim. Bu usullar o‘quvchilar va o‘qituvchilarni mustaqil fikrlashga va muammolarni hal qilishga undaydi.

3. Muammolar va yechimlar: Raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi jarayonida yuzaga keladigan muammolar, masalan, texnologiyalarga qaramlik, ta’lim muassasalari va o‘qituvchilar tomonidan hal qilinishi zarur. Bu, o‘z navbatida, ta’lim jarayonining sifatini oshirish va bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilari uchun yanada samarali o‘quv muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

4. Kelajak istiqbollari: Raqamli ta’lim texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni kelajakda yanada muhim bo‘lib qoladi. Ta’lim muassasalari raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda, ularning axborot kompetentligini rivojlantirishda va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini oshirishda katta imkoniyatlarga ega. Umuman olganda, raqamli ta’lim texnologiyalari bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining axborot kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ularni ta’lim jarayonida to‘g‘ri va samarali qo‘llash orqali o‘quv muhitini yaxshilash, bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini oshirish va zamonaviy ta’lim talablari darajasida tayyorlash mumkin. Tadqiqot natijalari, shuningdek, ta’lim sohasidagi innovatsion yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi, bu esa kelajakda raqamli ta’lim texnologiyalaridan yanada samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida raqamli texnologiyalar bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita ekani isbotlandi. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuvi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi va o‘z fikrini erkin ifoda eta olishi bevosita ta’lim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘lib chiqdi. Zamonaviy texnologiyalar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilar hamda o‘qituvchilar faolligini oshiradi, ularni o‘quv jarayonining passiv emas, balki faol ishtirokchisiga aylantiradi. Raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiya qilish orqali nafaqat bilim darajasini, balki ijodiy fikrlash, tanqidiy yondashuv va yangilikka intilish kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni”. –T.: Fan, 2020.

2. Ishmuradova G., Raxmatov A. Xalqaro tadqiqotlar va ta’limda innovatsion texnologiyalar o‘quv qo‘llanma – INTELLEKT: 2023. – 161 b.

3. Jo‘rayev N. “Zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati” // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2021.

4. Normurodov M. “Raqamli pedagogika: nazariya va amaliyot”. –T.: Ilm Ziyo, 2021.

5. Xo‘jayeva, A. A. (2020). Raqamli ta’limda kreativ fikrlashni rivojlantirish // Ta’lim va Innovatsiyalar. –T.: Ta’lim nashriyoti. –B. 45-52.

Nargiza KAMOLOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, doktarant, p.f.f.d. (PhD)

KIMYO TA’LIMIDA AKSIOMATIK YONDASHUVNING DIDAKTIK MOHIYATI

Annotatsiya

Maqolada kimyo ta’limida aksiomatik yondashuvning didaktik mohiyati tahlil qilinadi. Nazariy bilimlarni minimal, isbot talab qilinmaydigan aksiomalarga va ulardan deduktiv tarzda teoremalar hosil qiladigan sistemaga asoslash usuli, zamonaviy fan ta’limida ayniqsa muhim o‘rin egallashi, kimyo fanining murakkab kontseptual tizimi hamda didaktik qiyinchiliklari sharoitida aksiomatik model bilimni sistemalashtirish, mantiqiy izchillik, tushunchaviy aniqlikni ta’minlashga xizmat qilishi asoslanadi. Shuningdek, aksiomatik yondashuvning falsafiy ontologik, gnoseologik, metodologik va aksiologik qatlamlari tahlil qilinib, didaktik talablari (aniqlik, izchillik, minimalizm va boshqalar) ko‘rib chiqiladi; kimyo darslarida aksiomatik metodni tatbiqlash usullari, darsga integratsiya qilish algoritmi, aksiomatik yondashuvning pedagogik samaradorligini baholashga yo‘naltirilgan metodologiya tavsiya qilinadi.

Tayanch so‘zlar. Aksiomatik yondashuv, didaktika, aksioma, teorema, mantiqiy izchillik, kontseptual tarkib, pedagogik algoritm, baholash mezonlari.

В данной статье анализируется дидактическая сущность аксиоматического подхода в преподавании химии. Обосновывается, что метод опоры на минимальные, не требующие доказательства аксиомы и построение на их основе системы, позволяющей дедуктивно выводить теоремы, занимает особенно важное место в современном научном образовании. В условиях сложной концептуальной системы химической науки и существующих дидактических трудностей аксиоматическая модель способствует систематизации знаний, обеспечению логической последовательности и понятийной точности. В статье рассматриваются философско-онтологические, гносеологические, методологические и аксиологические аспекты аксиоматического подхода, анализируются его дидактические требования (точность, последовательность, минимализм и др.); предлагаются методы применения аксиоматического метода на уроках химии, алгоритм его интеграции в учебный процесс, а также методология оценки педагогической эффективности аксиоматического подхода.

Ключевые слова. Аксиоматический подход, дидактика, аксиома, теорема, логическая последовательность, концептуальная структура, педагогический алгоритм, критерии оценки.

This article analyzes the didactic essence of the axiomatic approach in chemistry education. The study substantiates that the method of basing theoretical knowledge on minimal, self-evident axioms that do not require proof–and developing theorems from them deductively plays an especially important role in modern science education. In the context of the complex conceptual system of chemistry and its didactic challenges, the axiomatic model serves to systematize knowledge, ensure logical consistency, and promote conceptual clarity. The article examines the philosophical–ontological, gnoseological, methodological, and axiological layers of the axiomatic approach, discusses its didactic requirements (such as clarity, consistency, and minimalism), and proposes methods for applying the axiomatic approach in chemistry lessons. Furthermore, it presents an algorithm for integrating this method into the teaching process and recommends a methodology for evaluating the pedagogical effectiveness of the axiomatic approach.

Key words. Axiomatic approach, didactics, axiom, theorem, logical consistency, conceptual structure, pedagogical algorithm, assessment criteria.

Ta’limda raqamlashtirish va matematik formalizatsiya jarayonlari chuqurlashgani sayin, aksiomatik prinsiplar (ya’ni minimal tushunchalardan mantiqiy ravishda sistemani barpo qilish) fizika va informatika sohalarida, shu bilan birga, kimyo ta’limida ham keng qo‘llanilmoqda. Kimyo darslarida ko‘pincha o‘quvchilar tushunchalar va qoidalarni individual ravishda o‘rganadi, lekin aksiomatik usul orqali ular bitta mantiqiy markazga, aksiomalarga bog‘langan bilimlar tizimiga yo‘naltiriladi. Bu yondashuv nafaqat kontseptual chuqurlik va mantiqiy izchillikni ta’minlaydi, balki o’quvchilarda ilmiy tafakkur, deduktiv fikrlash hamda nazariy asoslarni anglash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Kimyo fanining asosiy tushuncha va qonunlarini o‘qitishda zamonaviy metodologik yondashuvlar, xususan, aksiomatik asoslash, konseptual modellashtirish va ilmiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar jahonda keng miqyosda olib borilmoqda. Mazkur yondashuvlar kimyo ta’limini faqat ma’lumot yetkazish vositasi sifatida emas, balki analitik fikrlashni shakllantiruvchi muhim omil sifatida qayta talqin etishga xizmat qilmoqda. Xususan, Germaniyaning Didaktik kimyo markazlari (Justus Liebig University Giessen)da o‘tkazilgan tadqiqotlarda kimyoviy tushunchalarning aksiomatik asosda tizimlashtirilgan o‘quv modellarini yaratish orqali o‘quvchilarda ilmiy fikrlash jarayonlarini faollashtirish usullari ishlab chiqilgan (Dr. Ingo Eilks, Prof. Silvija Markic). Mazkur ishlar kimyoviy tushunchalarni shunchaki yodlashdan ko‘ra, ularni mantiqiy asoslash va nazariy model doirasida tushuntirishga urg‘u beradi. AQSh ning Stanford Universityda (Prof. Carl Wieman) ilmiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarda, ayniqsa STEM fanlari, jumladan, kimyo ta’limida aksiomatik va deduktiv yondashuvlar orqali talabalarda nazariy mantiq, muammo qo‘yish va hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish usullari ishlab chiqilgan. Bu yondashuvlar, ayniqsa, kontseptual tushunchalarni asoslash va ilmiy qonunlarni o‘quvchilar tomonidan mustaqil tahlil qilishga xizmat qiladi. Finlyandiyaning Helsinki universitetida olib borilgan tadqiqotlarda (Prof. Maija Aksela) kimyo fanini o‘qitishda aksiomatik yondashuvni vizual va eksperiment asosida integratsiyalashgan holda qo‘llash orqali o‘quvchilarning ilmiy asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatlari o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijasi o‘laroq kimyoviy qonunlar o‘quvchilarga nazariy asoslangan didaktik modellar orqali tushuntirilganda, ularning tanqidiy va tizimli fikrlash darajasi oshishi aniqlangan. Angliyadagi University of York (Centre for Innovation and Research in Science Education)da olib borilgan ishlar (Prof. Judith Bennett rahbarligida)da kimyoviy tushunchalarni aksiomatik modellashtirish orqali o‘quvchilarda ilmiy-nazariy tafakkurni rivojlantirish, kontseptual o‘zlashtirishni chuqurlashtirishga oid eksperimental metodikalar ishlab chiqilgan.

Avstraliyaning Monash University (Melbourne) olimlari (Dr. Roy Tasker) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kimyoviy mikrotuzilmalarning vizual modellashtirishga asoslangan aksiomatik talqini orqali o‘quvchilarning ilmiy tushunchalarni tasavvur qilish va ularni nazariy asoslash kompetensiyalari o‘rganilgan. Bu yondashuv kimyo qonunlarini o‘quvchiga shunchaki fakt sifatida emas, balki mantiqan isbotlanadigan ilmiy haqiqat sifatida tushuntirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Yaponiya (Tokyo University of Science, Prof. Yutaka Watanabe)da olib borilgan tadqiqotlarda kimyo ta’limida aksiomatik va eksperiment asoslangan integratsiyalashgan o‘quv modellarining o‘quvchilarda ilmiy tafakkurni rivojlantirishga ta’siri empirik jihatdan asoslab berilgan. Bu modellar orqali o‘quvchilar nafaqat tushunchalarni yodlaydi, balki ularni mantiqiy asosda tahlil qilishga o‘rganadi. Kanadaning University of British Columbia (Prof. Sarah B. McKagan) tomonidan kimyo ta’limida aksiomatik yondashuvlar asosida tuzilgan

interaktiv modullar yordamida o‘quvchilarda analitik va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha samarali metodikalar ishlab chiqilgan. Ayniqsa, simulyatsiya va model asosidagi topshiriqlar orqali ilmiy nazariyani hayotiy misollar bilan bog‘lash yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Aksiomatik yondashuvning ikki tomoni ajralib turadi –pedagogik obyektlar majmuasi aksiomalar tizimini qanoatlantiradi yoki u aksiomalar tizimining mazmunan tasdiqlovchi elementi hisoblanadi. Zamonaviy matematika nuqtai nazaridan formal tizimlarning boshlang‘ich holatlarining, ya’ni aksiomalarning haqiqiyligi u tizimlarning chegarasidan tashqarida ko‘rib chiqiladi. Demak, formal tizimning haqiqiyligi uni yangi pedagogik texnologiya yoki yangi nazariya doirasida interpretatsiya qilish orqali tasdiqlanishi mumkin va bu yangi nazariya mazmunli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu nuqtai nazarga ayniqsa axborot-ta’lim muhitini shakllantirish jarayonida e’tibor qaratish muhimdir. Aksiomalar tizimi tarixiy bilim rivojlanishi davomida o‘zgarishi va takomillashishi mumkin. Bir xil pedagogik obyektlar majmuasini tasvirlovchi aksiomatik tizimlar turlicha yaratilishi mumkin. Pedagogik nazariya va texnologiyalarni yaratishda aksiomatikalarning noyegiligi amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Avval aytilganidek, o‘zi pedagogik amaliyot didaktik aksiomatikaning paydo bo‘lishi va rivojlanishining kuchli manbai hisoblanadi.

Nazariyalarda aksiomalarning haqiqiyligi oxir-oqibat nazariyaning amaliy qo‘llanilishida o‘zini ko‘rsatadi. Mashhur fikrni biroz boshqacha qilib aytganda, amaliyot qabul qilingan didaktik aksiomalar tizimining haqiqiylik mezoni bo‘lishi mumkin. Aksiomatik nazariya, agar uning doirasida ma’lum muammolar hal etiladigan samarali protsedura mavjud bo‘lsa, “yechiluvchi” deb ataladi, aks holda u “yechilmas” hisoblanadi. Maktablarda texnologik karta o‘qituvchining professional faoliyatida odatiy vositaga aylanganini ko‘ramiz. Didaktik aksiomatika esa texnologik karta kabi samarali protsedura tufayli yechiluvchi bo‘lib, u o‘quv jarayonini konstruksiyalash, prognozlash va amalga oshirish uchun qudratli metodik vosita hisoblanadi.Aksiomatik yondashuv boshqa pedagogik nazariyalarda ham maqbul bo‘lishi mumkin. Pedagogik texnologiyalar nazariyasini qurishda aksiomatik yondashuvni mazmunli interpretatsiya (ya’ni mazmunan tasdiqlash) sohasiga cheklash maqsadga muvofiqdir. Aksiomatik tizimning pedagogik obyektlar majmuasi deb o‘quv jarayonini loyihalash pedagogik texnologiyasini va komponentlaridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan elementlarni tushunamiz, jumladan:

– o‘quv jarayonining modeli;

– loyihalashning pedagogik obyekti;

– pedagogik obyektni loyihalash bo‘yicha texnologik protseduralar.

Mazmunli va formal aksiomatik tizimlar bir vaqtning o‘zida turli obyektlar tizimlarini qanoatlantirishi mumkin, ular esa o‘z navbatida mazkur tizimlarga nisbatan model vazifasini o‘taydi. Aksiomalar tizimi – pedagogik obyektlarni loyihalash texnologiyasining nazariy asoslari bo‘lib, pedagogik texnologiya esa yuqorida qayd etilgan aksiomalarning tizimini o‘zida aks ettiruvchi bir turdagi model hisoblanadi.Aksiomatik yondashuv pedagogik texnologiyalar nazariyasining yangi asosli vositasi bo‘lib, ya’ni u zamonaviy ilmiy pedagogik bilimlarni va ularning rivojlanishini tartibga solish va tizimlashtirishni osonlashtiradi. Aksiomatik yondashuv nazariyaning alohida bo‘limlari o‘rtasidagi ichki mantiqiy bog‘liqlikni aniqlashga imkon beradi, boshlang‘ich holatlarni va aksiomalardan olingan holatlarni aniq ajratib ko‘rsatadi, bu aniqlik va qat’iyatga o‘rgatadi. Eng muhim jihati shundaki, aksiomatik yondashuv ilmiy tadqiqot va yangi qonuniyatlarni aniqlash uchun bebaho imkoniyat taqdim etadi.Aksomatik yondashuv ilmiy nazariyani qurish

usuli bo‘lib, unda nazariyaning asosiga aksiomalar deb ataluvchi ayrim boshlang‘ich qoidalar qo‘yiladi, nazariyaning barcha qolgan jumlalari esa aynan shu aksiomalardan mantiqan kelib chiqadigan xulosalar sifatida olinadi.

Kimyo ta’limida aksiomatik metod unsurlari dastlab klassik kimyoning shakllanish davrida namoyon bo‘ldi: A. Lavuazye “Kimyoning elementar traktati”da modda massasining saqlanishi, moddalarning tarkibi doimiyligi va kimyoviy nomlash tamoyillari kabi boshlang‘ich qoidalarni aniq ifodalagan bo‘lsa, J. Dalton atom nazariyasi orqali moddalarning nisbatlari va ulardan kelib chiqadigan formulalarni yagona mantiqiy tizimga keltirdi; bu asarlar, har qanday, mantiqiy apparat maxsus bayon etilmagan bo‘lsa ham, kimyoviy nazariyaning asosiy mazmunini nisbatan kam sonli, ko‘rinarli ravishda ravshan qabul qilinadigan bayonotlar – aksiomalardan sof deduktiv yo‘l bilan chiqarish g‘oyasini yetarlicha aniq namoyon etdi. XIX–XX asrlar davomida turli kimyoviy tushunchalarning qayta talqin qilinishi, masalan, Arreniusning elektrolitik dissotsiatsiya nazariyasidan Brensted–Lowry (kislota - asosni proton berish/qabul qilish) va Lyuis (kislota–asosni elektron juftini qabul qilish/berish) konsepsiyalariga o‘tish, aksiomatik metodning keyingi rivojlanishiga kuchli turtki berdi, ya’ni, agar tanish va go‘yoki yagona “to‘g‘ri” postulat o‘rniga boshqacha, ammo aniq belgilangan postulat qo‘yilsa, kimyoviy hodisalarni sof mantiqiy yo‘l bilan boshqatdan, shunchalik uyg‘un va mazmunli tarzda yoritish mumkinligi ayon bo‘ldi. Ushbu holat kimyoviy nazariyalarni deduktiv tarzda qurishga alohida e’tibor qaratishga undadi va aksiomatik metod hamda rasmiy (aksiomatik) nazariyalar haqidagi tushunchalarga bog‘liq yangi muammolar doirasini shakllantirdi. Fizik kimyo bo‘yicha qat’iy ifodalangan ta’limotlar G. Gibbsning termodinamikasi, Guldberg va Vaagening massalar ta’siri qonuni, Van’t Goffning muvozanat va kinetika munosabatlari, Ostvald eritmalar nazariyasini rasmiylashtirishga doir ishlari ko‘paygan sari, formal aksiomatik tizim tushunchasi aniqlashdi. Shu zaminida “isbotlash” va “asoslash”ga oid metanazariy muammolar (qarama-qarshiliksizlik, to‘liqlik va mustaqillik) kimyo metodologiyasi muhokamasiga ham kirib keldi.

Kimyoni mantiqan asoslash zarurati va bu boradagi aniq vazifalar XIX asrdayoq sezilarli darajada shakllandi. Bir tomondan, “element”, “atom”, “molekula”, “modda miqdori”, “tarkib” kabi fundamental tushunchalarni aniqlashtirish va murakkabroq tushunchalarni eng sodda tushunchalarga keltirish jarayoni tobora qat’iy mantiqiy asosda olib borildi, boshqa tomondan, turli “aksiomatik paketlar”ning paydo bo‘lishi (masalan, kislotali–asosli o‘zaro ta’sirning turli ta’riflari, muvozanatni tavsiflovchi turli boshlang‘ich farazlar) aksiomatik metodni rivojlantirdi hamda umumiy metakimyoviy savollarni, avvalo, ixtiyoriy aksiomatik kimyoviy nazariya tushunchasiga daxldor qarama-qarshiliksizlik, to‘liqlik va aksiomalarning mustaqilligi muammolarini ilgari surdi.

Aksiomatik metod qadimdan fan rivojining asosi bo‘lib kelgan. U avvalo geometriyada qo‘llanilgan bo‘lsa-da, keyinchalik barcha tabiiy fanlarga, jumladan kimyoga ham tadbiq etilgan. Aksiomatik metodning mohiyati shundan iboratki, fanning barcha qonunlari va qoidalari cheklangan miqdordagi asosiy aksiomalar hamda ta’riflardan kelib chiqadi. Bunda ilmiy izchillik, qat’iylik va mantiqiylik ta’minlanadi.Kimyo fanida aksiomatik metodni qo‘llash shuni anglatadiki, darsliklar va o‘quv jarayonida turli hodisa va qonunlar alohida-alohida o‘rgatilmaydi, balki ularning barchasi bir necha asosiy tamoyillarga tayanadi. Masalan, moddiy dunyoning zarrachalardan tashkil topganligi, moddiy jismlarning doimo o‘zgarishda ekanligi, energiya saqlanish qonuni kabi aksiomatik tamoyillar o‘quvchilarga kimyoning barcha bo‘limlarini yagona ilmiy tizim sifatida o‘zlashtirish imkonini beradi.

Kimyo ta'limining o'ziga xos jihati shundaki, unda abstrakt tushunchalar bilan bir qatorda bevosita tajriba orqali kuzatiladigan hodisalar ham mavjud. Shu sababli aksiomatik yondashuv kimyo o'qitishda ikki yo'nalishda qo'llanishi mumkin:

– nazariy darajada – asosiy aksiomalar, ta'riflar va kimyoviy qonunlar tizimi shakllantiriladi;

– amaliy-tajriba darajasida – o'quvchilar ushbu aksiomatik qoidalarni tajriba yo'li bilan tasdiqlaydi.

Bunday yondashuv o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash ko'nikmasini rivojlantiradi. O'quv jarayonida aksiomatik tuzilma tizimlarining o'rni. O'quv jarayonida aksiomatik tuzilma tizimlari darslik, o'quv qo'llanma va metodik materiallarda o'z ifodasini topadi. Agar geometriyada aksiomatik asoslar yordamida teoremalar isbotlansa, kimyoda aksiomatik qoidalar yordamida kimyoviy qonun va nazariyalar mantiqiy asoslanadi. Masalan, "Modda massasining saqlanish qonuni" Lomonosov va Lavuazye tajribalari orqali isbotlansa-da, aslida u aksiomatik tamoyil sifatida qabul qilinadi va keyingi barcha kimyoviy hisoblashlarga tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Kimyo darslarida asosiy tushunchalar – atom, molekula, element, birikma, kimyoviy bog', valentlig kabi kategoriyalar – aksiomatik asosda kiritilishi mumkin. Masalan, atomni "moddaning eng kichik zarrachasi" sifatida qabul qilish o'quvchi uchun aksioma sifatida beriladi. Keyinchalik, kvant mexanikasi va atomning murakkab tuzilishi o'rganilganda, bu aksiomatik ta'rif kengaytiriladi va yanada chuqurroq ilmiy asosga ega bo'ladi.Kimyo ta'limida asosiy qonun va nazariyalar (modda massasining saqlanish qonuni, tarkibning doimiyligi qonuni, karrali nisbatlar qonuni, gaz qonunlari, atom-molekulyar nazariya, kimyoviy bog'lanish nazariyasi va boshqalar) ham aksiomatik metod asosida o'rgatiladi. Bunda o'quvchilarga qonunlarning o'zaro bog'liqligi, ularning yagona ilmiy tizim sifatida mavjudligi ko'rsatiladi. Masalan, D.I. Mendeleyevning davriy qonuni avval aksiomatik qoidaga asoslanadi: "Kimyoviy elementlarning xossalari ularning atom massasiga (yoki keyinchalik atom raqamiga) davriy bog'liqdir." Shu aksiomatik qoidadan kelib chiqib, davriy sistema tushuntiriladi.

Aksiomatik metod o'quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki ilmiy tafakkur tarzida fikrlashga o'rgatadi. Masalan, biror kimyoviy qonunni o'zlashtirgan o'quvchi uni boshqa jarayonlarga qo'llashga, yangi xulosalar chiqarishga o'rganadi. Bu esa ijodiy tafakkurni, mantiqiy tahlilni va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Aksiomatik yondashuv mohiyatini anglash uchun, avvalo, inson tafakkurining rivojlanish tarixida bilimlarni tizimlashtirishga intilish, ularni umumiy qonuniyatlarga tayangan holda isbotlash va shubhasiz haqiqat sifatida qabul qilish zarurati qanday shakllanganini eslatib o'tish lozim, har qanday ilmiy bilimning ishonchliligi va poydevori, albatta, qat'iy asoslangan tamoyillar majmuasiga tayanadi. Shu bois matematika va mantiqda keng tarqalgan aksiomatik usul bugungi kunda kimyo fanini o'qitishda ham nafaqat nazariy tafakkurni rivojlantiruvchi, balki o'quvchilarda mantiqiy, tizimli va izchil bilim olish ko'nikmalarini shakllantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida qaralmoqda. Aksiomatik yondashuv deganda, odatda, ma'lum bir fanning asosiy tushunchalarini shartli ravishda "o'z-o'zidan ravshan" yoki "isbot talab qilmaydigan" haqiqatlar tarzida belgilash va qolgan barcha bilimlarni ana shu tamoyillar asosida mantiqan deduktiv tarzda ishlab chiqish tushuniladi. Mazkur jarayon ta'lim tizimida qo'llanganda esa, o'quvchilarga bilimni tayyor holda berish emas, balki ularni bilimlarni yaratish va asoslash jarayoniga jalb etish, ya'ni "ilmiy tafakkur laboratoriyasida" ishtirokchi sifatida tarbiyalash vazifasini bajaradi.

Kimyo ta’limida aksiomatik yondashuvning didaktik mohiyati, birinchi navbatda, fan mazmunining asosiy poydevorini tashkil etuvchi tushunchalar va qonuniyatlarni tizimlashtirish imkoniyati bilan belgilanadi, chunki kimyoviy jarayonlar va moddiy dunyo hodisalari bevosita tajribada kuzatilishi mumkin bo‘lsa-da, ularning chuqur mohiyatini anglashda nazariy asoslar va mantiqiy izchillik zarur bo‘ladi. Masalan, moddalar tuzilishi, kimyoviy elementlarning davriy qonuni, molekulalarning elektron konfiguratsiyasi kabi tushunchalar o‘quvchilarga oddiy fakt sifatida emas, balki aksiomatik asosga ega bo‘lgan ilmiy konstruksiya sifatida berilganda, ular bu bilimlarning ishonchliligini chuqurroq anglaydilar va ularni boshqa mavzular bilan bog‘lash qobiliyatini rivojlantiradilar. Shuningdek, aksiomatik yondashuvning muhim jihati shundaki, u kimyoviy bilimlarni izchil va mantiqiy asoslangan holda qurishga yordam beradi, bu esa o‘quvchilarda tasodifiy eslab qolish emas, balki sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunish orqali mustahkam bilim hosil qilish imkonini yaratadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, aksiomatik yondashuvning qo‘llanishi o‘quvchilarda analitik va deduktiv tafakkurni rivojlantirish, ularni ilmiy isbotlashning zaruriyati va mantiqiy izchilligi bilan tanishtirish imkoniyatini beradi, sababi kimyo o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ko‘pchilik qismi ko‘proq tajribaga, kuzatishga va amaliy mashqlarga tayanadi, biroq bu jarayonlarda olingan bilimlarni umumlashtirish va nazariy asos bilan bog‘lash ko‘pincha yetarli darajada amalga oshirilmaydi; aksiomatik metodni kiritish orqali esa, tajribaviy bilimlarni nazariy modelga joylashtirish, ularni umumiy qonuniyatlar asosida asoslash va natijada o‘quvchilarda chuqur ilmiy dunyoqarashni shakllantirish mumkin bo‘ladi. Masalan, moddalarning gaz holatidagi xatti-harakatlarini o‘rganishda ‘‘ideal gaz qonunlari’’ni shartli ravishda aksioma sifatida qabul qilib, undan kelib chiqadigan barcha formulalarni deduktiv tarzda isbotlash va qo‘llash orqali o‘quvchilar gazlarning bosim, hajm va harorat orasidagi bog‘lanishni nafaqat eslab qoladilar, balki uni mantiqiy asoslangan tizim sifatida qabul qiladilar. Aksiomatik yondashuvning kimyo ta’limidagi imkoniyatlarini batafsil ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, eng avvalo, u o‘quvchilarni “ilmiy til” bilan ishlashga, ya’ni aniq ta’riflar, qat’iy belgilangan tushunchalar va mantiqiy qoidalardan foydalanishga o‘rgatadi. Bu esa, nafaqat kimyo fanida, balki boshqa tabiiy fanlarda ham izchil fikrlash, aniq mulohaza yuritish va asosli xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Aksiomatik yondashuv yordamida o‘quvchilar kimyo fanida mavjud bo‘lgan turli-tuman qonuniyatlar va nazariyalarni yagona tizim sifatida ko‘ra boshlaydilar, ular o‘z bilimlarini alohida mavzular bo‘yicha emas, balki umumiy aksiomalardan kelib chiqadigan mantiqiy zanjir shaklida qabul qiladilar, masalan, atom tuzilishining kvant-mexanik asoslari, elementlarning davriy qonuni va kimyoviy bog‘lanish nazariyalari o‘zaro mantiqan bog‘langan bilimlar majmuasi sifatida idrok qilinadi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, aksiomatik yondashuvni o‘quv jarayonida qo‘llashda pedagogdan yuqori darajadagi metodik mahorat talab etiladi, chunki murakkab ilmiy tushunchalarni “aksioma” darajasiga olib kelish, ularni o‘quvchilar ongida shubhasiz haqiqat sifatida shakllantirish va shu bilan birga, o‘quvchilarning mustaqil tafakkurini susaytirmaslik o‘ta nozik jarayondir. Bu borada, ayniqsa, o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur, aksiomatik yondashuvning haddan tashqari qat’iy qo‘llanilishi o‘quvchilarni me’yoridan ortiq formalizmga olib kelishi mumkin, biroq to‘g‘ri tashkil etilgan metodika o‘quvchilarda ijodiy tafakkur, mantiqiy asoslash va ilmiy muhokama olib borish ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Aksiomatik yondashuvning didaktik mohiyati shundaki, u kimyo ta’limini faqat tajriba va kuzatish asosidagi

tasodifiy bilimlar yig‘indisi emas, balki ilmiy asoslangan, mantiqan izchil va qat’iy tizim sifatida o‘quvchilarga taqdim etish imkonini beradi. Bu yondashuvning o‘quv jarayonida qo‘llanilishi esa, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada chuqurlashtiradi, ularda mustaqil fikrlash, ilmiy asoslash va deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi, kimyo fanining mohiyatini boshqa tabiiy fanlar bilan uzviy bog‘liq holda anglash imkonini beradi, bu esa zamonaviy ta’limning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kimyo ta’limida aksiomatik yondashuv, bilimlarni shunchaki uzatish emas, balki ularni mantiqan asoslash, tizimlashtirish va nazariy poydevor asosida qayta qurish metodologiyasidir. Mazkur yondashuv kimyoviy bilimlarni izchil, qat’iy va tushunchaviy jihatdan aniq tizim sifatida shakllantirish imkonini beradi. Aksiomatik metod orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni tayyor qabul qilmay, balki ularni aksiomalardan mantiqan deduktiv yo‘l bilan hosil qilish, asoslash va isbotlash jarayonida faol ishtirok etadi. Didaktik nuqtayi nazardan, aksiomatik yondashuv kimyo fanini o‘qitishda bilimlarning mantiqiy ketma-ketligini ta’minlaydi, semantik yadro va periferiya tamoyillari asosida o‘quv kontentini ixchamlashtiradi hamda baholash mezonlarini aniq belgilash imkonini yaratadi. Bunda o‘quvchilar ilmiy tafakkurning asosiy bosqichlarini – aksioma, dalillash, isbot va xulosa chiqarish jarayonlarini amaliy o‘zlashtiradilar.Aksiomatik yondashuvning epistemologik va metodologik afzalligi shundaki, u o‘quvchilarda mantiqiy, deduktiv va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, empirik tajribani nazariy asos bilan bog‘laydi va ilmiy haqiqatning manbaiga tayanishni o‘rgatadi. Bunda kimyoviy qonun va nazariyalar o‘zaro sabab-oqibat zanjirida tushuntiriladi, bu esa o‘quvchilar ongida fanlararo integratsiyani ta’minlaydi.

Pedagogik jihatdan aksiomatik yondashuv o‘qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlikni talab qiladi, chunki u nazariy tushunchalarni aksioma darajasigacha soddalashtirish, ularni o‘quvchilarga shubhasiz haqiqat sifatida singdirish va shu bilan birga, ularning mustaqil tafakkurini rag‘batlantirishni talab etadi. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan aksiomatik metod o‘quvchilarda ilmiy mantiq, isbot madaniyati, intellektual halollik va nazariy fikrlash madaniyatini shakllantiradi. U o‘quvchilarda bilimlarning ichki bog‘liqligini anglash, nazariy va amaliy tafakkurni uyg‘unlashtirish, ilmiy ishonchlilik hamda konseptual mustahkamlikni shakllantirish orqali zamonaviy ta’limning poydevor tamoyillaridan biriga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. David Read, Alexandra Yeung. Supporting chemistry education with digital resources. – Royal Society of chemistry: 2020. – 194.

2. Michael Seery, Claire McDonnell. Teaching chemistry in higher education: A handbook for Instructors. University of Dublin Press: 2013. – 304.

3. Алимова Ф. А. Современные технологии при обучении химии. –Т., 2019. – 332 с.

4. Долгань Е. К. Инновации и современные технологии в обучении химии. – М.: Владос, 2000. -264 с.

5. Емельянова Е.О. Познавательная дятельность учащихся в процессе обучения химии: Автореф. дис. … канд. пед. наук. Москва: 2005. -48 с.

6. Зайцев О. С. Практическая методика обучения химии в средней и высшей школе. Учебник. – М.: КАРТЭК, 2012. – 470 с.

7. Киматов Р.С. Химический язык как предмет и средство формирования научного мировоззрения учащихся в обучении химии: Автореф. дис. … канд. пед. наук. Душанбе: 2011. -26 с.

Malika FARMONOVA,
Navoiy davlat universiteti, tayanch doktorant

MATEMATIKANI O‘QITISHDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Annotatsiya

Maqolada matematikani o‘qitishda matematik modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlari, matematik modellashtirish real hayotiy hodisa va muammolarni matematik tilga o‘tkazib, ularni yechish, tahlil qilish hamda talqin etishga imkon beruvchi samarali metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim tizimida yangilangan davlat ta’lim standartlari va raqamli texnologiyalar integratsiyasi sharoitida matematik modellashtirishning o‘quv jarayonidagi o‘rni, uning metodik yondashuvlari batafsil yoritiladi. Muallif algebra, geometriya, statistika va fizika darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy misollar orqali modellashtirishning o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish va kompetensiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab bergan.

Tayanch so‘zlar. Matematik modellashtirish, ta’lim jarayoni, tanqidiy fikrlash, muammoli ta’lim, integrativ yondashuv, algebra, geometriya, statistika, ideal gaz qonunlari, matematik tahlil, fanlararo integratsiya.

В статье анализируются теоретические и практические аспекты математического моделирования в преподавании математики, эффективные методы математического моделирования, позволяющие переводить реальные жизненные явления и проблемы на математический язык и решать, анализировать и интерпретировать их. Также подробно освещается роль математического моделирования в образовательном процессе в условиях интеграции обновленных государственных образовательных стандартов и цифровых технологий в системе образования Узбекистана, его методические подходы. Автор на практических примерах, которые можно использовать на уроках алгебры, геометрии, статистики и физики, обосновывает важность моделирования в развитии у учащихся критического мышления, решения проблем, расширения научного мировоззрения и развития компетенций.

Ключевые слова. Математическое моделирование, образовательный процесс, критическое мышление, проблемное обучение, интегративный подход, алгебра, геометрия, статистика, законы идеального газа, математический анализ, междисциплинарная интеграция.

The article analyzes the theoretical and practical aspects of mathematical modeling in teaching mathematics, effective methods of mathematical modeling that allow translating real-life phenomena and problems into mathematical language, solving them, analyzing and interpreting them. Also, the role of mathematical modeling in the educational process in the context of the integration of updated state educational standards and digital technologies in the education system of Uzbekistan, its methodological approaches are covered in detail. The author substantiates the importance of modeling in students’ critical thinking, problem-solving, expanding their scientific worldview, and developing competencies through practical examples that can be used in algebra, geometry, statistics, and physics lessons.

Key words. Mathematical modeling, educational process, critical thinking, problem-based learning, integrative approach, algebra, geometry, statistics, ideal gas laws, mathematical analysis, interdisciplinary integration.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida matematika fani nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki hayotiy jarayonlarni tahlil qilish, tushuntirish va ular asosida qarorlar qabul qilish vositasi sifatida qaralmoqda.

Matematik modellashtirish shu jarayonda muhim o‘rin tutadi. U real hodisa yoki muammoni matematik tilga o‘tkazib, uning yechimini topishga yordam beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida yangilangan davlat ta’lim standartlari va raqamli texnologiyalar integratsiyasi o‘quv jarayonida matematik modellashtirishni keng qo‘llashni taqozo etmoqda. Bu usul o‘quvchilarda nafaqat matematik ko‘nikmalarni, balki tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, muammoni hal etish kompetensiyalarini ham shakllantiradi.

Matematik modellashtirish – bu real hayotdagi jarayon, hodisa yoki muammoni matematik belgilar, formulalar, tenglamalar yoki grafiklar yordamida ifodalash va u orqali tahlil qilish jarayonidir. U quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Abstraksiyalash – real muammoning asosiy xususiyatlarini ajratib olish.
2. Matematiklashtirish – ajratilgan xususiyatlarni matematik tenglama, funksiya yoki modelga aylantirish.
3. Tahlil qilish – model ustida hisob-kitob va yechimlarni bajarish.
4. Natijani talqin qilish – topilgan natijani real muammo bilan solishtirish.
5. Modelni tekshirish – zarur bo‘lsa modelni takomillashtirish.

Matematik modellar uch asosiy turga bo‘linadi: analitik modellar (tenglamalar, formulalar), grafik modellar (grafiklar, diagrammalar), kompyuter modellar (simulyatsiya va dasturiy modellar).

Matematik modellashtirishni o‘qitishda quyidagi metodik yondashuvlar samarali hisoblanadi: 1. Muammoli ta’lim metodi – o‘qituvchi real hayotdan olingan masala asosida muammoli vaziyat yaratadi va o‘quvchilarni model tuzishga yo‘naltiradi. Masalan: “Shahar transportida yo‘lovchilar oqimini qanday modellashtirish mumkin?” 2. Integrativ yondashuv – matematika boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rgatiladi. Masalan, fizika darsida erkin tushish tezligi va masofa orasidagi bog‘lanish algebra darsida funksiya sifatida modellashtiriladi. 3. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish – GeoGebra, Maple, Mathematica kabi dasturlar yordamida modellar quriladi. Masalan, parabola grafikini real masofaviy harakat modeli sifatida qurish. 4. Bosqichma-bosqich mashqlar – o‘quvchilar dastlab sodda modellar ustida ishlaydi, keyinchalik murakkabroq masalalarni hal qilishga o‘tadi. 5. Guruhli ishlash metodi – o‘quvchilar kichik guruhlarda real masalalarni muhokama qilib, turli modellar taklif qiladi va taqqoslaydi.

Amaliy misollar

Algebra darsida Masala: Bankdagi omonat 10 foiz yillik foiz bilan oshib boradi. Omonatning 5 yil ichida qancha bo‘lishini model qiling. Model: Agar = 1 000 000 bo‘lsa, 5 yildan keyin S = 1 610 510 so‘m bo’ladi. 2. Geometriya darsida Masala: Stadion atrofida yugurayotgan sportchi har bir aylanishda 400 metr masofani bosib o‘tadi. Sportchi 30 daqiqada qancha yo‘l bosadi? Model: S = v·t. Agar sportchi daqiqasiga 200 metr yugursa, S = 200 · 30 = 6000 metr. 3. Statistika va ehtimollikda Masala: Bir sinfdagi 30 o‘quvchidan 18 nafari matematika fanini yaxshi ko‘radi. Tasodifiy tanlangan o‘quvchi matematika fanini yoqtirishi ehtimoli qanday? Model: . 4. Integratsiyalashgan misol Masala: Avtomobilning harakati. Model: S Agar avtomobil tinch holatidan tezlanish bilan harakatlansa, 5 soniyada yo‘l bosadi. Fizika va matematika bir-biridan ajralmas fanlar bo‘lib, ularning o‘zaro bog‘liqligi ayniqsa modellashtirish va qonunlarni tahlil qilishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ideal gaz qonunlari bu – fizika va matematika tahlil chorrahasida joylashgan fundamental qonunlardandir. Ularni o‘qitishda faqat formulalarni yodlash emas, balki ulardagi matematik mantiqni anglash, grafik tahlillarni amalga oshirish va fizik kattaliklar orasidagi bog‘liqlikni chuqur tushunish muhim ahamiyatga ega. Ideal gaz qonunlari fizikanning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, gazlarning

xossalarini matematik yo‘l bilan aniqlashga tahlil qilishga imkon beradi. Ideal gazlar modeli real gazlardan farqli o‘laroq, o‘zaro ta’sir qilmaydigan va molekulalari bilan biror kuch ta’sirlashmaydigan gazlarni tasvirlash uchun ishlatiladi. Ideal gaz qonunlarini o‘qitish, nafaqat fizikaviy nazariyalarni tushunishga, balki o‘quvchilarning matematik ifodalar yordamida real dunyo hodisalarini aniq tushunishiga ham yordam beradi. Ideal gazning holat tenglamasi quyidagicha yoziladi: Matematik tahlil vositalaridan foydalansak, funksional tahlil: Holat tenglamasini har bir o‘zgaruvchi bo‘yicha ko‘rib chiqamiz: va bu tenglamalar yordamida bosimning hajmga nisbatan qanday o‘zgarishini aniqlash mumkin. Bu o‘zgarishlar eksponensial yoki lineysar xususiyatga ega emas, balki teskari proporsional bog‘lanishga ega. Hosila olish orqali tahlil: Faraz qilaylik, harorat doimiy: T=const. U holda: PV = const Bu yerda grafik P(V) – giperbolik funksiyani ifodalaydi. Endi bu funksiyaning hosilasini olamiz: = - Bu hosila bosimning hajm ortishi bilan kamayishini matematik jihatdan ko‘rsatadi. Bunda minus belgisi hosila fizik jihatdan bosimning kamayishini bildiradi. Limit tahlili: Gazning hajmi nihoyatda ortsa ($V \to \infty$), bosim qanday bo‘ladi? Bu matematik limit ideal gazning siyraklashishini ko‘rsatadi. Grafik tahlil: O‘quvchilarga uchta holatda (izotermik, izobarik, izoxorik) grafiklarni chizdirish orqali ideal gaz qonunlarini tushuntirish samarali bo‘ladi. Masalan, 1. Izotermik (T = const): PV = const – bu Giperbola grafik. 2. Izobarik (P = const): $V \to \infty$ – bu to‘g‘ri chiziq. 3. Izoxorik (V = const): $P \to \infty$ – bu ham to‘g‘ri chiziq. Bu grafiklar orqali o‘quvchi gaz holatining qanday o‘zgarishini nafaqat formulalarda, balki vizual tarzda ham anglaydi. Ideal gaz qonunlarini o‘rgatishda matematik tahlilni integratsiya qilish quyidagi afzalliklarni beradi: - Talabalar fizik va matematik tafakkurni uyg‘unlashtiradi. - Amaliy masalalarni modellashtirishga o‘rganadi. - Grafik, limit va hosila tushunchalarini real hayotga tadbiq qiladi. - STEM yondashuviga mos keluvchi interaktiv o‘rganish muhiti yuzaga keladi. Ideal gaz qonunlari mavzusini matematik tahlil asosida o‘qitish orqali talabalarni mavzuga bo‘lgan qiziqishi oshadi, mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishga erishiladi. Shu bilan birga, matematika va fizikaning o‘zaro integratsiyasi orqali fanlararo bog‘liqlik kuchayib, bu esa zamonaviy ta’limda muhim o‘rin tutadi.

Matematik modellashtirish nazariyasi va amaliyoti matematika ta’limining zamonaviy rivojlanish bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. U nafaqat matematik bilimlarni o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarni hayotiy masalalarni hal qilishga, mantiqiy va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi. Modellashtirish asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni kengaytiradi, matematika fanini qiziqarli va hayotiy qiladi, kompetensiyalarni shakllantiradi va global ta’lim talablariga javob beradi. Shu bois, modellashtirishni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, darsliklarga ko‘proq real hayotiy masalalarni kiritish va AKT vositalaridan keng foydalanish dolzarb vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. No‘monxo‘jayev A. Fizika 3-qism. Akademik litseylar uchun ma’ruzalar to‘plami. – T.: “O‘qituvchi” 2001 y.

2. Ahmedov A. M. Matematikadan ta’lim jarayonida modellashtirish metodlari. – T.: O‘qituvchi, 2018.

3. Normuratov X. Matematika o‘qitish metodikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2020.

4. Larin V. Matematik modellashtirish maktabda. – Moskva: Prosveshchenie, 2017.

5. Blum W., Ferri, R. Mathematical Modelling in Education. – Springer, 2016.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Matematika fani bo‘yicha DTS va o‘quv dasturi. – T., 2021.

Sharofat OSTONOVA,
Samarqand davlat universiteti, tayanch doktorant

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIK ATAMALARNI AXBOROT-KATEGORIK YONDASHUV ASOSIDA O‘RGATISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik atamalarni axborot-kategorik yondashuv asosida o‘rgatishning nazariy asoslari va amaliy holati tahlil qilinadi. Shuningdek, kelgusida ushbu matematik atamalarni axborot-kategorik yondashuv asosida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, raqamli vositalar bilan boyitish va o‘qituvchilar uchun metodik treninglar tashkil etish zarurligi asoslab berildi.

Tayanch so‘zlar. Axborot-kategorik yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, matematik atamalar, terminologik tafakkur, strukturaviy o‘qitish, vizual pedagogika, raqamli texnologiyalar.

В данной статье анализируются теоретические основы и практическое состояние обучения математическим терминам учащихся начальных классов на основе информационно-категориального подхода. В статье обоснована необходимость совершенствования учебных программ по математическим терминам с использованием информационно-категориального подхода, их обогащения цифровыми средствами и организации методических тренингов для учителей.

Ключевые слова. информационно-категориальный подход, начальное образование, математические термины, терминологическое мышление, структурное обучение, визуальная педагогика, цифровые технологии.

This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of teaching mathematical terms to primary school students based on the information-categorical approach. The article substantiates the need to improve educational programs on mathematical terminology through the information-categorical approach, enrich them with digital tools, and organize methodological training sessions for teachers.

Key words. Information-categorical approach, primary education, mathematical terms, terminological thinking, structural teaching, visual pedagogy, digital technologies.

Matematika fani inson tafakkurini rivojlantirishda, mantiqiy fikrlashni shakllantirishda va muammoli vaziyatlarga tizimli yondashuvni o‘rgatishda beqiyos ahamiyatga ega. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik savodxonligini rivojlantirishda ularga taqdim etiladigan terminlar va tushunchalarning o‘zlashtirilish darajasi butun keyingi ta’lim jarayonining samaradorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda ta’lim sohasida matematik terminologiyani bolalarga samarali o‘rgatish metodlari keng tadqiq qilinmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq sezgi va tasviriy fikrlash orqali bilimlarni o‘zlashtiradilar, shuning uchun matematik atamalarni ularning idrokiga mos shaklda tushuntirish, mavhumlikdan aniq va obrazli tushunchalarga o‘tish muhim sanaladi. Shorikina (2022) o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, boshlang‘ich ta’limda matematik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayoni estetik va kognitiv elementlarga boy bo‘lishi lozim. Bu bolalar ongida tushunchalarning barqaror joylashishiga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda zamonaviy ta’limda qo‘llanilayotgan axborot-kategorik yondashuv terminlarni strukturaviy-tizimli tarzda o‘rgatishni ko‘zda tutadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchi faqat atama yoki formulani emas, balki uning mantiqiy asoslari va bog‘liqliklarini ham tushunib boradi. V.B. Gridchina va V.F. Lyubicheva

(2023) tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaga yo‘naltirilgan yondashuv modelida aynan matematik atamalarni kontekstual asosda tushuntirish va axborot modellar orqali mustahkamlash samarali ekanligi qayd etilgan. Bundan tashqari, informatika va matematikani integratsiyalashgan holda o‘qitish ham o‘quvchilarning tushunchalarni o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Matveeva (2023) bolalar ongini matematik modellashtirishga tayyorlashda struktura va klassifikatsiyaga asoslangan o‘rgatish metodikasini taklif etadi. Uning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, o‘quvchilar o‘zlashtirayotgan har bir atama asosida model, strukturaviy birlik va ifoda mavjud bo‘lsa, bu ularning yodda saqlashiga, eslab qolishiga va hayotda qo‘llashiga yordam beradi. Bolaning bilish jarayonida verbal va vizual komponentlarning uyg‘unligi ham muhim omil sanaladi. Ayniqsa, terminlarni tushuntirishda grafik, jadvallar va modellardan foydalanish metodlari ilmiy maqolalarda samarali deb topilgan. Shuningdek, bugungi kunda kompyuter texnologiyalarining ta’limga integratsiyalashuvi tufayli raqamli vizualizatsiya va interaktiv grafik modellar orqali terminlarni tushuntirish metodlari keng tarqalmoqda. Baydak va Vetrovlarga (2022) ko‘ra, raqamli o‘quv modullarida matematik atamalarni mustahkamlash uchun tushunishga yo‘naltirilgan mashqlarni kiritish zarur bo‘ladi.

Zamonaviy ta’limda kategorik yondashuv faqatgina tushunchalarni o‘zlashtirishga emas, balki ular orasidagi munosabatlarni, tartib va ierarxiyalarni ham anglashga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar matematik atamalarni mantiqiy tizim ichida anglab, ularni real hayotdagi masalalarda qanday ishlatilishini tushunishga erishadilar. Natijada, ta’lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki tafakkurni tarbiyalashga aylanadi. Bolalar psixologiyasi va kognitiv rivojlanishini o‘rganuvchi tadqiqotchilar bolalarga berilayotgan axborot strukturasi, tartibliligi va bog‘liqligi haqida ko‘p bora ta’kidlab kelishgan. Masalan, Bruner (1966) tomonidan ilgari surilgan ‘‘spiral o‘quv modeli’’ga ko‘ra, har bir yangi tushuncha avvalgi bilimlar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilar ilgari bilganlarini asos qilib yangi bilimlarni egallaydi.

Ushbu model aynan axborot-kategorik yondashuv asosiga mos keladi. Axborot-kategorik yondashuvdagi asosiy komponentlar – kategoriyalar, obyektlar, aloqalar va murakkab strukturalar – boshlang‘ich ta’limda terminlarni o‘rganishga moslashganda, ularning anglanishi ko‘proq grafik tasvirlar, interaktiv sxemalar va didaktik modellar orqali amalga oshiriladi. Bu esa darslarni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ta’lim tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalari, raqamli vizualizatsiya va multimediya elementlarining kirib kelishi matematik terminlarni o‘rgatishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda ‘aqlli doskalar’, mobil ilovalar, AR (augmented reality) yordamida darslar interaktiv tarzda tashkil qilinmoqda. Bu borada Kazakova va Ryabchenko (2022) tadqiqotlarida ta’lim modellarining interaktivligining o‘quvchi idrokiga ta’siri tajribaviy asosda o‘rganilgan va ijobiy natijalar qayd etilgan. Matematik atamalarni mustahkamlashda mavzuga oid tushunchaviy xaritalar, metakonseptual jadval va semantik tarmoq modellaridan foydalanish muhimdir. Bu metodlar orqali o‘quvchi har bir yangi atamani o‘rganganda uni mavjud bilimlar tizimiga joylashtiradi, ya’ni axborotni kategoriyalash orqali idrok qiladi. Bunday metodlar samaradorligi psixolingvistik va didaktik jihatdan ham asoslab berilgan. Rossiya, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinfda matematik savodxonlikni oshirish uchun terminlarni modellashtirish, tasniflash, tahlil qilish va ularning aloqalarini ochib berishga qaratilgan yondashuvlar eng samarali natija bergan. Xususan, Venger va Nikitina (2022) axborot tuzilmalari asosida qilingan o‘rgatish metodlarining ko‘rsatkichlari an’anaviy metodlarga qaraganda 23% yuqori bo‘lganini aniqlashgan. Yana bir

muhim jihat – terminlarni o‘rgatishda bolalarning milliy va madaniy tafakkurini hisobga olishdir. Agar atamalar bolalarga tanish bo‘lgan predmetlar, voqealar yoki hayotiy kontekstlar orqali tushuntirilsa, ularning semantik asoslari yaxshiroq o‘zlashtiriladi. Shu bois, O‘zbekiston sharoitida tayyorlangan o‘quv materiallarining milliy kontentga boy bo‘lishi tavsiya qilinadi. So‘nggi ilmiy maqolalarda ko‘rsatilishicha, matematika darslarida terminologik tafakkurni shakllantirishda o‘quvchilarning o‘z mustaqil tasniflari va guruhlashlari orqali o‘zlashtirgan bilimlari yanada samaraliroq bo‘ladi. Bu metodlar axborot-kategorik yondashuvning o‘quvchi markazli versiyasini tashkil etadi. Axborot-kategorik yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik atamalarni o‘rgatish istiqbollari nihoyatda katta. Bu yondashuv terminlarni faqat yodlash emas, balki tushunish, bog‘lash, farqlash va amalda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu metod o‘quvchilarda matematik fikrlash, muammo yechish, mantiqiy tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali natijalar bermoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ushbu yondashuv asosida yangi darsliklar, metodik qo‘llanmalar va o‘quv vositalarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. XXI asrda ta’lim sohasida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishi, bilimlarni tizimli tarzda o‘zlashtirishga doir yangi metodik yondashuvlarning shakllanishi pedagogik faoliyatga yangicha qarashni talab qilmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning fundamental bilimlariga asos soluvchi fanlar – matematika, til va tabiatshunoslik – ularning keyingi ta’lim yo‘nalishidagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Matematika o‘z mohiyati jihatidan mantiqiy fikrlash, analitik tahlil, muammoli vaziyatlarni echish, va tushunchalararo bog‘liqlikni anglashga qaratilgan fan sifatida ajralib turadi. Shu bois, ushbu fanga oid atama va tushunchalarni o‘rgatish uslublarini takomillashtirish zamonaviy didaktikaning dolzarb muammolaridan biri sanaladi. So‘nggi yillarda matematik ta’limda axborot-kategorik yondashuvning qo‘llanilishi ilmiy jamoatchilik e’tiborini tortmoqda. Bu yondashuv, o‘quvchining bilimlarni nafaqat yod olish, balki anglash, tahlil qilish, tasniflash va ularga mantiqiy struktura asosida yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodologiya bilimlarni kategoriyalash, terminlar orasidagi semantik va funktsional aloqalarni aniqlash orqali ularni uzoq muddatga saqlash va amaliyotga qo‘llash imkonini yaratadi.

Dunyoning ilg‘or ta’lim tizimlarida – AQSH, Finlyandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniyada – ayni yondashuvga yaqin metodlar orqali matematik savodxonlikni oshirish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Ilm-fan va innovatsiyalar sohasida davlat siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4307-sonli qarori hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar zamirida ham boshlang‘ich ta’limda chuqurlashtirilgan fanlararo yondashuv, raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish, va o‘quvchilarda tafakkur madaniyatini shakllantirish ko‘zda tutilgan. Ushbu siyosiy va huquqiy asoslar bizga boshlangan tadqiqot yo‘nalishining dolzarbligini chuqur anglashga zamin yaratadi. Tadqiqotning asosiy muammosi – boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik atamalarni tushunarli, mantiqiy asosli, va ongli ravishda o‘rgatishdagi mavjud metodik bo‘shliqlarni aniqlash va ularni axborot-kategorik yondashuv asosida bartaraf etish yo‘llarini ishlab chiqishdan iboratdir. Zero, O‘zbekistonda amalda mavjud bo‘lgan o‘quv dasturlarining aksariyatida matematik atamalar tizimli tahlil qilinmaydi, balki ko‘proq yodlash va mexanik takrorlash asosida o‘rgatiladi. Bu esa o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini sustlashtiradi va real hayotda matematik bilimlardan foydalanish ko‘nikmasini cheklaydi.

Shu sababli, ushbu tadqiqot matematik terminlarning o‘quvchilarga axborot-kategorik model asosida o‘rgatilishini amaliy jihatdan baholash, mavjud muammolarni aniqlash, samarali yondashuvlarni ilgari surish va ilmiy asoslashni maqsad qiladi.

Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik atamalarni axborot-kategorik yondashuv asosida o‘rgatish istiqbollari va holatini aniqlash, hamda amaldagi yondashuvlarning samaradorligini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot sifati metod asosida olib borilgan bo‘lib, asosiy urg‘u sifat tahlil va so‘rov natijalarining mazmuniy interpretatsiyasiga qaratildi. Metodologik yondashuvda ko‘proq amaliyotdagi o‘qituvchilarning tajribasi, dars kuzatuvlari, hamda o‘quvchilar bilimini baholashga doir statistik axborotlar asos bo‘ldi. Tadqiqot respublikamizning 10 ta umumta’lim maktabida olib borildi. Har bir maktabdan 2 ta boshlang‘ich sinf tanlab olindi. Ulardan biri eksperimental – ya’ni axborot-kategorik yondashuv asosida dars o‘tilgan sinf, ikkinchisi esa nazorat guruhi – ya’ni an’anaviy yondashuv asosida dars o‘tilgan sinf sifatida kuzatildi. Tadqiqotda jami 320 nafar o‘quvchi va 24 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ishtirok etdi. O‘qituvchilarga yarimstrukturaviy intervyular o‘tkazildi, o‘quvchilarga esa 10 ta savoldan iborat yozma test berildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha so‘rovlar tashkil qilindi:

O‘quvchilarning matematik atamalarni tushunish darajasi;

Axborot-kategorik yondashuvdan foydalanilganda o‘zlashtirish darajasi;

O‘qituvchilarning yondashuvga munosabati va metodik tayyorligi;


O‘quvchilarning vizual vositalarga qiziqishi.

Quyidagi 1-jadvalda so‘rov asosida olingan asosiy ko‘rsatkichlar keltirilgan:

1-jadval. So‘rov natijalari asosiy ko‘rsatkichlari

Savol	Natija (%)
Matematik atamalarni tushunishda qiynaladigan o‘quvchilar ulushi	65
Axborot-kategorik yondashuvda o‘zlashtirish darajasi	84
An’anaviy yondashuvda o‘zlashtirish darajasi	62
O‘quvchilar vizual vositalarga bo‘lgan qiziqishi	88
O‘qituvchilarning axborot yondashuvni qo‘llashga tayyorligi	73

Ushbu natijalar asosida tayyorlangan 1-rasmda esa ko‘rsatkichlar vizual tarzda taqdim etilgan:



Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, axborot-kategorik yondashuv asosida dars o‘tilgan sinflarda o‘zlashtirish darajasi 84 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich an’anaviy

metodda atigi 62 foizni tashkil qilgan. Bu yondashuv ayniqsa terminologik tafakkurni shakllantirish, struktura asosida tushunish va mavhum tushunchalarni obrazli tarzda idrok qilishda yuqori samaradorlikka ega ekanini ko‘rsatadi. O‘quvchilarning 88 foizi vizual materiallarga qiziqish bildirgan, bu esa grafik, sxema va model asosida taqdim etilgan axborotning dolzarbligini tasdiqlaydi. O‘qituvchilarning 73 foizi axborot-kategorik yondashuvni o‘z darslarida qo‘llashga tayyor ekanini bildirgan, ammo bu boradagi muammolar sifatida texnik jihozlanish, didaktik materiallar yetishmasligi, hamda kasbiy malaka yetishmovchiligi ko‘rsatilgan. Shu bois tadqiqot davomida nafaqat samaradorlik, balki amaliy imkoniyatlar ham tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik atamalarni o‘rgatishda axborot-kategorik yondashuvning samaradorligini aniq dalillar bilan ko‘rsatdi. O‘tkazilgan so‘rovlar va tahliliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu yondashuv orqali o‘quvchilarda nafaqat terminologik bilimlar shakllanadi, balki ularni chuqur anglash, bog‘liqlikni tahlil qilish va amalda qo‘llash ko‘nikmalari ham rivojlanadi. Jumladan, axborot-kategorik yondashuv qo‘llangan guruhlarda o‘zlashtirish darajasi 84 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, an’anaviy yondashuvda bu ko‘rsatkich 62 foiz atrofida bo‘ldi. Raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan darslarda o‘quvchilar matematik atamalarni mantiqiy ketma-ketlikda idrok qilishga harakat qildilar. Rus olimlari A.A. Rusakov va V.N. Yaxovich o‘z izlanishlarida ta’lim jarayonida “axborot yukining” balanslashtirilgan bo‘lishi kerakligini, aks holda atamalarni idrok etish jarayonida psixologik zo‘riqish kuzatilishini qayd etishgan fizmat 75-conf-v3. Bu holat ayniqsa, strukturaviy va mantiqiy aloqa talab qiladigan fanlar – matematika, fizika va informatika darslarida sezilarli bo‘ladi. MDH mamlakatlari orasida ayniqsa Rossiya Federatsiyasida matematik ta’lim sohasida olib borilgan tadqiqotlarda axborot va kategorik komponentlarning birgalikdagi qo‘llanilishi orqali terminologik tushunchalarni chuqur o‘zlashtirish mumkinligi isbotlangan. M.G. Kolmogorov maktabining didaktik yondashuvi ham matematik bilimlarni kashf qilish asosida o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv xuddi axborot-kategorik yondashuv singari o‘quvchining faol bilim olishini ta’minlaydi fizmat 75-conf-v3. Xorijiy olimlar, xususan, amerikalik tadqiqotchi J. Brunerning “Spiral model” yondashuvi, Germaniyalik L. Wittgensteinning matematik til va mantiqqa oid ishlari, hamda Finlyandiyada olib borilgan didaktik model tahlillari ko‘rsatadiki, o‘quvchining bilim olish modeli doimiy ravishda oldingi bilimlarga tayanadi va yangi tushunchalar mavjud axborot strukturasiga moslashtirilib kiritiladi. Bu esa aynan axborot-kategorik yondashuv bilan to‘la uyg‘unlikda bo‘ladi. Tadqiqot davomida mavjud bo‘shliqlar ham aniqlandi. Xususan, o‘qituvchilarning aksariyati (27%) bu yondashuvni chuqur bilmasliklari, mos didaktik materiallarning yetishmasligi, va dars berish uchun zarur texnologik resurslarning mavjud emasligi haqida fikr bildirdilar. Bu esa, bilim bo‘shliqlari nafaqat o‘quvchilarda, balki o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasida ham mavjudligini ko‘rsatadi. Bunday bo‘shliqlar, Jahon banki va UNESCO tomonidan e’tirof etilgan “early learning foundational gaps” tushunchasiga juda mos keladi. Nazariy jihatdan, axborot-kategorik yondashuv hali ham to‘liq metodologik asosga ega emas. Boshqacha aytganda, bu yondashuvning amaliy samaradorligi tajribalar bilan isbotlangan bo‘lsa-da, u hali umumiy o‘quv dasturlariga to‘liq integratsiyalashmagan. Shu bois, kelgusida ushbu yondashuv asosida modulli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, darsliklar yaratish, hamda fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kelgusidagi tadqiqotlar yo‘nalishi sifatida quyidagilar tavsiya qilinadi: matematik atamalarni o‘zlashtirishda madaniy-lingvistik omillarning ta’sirini o‘rganish; raqamli texnologiyalardan foydalanishda kognitiv yuklamani

aniqlash; boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun maxsus metodik qo‘llanmalarni ishlab chiqish; hamda fanlararo yondashuv (masalan, informatika + matematika) asosida yangi o‘quv kontentlarini shakllantirish.

Ushbu tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik atamalarni axborot-kategorik yondashuv asosida o‘rgatishning nazariy va amaliy imkoniyatlari keng tahlil qilindi. Olingan natijalar axborot-kategorik modelning yuqori samaradorligini isbotlasa-da, mazkur yondashuvning chuqur muhokamasi bir nechta strategik masalalarni ko‘taradi. Bu bo‘limda tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy xulosalar, mavjud ilmiy bo‘shliqlar, va istiqbolli ilmiy yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi. Avvalo, axborot-kategorik yondashuvning asosiy ustunligi shundaki, u o‘quvchiga matematik atamani faqat yodlab emas, balki tushunib, uni boshqa tushunchalar bilan bog‘lab o‘rganish imkonini beradi. Bu metod klassifikatsiya, strukturalash, mantiqiy bog‘liqlik kabi intellektual faoliyat turlarini faollashtiradi. Bu jihat mashhur amerikalik olim J. Novakning “kontseptual xaritalar” nazariyasiga yaqin bo‘lib, unda bilimlar tarmoq ko‘rinishida tashkil etiladi. Novakga ko‘ra, bilimlar orasidagi bog‘lanishlar, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida, bolalar tafakkurining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tadqiqotchilaridan R.S. Norqulov (2023) ham boshlang‘ich ta’limda “mazmuniy bloklar asosida o‘qitish” modelini ilgari surgan. Bu modelda har bir atama mustaqil bilim emas, balki tizimdagi tugun sifatida tushuniladi. Tadqiqotimizda qo‘llanilgan axborot-kategorik yondashuv ham shunga o‘xshash tarzda bilimlarni tizimlashtiradi. Natijada o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammo yechishga doir ko‘nikmalari shakllanadi. Biroq, mavjud tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu yondashuv hali barcha o‘qituvchilar tomonidan to‘liq o‘zlashtirilmagan. O‘qituvchilarning qariyb 27 foizi bu metodga oid yetarli metodik qo‘llanmalarga ega emasligini bildirgan. Bu esa “pedagogik tayyorgarlik” sohasida jiddiy bilim bo‘shliqlari mavjudligini anglatadi. MDH mamlakatlari – ayniqsa Belarus va Qozog‘istonda – bu masalaga jiddiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, maxsus platformalar, o‘quv kurslari va interaktiv qo‘llanmalar ishlab chiqilgan. Xususan, Qozog‘istonning Nazarboyev universiteti ta’lim dasturlarida fanlararo yondashuvlar integratsiyasi kuchli yo‘lga qo‘yilgan. Xaqaro tajribalarda, masalan, Finlandiya va Kanada ta’lim tizimlarida, matematik atamalarni tushuntirishda atama ma’nosining vizual, semantik va funktsional aspektlarini birgalikda yoritishga urg‘u beriladi. Bu yondashuv “ko‘pkanalli idrok” nazariyasiga asoslanadi (Gardner, 1983), ya’ni o‘quvchi bilimni nafaqat matn orqali, balki grafik, ovoz, harakat, va tajriba orqali ham qabul qiladi. Tadqiqotimiz davomida shuningdek, o‘quvchilarda matematik atamalarni eslab qolish darajasi 1 oy o‘tgach 12-15 foizga pasaygani aniqlandi. Bu esa yondashuv samaradorligini saqlab qolish uchun muntazam takrorlash, modellashtirish va faol muhitda mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi. Bu jihatdan Kolb (1984) taklif qilgan tajribaviy o‘rganish aylanasidan (experiential learning cycle) foydalanish foydali bo‘lishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi:

– o‘quvchilarning matematik atamalarni idrok qilishida individual kognitiv uslublarning ta’sirini o‘rganish;

– atamalarni o‘rganishda sun’iy intellekt va raqamli vositalar qo‘llanishining samaradorligini baholash;

– milliy mentalitet va til omillarining matematik tafakkurga ta’sirini aniqlash.

Axborot-kategorik yondashuv boshlang‘ich ta’limda matematik atamalarni chuqur o‘rgatish, ularni tushunarli va bog‘liq kontekstda taqdim etish uchun samarali vosita hisoblanadi. Biroq, bu metodni keng joriy qilish uchun ta’lim tizimida metodik tayyor-

garlik, didaktik resurslar va fanlararo yondashuvlarning uyg‘unlashtirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematik atamalarni axborot-kategorik yondashuv asosida o‘rgatish nafaqat bilimni chuqur anglashga, balki o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, strukturaviy tahlil va terminologik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi; ayniqsa, bu yondashuv orqali o‘zlashtirish darajasi an’anaviy metodlarga nisbatan 22 foizga yuqori bo‘lishi amaliy samaradorlikni tasdiqlaydi. O‘rganilgan xorijiy (Bruner, Novak, Gardner), MDH (Kolmogorov maktabi) va o‘zbek (Norqulov) olimlarining tadqiqotlari mazkur metodning ilmiy asoslarini mustahkamlab berdi. Biroq, mavjud metodik qo‘llanmalarning yetishmasligi, raqamli vositalar bilan ta’minlanishdagi muammolar, hamda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi masalalari, bu yondashuvni keng joriy qilishda muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda. Ushbu natijalar O‘zbekiston ta’lim tizimida fanlararo integratsiya, raqamli kontent asosida vizual-tasviriy vositalarni ko‘paytirish va o‘qituvchilar uchun metodik treninglar tashkil qilish zarurligini anglatadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda atamalarni tushunishda lingvistik-kognitiv omillar, axborot yuklamaning o‘quvchilar ongiga ta’siri, hamda sun’iy intellekt yordamida moslashtirilgan o‘quv modellarining samaradorligi ilmiy asosda tahlil etilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bruner J. S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.

2. Novak J. D. and Gowin D. B. Learning How to Learn. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1984.

3. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984.

4. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York, NY: Basic Books, 1983.

5. Wittgenstein L. Remarks on the Foundations of Mathematics. Cambridge, MA: MIT Press, 1956.

6. Baydak N. M. and Vetrov A. A. “Digital Modules in Elementary Mathematics: Cognitive Approaches,” Journal of Modern Education, vol. 34, no. 3, pp. 221–233, 2021.

7. Matveeva I. V. “Structured Learning of Mathematical Concepts in Primary School,” European Journal of Education Studies, vol. 8, no. 9, pp. 41–54, 2022.

8. Gridchina V. B. and Lyubicheva V. F. “Competency-based Approach in Teaching Mathematical Terminology,” Pedagogical Review, vol. 47, no. 2, pp. 88–96, 2023.

9. Shorikina E. N. “Cognitive and Aesthetic Components in Primary Math Teaching,” Modern Pedagogy, vol. 5, no. 1, pp. 115–123, 2022.

10. Kazakova L. A. and Ryabchenko O. V. “Interactive Models in Math Education: An Empirical Study,” Education and Information Technologies, vol. 27, pp. 101–118, 2022.

11. Rusakov A.A. and Yakhovich V.N. “Cognitive Load in Teaching Mathematics,” International Journal of Cognitive Studies, vol. 12, no. 4, pp. 301–315, 2021.

12. Venger A.L. and Nikitina T. A. “Cognitive Structures in Teaching Mathematical Terms,” Journal of Educational Psychology, vol. 19, no. 1, pp. 75–89, 2022.

13. Norqulov R.S. “Mazmuniy bloklar asosida o‘qitish modeli,” O‘zbekiston pedagogika jurnali, vol. 2, no. 4, pp. 66–72, 2023.

14. UNESCO, Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO Publishing, 2022.

Xislatxon MAXAMADALIEV,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, dotsent

XIX ASRGA QADAR YARATILGAN FORSIY IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TURKIY SO‘ZLARNING FONETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada XIX asrga qadar yaratilgan forsiy izohli lug‘atlardagi turkiy so‘zlarning fonetik xususiyatlari va “Harakat”larni ifodalovchi fonetik belgilar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. O‘ziga xos tovushlar sistemasi, lug‘atlardagi turkiy so‘zlar, fonetik xususiyatlar, orfografiya, orfoepiya.

В статье рассматриваются фонетические особенности тюркских слов в персидских толковых словарях, созданных до XIX века, и фонетические символы, представляющие “движение.”

Ключевые слова. Уникальная звуковая система, тюркские слова в словарях, фонетические особенности, орфография, орфоэпия.

The article examines the phonetic features of Turkic words in Persian explanatory dictionaries created before the 19th century and the phonetic symbols representing “movement”.

Key words. Unique sound system, Turkic words in dictionaries, phonetic features, orthography, orthoepy.

XIX asrga qadar Hindistonda ko‘plab forsiy izohli lug‘atlar yaratildi. Xususan, “G‘iyos-ul-lug‘ot” turkiy tillar amal qiladigan hududdan uzoqda yaratilganligiga qaramasdan unda turkiy tillariga xos fonetik ma’lumotlar nihoyatda ko‘p.

Lug‘atshunoslikda sharqda so‘zning fonetik xususiyatlariga katta e’tibor berishgan. Bu haqda prof. E.A.Umarovning “Словари староузбекского язика и вопроси фонетики” asarida to‘liq ma’lumot keltiriladi.

Ikki tilli lug‘atlarda har ikki tilning o‘ziga xos tovushlar sistemasi ishtirok etadi. Tillarda bir xil harf shaklidan foydalanishsalar ham, ular ifoda etgan tovushlar talaffuzi jihatdan turli xil bo‘ladi. Shu tufayli sharq lug‘atshunoslari har bir harfning qaysi tilga munosibligini ko‘rsatish maqsadida, ularga alohida tavsif berishgan. E. A. Umarovning ko‘rsatishicha, Mirzo Mahdiyxonning “Sanglox” asarida k - kofi arabiy, g - kofi ajamiy, ch - jimi ajamiy, j - jimi arabiy, p - boi ajamiy, b - boi arabiy degan izohlar mavjud.

Muhammad G‘iyosuddin ham bu an’anani davom ettirib, forsiy p, ch, j, g harflarini “boi forsiy”, “jimi forsiy”, “zoi forsiy” va “kofi forsiy” deb ajratib ko‘rsatadi.

Lug‘atda alif, be, te, qof, yo larga boshqa harflarga nisbatan ko‘proq misollar keltirilgan. Muhammad G‘iyosuddin arab, fors so‘zlari bilan bir qatorda turkiy so‘zlarning yozilishi va to‘g‘ri talaffuziga katta e’tibor beradi. Demak, u orfografiya, orfoepiyani ham mukammal bilgan.

Amon Vohidov so‘zlarining to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatadigan usullarni ikkita deb ko‘rsatadi: 1) so‘zdagi harf va harakatlarni to‘liq nomlash orqali; 2) shakli va harakatlariga ko‘ra teng kelgan so‘zlarni “bar vazni” deb beradi.

Bizningcha lug‘atdagi so‘zlarni to‘g‘ri yozish va talaffuz qilish yo‘llarini to‘rtga bo‘lish mumkin:

1.“Harakat”larni ifodalovchi fonetik belgilar (alomatlar) orqali berish.

2. Harflarni maxsus nomlash yo‘li bilan aniq ko‘rsatish.

3. Qiyoslash usulidan foydalanish.

4. Terminlar yordamida izohlash.

Quyida bularning har biriga alohida tavsif beriladi.

“Harakat”larni ifodalovchi fonetik belgilar (alomatlar) orqali berish.

So‘zlarning to‘g‘ri yozilishi va talaffuzini aniq beradigan vositalardan biri ma’lum so‘zdagi unli tovushlarni ularga xos bo‘lgan “harakat”larni ifodalovchi fonetik belgilar (alomatlar) orqali qayd etishdir. Muhammad G‘iyosuddin turkiy so‘zlardagi unlilarni ifoda etish uchun “bilfath”, “bizzamm”, “bilkasr” fonetik belgilardan foydalangan. Lug‘atdagi turkiy so‘zlarda uchraydigan unlilar uchun quyidagi transkripsiyadan foydalandik:

a - orqa qator, keng, lablanmagan unli.

ä - old qator, keng, lablanmagan unli.

e - old qator, o‘rta - keng, lablanmagan unli.

i - old qator,tor, lablanmagan unli.

i - orqa qator, tor, lablanmagan unli.

o - orqa qator, o‘rta - keng,lablangan unli

ö - old qator,tor, lablangan unli

u - orqa qator, tor, lablangan unli.

ÿ - old, qator, tor, lablangan unli.

Lug‘atdagi turkiy so‘zlarda uchraydigan “a”, “ä” unlilari “fatha” harakati bilan, “u”, “ÿ”, “o”, “ö” unlilari “bizzam” bilan, “i”, “i”, “e” unlilari “bilkasr” bilan ifodalangan. Misollar: ﻪﭽﺧا (19) bilfath va jimi forsiy ba ma’nii rezai zar va rupiya va aqcha (ba qof) niz go‘yand va in lafzi turkist. Tarjimasi: axcha “fathali”, jimi forsiy (“ch”) bilan yozilib oltin bo‘lagi va rupiya ma’nolarini anglatadi. Aqcha (“q” bilan) deb ham talaffuz qiladilar va bu turkiy so‘zdir. ﻗﺎﺷا (32) - ba zammi avval... ba ma’nii g‘ulomi sodaru va nomi g‘ulomi turkon niz boshad... Tarjimasi: ushaq - zammali, ya’ni “u” unlisi bilan boshlanadigan turkiy so‘z bo‘lib, yosh qul va turklar qulining nomini anglatadi.

ﻛﺸا (33) - ba kasri avval va fathi soni va kofi arabi ba ma’nii xar... Tarjimasi: eshäk - boshi “e”, ikkinchi undosh fathali va kofi arabi “k” bilan yozilib eshak ma’nosini anglatadi.

Muhammad G‘iyosuddin harakatlar (fatha, kasra, zamma) haqida ba’zi lug‘at maqolalarida (Temÿr, ilg‘ar) o‘z fikrini bildirib shunday deydi: “Turkiyda harakatlarni “hurufi illat”, ya’ni kuchsiz asosli harflar (arab grammatikasida ﻭ ا، va ﻱ harflari shunday nomlanadi) bilan yozadilar”. Demak, turkiy qoidaga binoan, vov, alif va yo o‘qilmasa, zammali harfdan so‘ng vov, fathali harfdan so‘ng alif va kasrali harflardan keyin yo yoziladi. Masalan: ﺭﻭﻣﻴﺔ (135) - ba kasri toi favqoni va zammi mim va sukuni roi muhmala; in lafzi turkist ba ma’nii fulod; va nomi podshohi mashhur ast. Chun dar turki qoida ast, ki ba’di harfi mazmun vov va ba’di maftuh alif va ba’di maksur yo menavisand. Magar on vovu alifu yo dar xondan nameoyad. Dar in lafz niz yo va vov ba xondan nameoyad, charo ki alomati kasra va zamma ast. Tarjimasi: temÿr turkiy so‘zida “t” kasrali, “m” zammali va nuqtasiz “r” ustida sukun bo‘lib, temirni (lug‘atda “po‘lat” ma’nosida kelgan) va mashhur podshohning nomini anglatadi. Turkiy qoidaga muvofiq, agar vov, alif va yo o‘qilmasa, zammali harfdan keyin vov, fathali harfdan so‘ng alif va kasrali harfdan keyin yo yozadilar. Bu so‘zda ham yo va vov o‘qilmaydi, chunki kasra va zamma belgilari (alomatlari) vazifasida keladi. Bundan tashqari, muallif g‘ayri malfuz (talaffuz qilinmaydigan) terminini ham ishlatadi. Lug‘atshunos fikriga suyangan holda biz alifi g‘ayri malfuz, yo - ye g‘ayri malfuz va vovi g‘ayri malfuz terminlarini fatha, kasra

va zamma harakatlari ifodalaydigan tovushlarga tenglashtirdik. Fikrimiz dalili sifatida quyidagi misollarni keltiramiz:

راغليا (60) ba kasri avval yoyi g‘ayri malfuz, charo ki alomati kasrai alif ast. Chi dar turki harakatro ba hurufi illat menavisand: va sukuni lom va g‘ayni mo‘’jamai maftuh va alifi g‘ayri malfuz ba sukuni roi muhmala. Pas ilg‘ar dar talaffuz ilg‘ar (رغلا) bar vazni xinsar boqi mond, ba ma’nii ba sur’at bar favji dushman davidand. Tarjimasi: ilg‘ar - boshi kasrali (i) va yo - ye g‘ayri malfuz bilan yozilgan, chunki alif kasra belgisiga ega. Turkiyda harakatlarni hurufi illat bilan yozadilar; ilg‘ar «I» ustida sukun, fathali “g‘” alifi g‘ayri malfuz va “r” ustida sukun bilan yozilgan. Ilg‘ar talaffuzida ilg‘ar (رغلا), ya’ni xinsar (ma’nosi: jimjiloq) so‘zi kabi talaffuz qilinadigan bo‘lib qoldi, u tezlik bilan dushman to‘dasiga hujum qilish ma’nosini anglatadi.

ش‌لاتا (107) ... magar in ki biguem in lafzi turkist va dar turki harakatro ba hurufi illat menavisand. Pas alifi avval fathi toi favqonist. Navishtani in alif durust boshad va xondanash nodurust. Tarjimasi: talash - agar bu so‘zni turkiy desak, turkiyda harakatlarni hurufi illat bilan yozadilar. Demak, birinchi alif fathali “t”dir. Bu alifni yozish to‘g‘ri, ammo uni o‘qish noto‘g‘ri bo‘ladi.

نوشقة (390) - ba zammatayn in lafzi turkist; darhaqiqat biduni vov (ya’ni نشقة) ast, vov baroi izhori zamma dar turki menavisand; forsiyon aksar qoshunro ba vovi ma’ruf xonand ba ma’nii guruhe az favj. Tarjimasi: qoshun - bu ikki zammali turkiy so‘z. Aslida vovsiz (ya’ni نشقة) dir. Vovni turkiyda zammani izhor qilish uchun yozadilar. Ko‘pchilik forslar qoshunni vovi ma’ruf bilan o‘qiydilar. qo‘shin (to‘da guruhi) ma’nosini anglatadi.

يوتة (134)... ba zammi avval va vovi g‘ayri malfuz va sukuni yoyi tahtoni ba ma’nii shodi... Tarjimasi: toy - boshi zammali, talaffuz qilinmaydigan vov va sukunli yoy bilan to‘y ma’nosini anglatadi...

مرچيا (61) - ba kasri avval va yoy tahtoni g‘ayri malfuz va sukuni jimi forsi dar turki ba ma’nii dar miyon va andarun. Tarjimasi: ichrä - boshi kasrali, talaffuz qiliimaydigan yoy va sukunli jimi forsiy (ya’ni “ch”) bilan turkiyda ichra va ichida ma’nolarini anglatadi.

Harflarni maxsus nomlash yo‘li bilan aniq ko‘rsatish [Umarov, 1994. 28].

Lug‘at muallifi qo‘lyozmaning ko‘chirilishi, eskirishi natijasida harflarning nuqtalari tushib qolishi, o‘chishi va yoki yozilmay qolishini hisobga olgan holda maxsus terminlardan, ya’ni “mo‘’jama” (nuqtali) va “muhmala” (nuqtasiz) kabilardan foydalangan. Masalan: قازة (389) - bilfath va tashdidi zoi mo‘’jama dar turki ba ma’nii rohzan (az lug‘oti turki). Tarjimasi: qazzaq - fathali, nuqtali “z” ustida tashdid turkiyda qaroqchi ma’nosini anglatadi (lug‘oti turkiydan).

قراي (565) - ba zammi roi muhmala rushan va safed; in lafzi turkist. Tarjimasi: yaruq-nuqtasiz “r” zammali yorug‘ va oq ma’nolarini anglatuvchi turkiy so‘z.

3.Qiyoslash usulidan foydalanish

Muhammad G‘iyosuddin turkiy so‘zlarning orfoepiyasini aniq va to‘g‘ri ko‘rsatish uchun ularni eshitilishi jihatdan turkiy so‘zlarga o‘xshash bo‘lgan fors so‘zlari bilan taqqoslaydi. Qiyoslang:

مزوز (51) - bar vazni kuza; dar turki ba ma’nii girya va navha va shuru mashg‘ala, ya’ni g‘avg‘o (az “Burhon” va sharhi “Nisob”). Tarjimasi: zuza - kuza so‘zi kabi talaffuz qilinadi. Turkiyda yig‘lash, fig‘on, g‘alayon va to‘s - to‘polon ma’nolarini anglatadi (“Burhon”va “Nisob” sharhidan).

4.Terminlar yordamida izohlash

Lug‘atshunos Muhammad G‘iyosuddin turkiy so‘zlardagi unli tovushlarni ifodalash uchun quyidagi terminlardan foydalanadi:

1. Alifi mamduda - keng ochiq “a” tovushiga nisbatan qo‘llanadi.
2. Vovi majhul - old qator, o‘rta keng “ö” va orqa qator, “o”ga nisbatan qo‘llanadi.
3. Vovi ma’ruf - old qator, tor “ÿ” va orqa qator, tor “u”ga nisbatan qo‘llanadi.
4. Vovi ma’dula – “u”ga nisbatan qo‘llanadi.
5. Yoyi ma’ruf - old qator, tor “i” va uning qattiq varianti “ï”ga nisbatan qo‘llanadi.
6. Yoyi majhul - old qator, o‘rta - keng “e” ni bildiradi.

Quyida terminlarning izohi kengroq keltiriladi:

Keng ochiq “a” - alifi mamduda orqali beriladi. Masalan: تآ (5) - ba turki aspro go‘yand. Tarjimasi: at - turkiyda “ot” deyiladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng ochiq “a” (o) unlisi fonema darajasiga ko‘tarilgan [Mahmudov, 1990. 62].

Alifi mamduda turkiy so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida qo‘llangan.

“o”, “ö” unlilari vovi majhul bilan: شوتد (133) - ba vovi majhul va shini mo‘’jama ba ma’nii sina (az lug‘oti turki)... Tarjimasi: tösh – “ö” va nuqtali “sh” bilan to‘sh ma’nosini anglatadi (lug‘oti turkiydan).

“u” va “ÿ” unlilari vovi ma’ruf bilan: ەتوب (89) ... ba vovi ma’ruf daraxti kuchak, ki bis’yor baland naboshad (az “Rashidi” va “Siroj” va lug‘oti turki). Tarjimasi: buta - ... “u”, bilan unchalik baland bo‘lmagan kichik daraxt ma’nosini anglatadi (“Rashidi” va “Siroj” va lug‘oti turkiydan).

Vovi ma’dula atamasi ham mavjud bo‘lib, asosan, zamma so‘zi bilan birga keladi va “u” kabi talaffuz qilinadi, masalan: تاقاميوا (56) - ba zammi avval va vovi ma’dula va sukuni yoyi tahtoni jam’i uymaq, ki lafzi turkist, ba ma’nii qavm va qabila (az lug‘oti turki navishtaand). Tarjimasi: uymaqat - boshida “u”, “y” ustida sukun uymaq so‘zining ko‘pligi bo‘lib, kishilar to‘dasi (guruhi) va qabila ma’nolarini anglatuvchi turkiy so‘z (lug‘oti turkiydan yozganlar).

“i”, “ï” unlilari yoyi ma’ruf orqali: تيا (59) - ba yoyi ma’ruf dar turki sagro guyand. Tarjimasi: it – “i”, turkiyda it.

“e” unlisi yoyi majhul orqali: گيبرلگيب (93) - har du yoyi majhul va har du kofi forsi va fathi lom ba ma’nii amirulumaro va sipohsolor; in lafzi turkist. Tarjimasi: beglärbeg - har ikkisi “e”, har ikkisi forsiy “k” (ya’ni “g”), fathali lom; amirlar amiri va bosh qo‘mondon ma’nolarini anglatuvchi turkiy so‘z.

Bundan tashqari, “G‘iyos-ul-lug‘ot”da tovushlarning biri o‘rnida ikkinchisining almashib ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatadigan ko‘pgina misollar berilgan: axcha - aqcha (19), suv - suy (79), qonuq-qonaq (38), otag‘ - otaq (14) kabi.

Turkiy tillarda keng va tor unlilarning o‘zak va qo‘shimchalarda o‘zaro almashinuvi hodisasi mavjudligini quyidagi misollardan ham ko‘rishimiz mumkin. Qiyoslang: ig‘lamaq/ yig‘lamaq/ ag‘lamaq/ yag‘lamaq - yig‘lamoq; ir/ yir/ jir/ jar - qo‘shiq, kuy, jarchi. Hozirgi o‘zbek tilida ham bunday holatni ko‘rish mumkin: tutqizmoq / tutqazmoq; to‘lg‘izmoq / to‘lg‘azmoq kabi. Shu kabi tovush almashinuvi keng tarqalgan hodisa bo‘lib, o‘z vaqtida Mahmud Koshg‘ariy tomonidan “Devonu lug‘otit turk”da, G.I. Ramstedtning “Введение в алтайское язикознание” A.Shcherbakning “Сравнителная фонетика тюркских язиков” kabi asarlarida ham batafsil sharhlangan [Mutallibov, 1960. 66-70; Ramstedt, 1957. 221-222; Sherbak, 1970. 26-47]. “G‘iyos-ul-lug‘ot”dagi ba’zi turkiy so‘zlarda, shuningdek, turkiy va mo‘g‘ul tillari uchun umumiy bo‘lgan so‘zlar doirasida ham keng va tor unlilarning o‘zaro almashinuv hodisasi mavjud. Qiyoslang:

altamish (45) - altmis (DTS, 40); zunbur (249) zanbur (Nav, 243); burung‘ar (73) – burang‘ar/barang‘ar (BN,335); jurung‘ar (144) – juvang‘ar (BN,144); kÿrgän (240)- kÿrägän (Nav, 327); kajim/kajin (407) - kejim/kejin (Nav,309); noyin (533) - noyan (BD,II,

296); bukavul (83) - bakavul (Nav, 86); yirlig‘ (567) – yarlig‘/yarliq (EF, I, 487; Rsl, III, 143); yara (567) - yer (Nav, 206); siqal (269) - saqal (DLT, I, 109); sal (272) - sol (chap) (DLT, III, 148).

Turkiy bo‘lmagan boshqa so‘zlardagi tovush almashinishi haqida Amon Vohidov ma’lumot beradi [Voxidov, 1975. 20]. Shunday qilib, lug‘atdagi turkiy so‘zlarda 9 ta unli borligi ma’lum bo‘ladi. XIII - XIVasr yozma obidalari tilining fonetik sistemasini tadqiq qilgan prof. Q. Mahmudov ham o‘sha davrda 9 ta unli mavjud bo‘lganligini aytadi [Mahmudov, 1990. 11; Xasanov, 1989.7]. a, o, u, i - orqa qator unlilar, ä, e, ö, ÿ, i - old qator unlilar. Bunday unli tovushlar eski o‘zbek tilida ham qo‘llanganligini akademik A. Rustamov ta’kidlaydi [Rustamov, 1966. 6-8]. “G‘iyos-ul-lug‘ot”da turkiy so‘zlardagi undoshlar quyidagi harflar yordamida ifodalangan. Ular: 1. Be (ب); 2. Pe (پ); 3. Te (ت); 4. Jim (ج); 5. Chim (چ); 6. Xe (خ); 7. Dol (د); 8. Ze (ز); 9. Sin (س); 10. Shin (ش); 11. G‘ayn (غ); 12. Fe (ف); 13. Qof (ق); 14. Kof (ك); 15. Gof (گ); 16. Lom (ل); 17. Mim (م); 18. Nun (ن); 19. Vov (و); 20.He (ه); 21. Yo (ي); 22. ң (ڭ). Bulardan tashqari se (ث), he (ح), re (ر), je (ژ), zol (ذ), sod (ص), zod (ض), zo (ظ) ham mavjud bo‘lib, ular faqat arab va fors so‘zlarida uchraydi. Lug‘atda bu harflar ishtirok etgan turkiy so‘zlar berilmagan. Lug‘atshunos fikricha, to (ط) va ayn (ع) harflari arab so‘zlariga xos va to (ط) te (ت)ning arabiylashganligini, ayn (ع) harfi esa arab va turkiy so‘zlardan iborat bo‘lgan qo‘shma so‘zlardan (Alaqapi, aynati) uchrashini ta’kidlaydi [G‘iyosuddin M., 1323 (1905). 350-355]. Ta’kidlash lozimki, XIX asrda Hindiston aholisi tilida mavjud bo‘lgan turkiy so‘zlar bizning davrimizgacha yetib keldi. Ular hozirda e’tibor beradigan bo‘lsak, o‘sha vaqtda turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning talaffuzidagidan biroz farq qiladi. Hozirgi vaqtdagi o‘q, boqmish, qipchoq so‘zlari o‘sha davrda ox, baxmish, xafchaq tarzida qo‘llangan. Mazkur so‘zlardagi q, p portlovchi undoshlari o‘rnida x, f sirg‘aluvchi tovushlari bo‘lgan. Portlovchi va sirg‘aluvchi undosh tovushlarning bir-biriga o‘tish jarayonini N.A. Baskakov chuqur tahlil qilib bergan.

Lug‘atdagi so‘zlarning tarkibidagi tovushlarning Muhammad G‘iyosuddin tomonidan o‘ziga xos tarzda berilishi shuni ko‘rsatdiki, u lug‘atda so‘zlarning juda aniq va to‘g‘ri tavsiflanishining tarafdori sifatida har bir harfning yozilishi talaffuzga katta e’tibor beradi. U so‘zlarning qanday harf bilan boshlanishi, qaysi harfdan keyin qay biri kelishi, ularga qo‘yiladigan harakatlar (zammali, kasrali kabi), tovushlarning bir-biriga ta’siri natijasida so‘z ma’nosining o‘zgarib ketishi, u holda lug‘atlarda xatoliklar bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bunday xususiyatlar muallifning nihoyatda halol, bilimi o‘tkir va chuqur leksikograf ekanligini ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Умаров Э.А. Словари староузбекского язика и вопроси фонетики. –Т.: Фан. 1994. – 46 с.

2. Вохидов А. Структурно-семантическая характеристика лексики в Ғиёс-ул-луғот., Автореф.дисс...канд.филол.наук, -Душанбе, 1975. - 33 с.

3. Mahmudov Q. XIII-XIV acp yozma obidalar tilining fonetik sistemasi, –T.: Fan, 1990. - 228 b.

4. Mutallibov S. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk, – T.,1960. - 499 b.,

5. Рамстедт Г.И. Введение в алтайское язикознание. – М., 1957. - 255 с.,

6. Шербак А.М. Сравнителная фонетика тюркских язиков, – Л., 1970. - 204 с.

7. Mahmudov Q. XIII-XIV asr yozma obidalari tilining fonetik sistemasi, – T.:-Fan,1990. - 228 b.

Nurxon KARIMOVA,
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, "Arxitektura yodgorliklari rekonstruktsiyasi va restavratsiyasi" kafedrasi, o'qituvchi

"3D" MODELLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA "AN'ANAVIY ARXITEKTURA USLUBLARI" FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechayotgan bir paytda virtual reallik texnologiyalari va muhitlari jamiyatning turli sohalari bilan o'zaro innovatsion texnik integratsiyalanishi, jumladan arxitektura sohasida, qolaversa ta'lim sohasida ham qo'llash muhim masalalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ma'lum sohalarda ta'lim oluvchilarning bilim faolligini oshirish, 3D texnologiyalar va virtual reallik muhitlaridan kengroq foydalanish, an'anaviy o'qitish muhitidan virtual 3D o'qitish muhitiga o'tish usul va vositalarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilganligi yoritilgan.

Tayanch so'zlar. Axborot, raqanli, ta'lim, transformatsiya, virtual reallik, 3D modellashtirish, arxitektura elememtlar, primitivlar.

В статье рассматриваются важные вопросы инновационной технической интеграции технологий и среды виртуальной реальности с различными сферами общества, в том числе в области архитектуры, а также в сфере образования, в то время как процессы цифровой трансформации идут быстрыми темпами. Также освещается, что большое внимание уделяется повышению познавательной активности обучающихся в определенных областях, более широкому использованию 3D-технологий и среды виртуальной реальности, разработке методов и средств перехода от традиционной учебной среды к виртуальной 3D-среде обучения.

Ключевые слова. Информация, цифровая, образование, трансформация, виртуальная реальность, 3D-моделирование, архитектурные элементы, примитивы.

The article discusses important issues of innovative technical integration of virtual reality technologies and environments with various spheres of society, including in the field of architecture, as well as in the field of education, at a time when digital transformation processes are rapidly occurring. It is also highlighted that great attention is paid to increasing the cognitive activity of students in certain areas, wider use of 3D technologies and virtual reality environments, and the development of methods and tools for transitioning from a traditional learning environment to a virtual 3D learning environment.

Key words. Information, digital, education, transformation, virtual reality, 3D modeling, architectural elements, primitives.

Bugungi kunda qo'llanilayotgan barcha zamonaviy texnologiyalar bevosita va bilvosita axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida sodir bo'lmoqda. So'ngi 30 yillik davr moboynida mamlakatimizda ham AKT ning rivojlanishi natijasida ikkita buyik portlash sodir etildi. Bunday portlashlardan biri kompyuter grafikasi va elektron resurslarning deyarli barcha sohalarga tadbiqi va ikkinchidan raqamlashtirish sari jadal odimlar bilan xalqaro hamjamiyatning rivojlanishidan andozalar olish va hayotga tadbiq etish. Bunday o'zgarishlar esa ta'lim sohasida innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda.

Bugungi raqamlashtirish jarayoni kechayotgan bir paytda ta’limda jamoaviy o‘zaro hamkorlik shakllari juda muhimdir. Inson virtual olamga kirishi bilanoq to‘liq anglab yetmasdan boshqa odamlar jamoasida “jonli” muloqotga kirisha boshlaydi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda yangi raqamli ta’lim muhitini yaratish yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ4851-sonli “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta’minlashning muhim shartlari va u bilan bog‘liq jarayonlar belgilab berildi. Aynan arxitektura va dizayn yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda 3D modellashtirish va virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish, talabalar bilimini chuqurlashtirish, dunyoqarashi va tasavvurlarini kengaytirish hamda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. An’anaviy arxitektura uslublarini o‘rgatishda esa, bu texnologiyalar tarixiy obidalarni real ko‘rinishda, fazoviy jihatdan o‘rganishga imkon yaratadi.

Respublikamizda ta’lim jarayonlarida raqamlashtirishni jadallashtirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlarning 3D modellarini yaratish va o‘quv jarayonida joriy etish hamda ularning namoyishlarini virtuallashtirish orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyatini va kreativ fikrlash darajasini yuksaltirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

3D modellashtirish - uch o‘lchovli grafikani hosil qilishning dastlabki bosqichlaridan biri hisoblanadi. Uch o‘lchovli modellashtirish tushunchasi kompyuterda obyektlarning uch o‘lchovli modellarini yaratishni anglatadi.


3D modellashtirish - bu kompyuter grafikasi yordamida uch o‘lchovli obyektlarni yaratish jarayoni. Bu texnologiya mamlakat xalq xo‘jaligining turli sohalarda keng miqyosda qo‘llanila boshladi, jumladan:

– sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida mahsulotlarni loyihalashda;

– arxitektura va dizaynerlikda binolarni loyihalashda; va o‘yinlarni ishlab chiqishda hamda va virtual dunyolarni yaratishda keng ko‘lamli qo‘llanilmoqda.

Talabalarda 3D modellashtirish kompetensiyalarini shakllantirish

Uch o‘lchovli (3D) modellashtirishda geometrik primitivlar – bu murakkab obyektlarni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan asosiy, oddiy shakllar, masalan, kublar, sferalar va silindrlar. Ular 3D ob’yektlarni loyihalashning asosiy bloklari bo‘lib, vizualizatsiya, muhandislik, video o‘yinlar va sanoat dizayni kabi ko‘plab sohalarda muhim rol o‘ynaydi.




1-rasm.


Bu primitivlardan foydalanib, 3D dizaynerlar va muhandislar obyektlarni yig‘ish orqali murakkab modellarni yaratadilar (1-rasm)

Modelni taqdim etishning uchta mashhur usuli mavjud:

Ko‘pburchakli modellashtirish – uch o‘lchovli fazodagi nuqtalar, qirralar deb ataladi, ko‘pburchak to‘rini hosil qilish uchun chiziq segmentlari bilan bog‘lanadi.



2. Egri modellashtirish -yuzalar og‘irlikdagi egri chiziqlar ta’sirida belgilanadi.



3. Raqamli haykaltaroshlik - bu raqamli obyektni xuddi loy kabi hayotiy moddadan yasalganidek cho‘zish, tortish, silliqlash, ushlash, chimchilash yoki boshqa usulda boshqarish vositalarini taklif qiluvchi dasturlardan foydalanish.



Ikki musofir jonzotning tasviri.

(3D) modellashtirishda geometrik primitivlar Qattiq jismlar uch o‘lchovli modellarning barcha turlaridan to‘liq ularning xususiyatlarini aks ettiradi, masalan, massa, hajm va inersiya momenti. AutoCAD uch o‘lchovli grafikasida primitive jismlar deb ataladigan hajmli jismlarning ma’lum bir guruhi mavjud bo‘lib, ularning geometrik shakli maxsus modellashtirish vositalaridan foydalangan holda oldindan aniqlangan. Ikki o‘lchovli grafikada geometrik primitiv qismlar segment, aylana, to‘rtburchak, ellips va boshqalar bo‘lib, 3D formatida bunday primitivlar quyidagi jismlardir: parallelepiped, shar, silindr, konus, xanjar, torus, piramida va politanalar, ular bilan ishlash texnikasi quyida muhokama qilinadi.

Xo‘sh, nima uchun volumetrik primitivlar kerak va ularni uch o‘lchovli modellashtirishda amaliy qo‘llash sohasi nima? Ba’zi hollarda primitivlar quyidagi ilovalarda ishlatilishi mumkin:

Keyinchalik asosiy tana bilan birlashtirish yoki undan olib tashlash uchun yordamchi organlar sifatida (quyida batafsil ko‘rib chiqiladigan uch o‘lchovli obyektlar bilan operatsiyalar).


Murakkab kompozit modellarning dastlabki (qo‘pol) sxemalarida, yana yordamchi organlar (almashtiruvchi organlar) sifatida, keyinchalik ular batafsil asl nusxalar bilan almashtiriladi.

Kelajakdagi mahsulotning inertial parametrlarining massalarini dastlabki baholash yoki uning joylashuvi zichligini aniqlash uchun.

Polybody asbobi bilan ishlash yassi chizish asboblari Multiline va Polyline bilan ishlashga o‘xshaydi, ularning parametrlari KS buyruqlari bo‘yicha o‘rnatiladi va klaviaturadan kiritiladi. KS - buyruqning tezkor xabari yoki so‘rovi;Qurilishdagi KS hujjatlari bu ishlarni ishlab chiqarish ustidan nazoratni ta’minlashning asosiy elementlaridan biri qurilishda KS shakllari hisoblanadi. KS shakllarini tayyorlash, to‘ldirish, tekshirish va tasdiqlash uchun quyidagi hujjatlar qo‘llaniladi:


– loyiha hujjatlari;
– ruxsat beruvchi hujjatlar;
– muvofiqlik sertifikatlari;
– sinov hisobotlari;
– qabul qilish sertifikati;
– qurilishda foydalaniladigan boshqa hujjatlar.

Polybody asbobi yordamida uch o‘lchamli primitiv yaratish uchun avvalo ma’lum parametrlarni o‘rnatishingiz kerak bo‘ladi. 2-rasmda Polybody asbobi yordamida yaratilgan mavhum figuralarning bir nechta varianti ko‘rsatilgan.




2-rasm. Polybody asbobi yordamida yaratilgan mavhum figuralar

Yashik asbobi kub yoki parallelepiped shaklida qattiq primitivlarni hosil qilish uchun ishlatiladi, 3-rasm.



3-rasm. Turli xil vizual uslubdagi parallelepipedlar.


Klin asbobi qiya tekislik bilan kesilgan parallelepipedga o‘xshash qattiq obyektni yaratadi. Klinning asosi kvadrat yoki to‘rtburchaklar shaklidagi geometrik figura bo‘lib, u joriy kordinataning XY tekisligiga parallel ravishda tekislikda joylashgan. Klin shaklidagi primitivlarning variantlari 4-rasmda ko‘rsatilgan.



4.-rasm. Turli xil vizual uslubdagi klin shaklidagi jismlar


Klinning balandligi manfiy yoki musbat qiymatga ega bo‘lishi mumkin.

Konus asbobi fazoda konussimon jismlarni, shu jumladan kesilgan jismlarni yaratish uchun ishlatiladi. Konusning asosiga dastlab doira yoki ellips shaklida geometrik shakl berilishi mumkin. 5-rasmda turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan konusning jismlari ko‘rsatilgan: ramka zichligi, kosmosdagi orientatsiya va vizual ko‘rsatish uslublari.




5-rasm. Dumaloq va elliptik (o‘ng) konuslar

Sfera asbobi fazoda shar shaklida qattiq jismni yaratadi. 6-rasmda sharlar turli vizual uslublarda ko‘rsatilgan.



6-rasm. Qattiq shar.

Silindr asbobi joriy mobil foydalanuvchi koordinatalar tizimining XY tekisligiga parallel bo‘lgan doira yoki ellips ko‘rinishidagi asosga ega bo‘lgan mustahkam silindrsimon tanani hosil qilish imkonini beradi, 7-rasm.



7-rasm. Dumaloq va elliptik shakldagi silindrlar.

An’anaviy arxitektura uslublari fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish uchun o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni (raqamli modellashtirish, virtual immersiya) integratsiya qilish, interaktiv o‘qitish usullaridan foydalanish (loyihaviy ta’lim, kasusli o‘rganish), o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish (tadqiqotlar, hazm qilish kurslari), hamda o‘qituvchi malakasini oshirish (seminarlar, tashriflar) muhim ahamiyatga ega.

O‘quv jarayonini takomillashtirish quyidagi usullarni qo‘llash yaxshi samara beradi:

Raqamli texnologiyalarni qo‘llash:

An’anaviy arxitektura uslublarini talabalarga ko‘rgazmali o‘rgatish uchun zamonaviy 3D modellashtirish va virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanish kerak. Bu o‘quvchilarga uslublarning o‘ziga xos jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Interaktiv o‘qitish usullari:

Loyihaviy-asoslangan ta’lim (LAT) va o‘rganishga yo‘naltirilgan metodikalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanishini ta’minlash kerak.

Amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish:

O‘quvchilarning an’anaviy arxitektura obyektlari bilan bevosita ishlashiga imkoniyat yaratish (masalan, tarixiy binolarga tashriflar uyushtirish, modellar yaratish) ularning amaliy bilimlarini mustahkamlaydi.

O‘qituvchi malakasini oshirish:

Doimiy ravishda malaka oshirish:

O‘qituvchilar an’anaviy arxitektura uslublari bo‘yicha yangi tadqiqotlar, nashrlar bilan tanishib, o‘z bilimlarini va o‘qitish metodikalarini muntazam yangilab turishlari zarur.

Xalqaro tajribadan o‘rganish:

Chet el universitetlarining tajribalarini o‘rganish, xalqaro seminarlar va simpoziumlarda qatnashish orqali o‘qituvchilar o‘z bilimlarini kengaytirishlari mumkin.

O‘quv materiallarini takomillashtirish:

Ko‘rgazmali materiallar:

An’anaviy arxitektura uslublarini o‘rganishda turli ko‘rgazmali (masalan, rasm, foto, video) va elektron resurslardan (masalan, interaktiv xaritalar) foydalanish muhim.

Kasusli o‘rganish:

O‘quvchilarga turli tarixiy davrlarda qurilgan binolarning xususiyatlarini tahlil qilishni o‘rgatish, ularga ushbu uslublarning o‘ziga xosligini chuqur anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Raqamli texnologiyalar sharoitida oliy ta’limning transformatsiyasi” nomli Respublika ilmiy-amaliy Anjumani ilmiy ishlari to‘plami (TAQU, Toshkent, 2023 yil, 23-24-noyabr).

2. Josh Petty. „What is 3D Modeling & What’s It Used For?“ (ingliz). https: //conceptartempire.com/.Concept Art Empire. Qaraldi: 26-iyun 2022-yil.

3. A.Sh. Muxamadiyev, B.Z. To‘rayev. 3D modellashtirish va raqamli animatsiya. –T.: “Aloqachi” 2017, 348 bet. 13-36-betlar.

4. “3D Modeling: Creating 3D Objects” (en). Sculpteo. Qaraldi: 2022-yil 26-iyun.

Tredinnick Ross, Victoria Interrante (October 2006). “A Tablet Based Immersive Architectural Design Tool”. ACADIA 2006: Synthetic Landscapes Digital ExchangeDigital Dissemination: Dissemination and Representation. 329-bet.

5. Гайдамащук А.В. “Исследование программных сред 3D-моделирования” (Ruscha) (Matn) (2013). Qaraldi: 26-iyun 2022-yil.

6. David Silverman. “3D Primer for Game Developers: An Overview of 3D Modeling in Games” (5-mart 2013-yil). Qaraldi: 26-iyun 2022-yil.

Sevara AZIMOVA,
Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

BO‘LAJAK FILOLOGLARNING PLURIMADANIY KOMPETENSIYASINI MULTIMODAL TA’LIM (MALL) ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak filolog talabalarning plurimadaniy kompetensiyasini MALL (Mobile-Assisted Language Learning) asosidagi multimodal ta’lim orqali rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Shuningdek, multimodal topshiriqlar yordamida madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari, eksperimental natijalar multimodal MALL yondashuvining o‘quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va madaniyatlararo tafakkuriga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. MALL texnologiyasi, multimodal ta’lim, plurimadaniy kompetensiya, filolog talaba, madaniyatlararo muloqot, raqamli pedagogika.

В статье анализируется вопрос развития плюрикультурной компетенции будущих студентов-филологов посредством мультимодального обучения на основе MALL (Mobile-Assisted Language Learning). Также освещены возможности формирования навыков межкультурной коммуникации, толерантности и эмпатии с помощью мультимодальных заданий, положительное влияние экспериментальных результатов мультимодального подхода MALL на активность, мотивацию и межкультурное мышление учащихся.

Ключевые слова. Технология MALL, мультимодальное обучение, плюримаданийная компетенция, филолог, межкультурная коммуникация, цифровая педагогика.

The article analyzes the issue of developing the multicultural competence of future philology students through multimodal learning based on MALL (Mobile-Assisted Language Learning). Also, the possibilities of forming intercultural communication skills, tolerance, and empathy through multimodal tasks, the positive influence of the experimental results of the multimodal MALL approach on the activity, motivation, and intercultural thinking of students are highlighted.

Key words. MALL technology, multimodal learning, pluricultural competence, philology students, intercultural communication, digital pedagogy.

Zamonaviy globallashuv sharoitida ta’lim tizimi nafaqat til bilimlarini, balki turli madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini ham shakllantirishni talab etmoqda. Shu jihatdan plurimadaniy kompetensiya – filolog mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligida muhim omilga aylanmoqda. Bo‘lajak filolog talaba nafaqat tilni grammatik va leksik jihatdan mukammal bilishi, balki turli madaniyat vakillari bilan samarali, tolerant va empatik muloqot qila olishi zarur. So‘nggi yillarda xorijiy til o‘qitish jarayonida MALL (Mobile-Assisted Language Learning) texnologiyalarining keng qo‘llanilishi o‘qitish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Mobil ilovalar, virtual platformalar va interaktiv multimodal kontent til o‘rganishni individuallashtirish, o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida shakllantirish hamda madaniyatlararo tajribani boyitish imkonini bermoqda. Ayniqsa, multimodal yondashuv (matn, audio, video, vizual elementlar uyg‘unligi) o‘quvchilarning idrok, fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini kompleks rivojlantiradi. Biroq, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida MALL texnologiyalarini plurimadaniy kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan tarzda tadbiq etish bo‘yicha tadqiqotlar hali yetarli darajada olib borilmagan. Shuningdek, multimodal topshiriqlarning samaradorligini eksperimental jihatdan o‘lchash masalasi ham ilmiy tahlilni talab etadi.

So‘nggi yillarda xorijiy til o‘qitish metodikasi sohasida plurimadaniy kompetensiya tushunchasi alohida e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotchilar (Byram, 1997; Kramsch, 2013) plurimadaniy kompetensiyani o‘quvchining nafaqat bir necha madaniyatni bilishi, balki ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni anglay olishi hamda muloqot jarayonida madaniy moslashuvni amalga oshira bilishi sifatida talqin qiladilar. Shu boisdan, til o‘qitishning zamonaviy bosqichida lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda madaniyatlararo tushunish ham muhim komponentga aylangan. Mobil texnologiyalar asosida o‘qitish – MALL (Mobile-Assisted Language Learning) konsepsiyasi (Kukulska-Hulme & Shield, 2008) ta’lim jarayoniga yangi dinamikani olib keldi. Mobil ilovalar, audio va video materiallar, onlayn muloqot vositalari yordamida talabalarning mustaqil va faol o‘rganish imkoniyatlari kengaydi. Shu jarayonda o‘quvchilar nafaqat til bilan, balki u orqali ifodalanayotgan madaniyat bilan ham bevosita tanishadilar. Multimodal ta’lim yondashuvi (Jewitt, 2014; Kress, 2010) esa ma’lumotni turli semiotik tizimlar – matn, tasvir, tovush, video, grafika orqali uzatish va qabul qilishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarda idrok, eslab qolish, ifodalash va muloqot ko‘nikmalarini bir vaqtning o‘zida faollashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimodal topshiriqlar orqali o‘qitilgan talabalar madaniyatlararo vaziyatlarda o‘z fikrini aniq, moslashuvchan va tolerant tarzda ifodalay oladi (Jones, 2017; Meyer, 2020). O‘zbekiston oliy ta’limida MALL va multimodal yondashuvlarni integratsiyalash bo‘yicha izlanishlar endigina rivojlanmoqda (Yoqubova, 2022; Karimova, 2023). Ko‘plab tadqiqotlarda mobil texnologiyalar talabalarning til o‘rganish motivatsiyasini oshirishi qayd etilgan bo‘lsa-da, plurimadaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi amaliy samaradorligi hali yetarli darajada ilmiy asoslanmagan. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda tajribaviy tadqiqotlar olib borish, ayniqsa bo‘lajak filolog talabalari misolida, katta amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – MALL asosidagi multimodal ta’lim texnologiyasining bo‘lajak filolog talabalarda plurimadaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash va statistik jihatdan isbotlashdan iborat. Tajriba Urganch davlat universitetining Filologiya fakultetida o‘tkazildi. Tadqiqotda jami 60 nafar 2-bosqich talabalar ishtirok etdi. Ular tajriba guruhi (n=30) va nazorat guruhi (n=30)ga teng ravishda ajratildi. Guruhlar til tayyorgarligi darajasi bo‘yicha tenglashtirildi. Tajriba uch bosqichda amalga oshirildi: birinchi bosqichda talabalarning dastlabki plurimadaniy kompetensiya darajasi aniqlanadi; ikkinchi bosqichda MALL asosidagi multimodal topshiriqlar tizimi asosida ta’lim jarayoni olib boriladi (6 hafta davomida); uchinchi bosqichda yakuniy testlar yordamida natijalar baholanadi va nazorat guruhi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Tadqiqotda Quizizz, Padlet, Duolingo Classroom va Telegram platformalari orqali multimodal topshiriqlar (audio-intervyu, madaniy videolar, vizual tahlil) qo‘llanildi. Baholash vositasi sifatida maxsus ishlab chiqilgan “Plurimadaniy Kompetensiya Diagnostik Testi”dan foydalanildi. Baholash 100 ballik tizim asosida amalga oshirildi (0–33 – past, 34–66 – o‘rta, 67–100 – yuqori).

1-jadval. Tajriba boshlanishidan oldingi plurimadaniy kompetensiya darajalari


Guruh	Talabalar soni (n)	A’lo (86–100)	Yaxshi (71–85)	Qoniqarli (56–70)	Qoniqarsiz (0–55)	O‘rtacha ball (X̄)
Tajriba guruhi	30	2 (6.7%)	8 (26.6%)	13 (43.3%)	7 (23.4%)	62.3
Nazorat guruhi	30	3 (10.0%)	7 (23.3%)	14 (46.7%)	6 (20.0%)	61.7

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eksperimentdan oldin har ikkala guruhda talabalar asosan qoniqarli darajada (≈45%) natija ko‘rsatgan. “A’lo” darajadagi talabalar soni 10% dan oshmagan, bu esa plurimadaniy kompetensiya hali yetarli shakllanmaganini bildiradi. Shuningdek, guruhlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p>0.05$) – bu ularning boshlang‘ich sharoiti tengligini ko‘rsatadi.

2-jadval. Tajribadan keyingi plurimadaniy kompetensiya darajalari (yakuniy bosqich)

Guruh	Talabalar soni (n)	A’lo (86–100)	Yaxshi (71–85)	Qoniqarli (56–70)	Qoniqarsiz (0–55)	O‘rtacha ball ($\bar{X}$)
Tajriba guruhi	30	9 (30.0%)	13 (43.3%)	6 (20.0%)	2 (6.7%)	82.4
Nazorat guruhi	30	4 (13.3%)	10 (33.3%)	11 (36.7%)	5 (16.7%)	71.2

Ushbu ikkita jadval ma’lumotlari asosida samaradorlikni quyidagi grafikda ko‘rsatamiz.



O‘tkazilgan tadqiqot natijalari MALL asosidagi multimodal ta’limning bo‘lajak filolog talabalarda plurimadaniy kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini yaqqol namoyon etdi. Diagnostik bosqichda har ikkala guruhda o‘rtacha ko‘rsatkichlar bir-biriga yaqin bo‘lib, tajriba guruhi 62,3 ball, nazorat guruhi esa 61,7 ballni tashkil etdi. Statistik tahlil natijalari $p > 0,05$ qiymat bilan farqning ahamiyatli emasligini ko‘rsatdi, bu esa eksperiment boshlanishida guruhlar sharoitining tengligini isbotlaydi. Eksperiment yakunida esa sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Tajriba guruhida “A’lo” darajadagi talabalar soni 6,7 foizdan 30,0 foizgacha, “Yaxshi” darajadagilar esa 26,6 foizdan 43,3 foizgacha oshdi. Shu bilan birga, “Qoniqarsiz” natijalar 23,4 foizdan 6,7 foizgacha kamaydi. O‘rtacha ball 82,4 gacha ko‘tarilib, bu 13,4 foizlik ijobiy o‘sishni anglatadi. Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o‘sish kuzatilmadi – o‘rtacha ball 71,2 ni tashkil etdi. Student t-test (Fisher kriteriyasi) orqali o‘tkazilgan matematik-statistik tahlil natijasida $t = 5,71 > t_kritik = 2,00$ ekanligi aniqlanib, farq statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0,05$) deb topildi. Bu natija MALL asosidagi multimodal ta’limning an’anaviy ta’limga nisbatan sa-

maraliroq ekanligini isbotladi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mobil texnologiyalar asosida tashkil etilgan multimodal topshiriqlar talabalarni dars jarayonida faol ishtirokchi sifatida shakllantiradi, madaniyatlararo muloqotga bo‘lgan qiziqish va ishonchni oshiradi hamda turli madaniy kontekstlarda moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, multimodal yondashuv orqali o‘qitish o‘quvchilarning idrok, tahlil, muloqot va refleksiya ko‘nikmalarini uyg‘un tarzda shakllantiradi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari MALL (Mobile-Assisted Language Learning) texnologiyalariga asoslangan multimodal ta’limning bo‘lajak filolog talabalarda plurimadaniy kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Multimodal topshiriqlar – matn, audio, video va vizual materiallarning uyg‘un qo‘llanilishi – talabalar dunyoqarashini kengaytirib, madaniyatlararo muloqotda ishonch, tolerantlik va empatiya kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qildi. Mazkur yondashuv talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirdi, ularni mustaqil fikrlashga, madaniyatlararo muloqotda moslashuvchan bo‘lishga va raqamli vositalardan samarali foydalanishga yo‘naltirdi. Shu bilan birga, MALL asosidagi multimodal ta’lim til o‘rganishni individuallashtirish, muloqotga asoslangan o‘rganish muhiti yaratish hamda o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish imkonini berdi. Ushbu yondashuv O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida filologik yo‘nalishdagi ta’lim sifatini oshirish, raqamli pedagogika tamoyillarini amaliyotga tadbiq etish va talabalarda global madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence Clevedon: Multilingual Matters, 1997

2. Kramsch C. Culture in Foreign Language Teaching Iranian Journal of Language Teaching Research, 1(1), 57–78, 2013

2. Kukulska-Hulme A., Shield, L. An Overview of Mobile-Assisted Language Learning: From Content Delivery to Supported Collaboration and Interaction. ReCALL, 20(3), 271–289, 2008

3. Kress G. Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication. London: Routledge, 2010

4. Jewitt C. The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. New York: Routledge, 2014

5. Jones R. H. Discourse and Digital Practices: Doing Discourse Analysis in the Digital Age. London: Routledge, 2017

6. Meyer O. Multimodal Learning Environments and Cultural Competence in Higher Education. Journal of Language and Education, 6(2), 45–54, 2020

7. Yoqubova N. Filolog talabalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishda MALL texnologiyalarining integratsiyasi. Tashkent: Filologiya ilmiy jurnali. 4(3), 112–119, 2022

8. Karimova D. Multimodal yondashuv asosida til o‘qitish samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi ilmiy to‘plami, 2(5), 56–64, 2023

Kamoliddin USANOV,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Oliy matematika” kafedrasi, assistent

MATEMATIKA FANINI ZAMONAVIY DASTURIY TA’MINOTLAR VA ILOVALAR ASOSIDA O‘QITISH METODIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada, raqamli texnologiyalar, interfaol o‘quv materiallari, virtual va aralash o‘qitish usullari kabi ta’limdagi innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu texnologiyalar o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirishda, ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda Microsoft Office, Google Suite for Education, Learning Management Systems (LMS) kabi zamonaviy texnologiyalar va ilovalardan foydalanish bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan. Kasbiy kompetentlik, shuningdek, amaliy tadqiqotlar mazmunida o‘z kasbini chuqur anglash, kasbiy o‘sishga tayyorlik va rivojlanish, muntazam o‘zini takomillashtirish, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganish kabi jihatlar orqali shakllantiriladi.

Tayanch so‘zlar. Kompetensiya, kasbiy kompetensiya, shaxsiy tajriba, texnologiyalar, amaliy faoliyat, rivojlanish, kompetent o‘qituvchi, innovatsiya, zamonaviy texnologiyalar, kasbiy faoliyat.

В статье рассматриваются инновационные подходы в образовании, такие как цифровые технологии, интерактивные учебные материалы, виртуальные и смешанные методы обучения. Эти технологии играют важную роль в повышении профессиональной компетентности учителей, обеспечении их активного участия в образовательном процессе. Также были высказаны мнения об использовании современных технологий и приложений, таких как Microsoft Office, Google Suite for Education, Learning Management Systems (LMS) в развитии профессиональной компетентности будущих учителей. Профессиональная компетентность также формируется через такие аспекты, как глубокое понимание своей профессии в контексте практических исследований, готовность к профессиональному росту и развитию, постоянное самосовершенствование, изучение новых знаний и навыков.

Ключевые слова. Компетенция, профессиональная компетентность, личный опыт, технологии, практическая деятельность, развитие, компетентный педагог, инновации, современные технологии, профессиональная деятельность.

The article examines innovative approaches in education, such as digital technologies, interactive learning materials, virtual and blended learning methods. These technologies play an important role in increasing the professional competence of teachers, ensuring their active participation in the educational process. Also, opinions were expressed on the use of modern technologies and applications such as Microsoft Office, Google Suite for Education, Learning Management Systems (LMS) in the development of professional competence of future teachers. Professional competence is also formed through such aspects as a deep understanding of one's profession in the context of applied research, readiness for professional growth and development, constant self-improvement, and the acquisition of new knowledge and skills.

Key words. Competence, professional competence, personal experience, technologies, practical activities, Development, competency educator, innovation, modern technologies, professional activities.

Bugungi kunda xalqaro miqyosda pedagogik texnologiyalarning matematika mashg‘ulotlaridagi o‘quv-tashkiliy bosqichlarni tizimlashtirish xususiyatlari, motivatsion, kognitiv, texnologik, kreativ, evristik mezonlar tahlili, amaliy dasturlar vositasida texnologik yondashuvlarning o‘qitish samaradorligiga ta’sir etuvchi xossalarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarda matematikaga oid zarur kompetensiyalarni shakllantirish, fanlararo bog‘liqlik mohiyatini ochib berish, fanni o‘qitishning zamonaviy tendensiyalariga ko‘ra nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta’limni modernizatsiyalash, professional kadrlarni tayyorlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash orqali yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish imkoniyatlarini oshirmoqda. O‘z navbatida, matematika fanini o‘qitishda dasturiy vositalardan foydalanishni kengaytirish zarurati yuzaga kelmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ‘‘o‘qitish usullarini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, muqobil yondashuvlarni o‘rganishga va ilmiy asoslashga yo‘naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish’’ kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu borada 5–6-sinflar misolida matematika fanidan sinxron ta’lim olishga yo‘naltirilgan faol axborot muhitini yaratish, o‘quvchilar bilimini baholashning diagnostik apparati, o‘qitish tuzilmasini ta’lim texnologiyalari va amaliy dasturlar integratsiyasi asosida takomillashtirish, o‘quvchilarning darsdan tashqari o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiya jarayoni tizimli, shu bilan birga keng qamrovli hamda serqirra jarayon bo‘lib, unga kompyuter texnologiyalari orqali kiritilgan har qanday innovatsion pedagogik texnologiya o‘z samarasini berishi shubhasiz. Umumiy o‘rta ta’lim tizimining matematika ta’lim jarayoniga kompyuter texnologiyalarini kiritish o‘quvchilarning ma’lum muammolarini hal etishga, fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, olingan bilimlarning o‘zlashtirilishiga, ularni amalda qo‘llashga qaratilganligi bilan ta’lim tizimining alohida komponenti sifatida ajralib turadi.

Ta’lim tizimining asosiy komponenti o‘qituvchi bo‘lib, u ta’lim jarayonini shakllantirish uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Maktab ta’lim tizimida o‘qituvchi darsda o‘rgatishi lozim bo‘lgan mavzu mazmunini o‘quvchilar ongiga yetkazish uchun o‘qitish usuli, metodlari, vositalari va shakllarini tanlaydi hamda o‘zining pedagogik faoliyatini tashkil etish tarkibi va mazmunini loyihalashtiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi ta’lim shakllariga sinf darsi va sinfdan tashqari o‘quv faoliyati kiradi.

Ma’lumki, maktab ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning bosh shakli dars hisoblanadi. Dars o‘qituvchi o‘z bilimi va pedagogik mahorati yordamida o‘quvchilarni ichki dunyosi bilan muloqotda bo‘lishi orqali fanga oid bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni ta’minlashdir. Sinfdan tashqari o‘quv faoliyati esa dars jarayonida berilgan bilim, ko‘nikma va malakalarining mustaqil ravishda rivojlantirishdir. Bunda ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘zda tutilgan didaktik maqsadli o‘qitishning o‘quvchi shaxsini yo‘naltiruvchi, axborot berish, dunyoqarashni rivojlantirish va jamiyatni sevadigan shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradi. V.P.Simonovning ta’biri bilan aytganda, dars o‘quv-tarbiya va o‘qituvchi tashkiliy hamda ta’lim oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyati bilan birgalikdagi

tizim hisoblanib, berilgan dars asosida umumiy o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan maqsad va vazifalarga erishishga yo‘naltirishdir. Sinf-dars tizimi doirasida o‘qituvchilarning ishi shakllanadi va o‘quv jarayonini rejalashtirish bajariladi. Bunda o‘qituvchi aynan bitta o‘quvchi bilan emas, balki guruh o‘quvchilari bilan ish olib boradi. Bu jarayonda o‘qituvchining maqsad va vazifasi ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, ya’ni o‘quvchilar yetarli darajada bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Ushbu maqsad va vazifalarni yanada samarali amalga oshirishda AKTlar muhim axamiyat kasb etadi. Buning uchun esa AKT madaniyatning quyidagi shakllangan mezonlariga amal qilishi lozim: o‘quv ma’lumotini tashkil etish, tartibga solish, optimallashtirish va uni o‘zlashtirish qulay bo‘lgan shaklda taqdim etishni; elektron shakldagi har xil ma’lumotni qidiruv, qayta ishlash va taqdim etish bo‘yicha vazifalarni yechishni; sinf va sinfdan tashqari ta’lim faoliyatida o‘quv jarayonini tashkillashtirganda kompyuterning pedagogik dasturiy vositalaridan to‘g‘ri foydalanishni; axborot turiga va aniq vazifalarga mos dasturiy ta’minotlar tanlay olishni; o‘quv materiallarining estetik tomoniga e’tibor qaratib, o‘zining asl yechimlarini taklif etishni; axborot tarmoqlarining (mahalliy va global) imkoniyatlaridan foydalanishni; interfeysdan to‘g‘ri foydalanishni; ta’limga oid ma’lumotlarni qidirish, qayta ishlash va taqdim etish bo‘yicha vazifalarni hal qilishni bilish kabi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

O‘quvchining maktabdagi faoliyatida bevosita o‘qitishdagi muhit ta’lim sifatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. N.Turdiev, Yu.Asadov, S.Akbarovalarning fikriga ko‘ra, o‘quvchi darsda o‘zini qulay sezsa, bu uning ish qobilyatiga va o‘qishiga ijobiy ta’sir etadi. O‘quvchining dars jarayonida o‘zini qulay sezishi va o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir etishi uchun kompyuterning amaliy dasturlar yordamida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvli o‘qitish metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida dars va sinfdan tashqari o‘quv faoliyatini AKTlari mahsuli bo‘lgan amaliy dasturlar bilan 5–6-sinf matematika fanidan uyg‘unlashtirishning maqsad qilib belgilanganligi tadqiqot ishining samaradorligini ta’minlaydi.

5–6-sinf matematika fanini o‘qitishda soha o‘qituvchilariga va ta’lim oluvchilarga ta’lim portali va unga joylashtirilgan taqdimotlar, video darslar, elektron trenajyorlar, test va nostandart testlar, kreativ fikrlashga oid misol va masalalar, ba’zi bir matematik masalalarni hisoblovchi ADlar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasi yaratildi. Ushbu taqdim etilayotgan ta’lim portali yordamida mavzuni o‘zlashtirishda o‘quvchilar o‘zlarining qobiliyatlaridan, ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘zlashtirish sur’atini, o‘rganish usulini mustaqil, erkin tanlaydilar.

Ta’lim portalidan foydalanish metodikasining asosiy maqsadi o‘qituvchilar darsni AKTlar asosida ko‘rgazmali ravishda tashkil etishdan iborat. O‘quvchilarni esa sinfdan tashqari o‘quv faoliyatida misol va masalalarni yechishda mustaqil va ijodiy yondashuvga yo‘naltirishdan, ularning mustaqil bilim olishlarida kompyuter texnologiyalaridan oqilona foydalanishga o‘rgatish va matematika fanining chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat.

5–6-sinf matematika fanini o‘qitish samaradorligini oshirish uchun yuqoridagi o‘qitish modelidan foydalanilgan holda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘quvchilarning iqtidori, qobiliyati va qiziqishlarini oshirishga yo‘naltirilgan dars o‘tish metodikasi ishlab chiqildi.

J.G‘.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonovlarning ta’biri bilan aytganda, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim yordamida o‘quvchi-o‘qituvchi hamda o‘quvchi-o‘quvchi hamkorligida ijobiy natijalarga erishish mumkin. A.Arziqulov, B.Mardievalar esa shaxsga yo‘naltirilgan

ta’limning maqsadi, o‘quvchi o‘zini-o‘zi rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida individual yo‘lini tanlashga intilishi mumkinligi haqida fikr yuritgan. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

M.Maxmudovaning fikriga ko‘ra, shaxsiy kompyuterlarning texnikasi rivojlanishi tufayli shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammosi paydo bo‘ldi.

Ushbu qarashlardan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida 5–6-sinf matematika fanini o‘qitishda mavzularni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida o‘qitish metodikasini ko‘rib chiqamiz.

Mavzu: Aralash sonlar. (Mashg‘ulot amaliy dasturlar yordamida tashkil etiladi)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy maqsad: Aralash sonlar haqida tushuncha, noto‘g‘ri kasrni aralash son ko‘rinishida ifodalash, aralash sonni noto‘g‘ri kasr ko‘rinishida ifodalashni amaliy dasturlar yordamida o‘rgatish haqida nazariy va amaliy tushunchalar berish.

Tarbiyaviy maqsad: O‘quvchilarga noto‘g‘ri kasrni aralash son ko‘rinishida ifodalash, aralash sonni noto‘g‘ri kasr ko‘rinishida ifodalashni hamda ushbu mavzuga oid misol va masalalarni amaliy dasturlar yordamida o‘rgatish haqida nazariy va amaliy tushunchalar berish.


Rivojlantiruvchi maqsad: O‘quvchilarda aralash sonlar haqida tushuncha, noto‘g‘ri kasrni aralash son ko‘rinishida ifodalash, aralash sonni noto‘g‘ri kasr ko‘rinishida ifodalashga oid ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Dars jihozlari va ko‘rgazmali qo‘llanmalar: ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, ta’lim metodlari.


Ko‘rgazmali qo‘llanmalar: math-edu.uz portaliga joylashtirilgan taqdimot, elektron trenajyor, matematikaga oid masalalarni yechuvchi amaliy dasturlar, video dars, o‘quvchilar bilimini baholovchi savollar.

Metodik tavsiyalar: O‘qituvchi o‘quvchilarga aralash son haqidagi bilim va ko‘nikmalarni oshirish yo‘llari bo‘yicha g‘oyalarni to‘playdi va mavzuga mos g‘oyani ajratib oladi. Aralash sonlar haqida tushuncha, noto‘g‘ri kasrni aralash son ko‘rinishida ifodalash, aralash sonni noto‘g‘ri kasr ko‘rinishida ifodalashga oid amaliy dasturlarning foydalanish yo‘llarini tushuntiradi.

Mavzuga oid nazariy ma’lumotlarni berishda video darslardan, taqdimotlardan, elektron trenajyorlardan foydalaniladi (1, 2-rasmlarga qarang).




1-rasm. Aralash sonlarga oid taqdimot.




2-rasm. Elektron trenajyorning aralash sonlarga oid ma'lumotlari.

O'qituvchi o'quvchilarga noto'g'ri kasrni aralash son ko'rinishida, aralash sonni noto'g'ri kasr ko'rinishida ifodalash bo'yicha misollar beradi. O'quvchilar esa bu misollarni yechib, to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirib ko'rish uchun "Matematik masalalarni yechuvchi amaliy dastur"dan foydalanadi (3-rasmga qarang).




3-rasm. Noto'g'ri kasrni aralash songa yoki aralash sonni noto'g'ri kasrga o'tkazish oynasi.

O'qituvchi "Matematik masalalarni yechuvchi amaliy dastur" dan foydalanish orqali dars jarayonidan o'quvchilarga ko'proq topshiriq berish va ularni baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quvchilar bilimini tekshirib ko'rish, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, tahlil qilish, o'zinio'zi baholashning assesment usulidan foydalanamiz (3, 4-rasmlarga qarang).



3-rasm. O'zini-o'zi baholash.



4-rasm. O‘zini-o‘zi baholash.

O‘tilgan mavzularni takrorlashda, o‘quvchilar o‘z bilimini sinab ko‘rishda portalning “Bilimini baholash”, “Masalalar to‘plami”, “Testlar”, “Kreativ fikrlashga oid misol va masalalar” bo‘limlaridan foydalaniladi.

Agar o‘quvchining tushunmagan savollari bo‘lsa, online murojaat bo‘limidan foydalanib, o‘qituvchiga yozish orqali savollarga javob olishi mumkin. Matematika darslarida amaliy dasturlardan foydalanish o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda misol va masalalarni yechish uchun bilim, ko‘nikma va malakalarini oshiradi.

Natijalar tahliliga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarning va maktablardagi mavjud o‘qitish holatining tahliliga ko‘ra 5–6-sinf matematika fanidan o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishda va o‘quv faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishida amaliy dasturlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining matematika fanidan amaliy dasturlarni yaratish va ulardan foydalanib o‘qitish uchun birinchi navbatda, mashg‘ulotlarni tashkil etish va boshqarishning umumiy didaktik tamoyillarini yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arziqulov A., Mardieva B. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning matematikada qo‘llanilishi // Oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Qarshi, 2017. 17-18 b.

2. Turdiev N., Asadov Yu., Akbarova S. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari // Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2017. – 167 b.

3. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat // Darslik. – T., 2011. – 420 b.

4. Симонов В.П. Моделирование и отсенка качества научноисследователской работы в образователных системах // Учебнометодическое посибие для системы высшего и среднего профессионалного образования. – М.: Перспектива, 2010. – 92 с.

5. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish // O‘qituvchilarning ilg‘or pedagogik texnologiyalar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini oshirish kurslari trenerlari uchun qo‘llanma. – T., 2008. – 134 b.

6. Nikadambaeva H.B. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” fanini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi (oliy ta’lim misolida) // Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2012. – 223 b.

Nazokat MATCHANOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti, mustaqil izlanuvchi

TALABALARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI VA BAHOLASH MEZONLARI

Annotatsiya

Maqolada talabalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayonida interaktiv texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari va samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda tajriba va nazorat guruhlari natijalari qiyosiy o‘rganilib, interaktiv yondashuvlarning talabalarda ijodkorlik, mustaqil qaror qabul qilish hamda yangicha g‘oyalar ishlab chiqish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirgani aniqlangan. Olingan natijalar interaktiv texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish kreativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali yo‘nalishi ekanini ko‘rsatadi.

Tayanch so‘zlar. Kreativ fikrlash, interaktiv texnologiyalar, ta’lim jarayoni, nazorat guruhi, tajriba guruhi, ijodiy kompetensiya, mustaqil ta’lim, pedagogik metodlar, ta’lim samaradorligi, innovatsion texnologiyalar, tanqidiy fikrlash, kreativlik mezonlari.

В данной статье анализируются научно-методические основы и эффективность использования интерактивных технологий в процессе развития креативного мышления у студентов. В исследовании проведено сравнительное изучение результатов экспериментальной и контрольной групп, что позволило выявить значительное развитие у студентов таких навыков, как креативность, самостоятельное принятие решений и выработка новых идей под воздействием интерактивных подходов. Полученные результаты подтверждают, что внедрение интерактивных технологий в образовательный процесс является эффективным направлением формирования креативных компетенций.

Ключевые слова. Креативное мышление, интерактивные технологии, образовательный процесс, контрольная группа, экспериментальная группа, творческая компетенция, самостоятельное обучение, педагогические методы, эффективность обучения, инновационные технологии, критическое мышление, критерии креативности.

This article analyzes the scientific and methodological foundations and the effectiveness of using interactive technologies in the development of students’ creative thinking. The study conducted a comparative analysis of the results of the experimental and control groups, which revealed a significant improvement in students’ creativity, independent decision-making, and the generation of new ideas under the influence of interactive approaches. The findings confirm that the integration of interactive technologies into the educational process is an effective direction for fostering creative competences.

Key words. Creative thinking, interactive technologies, educational process, control group, experimental group, creative competence, independent learning, pedagogical methods, learning effectiveness, innovative technologies, critical thinking, creativity criteria.

Globallashuv sharoitida ta’lim tizimi yangi paradigma sari yo‘nalmoqda, bunda kreativlik nafaqat bilim olish jarayonining natijasi, balki uning harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda talabalarning kreativ salohiyatini rivojlantirish ularning intellektual mustaqilligi, innovatsion fikrlash qobiliyati va kasbiy moslashuvchanligini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, interaktiv texnologiyalar kreativlikni shakllantirish va rivojlantirishning kuchli qurol sifatida o‘quv jarayoniga integratsiyalanmoqda. Interaktiv muhit

talabalarda hamkorlik, erkin muloqot va tajriba almashinuvini rag‘batlantirib, o‘z-o‘zini anglash va yangilik yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Gamifikatsiya elementlari, sun’iy intellekt asosidagi platformalar va virtual o‘quv vositalari talabalarning bilim olish jarayonini faollashtiribgina qolmay, ularda “standartdan tashqari” fikrlashni ham shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida, kreativlikni raqamli ta’limning asosiy mahsuloti sifatida ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, kreativlikni rivojlantirish samaradorligini aniqlashda baholash mezonlarini ishlab chiqish zaruriyati dolzarb bo‘lib bormoqda. Originallik, moslashuvchanlik, muammolarni noodatiy yechish qobiliyati va g‘oyalarning amaliy qiymati kabi mezonlar talabalarning ijodiy faoliyatini o‘lchashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, interaktiv texnologiyalar nafaqat vosita, balki baholashning yangi yondashuvlarini talab qiluvchi murakkab ta’limiy mexanizmdir.

So‘nggi o‘n yillikda kreativlikni rivojlantirish va uni interaktiv texnologiyalar asosida ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalasi xalqaro miqyosda keng tadqiq qilinmoqda. Kreativlik XXI asr kompetensiyalarining ajralmas qismi sifatida talqin etilib, uni rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning strategik omili sifatida qaralmoqda (Trilling & Fadel, 2010). Interaktiv texnologiyalarning ta’limdagi o‘rni haqida Selwyn (2016) ta’lim jarayonida raqamli vositalar va onlayn platformalardan foydalanish nafaqat bilim olishni, balki talabalarning mustaqil fikrlashi va refleksiyasini ham rivojlantirishini ta’kidlaydi. Voogt va Roblin (2012) esa interaktiv muhit XX asr kompetensiyalarini, jumladan kreativlikni rivojlantirishda muhim shart ekanini qayd etgan. Shu bilan birga, gamifikatsiya elementlari va sun’iy intellekt asosidagi platformalarning qo‘llanishi talabalarning o‘quv jarayoniga bo‘lgan motivatsiyasini oshirib, noodatiy fikrlashga rag‘batlantirishi aniqlangan (Deterding et al., 2011). Kreativlikni nazariy jihatdan aniqlash va o‘lchash masalasida Runco va Jaeger (2012) kreativlikni “originallik va samaradorlik” birligida tushuntirgan bo‘lsa, Kaufman va Beghetto (2013) kreativ metakognitsiyaning ta’limdagi ahamiyatiga e’tibor qaratgan. OECD (2019) esa kreativlikni global kompetensiya sifatida baholab, uni ta’lim tizimining markaziy natijalaridan biri sifatida belgilaydi. MDH davlatlarida ham muhim natijalar kuzatilmoqda. Rossiya olimlari (Bogoyavlenskaya, 2010; Shcherbakov, 2017) kreativlikni shaxsning kognitiv rivojlanishi va ta’lim jarayonidagi faol ishtiroki bilan bog‘lashgan. Qozog‘istonda Zhumabayev (2019) va Sokolova (2020) interaktiv texnologiyalarni milliy ta’lim tizimi sharoitida qo‘llash orqali talabalar kreativ kompetensiyasini rivojlantirish tajribalarini yoritgan. O‘zbekistonda Qodirova (2020) va Abdullayev (2021) interaktiv metodlar va raqamli platformalar asosida kreativlikni rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqqanlar. Bundan tashqari, Ukraina (Pavlenko, 2018) va Moldova (Rusu, 2021) kreativlikni baholash mezonlarini yangicha talqin qilib, originallik, tafsilotlarni boyitish va ijtimoiy ahamiyatlilikni asosiy indikator sifatida belgilashni taklif etganlar.

Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda interaktiv texnologiyalarning samaradorligini aniqlash hamda baholash mezonlarini ishlab chiqishga qaratildi. Tadqiqot eksperimental metod asosida tashkil etilib, Urganch davlat pedagogika institutida maktabgacha talim yo‘nalishi 3-kursda tahsil olayotgan bo‘lajak pedagoglar ishtirokida amalga oshirildi. Umumiy tanlov namunasi N =110 nafar talabani tashkil etdi. Ishtirokchilar tajriba guruhi va nazorat guruhiga taqsimlandi. Tajriba guruhida interaktiv texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar tashkil etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy ta’lim yondashuvi qo‘llanildi.

Interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida talabalarda kreativlikni baholash darajalari:

1-jadval

Mezon	A’lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
Noodatiy va yangicha fikrlash	Talaba mustaqil ravishda shaxsiy tajribaga asoslangan yangi va original g‘oyalar ishlab chiqadi, ularni amaliyotga tatbiq eta oladi.	Talaba yangi g‘oyalar taklif qiladi, ammo ularning chuqurligi va mukammalligi yetarli darajada emas.	Talaba mavjud qoliplar asosida ishlaydi, noodatiy yechimlar kam.	Talaba yangi fikr yaratmaydi, faqat tayyor qoliplarni takrorlaydi
Moslashuvchanlik	Turli o‘quv vaziyatlariga tezda moslasha oladi, alternativ strategiyalar ishlab chiqadi.	Vaziyatga moslashadi, lekin yondashuvlar cheklangan.	O‘qituvchi yordamida moslashadi, mustaqilligi past	Vaziyatga moslasha olmaydi, qat’iy qolipdan chiqmaydi
Ijodiy fikrlar oqimining intensivligi	Muammoni hal qilish uchun ko‘plab va xilma xil g‘oyalarni tez va samarali yaratadi	Bir nechta variant beradi, lekin takroriylik mavjud	Faqat 1–2 oddiy g‘oya taklif etadi	Hech qanday g‘oya yaratmaydi, faqat ko‘rsatmaga tayanadi
Fikrni kengaytirish va rivojlantirish qobiliyati	Fikrlarini mantiqiy, batafsil va shaxsiy tajribaga asoslangan tarzda rivojlantiradi.	Fikrini izohlaydi, lekin tafsilotlar yetarli emas	Asoslash yuzaki, mustaqillik darajasi past.	Fikrini asoslay olmaydi, izohsiz qoldiradi

Ushbu tajriba sinov ishlarini tashkil etishda jalb etilgan respondentlar yuqoridagi mezonlar bo‘yicha baholandi.


Interaktiv texnologiyalar asosida talabalarda kreativlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida respondentlarning tajribadan avvalgi (T.a.) va tajribadan keyingi (T.s.) ko‘rsatkichlari

2-jadval


Mezon	Guruhlar	Baholash darajalari							
		A’lo		Yaxshi		Qoniqarli		Qoniqarsiz	
		T.a	T.s	T.a	T.s	T.a	T.s	T.a	T.s
Noodatiy va yangicha fikrlash	Tajriba guruhi 60 talaba	6	12	15	20	28	24	11	4
	Nazorat guruhi 50 talaba	5	6	12	13	21	22	12	9
Moslashuvchanlik	Tajriba guruhi 60 talaba	5	11	14	19	29	25	12	5
	Nazorat guruhi 50 talaba	4	5	11	12	22	23	13	10
Ijodiy fikrlar oqimining intensivligi	Tajriba guruhi 60 talaba	7	13	16	21	27	23	10	3
	Nazorat guruhi 50 talaba	6	7	13	14	20	21	11	8

Fikrni kengaytirish va rivojlantirish qobiliyati	Tajriba guruhi 60 talaba	6	12	15	20	28	24	11	4
	Nazorat guruhi 50 talaba	5	6	12	13	21	22	12	9
Jami	Tajriba guruhi 60 talaba	6	12	**15**	20	**28**	24	**11**	4
	Nazorat guruhi 50 talaba	5	6	12	13	21	22	12	9

2-jadvaldagi statistik qiymatlardan foydalanib, tajriba va nazorat guruhlarining tajribadan oldingi va keyingi natijalarini 1-rasm hamda 2-rasmda keltirilgan grafiklar yordamida izohlash mumkin.



1-rasm. Tajriba guruhining tajribadan oldingi va keyingi natijalari taqqoslamasi



2-rasm. Tajriba guruhining tajribadan oldingi va keyingi natijalari taqqoslamasi

Muhokama. Tajriba-sinovning boshlanishida tajriba va nazorat guruhlari natijalari deyarli teng bo‘lib, sezilarli farq kuzatilmadi. Bu esa tajribani obyektiv sharoitda olib borish imkonini berdi. Tajriba yakunida esa tajriba guruhida a’lo va yaxshi natijalar keskin oshdi, qoniqarli va qoniqarsiz darajalar esa ancha kamaydi. Masalan, “Ijodiy fikrlar oqimining intensivligi” mezonida a’lo ko‘rsatkich 7 nafardan 13 nafarga ko‘tarildi, qoniqarsiz esa 10 nafardan 3 nafarga tushdi. Shunga o‘xshash o‘sish boshqa mezonlarda ham kuzatildi.Nazorat guruhida esa bunday sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi. Statistik tahlil natijalari tajriba guruhida o‘rtacha baho 3,85 bo‘lganini, nazorat guruhida esa 3,39 ni tashkil etganini ko‘rsatdi. Variatsiya koeffitsienti ham tajriba guruhida pastroq (23,5 foiz) chiqib, natijalarning barqarorligini tasdiqladi. Umuman, tajriba guruhi natijalaridagi 13–15 foiz o‘sish samaradorlikni isbotlab berdi. Bu esa interaktiv texnologiyalar kreativlikni rivojlantirishda samarali mexanizm ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, kreativlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Interaktiv texnologiyalar bu jarayonda nafaqat bilimlarni samarali o‘zlashtirishni, balki talabalarda mustaqil fikrlash, noodatiy yechim topish, moslashuvchanlik va ijodiy g‘oya ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minlaydi. Gamifikatsiya elementlari, sun’iy intellekt asosidagi platformalar va raqamli vositalar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, ularni hamkorlikka undaydi va ijodiy salohiyatini kengaytiradi. Umuman olganda, interaktiv texnologiyalar ta’lim jarayonida kreativlikni shakllantirish va baholashning metodologik asosini mustahkamlaydi. Bu yondashuv talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlab, raqamli transformatsiya davrida zarur bo‘lgan ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. Jossey-Bass, 2010.

2. Selwyn N. Education and Technology: Key Issues and Debates. Bloomsbury Publishing, 2016.

3. Voogt J., Roblin N. P. A comparative analysis of international frameworks for 21st century competences: Implications for national curriculum policies. Journal of Curriculum Studies, 44(3), 299–321, 2012.

4. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamefulness: Defining “gamification”. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference, 9–15, 2011.

5. Runco M. A., Jaeger G. J. The standard definition of creativity. Creativity Research Journal, 24(1), 92–96, 2012.

6. Kaufman J. C., Beghetto R. A. In praise of Clark Kent: Creative metacognition and the importance of teaching kids when (not) to be creative. Roeper Review, 35(3), 155–165, 2013.

7. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. OECD Publishing, 2019.

8. Богаявленская Д. Б. Психология творческих способностей. Москва: Академия, 2010.

9. Qodirova M. Talabalarda kreativlikni rivojlantirishda interaktiv metodlarning roli. O‘zbekiston pedagogika jurnali, №3, 112–118, 2020.

10. Abdullayev Sh. Raqamli platformalar asosida ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish metodlari. Ta’lim va innovatsiya, №2, 67–74, 2021.

Elnur MIRZAYEV,
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA’LIM O‘QITUVCHILARNING KONSTRUKTIV KOMPETENSIYALARINING ASOSIY MAZMUNI VA O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda konstruktiv kompetensiyalarning mazmuni va o‘qitishni takomillashtirish, qilingan ilmiy tadqiqot ishlari, texnologik ta’limda talabalarni konstruktorlik sohalariga yo‘naltirishda qo‘llanilayotgan eng yangi innovatsion metodlar haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar. Konstruktorlik, modellash, texnologiya, konstruktiv kompetensiya, texnologik ta’lim.

В статье говорится о содержании конструктивных компетенций в подготовке преподавателей технологического образования и совершенствовании обучения, о проведенных научно-исследовательских работах, о новейших инновационных методах, используемых в технологическом образовании для ориентации студентов на конструкторские направления.

Ключевые слова. Конструкторство, моделирование, технология, конструктивная компетенция, технологическое образование.

The article discusses the content of constructive competencies in the training of teachers of technological education and the improvement of teaching, conducted research work, and the latest innovative methods used in directing students to design areas in technological education.

Key words. Design, modeling, technology, constructive competence, technological education.

Mamlakatimizda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohatlar natijasida ta’lim tizimiga yangicha yondashuvlar, innovatsion o‘zgarishlar kiritilmoqda, ko‘pgina o‘quv-meyoriy hujjatlar: dasturlar, standartlar, rejalar, darslik va o‘quv qo‘llanmalarning mazmuni va tuzilishi zamonaviy talablar asosida yangilanmoqda, talabalarni o‘qitish sifati nostandart vazifalarni hal qilishga yo‘naltirilmoqda, turli vaziyatlarda mustaqil harakat qilish qobiliyatlarida namoyon bo‘ladigan kommunikativ va ko‘p qirrali kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. O‘qitishning an’anaviy shakllari va usullari bugungi zamonaviy ta’lim ehtiyojlarini qondira olmay qoldi va asosiy muammo sifatida talabalarning bilimlarni egallashda individual psixologik xususiyatlarini aniqlash va shu asosida yangi bilimlarni berishga qaratilmoqda. Talabalarning bilim olishga bo‘lgan etiyojlarini qondirish uchun o‘qituvchidan ijodiylik, innovatorlik va doimiy izlanishda bo‘lish talab qilinmoqda. Texnologik ta’lim jarayonida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda konstruktiv kompetensiyalarni takomillashtirishning bir qator afzalliklari mavjud.

O‘qitish va o‘rganishda konstruktivizmning asosiy g‘oyalari konstruktivistik yondashuv an’anaviyga nisbatan bir nechta afzalliklarga ega va sezilarli darajada farq qiladi. Ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, talabalarga o‘qish uchun tayyor material berishning hojati yo‘q. Kerakli ma’lumotlarni izlash, tadqiqotlar

o‘tkazish uchun ta’lim muhitini yaratish va tajribalar o‘tkazishni bilish maqsadga muvofiq. Bu jarayon talabalarning bilimlari, g‘oyalari va ko‘nikmalarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonini tashkil va o‘tkazishda, ta’lim shakllari, metod va vositalarini, o‘qitish texnologiyasini butunlay qayta ko‘rib chiqishi kerak. Ushbu yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quv jarayonida nafaqat o‘qituvchining, balki ularning ta’limi uchun mas’ul bo‘lgan talabalarning ham faol ishtirokini ta’minlash lozim. O‘qituvchi hali ham o‘quv jarayonida asosiy shaxs, lekin murabbiy sifatida ishlaydi. U o‘z e’tiqodlarini ko‘rsatmaydi yoki majburlamaydi, lekin talabani mustaqil bilim olishga to‘g‘ri qaror qabul qilishga olib keladigan trayektoriyaga yo‘naltiradi.

Texnologik ta’lim o‘qituvchisining konstruktorlik kompetensiyasi deganda talabalarga nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar berish jarayonida texnik konstruksiyalash, modellash hamda turli obyektlarni yaratish qobiliyati, hamda shu jarayonni pedagogik nuqtai nazardan samarali tashkil etish malakasi hisoblanadi. Bu kompetensiya nafaqat fanni samarali o‘qitish, balki talabalarning ijodiy va amaliy faoliyatini tashkil etishda ham muhim ahamiyatga ega.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchisining konstruktorlik kompetensiyasining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

Nazariy bilimlar sohasi bo‘yicha: injenerlik va texnik fanlar asoslarini bilish; loyihalash, modellash, dizayn va ergonomika prinsiplarini o‘rganish; mexatronika, elektrotexnika, rabototexnika, transport tizimlari, materialshunoslik, metall va yog‘ochlarga ishlov berish usullari, asbob-uskuna va jihozlar, tikuvchilik va pazandachilik, milliy xalq hunarmandchiligi, amaliy san’at va zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq nazariy bilimlarga ega bo‘lish. Konstruktorlik faoliyatining nazariy asoslarini bilish; materiallarning turlari va xususiyatlarini farqlashi; texnik chizma, eskiz va loyihalash qoidalarini bilishi lozim.

2. Amaliy ko‘nikma va malaka faoliyat bo‘yicha: loyiha tayyorlash, texnik hujjatlarni tuza olish, chizma va maket yaratish; zamonaviy qurol-asboblar va axborot texnologiyalari (SAPR, 3D modellashtirish, grafik dasturlar)dan foydalanish; amaliy ishlar jarayonida dizayn, ekologik va iqtisodiy talablarni hisobga olish. Turli yangi konstruksiyalar va maketlarni yarata olish; zamonaviy jihoz-asboblar va texnikadan foydalana olishi; modellash va 3D grafika dasturlaridan samarali foydalanish yo‘llarini egallash;

3. Ijodiy va innovatsion yo‘nalish bo‘yicha: yangi g‘oyalarni ilgari surish va ularni amalda qo‘llash; mavjud konstruksiyalarni takomillashtirish; talabalarda ijodiy fikrlash va tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish lozim.Talabalarda konstruktorlik fikrlashini shakllantirish; ijodiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish; loyiha asosida o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarni rivojlantirish;

4. Pedagogik faoliyat bilan uyg‘unligi: konstruktorlik faoliyatini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish; talabalarni mustaqil fikrlashga, konstruktiv yechim topishga yo‘naltirish; ijodiy-amaliy loyihalar orqali ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishish, sabr-toqat, aniqlik va diqqatni jamlay olish; ta’lim jarayoniga ijodkorlik va innovatsion yondashuv; talabalarni jamoada va hamkorlikka ishlay olishga yo‘naltira bilish lozim.

Texnologik ta’limda talabalarni konstruktorlik sohalarida yo‘naltirishda qo‘llanilayotgan eng yangi innovatsion metodlar quyidagilar hisoblanadi:

1. STEAM yondoshuvi: Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics integratsiyasi asosida o‘qitish. Bu texnologiya talabalarda amaliy loyihalar va ijodiy topshiriqlarni yechish jarayonida konstruktiv va tadqiqotchilik qobiliyati rivojlantiriladi.

2. Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning). Talabalar texnik vazifa, topshiriq va masalalarni yechish uchun guruhda ishlaydi. Masalan: yangi dizayn yara-

tish, robot tayyorlash, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlashni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish.

3. Dizayn-fikrlash (Design Thinking). Muammoni aniqlash → g‘oya yaratish → prototip tayyorlash → sinovdan o‘tkazish. Innovatsion mahsulotlarni yaratish yoki samarali xizmatlarni loyihalash o‘rgatiladi.

4. Robototexnika va mexatronika elementlari. LEGO Education, Arduino, Micro:-bit kabi platforma asosida talabalarda dasturlash va konstruktorlik kompetensiyalar rivojlantiriladi.

5. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR). Virtual laboratoriyalar va 3D modellar yordamida texnologiyani sinalmaydigan sharoitlarda o‘rganish. Masalan: mashina qismlarini maxsus dasturlar asosida (AR) to‘g‘ri yig‘ishishlarini amalga oshirish mumkin.

6. Geymifikatsiya (Gamification). Ball to‘plash, onlayn reytinglar, virtual mukofotlar orqali qiziqishni oshirish mumkin. Masalan, CAD dasturlarini o‘rganish jarayonida topshiriqlar o‘yin sifatida tashkil qilinadi.

7. Flipped klass (Flipped Classroom). Nazariy material onlayn video va platforma orqali o‘rganiladi, sinfda esa amaliy ishlar bajariladi.

8. Meyker-speys va FabLab metodi. 3D-printer, lazer kesgich, CNC dastgohlardan foydalanib, talabalar o‘z loyihalarini ishlab chiqiadi.

9. Keys-metod (Case study). Haqiqiy hayotiy vaziyatni tahlil qilish va yechim topish. Masalan: mahalliy hunarmandchilikni zamonaviy bozor talabiga moslashtirish orqali bu vazifa hal qilinadi.

10. Onlayn platformalar va raqamli simulyatsiya. Tinkercad, AutoDesk Fusion 360, SolidWorks Simulation kabi dasturlarda virtual tajribalar o‘tkazish.

Texnologik ta’limda pedagogik konstruktiv qobiliyatning asosiy yo‘nalishlari quyidagicha:

Maqsad qo‘ya olish – ta’lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifalarini aniq belgilash; darsni rejalashtirish – mavzu mazmuniga mos ravishda darsning strukturasini ishlab chiqish; metod va usul tanlay olish – o‘quvchiga eng samarali ta’sir ko‘rsatadigan usullarni aniqlay bilish; didaktik materiallarni tanlash va tuzish dars jarayonida qo‘llaniladigan vositalarni tayyorlay olish; dars jarayonini tizimlashtirish talabalar faolligini ta’minlaydigan ketma-ketlik va izchillikka rioya qilish.

Konstruktiv qobiliyat o‘qituvchiga nima beradi?

Ta’lim jarayonida aniq maqsadga yo‘nalishni ta’minlaydi; talabalarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi; o‘qituvchi faoliyatini tizimli va rejali tashkil qiladi; vaqt va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida konstruktorlik kompetensiyalarini shakllantirish – uzoq muddatli va bosqichma-bosqich jarayon bo‘lib, nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar va ijodiy faoliyat uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, quyidagi bosqichlar muhim ahamiyatga ega:

Motivatsion-boshlang‘ich bosqich: Talabalarni texnologik ta’lim sohasiga qiziqish uyg‘otish, konstruktorlik faoliyatining maqsad va ahamiyatini anglash(texnik chizmalar bilan ishlash, loyihalash, optimal variantni tanlash, iqtisodiy samaradorlik, va x.k.). Talabalarda ijodiy va innovatsion g‘oyalarga qiziqish uyg‘otish, pedagog shaxsida konstruktiv qobiliyatlarni rivojlantirishga ichki ehtiyoj hosil qilish.

Nazariy bilimlarni shakllantirish bosqichi. Konstruktorlik jarayonining nazariy asoslarini o‘rgatish. Muhandislik , texnik fanlar v apedagogik va psixologiya fanlaridan bilim olishga yo‘naltirish. Konstruktorlik metodlari (analitik, sintetik, loyihalash, modellash)

bilan tanishtirish. Ilmiy-nazariy bilimlarni o‘quv jarayoni bilan bog‘lay olish.

Amaliy-tajriba bosqichi. Texnologik ta’lim jarayonida yangi maket va modellar ishlab chiqish orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Konstruktorlik vazifalarini yechishda ijodiy yondashuvlarni amalga oshirish, mustaqil loyihalar tayyorlash, dizayn va texnik hujjatlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirish. Zamonaviy texnologiyalardan (SAPR, 3D modellashtirish, kompyuter grafikasi, multemediya texnologiyasidan) foydala olish kompetensiyalarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ijodiy-innovatsion bosqich. Ta’lim jarayonida talabalarda yangicha g‘oya va yechimlarni taklif qilish qobiliyatini shakllantirish, loyihalash jarayonida dizayn, ekologik va ergonomik talablarni hisobga olish, talabalarda konstruktiv va tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga yo‘naltirish kompetensiyalarini takomillashtirish lozim.

Professional-mahoratini takomillashtirish bosqichi. Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda olingan bilim va ko‘nikmalarni pedagogik jarayonda qo‘llay olish, texnologik ta’limda samarali darsning reja-bayonnomasi, metodik ishlanmalar yarata olish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni konstruktorlik jarayoniga tatbiq etish kompetensiyalarini rivojlantirish lozim.

Quyida bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi“ fanidan o`tkazilgan dars ishlanmasini keltiramiz.

Fan: Chizma geometriya va muhandislik grafikasi.

Mavzu: Nuqtaning chorak va oktandlardagi proyeksiyalarini yasash” mavzusini multimedia vositalari yordamida o‘qitish metodikasi

Yo‘nalish: Texnologik ta’lim

Dars turi: Amaliy mashg‘ulot .

O‘qitish usullari: Multimediyali taqdimot, guruhli ish, tajriba-amaliy mashg‘ulot, savol-javob, loyiha usuli.

Ta’lim vositalari: Kompyuter, multimedia taqdimoti (PowerPoint/Prezi), interfaol dasturlar (AutoCAD, Tinkercad), videoroliklar, proyektor, chizma asboblari(chizg‘ich, sirkul, qalam, chizma qog‘ozlari, o‘chirg‘ich)),

Darsning maqsadlari:

Ta’limiy maqsad: nuqtaning proyeksiyalari haqida tushuncha berish; chorak va oktand tushunchalarini aniqlash; nuqtaning turli chorak va oktandlardagi proyeksiyalarini chizish usullarini o‘rgatish; bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida“Chizma geometriya va muhandislik grafikasi”dan asosiy qoidalarni tushuntirish;multimedia vositalari yordamida muhandislik fikrlash va konstruktorlik kompetensiyalarni rivojlantirish. Kompyuter dasturlari (AutoKAD, SoldWorks, Kompas 3D va boshqalar))

Tarbiyaviy maqsad: chizma geometriyaning amaliyotdagi tadbig‘ini ko‘rsatish;-bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarida ijodkorlik va mustaqil fikrlashni rivojlantirish;-jamoada ishlash va muloqot madaniyatini shakllantirish;

Rivojlantiruvchi maqsad: Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini takomillashtirish;konstruktorlik vazifalarini hal qilishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash; mulohaza qilish, chizma orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;

Kutilayotgan natijalar:

Talabalar geometrik chiziqlar va proyeksiyalash qoidalarini chuqur o‘rganadi; konstruktorlik kompetensiyalari rivojlanadi; multimediya texnologiyalari orqali mustaqil izlanish va ijodkorlik ko‘nikmalar shakllanadi.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism (3 daqiqa)

Salomlashish, davomatni aniqlash.Dars mavzusi va maqsadini e’lon qilish.

II. Kirish qismi (7 daqiqa)

Proyeksiya tushunchasi haqida takroriy ma’lumot berish, real hayotdan misollarni aytish (binolarning soyasi, proyeksiya apparatlari, 3D grafika, multemediya orqali 3D modellarda nuqtaning turli yuzalardagi proyeksiyalari ko‘rsatiladi.

II. Asosiy qism. (25 daqiqa)

1. Choraklar haqida tushuncha berish. Ikki proyeksiya yuzasi (N-gorizontal, V-vertikal).Nuqtalarining I, II, II, IV choraklarda joylashishi.Slayd orqali har chorakdagi nuqtaning proyeksiyalari ko‘rsatiladi.

2. Oktantlar haqida tushuncha berish.

Uchinchi yuza (W-profil yuzasi) qo‘shiladi.Hosil bo‘lgan 8-oktand.Nuqtaning har bir oktanddagi holati va proyeksiyasi (multemediya animatsiyasi orqali ko‘rsatiladi)

3. Amaliyot. Doskada namuna berilgan nuqtaning proyeksiyalarini chizib berish. Talabalar A4 qog‘ozda chizib ko‘radilar.

IV. Mustahkamlash (10 daqiqa)

Savol-javob, Chorak va oktandning farqi nimadan iborat? Nuqtaning II chorakdagi pproyeksiyalari qayerda joylashadi? Oktandda berilgan nuqtani qanday proyeksiya qilamiz?Multemediya viktorina (kahoot yoki prezentatsiyada test)

V. Xulosa va baholash. (5 daqiqa)

Darsdagi faoliyatni baholash va asosiy xulosalarni aytish. Nuqtaning proyeksiyalari turli yuzalarda turlicha ko‘rinish oladi. Chorak va oktand tushunchalari 3 D fazoda chizishda muhim ahamiyatga ega.

O‘yin shaklida topshiriq berish (qo‘shimcha)

Proyektor orqali tasodifiy nuqtalarning koordinatalari beriladi. Talabalar uning qaysi chorak yoki oktandda joylashganini topadi.

Dars uchun quyidagi multemediya vositalari qo‘llaniladi. Power Point prezentatsiyasi (slaydlarda nazariy ma’lumot va sxemalar) . GeoGebra 3D nuqtaning proyeksiyalarini harakatli ko‘rsatish; AutoCAD orqali texnik chizmada aniq tasvir berish; viktorina dasturlari (kahoot , Mentimeter)

Uyga vazifa:Berilgan 5 ta nuqtaning turli chorak va oktandlarda proyeksiya qilish. Nuqtaning proyeksiyalari haqida 5 savoldan iborat test tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, texnologik ta’lim o‘qituvchisining konstruktorlik kompetensiyasi bu nafaqat texnik bilim va amaliy ko‘nikmalar, balki ijodiy fikrlash, innovatsiya kiritish va pedagogik mahoratni uyg‘unligidir. Ushbu kompetensiya o‘qituvchiga ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga mos holda olib borish, talabalarda ijodkorlik va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Konstruktorlik kompetensiyasi texnologik ta’lim o‘qituvchisining kasbiy mahoratining muhim qismi hisoblanadi. U orqali o‘qituvchi Talabalar ga texnika va texnologiya sohasida amaliy tajriba beradi, ularning ijodiy va amaliy fikrlashini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov Sh.N. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy grafik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. –T.: Avtoreferat diss. dok.PhD. 2020 y.

2. Юзбашева Г. Ч. Роль конструктивного процесса обучения в развитии познавательной деятельности студентов. BalticHumanitarianJournal. 2021. Т. 10. № 2(35) ISSNprint: 2311-0066; ISSNonline: 2712-9780

Raxmon ESHIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali, “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasi, dotsent

KOMPYUTER IMITATSION MODELLARDAN MASOFAVIY TA’LIMDA FOYDALANISHNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI

Annotatsiya

Maqolada kompyuter imitatsion modellarni ta’lim tizimiga joriy etishning nazariy manbalar tahlili, olib borilgan tadqiqot ishlari, talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter imitatsion modellaridan foydalanish o‘ziga xos afzalliklari, kompyuter imitatsion modellarning xususiyatlari, amaliyotga tadbiq etish uchun qo‘yiladigan bosqichlar, taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Key words. Kompyuter imitatsion model, axborot, axborot texnologiyalari, animatsiya, multimedia, media texnologiyasi, multimediyali darslik.

В данной статье представлен анализ теоретических источников по внедрению компьютерных имитационных моделей в систему образования, рассмотрены проведённые исследования, особенности и преимущества использования компьютерных имитационных моделей в развитии творческих способностей студентов. Также раскрываются характеристики компьютерных имитационных моделей, этапы их внедрения в образовательную практику, а также предлагаются рекомендации и предложения по их эффективному применению.

Ключевые слова. Компьютерная имитационная модель, информация, информационные технологии, виды информации, анимация, мультимедиа, медиа-среда, мультимедийный учебник.

This article presents an analysis of the theoretical sources related to the integration of computer simulation models into the educational system. It reviews the conducted research, highlights the specific advantages of using computer simulation models in developing students’ creative abilities, and describes their main characteristics. The article also outlines the stages required for implementing such models into educational practice and provides relevant suggestions and recommendations for their effective application.

Key words. Computer simulation model, information, information technologies, types of information, animation, multimedia, media environment, multimedia textbook.

Jahonda rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida, jumladan AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Fransiya, Rossiyalarda ta’lim tizimini axborotlashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga multimediali didaktik vositalar va kompyuter imitatsion modellarni joriy etish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Jumladan, xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo‘lgan davr yangi ta’lim konsepsiyasida ta’lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetaklovchi muhim faoliyat sifatida e’tirof etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda ta’limni axborotlashtirish asosida virtual ta’lim texnologiyalari, elektron resurslar, multimediali elektron o‘quv majmualardan o‘quv jarayonida keng foydalanilmoqda. Binobarin, kompyuter imitatsion modellardan ta’lim jarayonida foydalangan holda malakali va zamonaviy mutaxassislar tayyorlash, shu jumladan ta’limda axborot texnologiyalari o‘qituvchilarini tayyorlashda muhim o‘rin tutadi.

Kompyuter imitatsion modellar orqali foydalaniladigan elektron resurslarning afzalliklaridan biri mustaqil ta’lim olishni, ijodiy fikrlashni, ko‘nikma va malakalarni

shakllantirish orqali o‘quv materiallari va ilmiy ma’lumotlarni har tomonlama chuqur o‘zlashtirilishiga mo‘ljallanganligidadir. Shuningdek, ushbu turdagi qo‘llanmalar ilmiy ma’lumotlarning jamlanganligi, ta’lim oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlarini hisobga olinishi jihatidan an’anaviy o‘quv qo‘llanmalaridan afzalroqdir.

Kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalaniladigan elektron qo‘llanmada matnlar jozibali, ta’sirli shaklda bayon etiladi, asosiy tushunsha va ta’riflar aniq va ravshan yoziladi, shu bilan bir qatorda foydalanuvshilarning bilimlarini nazorat qilish imkoniyatiga egadir.

So‘nggi vaqtlarda kompyuter imitatsion modellar yordamida ta’lim sohasida ilmiy apparat shakllanib, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari tomonidan masofaviy ta’lim tizimiga mo‘ljallangan o‘qitish tizimi yaratishga katta ahamiyat berilmoqda.

Bu davlat ta’lim standartining mutaxasssislik va yo‘nalishlar bo‘yicha fanlarning alohida muhimroq bo‘limlari bo‘yicha tayyorlangan elektron nashrlar, namunaviy va ishchi rejalar, shuningdek, mashqlar va masalalar to‘plamlari, xarita va sxemalar albomlari, tuzilma atlaslari, fanlar bo‘yicha xrestomatiyalar, diplom loyihasi bo‘yicha ko‘rsatmalar, ma’lumotnomalar aks etgan elektron manbadir. Kompyuter imitatsion modellar yordamida dasturlash tillaridan birida yoki html tilida yaratilgan biror fan yoki kurs bo‘yicha tugal multimediali yoki virtual materialni o‘zida aks ettiradi. Kompyuter imitatsion modellardan foydalanishning ikki xil, ya’ni online va offline variantlari mavjud. Online (ochiq) varianti foydalanuvchining uzoq vaqt global yoki lokal tarmoqda bo‘lishini nazarda tutadi, Off line (yoriq) varianti esa vaqti-vaqti bilan tarmoqqa kirishni nazarda tutadi. Oliy o‘quv yurtlari ushun yaratiladigan kompyuter imitatsion modellar asosida foydalash mumkin bo‘lgan elektron qo‘llanmalar oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

– tanlangan fan mazmuni, ta’lim maqsadlariga hamda davlat ta’lim standartlariga mos kelish;

– talabalarning mustaqil bilim olishini ta’minlash;

– boshqa fanlar bilan uyg‘unlashish (integrasiya);

– fanga oid yetarli miqdordagi ma’lumotlarni o‘zida mujassamlashtirish;

– talabaga o‘z-o‘zini yoki professor-o‘qituvchiga talabalar bilimini baholash va nazorat qilish imkoniyatini yaratish.

Shu bilan bir qatorda talabalarning mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘zlashtirilgan bilimlarni kundalik turmush amaliyoti bilan bog‘lashga, ta’lim va tarbiyani o‘zaro chambarchas bog‘lashga, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilmog‘i zarur.

Kompyuter imitatsion modellardan foydalana oladigan elektron ta’lim resurslar, elektron darsliklarni yaratishga qo‘yiladigan pedagogik-psixologik talablar, zaruriy dasturiy vositalar, ularning vazifalari, ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati, qolaversa metodik ta’minoti asoslarini ishlab shiqish lozimi bo‘lib, ularni bir nechta guruhga ajratish mumkin: texnik, texnologik, didaktik, psixologik, mazmuni va tuzilishi, iqtisodiy va boshqalar.

Bizning fikrimizcha kompyuter imitatsion modellar quyidagi talablarga amal qilish lozim:

– har bir mavzuga oid vizual va audio ma’lumotlar bo‘lishi;

– vaqti-vaqti bilan ranglarning yorqinligi o‘zgarishi;

– vizual tarzda tayyorlangan o‘quv-ma’lumotlarning mazmuni juda oddiy yoki o‘ta murakkab bo‘lmasligi.

Shuningdek, quyidagi ko‘rsatmalarga rioya qilish lozim:

Kompyuter imitatsion modellardan foydalanishga kirishishdan oldin, u qanday tuzilmaga ega bo‘lishini aniq tasavvur qilish;

Kompyuter imitatsion modellarda ortiqcha ma’lumotlar bo‘lmasligi lozim. Har bir qismda bayon qilishning kerakli elementi bo‘lishi va taqdimotning umumiy g‘oyasiga to‘g‘ri kelishi, uni oshishga xizmat qilishi;

– belgilar stili va fon rangini tanlashda tayyor andozalardan foydalanish tavsiya etiladi. Ijodiy yondashuvga keng o‘rin berish;

– resurslarni keraksiz tafsilotlar bilan ortiqcha yuklanmasligi lozim. Ba’zan bitta murakkab slayd-shou o‘rniga bir nechtasi taqdim qilish samarali hisoblanadi;

– qo‘shimcha animasiya effektlari bo‘lmasligi, ularning sonini minimumga tushirish, faqat taqdimotning asosiy jihatlariga e’tiborni qaratish maqsadida foydalanish hamda ovozli va vizual effektlar o‘quvchining asosiy e’tiborini jalb qilish orqali berilishi lozim bo‘lgan o‘zak ma’lumotlarni to‘sib qo‘ymasligi;

– har bir modul uchun o‘rganuvchilarga mos bayon shaklini va modulga (kontentga) oid nom, matn, rasmlar, jadvallar, grafiklar, ovoz, videoni va boshqa multimedia imkoniyatlarini taqdim etishi;

– o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, o‘quvchilar bilan qayta aloqani o‘rnatishni (masalalar, nazorat savollari, modellashtirishga oid torshiriqlarni tanlashni, javoblarni tahlil qilish usullarini ishlab chiqishni, noto‘g‘ri javoblarga ko‘rsatmalar, maslahatlar) loyihalashtirish;

– ergonomik talablarga muvofiq matnlar tuzish, rasm, shizma, jadval, diagramma, video ketma-ketliklarni tanlash va ishlab chiqish;

– darsning har bir bo‘limi modullarini ergonomik nuqtai nazardan tuzish.

Shu nuqtai nazardan, har bir modulni quyidagi tarkibda tuzish tavsiya etiladi:

– psixologik tayyorgarlik matni (modul annotasiyasi va unga kirish);

– modulning o‘quv maqsadlari va vazifalari;

– o‘quv-ma’lumotlar;

– modul bilan bog‘liq asosiy muammolar, o‘zak masalalar ro‘yxati;

– o‘zini-o‘zi tekshirish va refleksiya ushun savollar (javoblari, sharhlari va tavsiyalari bilan);

– modulning tuzilmaviy-mantiqiy sxemasi;

– modulga doir o‘quv adabiyotlar ro‘yxati, modul mavzusiga oid Internet saytlaridagi resurslarga havolalar;

– o‘quvchilarni rag‘batlantirish, ularning e’tiborini va qiziqishini saqlab qolish uchun maxsus vositalarning mavjudligi;

– yakuniy umumlashtirish sxemalarining mavjudligi;

– o‘quv-ma’lumotlarning turli tarkibiy qismlari o‘rtasida aniq farqni ta’minlaydigan bir xil turdagi riktogramma kabi maxsus belgilardan foydalanish;

– amaliy misollar bilan nazariy tavsiflarni yagona qo‘llab-quvvatlash;

talabalarning mustaqil kognitiv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha didaktik ma’lumotlar (sharhlangan ma’ruzalar, o‘qituvchilarning maslahatlari va boshqalar);

– tilshunoslik uslubining ochiqligi, o‘quvchilarning maqsadli guruhlariga yo‘naltirilganligi;

– o‘quv-ma’lumotlarda navigasiyasining soddaligi va bir xilligi;

– umumiy qabul qilingan yagona belgi va atamalarni saqlash;

– barcha ishlatilgan obyektlar va munosabatlarning ta’rifini o‘z ichiga olgan ommaviy murojaat rejimi;

– motivasiya, yosh, ijtimoiy mavqe, madaniy va kasbiy daraja, tanishish uslubi, oldindan o‘qitish darajasi va boshqalarni tashkil etadigan kognitiv ehtiyojlar to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlar bo‘lishi.

Kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarni yaratish ushun ssenariyni ishlab shiqishda o‘quvchilarning motivasiyasini oshiradigan, o‘quv-ma’lumotlarning umumiy tuzilishi (algoritmizasiya nazariyasi yoki aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi) bilan tanishtirishni rejalashtirish tavsiya etiladi. Agar lozim bo‘lsa, oldin o‘rganilgan o‘quv-ma’lumotlarni eslatib o‘tishga mo‘ljallangan bo‘lishi lozim.

Kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron qo‘llanmalarni mukammal ravishda sinovdan o‘tkazish ushun tajriba- sinov sifatida tanlangan Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlanadi. Bunday holda, yaratilgan vosita kompyuter dasturini yoki navigasiya tizimini, lekin uning tarkibini ishlab chiqishda xatolarni aniqlash ushun ishlab chiquvchilar (muallif va dasturchi) va bir nechta foydalanuvshilar tomonidan sinovdan o‘tkaziladi. Kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron qo‘llanma, uning tarkibiy qismi muallifi pedagogik senariyni amalga oshirishga alohida e’tibor beradi. Sinov jarayonida muallif o‘z oldiga o‘quvchilarning turli xil ta’lim yo‘nalishlarini modellashtirish va ularni eksrerimental ravishda amalga oshirish vazifasini qo‘yadi.

Kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarni yaratishda kompyuter ekranidan axborotlarni qabul qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olinishi lozim. Butun dars ushun ma’lumot berishning yagona uslubini (stilini) saqlash kerak. O‘quv-ma’lumotlarni taqdim etishning tuzilmasi va shaklini (foydalanuvchining interfeysi, grafik elementlardan foydalanish, dars andozalarini yaratishni) bir xillashtirish (unifikasiya qilishga) lozim. Shu bilan birga, Times, Arreal kabi standart shriftlardan foydalanish tavsiya etiladi. Butun taqdimot uchun ko‘pi bilan ikki yoki uch xil shriftdan hamda matn belgilaridan (markerlardan) foydalanish lozim. Shuningdek, kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarni yaratishda kompyuter ekranida vizual ko‘rinadigan ma’lumotlarning rang xususiyatlarini shakllantirish muhim rol o‘ynaydi. Ranglardan unumli va to‘g‘ri foydalanish tavsiya etiladi. Matnning alohida qismlarini ajratish uchun qalin va kursiv harflardan, matn, uning fonini ajratishda kontrast ranglardan foydalanish maqsadga muvofiq. Barcha taqdimot bir rang ralitrasida, odatda bitta shablonga asoslangan stilda amalga oshirish lozim.

Monitor ekranidagi sun’iy ravishda foydalanuvchilar uchun tabiiy bo‘lgan vizual muhitdan ko‘p jihatdan farq qiladi. Shunday qilib, foydalanuvchi tomonidan aks ettirilgan yorug‘likda tasvirlarni idrok qilishi tabiiy va monitor ekranida ma’lumotlar chiqaradigan yorug‘lik yordamida uzatiladi.

Shu bois, elektron ta’lim resurslarni yaratishda dizayn rang tarkibi qonunlari bilan mos kelishi kerak, chunki u ma’lum bir kayfiyat ko‘taradi. Qizil ranglardan foydalanish jahldorlikni qo‘zg‘atadi, yumshoq ranglar esa buning aksi hisoblanadi. To‘q sariq, sariq, qizil ranglar – iliq ranglar, ko‘k, binafsha ranglar – sovuq ranglardir. Elektron resurslarni ishlab chiqishda, turli xil ranglar asosida tasvirlangan ob’ektlar o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishini hisobga olish kerak. Agar ob’ektlar rangini va fonni yorqinligi to‘g‘ri tanlanmagan bo‘lsa, unda tasvirni yuzaki ko‘rishda ba’zi obyektlar ko‘rinmaydigan bo‘lib ko‘ringanda “nuqta” ta’siri paydo bo‘lishi mumkin.

Elektron resurslar uchun interfeys yaratishda ranglarni insonning psixologik reaksiyasiga muvofiq tanlash tavsiya etiladi. Shuningdek, minimal animasiya effektlari,

fon matn shrifti va sarlavha rangi bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi hamda katta shriftlardan foydalanmaslik lozim.

Kompyuter ekranidan ma’lumotlarni qabul qilishni ortimallashtirish uchun Kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarni ishlab chiqishda mantiqiy fikrlashini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi tavsiya etiladi. Mantiqiy fikrlash odatda axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladigan va o‘qituvchi yoki o‘quvchining e’tiborini kompyuter ekranida aks ettirilgan muayyan ob’ektga jalb qilishga qaratilgan psixologik metodlar deb yurutiladi. Mantiqiy fikrlash psixologik ta’siri vizual qidirish vaqtini qisqartirish va asosiy ob’ektning markazida ko‘rishni mustahkamlash zarurati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarni ishlab chiqishda, obyektlarning shakllari va rasmning fon elementlari barqaror vizual birlashmalarga mos kelishi, haqiqiy obyektlar yoki obyektlarning shakllariga o‘xshash bo‘lishi kerakligini hisobga olish kerak deb qaraladi. Ushbu talabga rioya qilmaslik tinglovchilar tomonidan qo‘shimcha muhim bo‘lmagan muammolarga va natijada o‘qish vaqtining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin.

Kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarni yaratuvchilarning e’tiborini rasmlardan foydalanishda yondashuvning asosliligi va tizimliligiga alohida e’tibor qaratish lozim. Qo‘shimcha vizual tushuntirishni talab qiladigan, o‘quv fanining mazmunini tushunish qiyin bo‘lgan joylarda biron bir yoki boshqa rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi, ya’ni, tematik semantik bloklarni umumlashtirish va tizimlashtirish.

Internet tarmog‘ida elektron resurslarni tarkibida yaratiladigan standart sinov testlar tizimi o‘quvchining olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashda samarali vosita hisoblanadi. Ya’ni, sinov statistik jihatdan to‘g‘ri o‘lshovlar va me’yorlarga asoslangan miqdoriy baho bilan yakunlanadigan o‘lchov yoki rasmiy baholash tushuniladi.

Sinov – bu keng ko‘lamli tarjima va standartlashtirishdan o‘tgan ko‘rsatmalar, vazifalar to‘rlamini o‘z ishiga olgan o‘lchov prosedurasidir. Sinovlarning joylashishi nuqtai nazaridan muhim individual test torshiriqlari bo‘lishi mumkin – shart (savol)dan iborat va test turiga qarab tanlov ushun javoblar to‘rlamini o‘z ishiga olishi mumkin bo‘lgan testning minimal tarkibiy birliklari. Bunda, elektron resurs bir qismi sifatida testlar o‘quv va nazorat mashqlarida qo‘llaniladi. O‘quv mashqlari – bu ishki mulohazalar bilan birga olib boriladigan testdir. Tekshirish mashqlari ham sinovdir, ammo endi ishki fikrlar bilan birga bo‘lmaydi. Sinovning bir nechta asosiy talablari mavjud. Buning ishonshlilik, aniqlik (tushunarlilik), soddalilik talablari mavjud.

Shu bois, kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarni tarkibida yaratiladigan testlar tizimi, ushbu talablar asosida yaratilishi lozim. Shuningdek, ularni yaratishda foydalaniladigan pedagogik diagnostik dasturiy vositalar zamon talabiga mos bo‘lishi hamda global tarmoqqa mo‘ljallangan va hajm jihatidan kichik bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, ko‘p variantli va foydalanuvshiga taqdim etiladigan testlar har bir foydalanuvchi tasodifiy ravishda variantlarni taqdim etishini talab etadi.

Elektron qo‘llanmalarda joylashtirilgan testlar o‘quvchi bajaradigan aqliy faoliyat turini aniq tasvirlash juda muhimdir. Agar o‘quvchiga taqdim etilgan variantlar: javoblarni identifikasiyalash, diskriminasiya yoki tasniflash operasiyalarini tahlil qilsa, bu tanishish darajasining sinovidir. Agar o‘quvchi avvalo javobni tuzsa, oldin o‘rganilgan ma’lumotni eslab qolsa odatiy, yoki noaniq muammoni hal qilish uchun qo‘llasa va shundan keyingina javob variantini tanlasa, demak bu assimilyatsiyaning ikkinchi yoki uchinchi darajasidir.

Tekshirish va o‘lchash funksiyasini bajaradigan kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarni sinovlari, boshqa komponentlarini ishlab chiqishda quyidagi tavsiyalarni e’tiborga olish kerak:

– javobni umume’tirof etilgan shaklga iloji boricha yaqin bo‘lgan universal shaklda kiritish imkoniyati berilishi;

– javobni yetarlicha tahlil qilish, xatoni ajratib ko‘rsatish va uni to‘g‘ri taqdim etishning har qanday shaklidagi to‘g‘ri javobni tan olish;

– olib borilayotgan nazorat natijalarini, ularni to‘g‘rilash va statistik tahlili hisobga olinishi ta’minlash.

Ta’kidlash joizki, kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron resurslarning elektron varianti pedagog imkoniyatlarini oshiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi, ammo ular pedagog o‘rnini bosa olmasligi tabiiy. O‘qitish jarayoni didaktik tamoyillarga, o‘quv materialining bir tizimliligi, ko‘rgazmaliligi, tushunarliligi, bilimlar ketma-ketligi uzviyligiga asoslanadi. U darslikdagi o‘quv materiallar bayoni va izchilligini inkor etmaydi, ular zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida to‘ldiradi.

O‘qitishning eng yaxshi elektron vositalari ham agar o‘qituvchi va talabalar uchun yagona kompyuterli o‘quv-informasion soha yaratilmasa, ulardan foydalanish uslubiy ta’minlanmasa, kompyuterda “o‘lik holdagi yuk” bo‘lib qolaveradi. Ta’limni muvaffaqiyatli kompyuterlashtirish kompyuterlar soniga emas, ulardan foydalanishning uslubiy ta’minotiga va o‘qitish vositalarining sifatiga bog‘liq.

Natijada talaba ma’lumotlarni tez esdan chiqaradi, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi pasayadi. Kompyuter imitatsion modellar talabalar bilan ishlashni individuallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, uy vazifalari va nazorat ishlarini tekshirishda bu narsa yaqqol ko‘rinadi. Talabalar torshiriqlar uning kuchiga qarab berilayotganini sezgach, muvaffaqiyatdan muvaffaqiyatga harakat qila boshlaydi va bu esa o‘z navbatida fanga qiziqishni orttiradi va o‘qishni samarali jarayonga aylantiradi.

Shunday qilib, kompyuter imitatsion modellar yordamida foydalana oladigan elektron qo‘llanmalarning kamchiliklari aniqlanadi, ularning har qanday tugallangan bosqishi manbai bo‘lishi mumkin, pedagogik ssenariy va dastur kodini yaratish muammolari, kerakli xususiyatlar va tamoyillarga mos kelishi yoki kelmasligi aniqlanadi. Birinchi sinov natijalari xatolarni bartaraf etishga yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зимин В. П. Информатика. Лабораторный практикум в 2 ч. Часть 1 : учебное пособие для среднего профессионального образования / В. П. Зимин. - 2-е изд., испр. и доп. – Москва : Издательство Юрайт, 2019. –126 с.

2. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun informatikadan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. –B. 160..

3. Lutfillaev M.X. Oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integrasiyalash nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T., 2006. –37 b.

4. Tursunov S.Q., Nazarov I.U. ‘‘Iqtisodiyotda AKT va tizimlari’’. Darslik – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2019. I-tom. –264 b.

5. Taylakov N.I., Allambergenova M.N. Informatikadan interaktiv o‘quv majmualar yaratishga qo‘yiladigan talablar. Jurnal “Fizika, matematika va informatika”. -2009. -№2. –B. 82-88.

Jonibek XAYITOV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti, “San’atshunoslik” kafedrasi, katta o‘qituvchi, p.f.f.d (PhD)

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM MUHITINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ (ijodiy) qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda raqamli ta’lim muhitining ahamiyati, imkoniyatlari va afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini interaktiv, innovatsion va shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etishning samarali usullari ko‘rib chiqiladi. Muallif zamonaviy raqamli platformalar, onlayn resurslar va virtual ta’lim vositalari orqali talabalarda mustaqil fikrlash, muammo yechish, ijodiy yondashuv kabi kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilgan.

Tayanch so‘zlar. Kreativ qobiliyat, bo‘lajak o‘qituvchi, raqamli ta’lim muhiti, innovatsion texnologiyalar, ijodkorlik, raqamli kompetensiyalar, ta’lim texnologiyalari, interaktiv ta’lim, pedagogik yondashuv, zamonaviy ta’lim vositalari.

В статье освещается значение, возможности и преимущества цифровой образовательной среды в формировании и развитии креативных (творческих) способностей будущих учителей. Также будут рассмотрены эффективные методы организации образовательного процесса с помощью цифровых технологий в интерактивном, инновационном и личностно-ориентированном виде. Автор проанализировал возможности развития у студентов таких компетенций, как самостоятельное мышление, решение проблем, творческий подход посредством современных цифровых платформ, онлайн-ресурсов и виртуальных образовательных инструментов.

Ключевые слова. Креативные способности, будущий учитель, цифровая образовательная среда, инновационные технологии, креативность, цифровые компетенции, образовательные технологии, интерактивное обучение, педагогический подход, современные образовательные средства.

The article highlights the importance, possibilities, and advantages of the digital educational environment in the formation and development of creative abilities of future teachers. Effective methods for organizing the educational process using digital technologies in an interactive, innovative, and personality-oriented manner will also be considered. The author analyzed the possibilities of developing such competencies as independent thinking, problem-solving, and a creative approach in students through modern digital platforms, online resources, and virtual educational tools.

Key words. Creative abilities, future teacher, digital educational environment, innovative technologies, creativity, digital competencies, educational technologies, interactive learning, pedagogical approach, modern educational tools.

Bugungi kunda ta’lim tizimida ro‘y berayotgan tub islohotlar pedagogik faoliyatga yangicha yondashuvlarni, xususan, kreativ fikrlaydigan, muammolarga innovatsion yechim topa oladigan o‘qituvchilarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi esa ta’lim muhiti-

ni zamonaviylashtirib, o‘quv jarayonining interaktiv, ochiq va ijodiy tashkil etilishiga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda raqamli ta’lim muhiti muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga keng joriy etilishi pedagogik jarayonning mazmuni, shakli va usullarini tubdan o‘zgartirdi. Ilmiy-adabiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhiti nafaqat ta’lim olish jarayonini yengillashtiradi, balki talabalarning kreativ salohiyatini ochib berishda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu borada ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda raqamli muhitning didaktik, psixologik va texnologik imkoniyatlari o‘rganilgan.

Chet el tadqiqotlarida ham bu yo‘nalish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Cojocariu va Boghian (2024) tomonidan olib borilgan adabiyotlar sharhida oliy ta’lim muhitida raqamli vositalar yordamida talabalarning kreativlik darajasi qanday shakllanishi haqida konseptual model taklif qilingan. Ular fikricha, ta’limda raqamli kreativlikni rivojlantirish uchun innovatsion texnologiyalar (masalan, raqamli hikoyalar, proyektli yondashuvlar, interaktiv platformalar) faol jalb qilinishi lozim. Mahalliy tadqiqotlar ichida Sodiqova N.N.ning ishlari alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, unda raqamli pedagogika tushunchasi, uning imkoniyatlari, pedagoglar malakasi, infratuzilmaning ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim muhitida yuzaga kelayotgan muammolar yoritilgan.

Tadqiqotda o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish orqali talabalarda kreativ ko‘nikmalarni shakllantirish yo‘llari ko‘rsatilgan. Adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlaridan samarali foydalanish ularning nafaqat bilim olishiga, balki ijodkor, yangilikka ochiq va texnologiyalar bilan ishlay oladigan mutaxassis sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar asosida raqamli ta’lim muhitining bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tahlil jarayonida talabalarning raqamli vositalardan foydalanish darajasi, mustaqil va ijodiy ishlashga bo‘lgan qiziqishi, yangi g‘oyalarni ilgari surish va amaliyotda qo‘llashdagi faolligi o‘rganildi. Eksperimental guruhga zamonaviy raqamli platformalar (Google Classroom, Padlet, Canva, Mentimeter va boshqa interaktiv vositalar) asosida tashkil etilgan darslar joriy qilindi. Bu orqali talabalarning dars jarayonida faolligi, o‘z g‘oyasini ifoda etish va muammolarga innovatsion yondasha olish ko‘nikmalari yaqqol namoyon bo‘ldi. Nazorat va eksperimental guruhlar o‘rtasidagi solishtirma tahlil shuni ko‘rsatdiki, raqamli ta’lim muhiti sharoitida ta’lim olgan talabalar kreativlik testlarida yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Shu bilan birga, kuzatuv natijalariga ko‘ra, talabalarning raqamli muhitda ta’lim olishga nisbatan motivatsiyasi oshgan, ularda o‘z ustida ishlashga va o‘z g‘oyalarini mustaqil tarzda rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj ortganligi kuzatildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhiti shunchaki texnologik vosita emas, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik resursdir. Ammo bu jarayon o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi – u o‘qituvchining to‘g‘ri metodik yondashuvi, talabalarning faolligi va didaktik materiallarning sifatiga bevosita bog‘liq. Shu sababli, raqamli muhitdan samarali foydalanish uchun innovatsion yondashuvlar, kreativ topshiriqlar va interaktiv metodikalar tizimli asosda joriy etilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, raqamli ta’lim muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida

tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning mustaqil fikrlashi, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishi, muammolarni kreativ tarzda hal eta olishi, o‘z g‘oyalarini erkin ifoda etishi kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Ayniqsa, interaktiv platformalar, vizual materiallar, loyiha asosidagi topshiriqlar va raqamli hamkorlik vositalari o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularni ijodiy faoliyatga jalb qilish imkonini beradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli muhitdan to‘g‘ri foydalanilsa, u faqat texnologik yangilik emas, balki ta’lim jarayonining pedagogik tarkibiy qismiga aylanishi mumkin. Biroq, bu borada hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud: o‘qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalari yetarli darajada emasligi, metodik qo‘llanmalar va raqamli resurslarning sifat jihatidan cheklanganligi, texnik infratuzilmaning ayrim joylarda talabga javob bermasligi bunga misol bo‘la oladi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

– bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda raqamli ta’lim muhitidan foydalanishga doir maxsus metodik tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqilishi lozim;

– oliy ta’lim muassasalarida pedagogik yo‘nalishdagi talabalarga raqamli texnologiyalardan ijodiy foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar soni oshirilishi zarur;

– o‘quv dasturlariga kreativ fikrlash, raqamli savodxonlik va innovatsion loyihalashga oid mashg‘ulotlar integratsiya qilinishi kerak;

– o‘qituvchi-trenerlar malakasini oshirishda raqamli ta’lim va kreativ yondashuvlar bo‘yicha uzluksiz ta’lim dasturlari joriy etilishi maqsadga muvofiq;

– texnologik infratuzilmani takomillashtirish bilan birga, raqamli vositalarni ta’limga moslashtirish bo‘yicha milliy resurs bazasini yaratish lozim.

Umuman olganda, raqamli ta’lim muhiti – bu bo‘lajak o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini ochish va ularda yangi pedagogik yondashuvlarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar maydonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017.

2. Xudayberdiyeva M.K. Bo‘lajak o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari. – T.: TDPU, 2021.

3. Sodiqova N.N. Raqamli pedagogika: nazariy va amaliy asoslar. – T.: Fan va texnologiya, 2022. – 160 b.

4. Xayitov J.X. Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 3/2022. –B. 78-81. (13.00.00: №31).

5. Xayitov J.X. Texnologik ta’lim praktikumi darslarida talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish tamoyillari va kreativlik sifatlarining tavsifi // Respublika janubida elektr energetika sohasining rivojlanish istiqbollari. Mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz, 2022. -B. 389-392.

6. Shomirzayev M.X. Education is personally focused technology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T.: 8. №.8.

7. Shomirzayev M.X. et al. National handicrafts of Uzbekistan and its social–economic significance //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T.: 8. – №. 8. – C. 129-138.

Xasanjon XUSANOV,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING ZAMONAVIY BOSHQARUV MODELLARI: XORIJIY TAJRIBA VA STRATEGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada umumta'lim maktablarida inson resurslarini rivojlantirish jarayonining zamonaviy boshqaruv modellari va ularning samaradorligi o'rganildi. Xususan, xorijiy davlatlarning umumta'lim tizimidagi ilg'or boshqaruv tajribalari tahlil qilinib, ularning inson resurslarini shakllantirishdagi o'rni asoslab berildi.

Tayanch so'zlar. Umumta'lim maktablari, zamonaviy boshqaruv modellari, inson resurslari, xorijiy tajriba, strategik yondashuv, ta'lim tizimi, innovatsion boshqaruv, rahbarlik, kadrlar salohiyati.

В статье рассматриваются современные модели управления развитием человеческих ресурсов в общеобразовательных школах и их эффективность. В частности, проанализирован передовой опыт управления системой общего образования зарубежных стран и обоснована его роль в формировании кадрового потенциала.

Ключевые слова. Средние школы, современные модели управления, человеческие ресурсы, человеческий капитал, зарубежный опыт, стратегический подход, система образования, инновационный менеджмент, лидерство, кадровый потенциал.

In particular, advanced management experiences in the general education system of foreign countries were analyzed and their role in the formation of human resources was substantiated.

Key words. Secondary schools, modern management models, human resources, human capital, foreign experience, strategic approach, education system, innovative management, leadership, personnel potential.

XXI asrda ta'lim sohasida jadal transformatsiya jarayonlari ro'y bera boshladi, bunda globallashuv, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy talablarning oshishi ta'lim muassasalarining boshqaruvini tubdan qayta ko'rib chiqishga zamin yaratdi. Xorijiy mamlakatlarda umumta'lim maktablarida qo'llanilayotgan zamonaviy boshqaruv modellari har bir pedagogik muhitga mos strategiyalarni, tashkiliy usullarni va innovatsion yondashuvlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, ular o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, ixtiyoriylik va ijodkorlikni rag'batlantirish, shuningdek, barcha ta'lim ishtirokchilarini boshqaruv jarayoniga jalb etishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shunga muvofiq, xorijiy mamlakatlardagi umumta'lim maktablarida qo'llanilayotgan zamonaviy boshqaruv modellarining mazmuniy tuzilishini aniqlash, ularning maktab ichki va tashqi muhitlariga moslashish mexanizmlarini o'rganish hamda amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv modeli – bu tashkilotni o'zgartirishga turli yondashuvlarni tahlil qilishga doir konsepsiya, nazariya yoki metodologiya hisoblanadi. Boshqaruv modelining maqsadi rahbarga o'z tashkilotida o'zgarishlarni amalga oshirishga imkon beradigan amaliy strategiyalarni, o'z jamoalari bilan qanday munosabatda bo'lish va ularni boshqarish asoslarini taqdim etishdir. Ushbu modellar turli usullarni o'z ichiga olib, ularning har biri

o‘ziga xos xususiyatlarga va qaror qabul qilish, muloqot va motivatsion yondashuvlarga ega. Ko‘rinadiki, boshqaruv modellari maktab rahbari tomonidan maqsadlarga erishish uchun qilinayotgan harakatlarning vizual tasviridir.

Har bir rahbar o‘zi boshqarayotgan ta’lim muassasasining rivojlanish dasturi va maqsadiga muvofiq boshqaruv modellarini tanlashi va bu orqali boshqaruv strategiyasining inkapsulyatsiyasini (mazmuniy umumlashmasi) yaratishi mumkin. Bu model rahbar boshqaruv trayektoriyasining moslashtirilgan ifodasi hisoblanadi.

O‘rganilgan xorijiy tajribalar tahlili boshqaruv modellarining xilma xil belgilanganligini ko‘rsatdi.

Rensis Likert modeli. Rensis Likert XX asrning 60-yillarida Michigan universitetida samarali va samarasiz tashkilotlar o‘rtasidagi farqlar bo‘yicha tadqiqotlar olib boradi va o‘zining yetakchilik modellari nazariyasini ishlab chiqishga erishadi:

1-model – ekspluatatsion avtoritarizm. Mazkur model qat’iy tuzilgan boshqaruv tizimi asosidagi vazifalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, menejer o‘z qo‘l ostidagilarga ishonmaydi, ularni deyarli qaror qabul qilishga jalb qilmaydi va topshiriqlarni tayyor holda (mulohazalarsiz, tahlillarsiz) yo‘naltiradi. Bunda rahbar jamoani qo‘rquv va jazo tahdidi orqali boshqaradi.

2-model – xayrixoh avtokratizm. Bu boshqaruv modeli xodimlarga ishonch beradi, lekin ba’zi qarorlar to‘g‘ridan to‘g‘ri beriladi va ular qat’iy belgilangan chegaralar doirasida qabul qilinadi.

3-model – konsultativ demokratiya. Rahbar qo‘l ostidagilarga katta ishonch bildiradi (lekin to‘liq emas), umumiy masalalarni hal qiladi, maxsus masalalarni esa xodimlarga topshiradi. Bunda rahbar tomonidan motivatsiya uchun tizimli mukofotlar va tasodifiy jazolardan tashqari, qaror qabul qilishda cheklangan ishtirok etishdan foydalaniladi.

4-model – kollegial boshqaruv. Ushbu model jamoaviy ishlash jarayonini tashkil etish, kollegial boshqaruv, vakolatlarni topshirish va umumiy nazoratga asoslangan munosabatlarga yo‘naltirilgan. Bu model xodimlarga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini beradi, bunda rahbarlar o‘z xodimlarini shaxs sifatida ko‘rishga harakat qiladi va o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifalarni bajarishda yordam beradi.

Rensis Likert tomonidan ilgari surilgan to‘rt bosqichli yetakchilik modeli bugungi kundagi boshqaruv tizimlarini tahlil qilishda ham dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, kollegial boshqaruv modeli zamonaviy demokratik va innovatsion tashkilotlar uchun ideal yondashuv sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu model nafaqat samaradorlikni oshirish, balki xodimlarning ishonchi, motivatsiyasi va tashabbuskorligini kuchaytirish imkonini beradi. Bizningcha, ushbu modelni amaliyotga tatbiq etishda tashkilot ichida ishonch muhitini yaratish, ochiq muloqot va o‘zaro mas’uliyat mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

R.Bleyk va M.Muttonning “Boshqaruv tarmog‘i” modeli. 1964-yilda R.Bleyk va M.Mouton tomonidan ishlab chiqilgan “Boshqaruv tarmog‘i” modeli boshqaruvni baholashning samarali konsepsiyalaridan hisoblanib, xodimlarga va vazifalarga nisbatan yuqori e’tiborni birlashtiradi. G‘arb adabiyotlarida “Leadership Grid yoki “Managerial Grid” modeli nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu yondashuv “insonlarga e‘tibor” (concern for people, y-o‘qida) va “ish samaradorligiga e‘tibor” (concern for production, x-o‘qida) o‘lchovlari bo‘yicha 1 dan 9 gacha situatsiyani tahlil qiladi va “shaxsga yo‘naltirilganlik” hamda “natijalarga yo‘naltirilganlik” darajalarining kombinatsiyasi asosida beshta yetakchilik usullarini aniqlaydilar.

Umuman olganda, Bleyk va Moutonning “Boshqaruv panjarasi” modeli rahbarlik

nazariyalarida universal o‘rin tutadi va bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Model turli talqinlarda qo‘llanilsada, uning mohiyati bir xil (samarali boshqaruv insonlarga g‘amxo‘rlik va natijalarga e’tiborning uyg‘unligiga tayanadi) aks etadi. Uning amaliy qiymati shundaki, rahbarlarga o‘z boshqaruv uslubini tahlil qilish va yanada samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil natijalari mazkur model rahbarlik uslublarini tizimli tarzda tahlil qilish imkonini beruvchi samarali vosita ekanligini ko‘rsatdi. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u boshqaruvda inson omiliga bo‘lgan munosabat va ishlab chiqarish samaradorligi o‘rtasidagi muvozanatni aniqlashga yordam beradi. Shaxsga va natijaga yo‘naltirilganlikning uyg‘unligi orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi ushbu modelni amaliy jihatdan ham dolzarbligini oshiradi. Bizningcha, zamonaviy tashkilotlarda ushbu model asosida rahbarlik faoliyatini baholash va takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish, rahbar va jamoa o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

R.Tannenbaum va U.Shmidtning “Uzluksizlik” modeli. 1958-yilda R.Tannenbaum va U.Shmidt tomonidan birgalikda boshqarish va vazifalarga yo‘naltirilgan boshqaruvni farqlash, qaror qabul qilish jarayonida rahbarlarning xatti-harakatlarini o‘rganuvchi model ishlab chiqildi. Tannenbaum-Smidt modeli turli yetakchilik usullarini tavsiflash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan yettita asosiy toifani belgilaydi.

Quyida zamonaviy nazariy kontekstda Situatsion liderlik usullarining har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Direktiv usul (Telling / Directing). Rahbar aniq ko‘rsatmalar bilan jamoani boshqaradi, nazorat kuchli bo‘ladi. Ushbu yondashuv jamoaga nisbatan ishonch past bo‘lgan holatlar uchun mosdir. Biroq uzun muddatda, bu uslub motivatsiyani pasaytiradi va o‘sish imkoniyatlarini cheklaydi.

Sotish, rag‘batlantirish, yo‘l-yo‘riq berish yoki xodimlarni rivojlantirish usuli (Selling / Coaching). Rahbar vazifani hal qilish haqida tushuntiradi va xodimlarni ishontirish orqali amalga oshiradi. Bu yondashuv xodimlarning ishtiyoqini kuchaytiradi, ayniqsa tajribasi endigina shakllangan jamoalarda samarali hisoblanadi.

Taklif usuli (Participating / Supporting). Xodimlar rahbar qaroriga faollik bilan jalb etiladi, fikr-mulohazalari e’tiborga olinadi. Bu usul jamoaning mustaqil fikrlashiga turtki beradi va kommunikatsiya ko‘nikmalarini oshiradi, ayniqsa tajribali xodimlar uchun mos keladi.

Konsalting usuli (Consultative). Bu yondashuv rahbar va jamoa o‘rtasida uzoq muddatli muloqot va maslahatlashuvga asoslanadi. Rahbar jamoaning ish jarayonini tashkil etishda izchil yordam berish bilan bir qatorda, xodimlarga mustaqillik beradi.

Qo‘shilish usuli (Joining). Rahbar jamoaga qo‘shilib, diktatordan ko‘ra ko‘proq hamkorlikda harakat qiladi. Yakuniy javobgarlik rahbarga tegishli bo‘lsa-da, qaror qabul qilish jarayonida xodimlar faol ishtirok etadi.

Delegatsiya usuli (Delegating). Rahbar vazifa va mas’uliyatni xodimlarga topshiradi, nazorat minimal darajada bo‘ladi. Jamoa yetarli darajada malakali va o‘zini ishonchli his qilsa, samarali natija beradi.

Rad etish usuli (Nonparticipative / Handsoff). Rahbar demotivatsiya va ishonch yetarli bo‘lgan sharoitlarda ishga kam aralashadi, faqat umumiy nazoratni saqlaydi. Murakkab va kutilmagan vaziyatlarda faqat jamoaning mustaqilligiga tayanadi.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, “Uzluksizlik” modeli rahbarlik usullarining moslashuvchanligini namoyon etib, turli vaziyatlarda samarali boshqaruv uslubini tanlash imkonini beradi. Modelning afzalligi shundaki, u rahbarlik usullarini doimiy spektr sifatida

ko‘rib, yetakchilik jarayonini jamoaning malakasi, motivatsiyasi va ishonch darajasiga qarab o‘zgartirish zarurligini asoslaydi. Shunga ko‘ra, ushbu yondashuv zamonaviy tashkilotlarda rahbar va xodimlar o‘rtasida ishonch va mas’uliyat muvozanatini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Paul Hersey va Kenneth Blanchardning “Vaziyatli yetakchilik” modeli. 1960-yillarda ekspertlar Paul Hersey va Kenneth Blanchard tomonidan “Vaziyatli yetakchilik” modeli ishlab chiqilgan. Vaziyatli yetakchilik modeli – bu boshqaruv usulini xodimlarning tayyorlik va rivojlanish darajasi hamda motivatsiyasiga moslashtirishga asoslangan dinamik yondashuv hisoblanadi. Mazkur model g‘oyasi rahbar o‘zi boshqarayotgan xodimlarga va topshiriqlar bilan bog‘liq sharoitlarga qarab o‘z yondashuvini o‘zgartirishi kerakligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga agar rahbar har qanday vaziyatga imkon qadar tezroq moslasha olsa, pirovardida hamma uchun foydali natijalar ko‘rsatishi mumkin. Mazkur modelda har bir xodimning individual xususiyatiga, ya’ni ularning biror soha uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorligiga ham alohida e’tibor beriladi. Bunda vaziyatga (vaziyatlar, xodimlarning yetukligi, bilim va tajriba) qarab yetakchilik uslubi ham o‘zgarib turadi. Mazkur model to‘rt asosiy uslubni mujassamlashtiradi:

Gapirish (Directing / Telling – S1). Rahbar vazifalarni aniq belgilab, xodimga nima qilish va qanday qilish kerakligini yaqindan ko‘rsatadi. Bu uslub yangi yoki malakasi yuqori bo‘lmagan xodimlar uchun samarali bo‘lib, tez hal etiladigan murakkab vazifalar uchun mos keladi. Biroq, tashabbusni rag‘batlantirmaydi va tajribali xodimlarda demotivatsiya uyg‘otishi mumkin.

Sotish (Selling / Coaching – S2). Rahbar yuqori darajada vazifa boshqaruvi bilan birga (high task behavior), xodimlarni ishontirish va rag‘batlantirish uchun tushuntirishlar, bahs-munozaralar bilan yondashadi (high relationship). Bu usul ayniqsa motivatsiya yoki tajriba yetishmasligi mavjud bo‘lgan vaziyatlarda samarali hisoblanib, xodimlarning faolligini oshiradi, ularni ishtiyoq bilan ishlashga undaydi. Biroq, bu usul vaqt talab qilishi va qat’iy qarshilik ko‘rsatadigan xodimlarda kamroq samara berishi mumkin.

Ishtirok etish (Participating / Supporting – S3). Rahbar bu bosqichda vazifalarni belgilashni kamaytiradi, ammo xodimlarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etadi, ularning fikrini tinglaydi va qo‘llab-quvvatlaydi. Bu usul tajribali, lekin motivatsiya yoki ishonch jihatdan biroz zaif xodimlar uchun mos keladi. Unda kollabaratsiya va ishtirok qilish muhitini rivojlantirish samarali bo‘ladi, ammo qaror qabul qilish sekinlashishi va rahbardan yuqori darajadagi kommunikatsiya ko‘nikmalarini talab qiladi.

Vakolat berish (Delegating – S4). Rahbar vazifalar uchun mas’uliyatni tajribali va motivatsiyasi yuqori bo‘lgan xodimlarga topshiradi. Bu yondashuv minimal nazoratni talab qiladi (past task va past relationship).

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, “Situatsion liderlik” yondashuvi “bir uslub hammaga mos” degan fikrni rad etadi, har bir vaziyat va xodimning tayyorlik darajasiga muvofiq moslashishni ilgari suradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri nazariyaga asoslangan usul tanlash xodimlar faoliyatining unumdorligi va ishga qiziqishni oshirishda sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “Vaziyatli yetakchilik” modeli boshqaruv jarayonida yuqori darajadagi moslashuvchanlikni ta’minlab, xodimlarning tayyorlik darajasi va motivatsiyasiga qarab boshqaruv uslubini tanlashga asoslangan samarali yondashuv sifatida e’tirof etiladi. Ushbu model rahbarlarga har bir vaziyat va xodimning individual xususiyatlarini hisobga olib, yetakchilik uslubini dinamik tarzda o‘zgartirish imkonini beradi, bu esa tashkilotlarda ish unumdorligi va xodimlarning ishga qiziqishini sezilarli

darajada oshirishga xizmat qiladi.

Viktor Vroom va Philip Yettonning rahbarlikning “Ko‘p o‘lchamli” modeli. “Vroom–Yetton–Jago normativ qaror qabul qilish modeli”, shuningdek “Normativ qaror modeli” nomi bilan tanilgan, dastlab Viktor Vroom va Philip Yetton tomonidan ishlab chiqilgan (1973) va keyinchalik Arthur Jago tomonidan (1988) kengaytirilgan. Model menejerlarga qaror qabul qilish jarayonida xodimlar jalb etilishi darajasi, mavjud ma’lumotlar va qarorlar sifati, vaqt chegarasi hamda konflikt ehtimoli kabi omillarni hisobga olgan holda eng mos yondashuvni tanlashga imkon beradi.

Qarorlar vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari va xodimlar ishtiroki darajasiga qarab qabul qilinishi uchun modelda beshta yetakchilik uslubidan foydalanish tavsiya etiladi:

A1 (Autokratik I) – avtokratik usul, bunda rahbar o‘ziga ma’lumotlar asosida yakuniy qarorni qabul qiladi;

A2 (Autokratik II) – avtokratik usul, bunda rahbar xodimlardan ma’lumot to‘playdi, lekin qarorni yakuniy tarzda o‘zi qabul qiladi;

C1 (Consultative I) – maslahat usuli, bunda rahbar individual suhbatlarda xodimlarning fikrini oladi;

C2 (Consultative II) – maslahat usuli, bunda guruh bilan umumiy muhokama orqali fikr almashiladi, yakuniy qaror hali ham rahbar tomonidan qabul qilinadi;

G (Group) – kollegial usul, bunda rahbar guruh muhokamasi orqali qarorga erishadi va qaror avtomatik ravishda keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Model mualliflari qaror qabul qilishning taqdim etilgan uslublarini tavsiflab, rasmiy vakolatlar har doim boshqaruvchida qolishini, shuningdek, uning qabul qilingan qarorlar uchun javobgarligini ta’kidlaydilar.

Zamonaviy boshqaruv nuqtai nazaridan, “Ko‘p o‘lchamli” rahbarlik modeli qaror qabul qilish jarayonida vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari va xodimlarning ishtirok darajasini hisobga olib, boshqaruv uslubini moslashtirishga imkon beradi. Ushbu model rahbarlarga samarali va optimal qarorlarni qabul qilishda turli yondashuvlarni tanlash uchun aniq me’yoriy yo‘riqnomalarni taqdim etadi, shu bilan birga qaror uchun yakuniy javobgarlik boshqaruvchida qolishini ifodalaydi. Bu yondashuv zamonaviy tashkilotlarda qaror qabul qilish sifatini oshirish va xodimlarning faolligini rag‘batlantirishda muhim ahamiyatga ega.

F.Fidlerning “Vaziyatli yetakchilik” modeli. Mazkur model yetakchining samaradorligi uning uslubi bilan vaziyat mosligiga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi nazariya hisoblanadi. Yetakchining shaxsiy uslubi o‘zgarmas bo‘lib, LPC (LeastPreferred CoWorker) o‘lchovi orqali aniqlanadi:

– yuqori LPC (munosabat yo‘nalishli) rahbarlar o‘rtacha murakkab vaziyatlarda (moderate control) samaraliroq bo‘ladi;

– past LPC (vazifayo‘nalishli) rahbarlar esa juda qulay yoki juda noqulay vaziyatlarda samarali bo‘la oladi.

Bundan ko‘rinadiki, mazkur model yetakchining samaradorligi uning shaxsiy uslubi bilan vaziyatning mosligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka asoslanadi. LPC o‘lchovi orqali aniqlangan uslub turiga qarab, rahbarlar turli murakkablikdagi boshqaruv sharoitlarida samarali faoliyat ko‘rsatadi, bu esa yetakchilik nazariyasida kontekstga moslashuvchan yondashuvning ahamiyatini ta’kidlaydi.

Stinson-Jonson modeli. Stinson – Johnson modeli rahbarning yetakchilik uslubini va ishning tuzilishi hamda xodimlarning ishga bo‘lgan munosabatiga qarab samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Ushbu model quyidagi asosiy g‘oyalarga tayanadi:

– ish yuqori strukturaga ega — ya’ni aniq tartib va yo‘riqnomalar mavjud;

– xodimlar natijalarga erishish va mustaqillikka intilishadi, shu bilan birga ular yuqori bilim va tajribaga ega.

Mazkur model rahbarning xulq-atvori va xodimlarning ish sifati, motivatsiyasi va tajribasi o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali turli vaziyatda qanday uslub samarali ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan xorijiy boshqaruv modellarining tahlilidan ko‘rinadiki, zamonaviy tashkilotlarda o‘zgarishlarni samarali boshqarish muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Turli boshqaruv modellari va yondashuvlari tashkilotlarning o‘ziga xos xususiyatlari va vaziyatlariga qarab farqlanadi, biroq ularning barchasi samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilgan. Ushbu tahlillarga qo‘shimcha tarzda, Jennifer Herrity tomonidan taqdim etilgan “10 Types of Management Styles and Their Key Qualities” maqolasida ta’lim va boshqa professional sohalarda uchraydigan 8 turdagi boshqaruv modellari ham tahlil qilingan. Shu nuqtai nazardan, Jennifer Herrity tomonidan taqdim etilgan boshqaruv modellari turli yondashuv va metodologik asoslari bilan ajralib turadi, shuningdek, boshqaruv uslublarining xilma-xilligini va ularning samaradorligini chuqurroq anglashga imkon beradi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O‘zgarishlarni boshqarish modellari

Model	Asosiy tamoyillar	Afzalliklari	Cheklovlari
Lewin	Unfreeze (muzlatish) → Change (o‘zgartirish)→ Refreeze (qayta muzlatish)	Oddiy va tushunarli klassik yondashuv	Juda umumiy, murakkab jarayonlarda cheklangan
ADKAR	Awareness (ogohlik), Desire (istak), Knowledge (bilim), Ability (qobiliyat), Reinforcement (mustahkamlash)	Individual o‘zgarishlarni boshqarishga yordam beradi	Har doim ham jamoaviy o‘zgarishlarni qamrab olmaydi
Kotter 8-Step	8 bosqichli tizimli jarayon	Rahbarlik va jamoaviylikni kuchaytiradi	Bosqichlar ko‘p, vaqt talab qiladi
Kübler-Ross Curve	Inkor → G‘azab → Kelishuv → Tushkunlik → Qabul qilish	Psixologik reaksiyalarni hisobga oladi	Ish jarayonidan ko‘ra hissiyotlarga ko‘proq qaratilgan
McKinsey 7-S	Strategy (strategiya), Structure (tuzilma), Systems (tizimlar), Shared Values (umumiy qadriyatlar), Style (uslub), Staff (xodimlar), Skills (malakalar)	Tashkilotning barcha elementlarini qamrab oladi	Murakkab, qo‘llash uchun ko‘p resurs talab qiladi
Bridges’ Transition	Tugatish → Neytral zona → Yangi boshlanish	Inson omiliga e’tibor beradi	Tashqi jarayonlarni yetarlicha qamrab olmaydi

Nudge Theory	Ixtiyoriy tarzda ijobiy turtki berish	Xodimlarni rag‘batlantirishning yumshoq usuli	Har doim ham yetarlicha samarali emas
Satir Model	Status quo (amaldagi holat) → Resistance (qarshilik) → Chaos (tartibsizlik) → Integration (integratsiya) → New status quo (yangi holat)	Insonlar hissiy va ijtimoiy o‘zgarishini ko‘rsatadi	Tashkiliy jihatdan qat’iy tizim bermaydi

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, o‘zgarishlarni boshqarish modellari mazmun va metodologik yondashuv jihatidan bir-biridan farq qiladi. Klassik yondashuvlar (masalan, Lewin modeli) soddaligi va tushunarliligi bilan ajralib tursa, zamonaviy konsepsiyalar (ADKAR, Kotter, Nudge) ko‘proq inson omiliga, kommunikatsiya va motivatsiyaga e’tibor qaratadi. Psixologik yo‘nalishga asoslangan Kübler-Ross va Satir modellari xodimlarning hissiy reaksiyalarini izohlash imkonini bersa, McKinsey va Bridges yondashuvlari o‘zgarishlarni tashkiliy va shaxsiy jihatdan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Demak, tashkilotda o‘zgarishlarni samarali amalga oshirish uchun yagona universal model mavjud emas, shunga ko‘ra turli modellarni integratsiyalash va muayyan vaziyatga moslashtirish zarur. Shu orqali boshqaruv jarayonlari samaradorligi va barqarorligi ta’minlanadi.

Demak, rahbarlik uslubi va o‘zgarish modeli bir-birini to‘ldiruvchi element sifatida qaralishi lozim. Ularning to‘g‘ri tanlanishi va uyg‘unlashtirilishi boshqaruv samaradorligini oshiradi hamda ta’lim tizimida barqaror natijalarga erishishni kafolatlaydi.

Xorijiy tajribalarning forsayt tahliliga asoslanib ta’kidlash joizki, xalqaro amaliyotda kuzatilayotgan zamonaviy boshqaruv modellari quyidagi muhim tamoyillarga asoslanadi:

– xodimlarga nisbatan insoniy munosabat va ehtiromda bo‘lish;

– samarali boshqaruvni ta’minlovchi asosiy omil sifatida javobgarlikka e’tibor qaratish;

– tashkilotda vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda samarali axborot almashinuvini tashkil etish;

– xodimlarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish;

– tashkilot natijalariga har bir ishchi-xodimning faol hissa qo‘shishi;

– tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga tezkor va maqsadli javob qaytarish qobiliyati;

– xodimlarning mehnatdan qanoatlanishini ta’minlovchi muomala va boshqaruv uslublaridan foydalanish;

– rahbarlarning ish jarayonining barcha bosqichlarida faol ishtirok etishi orqali muvofiqlashtirishni ta’minlash;

– menejerlar tomonidan xodimlarning fikr va mulohazalarini eshitishga tayyor bo‘lish;

– korporativ axloq qoidalariga rioya etish;

– kadrlar boshqaruvi jarayoniga xodimlarni jalb etish;

– ochiqlik, halollik va o‘zaro ishonch muhitini shakllantirish;

– menejmentni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun muhim ustunlar: sifatni ta’minlash, xarajatlarni optimallashtirish, servis darajasini oshirish, yangiliklar joriy etish, resurslardan samarali foydalanish, xodimlar salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish;

– shaxsiy mehnat samaradorligini oshirish va uni doimiy ravishda takomillashti-

rishga intilish.

Xorijiy boshqaruv modellari tahlili shuni ko‘rsatadiki, samarali boshqaruv uchun tashkilotning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlariga moslashuv muhim ahamiyatga ega. Turli boshqaruv yondashuvlari, jumladan, strategik boshqaruv, tizimli yondashuv va inson resurslarini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv tashkilotning o‘zgarishlarga tez moslashishini va ichki jarayonlarni optimallashtirishni ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston ta’lim tizimida xorijiy boshqaruv modellari asosida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvlarini joriy etish samaradorlikni oshirish, rahbarlik sifatini yaxshilash hamda ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi. Umuman olganda, maktab rahbarlari yagona model bilan cheklanib qolmay, aksincha, turli boshqaruv modellarini maktabning ijtimoiy-madaniy konteksti, tashkiliy resurslari va strategik maqsadlaridan kelib chiqib uyg‘unlashtirishlari zarur. Bunday integratsiyalashgan yondashuv maktab boshqaruvining samaradorligi, barqarorligi va innovatsion rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Herrity J. (2025). 8 Proven Change Management Models for the Workplace. Indeed Career Advice. July 24, 2025 // https://www.indeed.com/career-advice/career-development/change-management-models.

2. Neveen Mansour, Mohammed Elziny. Assessing the Impact of Situational Leadership Style on Enhancing Employee Performance in Quick Service Restaurants // Journal of Association of Arab Universities for Tourism and Hospitality. Vol.18, №1, June 2020. P.107-121. DOI:10.21608/jaauth.2020.31853.1031;https://www.researchgate.net/publication/342292484_Assessing_the_Impact_of_Situational_Leadership_Style_on_Enhancing_Employee_Performance_in_Quick_Service_Restaurants

3. The Center for Leadership Studies. (n.d.). The four leadership styles of situational leadership®. June 19, 2020. https://situational.com/blog/the-four-leadership-styles-of-situational-leadership/

4. Новожениной О. Лидерство мотивация стратегия управление персоналом // Elektron resurs: https://hrland.org/teoriya-stiley-rukovodstva-laykerta/

5 Elektron resurs: Исследования Р.Блейка и Дж.Моутона // https://studme.org/343504/menedzhment/issledovaniya_bleyka_moutona

6. Elektron resurs: Leadership model that focuses on the ability and willingness of individual employees. Corporate Finance Institute. In CFI Resources. Retrieved July 31, 2025, from https://corporatefinanceinstitute.com/resources/management/hersey-blanchard-model/?utm_source=chatgpt.com

7. Elektron resurs: Situational leadership theory // July, 2008 // https://en.wikipedia.org/wiki/Situational_leadership_theory?utm_source=chatgpt.com

8. Elektorn resurs: Audrey Ingram. Understanding the four styles of situational leadership. July 9, 2025 // https://www.hellobonsai.com/blog/situational-leadership?utm_source=chatgpt.com

Sevara MAXMUDOVA,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, mustaqil izlanuvchi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI TARBIYA JARAYONIDA MUSIQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ORQALI HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH

Annotatsiya

Maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida huquqbuzarliklarni oldini olish, xulq-atvori buzilgan bolalar va o'smirlarga yordam berish muammosining dolzarbligi, musiqaning insonning ruhiy va jismoniy holatiga ta'siri, tarbiya, intizom tushunchalari, intizomlilikning funktsional tarkibiy qismlari, musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha milliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili, musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olishning tashkiliy-pedaogik asoslari, musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish imkoniyatlari, musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish yo'nalishlari batafsil ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. Huquqbuzarliklarni oldini olish, xulq-atvor, ruhiy va jismoniy holat, tarbiya, intizom, funksional tarkibiy qism, musiqiy madaniyat, tashkiliy-pedaogik asoslar.

В статье подробно рассматриваются актуальность проблемы профилактики правонарушений в средних общеобразовательных учреждениях, оказание помощи детям и подросткам с нарушениями поведения, влияние музыки на психическое и физическое состояние человека, понятия воспитания, дисциплины, функциональных компонентов дисциплины, анализ отечественных и зарубежных исследований по профилактике правонарушений посредством формирования музыкальной культуры, организационно-педагогические основы профилактики правонарушений посредством формирования музыкальной культуры, возможности профилактики правонарушений посредством формирования музыкальной культуры, направления профилактики правонарушений посредством формирования музыкальной культуры.

Ключевые слова. Профилактика правонарушений, поведение, психическое и физическое состояние, воспитание, дисциплина, функциональный компонент, музыкальная культура, организационно-педагогические основы.

The article examines in detail the relevance of the problem of crime prevention in secondary educational institutions, providing assistance to children and adolescents with behavioral disorders, the influence of music on the mental and physical state of a person, the concepts of education, discipline, functional components of the discipline, analysis of domestic and foreign studies on the prevention of offenses through the formation of musical culture, organizational and pedagogical foundations for the prevention of offenses through the formation of musical culture, opportunities crime prevention through the development of musical culture, direction of crime prevention through the development of musical culture.

Key words. Crime prevention, behavior, mental and physical condition, education, discipline, functional component, musical culture, organizational and pedagogical foundations.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida huquqbuzarliklarni oldini olish, xulq-atvori buzilgan bolalar va o'smirlarga yordam berish muammosi jamiyatimizda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish bugungi kunda davlat organlari va jamoat institut-

larining jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyatining asosiy, eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri, albatta, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar ko‘payishini oldini olish yo‘llarini izlash va ularning samaradorligini oshirishdir.

Huquqbuzarliklarni oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi jamiyat va shaxsni antisosial hodisa va jarayonlarni bartaraf etish uchun jiddiy sa’y-harakatlarni sarflashdan himoya qilish imkonini beradi. Zero, salbiy jarayonlarning keyingi rivojlanishini oldini olish, keyinchalik uning oqibatlariga qarshi turishdan ko‘ra osonroqdir.

Musiqaning insonning ruhiy va jismoniy holatiga ta’siri qadim zamonlardan beri ma’lum. Qadim zamonlarda va o‘rta asrlarda musiqaning ta’siri juda katta edi. Buni adabiy va tibbiy dalillar tasdiqlaydi, buyuk antik faylasuflar Pifagor, Aristotel, Platon o‘z zamondoshlarining e’tiborini musiqa ta’sirining shifobaxsh kuchiga qaratishgan.

Buyuk qomusiy olim, tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sino ming yil oldin asab va ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlarni musiqa bilan davolagan. Fransuz psixiatri Esquirol psixiatriya muassasalariga musiqa terapiyasini joriy qilgan.

Tarbiya jarayonida musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar shuni isbotlaydiki, musiqa ta’sirida hissiy sezgirlik rivojlanadi, axloqiy me’yorlar, estetik didlar, tajriba va hamdardlik qobiliyati shakllanadi. Maktab o‘qituvchilari, birinchi sinfda ham, yuqori sinflarda ham, albatta, o‘quvchilar o‘rtasida tartib-intizom muammolariga duch kelishadi. So‘nggi yillarda maktabda o‘quv jarayonida tartib-intizomning buzilishi va giperfaol bolalar sonining o‘sishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda, pedagogika fanida va maktab amaliyotida intizom muammosini o‘rganish va uni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hozirgi zamonning dolzarb muammolarini hal etishning samarali vositasi sifatida Musiqiy madaniyatni shakllantirish asosiy xizmat qilishi mumkin. Natijada ta’lim sifati oshib, ta’lim olishning psixologik qulay muhiti yuzaga keladi. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg’un holda olib borishni talab etadi.

Intizom jamiyatning me’yorda, barqaror rivojlanishining muhim shartidir. U tufayli insonlarning xatti-harakatlari yaxshilanadi. Intizom o‘rnatilgan joyda unum bo‘ladi, tashkilotlarning faoliyati samarali tus oladi.

Intizomning o‘zi ham qaysidir ma’noda odamni tarbiyalaydi. Masalan, aksariyat hollarda intizomli o‘quvchi darslarni yaxshi o‘zlashtiradi. Chunki u o‘zini nazorat qilishni, diqqat-e’tiborini jamlashni biladi. Intizom tilimizdagi tartib, qoida kabi so‘zlar bilan muayyan holatlarda ma’nodosh bo‘lib keladi. Mumtoz adabiyotimizda nizom so‘zi ham intizom ma’nosida qo‘llanganini kuzatish mumkin.

Abdulla Avloniy aytgandek:

Davlatning koni manbai, tartib-intizom,

Sarvari poydori erur iqtisodi tom.

Muhtojlig’ yuzini ko‘rar deb gumon qilmang,

Tartib birla yursa, kishining ishi mudom.

Tarbiya, intizom - shaxs ma’naviyatini yuksaltiruvchi masaladir. Shu bois olimlar majburlash yoki tashqaridan bildirilgan tartib, vazifalarga rioya qilishgina emas, balki shaxsning ma’naviy qiyofasini namoyon etuvchi ichki tartib, deya ta’riflaydi. Tartib-in-

tizomga o‘rgatish va o‘rganish, birinchi navbatda, o‘zi yashayotgan jamiyatga, o‘rnatilgan tartib-qoidalarga hurmat belgisidir. U intizomga tarbiya vositasigina emas, balki o‘qituvchiga ishonch va hurmat vositasi sifatida ham qaragan.

Intizom tarbiyaviy ta’sir etishning barcha vositalarini qamrab olib, bunga umumiy o‘rta ta’lim, siyosiy ta’lim, xarakterni shakllantirish, o‘zaro to‘qnashuv, nizolar, jamoadagi nizolarni hal qilish, do‘stlik va ishonch, kabi tarbiyaviy jarayonlarni jamlab oladi.

O‘quvchilarda o‘zining xulqi, xatti-xarakatlari uchun javobgarlik hissini kuchaytirish uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi intizomlilik haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Ularning mohiyati esa quyidagicha ta’riflanadi:

– me’yorlarga rioya qilish – axloqiy munosabatlar shakllanmagan, lekin intizomlilikning tashqi ta’sirlar vositasida ma’lum ko‘rinishi;

– axloqiy me’yorlarni bajarish – intizomlilik insonga bo‘lgan hissiy munosabatdan kelib chiqqan holda sub’ektga bog’liq kishilar yoki ularga nisbatan qiziqish bilan shartlanishi;

– me’yorlarni odatdagidek bajarish – axloqiy motiv bilan shartlanadi. Intizomlilik munosabat sifatida shakllangan; avtomatlashtirilgan harakatlar katta rol o‘ynaydi, lekin o‘ta shaxsiy qiziqishlar hali ham aksariyat hollarda xulqni belgilashi;

– bir daqiqalik impulsiv istaklarni rad etish holatida intizomga bo‘ysunish – intizomni boshqarib turuvchi burch hissi shakllanishi;

– intizom – shaxsning tabiiy erkinligi sifatida – shaxsiy qadriyatni o‘ziga qabul qiladi; yuqori darajada axloqiy turg’un; shaxsning maqsadlari va qiziqishlari jamiyatning maqsadlariga moslashadi va insonparvarlik yo‘nalishida tavsiflanadi.

Intizomlilikning funktsional tarkibiy qismlari shaxsning sifatlari, xususiyatlari va imkoniyatlarini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan ko‘rinadiki, operatsion, irodali va motivatsion tarkibiy qismlarning shakllanganligi – shaxsning intizomli bo‘lishining asosiy omilidir. Operatsion va motivatsion tarkibiy qismlar irodaviy tarkibiy qism orqali paydo bo‘ladi. Bilimlar, ko‘nikmalar va motivlar insonning xulqini boshqarib turuvchi mexanizm sifatida vujudga keladi. Aks holda intizomlilik xulqni harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qila olmaydi.

Shaxs intizomini faqatgina bo‘ysunish sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin emas, u shaxs erkinligi nuqtai nazaridan, shaxsning o‘z o‘zini tashkil qilishga bo‘lgan subyektiv qobiliyati sifatida ko‘rib chiqilishi lozim. Munosabatlar tizimi sifatida hamkorlik ko‘p tomonlamadir. Bunda “o‘qituvchi-o‘quvchi” munosabatlari muhim o‘rin tutadi.

Musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish bo‘yicha milliy va xorijiy klassik musiqadan, folklor, zamonaviy janrlar, teatr asarlaridan, vokal va cholg‘u musiqasi namunalariga murojaat qilish o‘quvchilar shaxsining uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiladi. Yuqorida sanab o‘tilgan musiqiy asarlarda ezgulik va yomonlik, muhabbat va xiyonatning abadiy mavzular o‘z aksini topadi, bu esa yoshlarda o‘ziga va boshqalarga hurmat, vatanparvarlik, jahon merosiga qadriyat bilan yondoshish sifatlarini tarbiyalaydi.

Ma’lumki, huquqbuzarliklar asosan darsdan tashqari vaqtda sodir etiladi. Shunga ko‘ra, bola darsdan tashqari mashg‘ulotlarga qanchalik ko‘p jalb qilinsa, uning jinoyat sodir etishga vaqti shunchalik kam bo‘ladi. Ta’lim muassasalarida darsdan tashqari mashg‘ulotlar va qo‘shimcha ta’lim muvaffaqiyatli shaxsning rivojlanishini ta’minlaydigan o‘quv jarayonining eng muhim tarkibiy qismlari sifatida qaralishi zarur.

Musiqa – depressiya, hayotning qorong‘u tomonlarini, muammolar va muvaffaqiyatsizliklarni engishga yordam beradigan malham.

Musiqa - quvonchi manbai bo'lib, u odamlarda yaxshi fikrlarni uyg‘otishga qodir, u inson ongiga chuqur kirib boradi va axloq-odob va Milliy qadriyatlarni singdiradi, salbiy urf-odatlarni osongina o‘zgartiradi.

Zamonaviy medisina va pedagigikada musiqa depressiya, nevrotik holatlar, psixozlar, somatik ko‘rinishlar va uyqu buzilishlarini davolash uchun foydalanadiladi.

Musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olishning tashkiliy-pedaogik asoslari:

– tarixiy-nazariy;
– profilaktik;
– psixologik-rivojlantiruvchi;
– psixokorrektiv;
– terapevtik;
– axloqiy-ma’rifiy;
– ekologik;
– uslubiy-pedagogik.

Musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi:

– shaxsiy rivojlanish;
– muvaffaqiyatli moslashish;
– muloqot va ijtimoiy faollikni oshirish;
–ruhiy holatlarni bartaraf etish;
– musiqiy didni shakllanishi.

Musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish uchta asosiy yo‘nalishi mavjud bular:

• emotsional faollashtirish;
• psixovegetativ jarayonlarni tartibga soluvchi ta’sir;
• estetik ehtiyojlarning oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, musiqiy madaniyatni shakllantirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish, his-tuyg‘ularni modellashtirish imkoniyatini beradi; kayfiyatni ko‘tarish, tashvish tuyg‘usini kamaytirish; muvozanatsiz bolalarda ichki hotirjamlik, quvonch, ijobiy his-tuyg‘ularni shakllantirish; bir-biri bilan muloqot qilish istagini hosil qilish, axloqiy va kommunikativ fazilatlarni rivojlantiradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 B.

2. Nurullayev F.G. Ommaviy madaniyatni yoshlar tarbiyasiga ta’siri// “Ta’lim jarayonida salomatlikni muhofaza qiluvchi muhitni yaratishning pedagogik xususiyatlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Buxoro, 2016. -B.267- 270.

3. Sharipova G.M. “Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitish uchun metodik qo‘llanma”. – T.: RTM nashriyoti, 2001 y.

4. Чепурова К. И. Музыка как социально-пространственный феномен культуры: автореф. дис. … канд. социол. наук. Саратов, 2005. 23 с.

5. Фойницкий И. Я. Учение о наказании в связи с тюрьмоведением. – М., 2000. 464 с.

6. Неценко О.В. Художественно-культурная среда как разновидность социокультурной среды: понятие и функции. – Сибирский педагогический журнал, №5, 2015 г.

Munisa TOSHBOYEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Jismoniy madaniyat va sport faoliyati" kafedrasi, v.v.b. dotsent

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDAGI QIZLARNI MILLIY KURASH VA DZYUDO SPORT TURLARI TEXNIK HARAKATLARIGA O'RGATISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlarni milliy kurash va dzyudo sport turlari texnik harakatlariga o'rgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Shuningdek, ayollar sporti rivojlanishining dolzarb jihatlari, milliy va xalqaro kurash turlarining texnik xususiyatlari hamda ularni o'rgatishning samarali metodlari ko'rib chiqiladi. Budan tashqari, ilmiy adabiyotlar tahlili asosida oliy ta'lim talabalari uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturlari va mashg'ulot texnologiyalarining ahamiyati asoslanadi. Muallif qizlarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik harakatlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirishning optimal modellarini aytib o'tgan.

Tayanch so'zlar. Milliy kurash, dzyudo, texnik harakatlar, qizlar sporti, o'rgatish texnologiyasi, oliy ta'lim, pedagogik metodlar, jismoniy tayyorgarlik

Статья посвящена анализу современных педагогических технологий обучения техническим действиям национальных видов спорта кураш и дзюдо девушек, обучающихся в высших учебных заведениях. Также будут рассмотрены актуальные аспекты развития женского спорта, технические особенности национальных и международных видов борьбы и эффективные методы их обучения. Кроме того, на основе анализа научной литературы обосновывается важность специально разработанных учебных программ и технологий обучения для студентов высших учебных заведений. Автором перечислены оптимальные модели поэтапного освоения технических действий с учетом физиологических и психологических особенностей девочек.

Ключевые слова. национальная борьба, дзюдо, технические движения, Спорт для девочек, технология обучения, высшее образование, педагогические методы, физическая подготовка

The article is devoted to the analysis of modern pedagogical technologies for teaching technical movements of national wrestling and judo to girls studying in higher educational institutions. Also considered are the current aspects of the development of women's sports, the technical characteristics of national and international types of wrestling, as well as effective methods of their training. In addition, based on the analysis of scientific literature, the significance of specially developed curricula and training technologies for higher education students is substantiated. The author outlined optimal models for the phased mastery of technical actions, taking into account the physiological and psychological characteristics of girls.

Key words. National Wrestling, Judo, technical action, girls sports, teaching technology, higher education, pedagogical methods, physical training

Zamonaviy sport sohasining rivojlanishi va globallashuvi shartlarida milliy va xalqaro sport turlari o'rtasidagi o'zaro aloqador rivojlanish jarayoni katta ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda milliy kuarsh sport turining tarixiy ildizlari chuqur bo'lsa, dzyudo sport turi xalqaro olimpiya harakatining muhim tarkibiy

qismi sifatida keng tarqalmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda shaxsiy fazilatlarini yetuk darajaga yetkazishda bu sport turlari muhim vosita hisoblanadi.

Hozirgi kunda xotin-qizlarning sportdagi faol ishtiroki va yuqori natijalarga erishishi jahon sport harakatining muhim tendensiyasiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida “Xotin-qizlar yili”ni e’lon qilish va ayollar huquqlarini kengaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar sportda ham o‘z ifodasini topmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni milliy kurash va dzyudo sport turlariga jalb etish ularning jismoniy rivojlanishi, psixologik barqarorligi hamda milliy qadriyatlarni asrab-avaylashida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, ushbu sport turlari texnik harakatlarining murakkabligi va o‘ziga xos xususiyatlari tufayli maxsus pedagogik texnologiyalarni talab qiladi.

Milliy kurash O‘zbekiston xalqining sport va jang san’atidagi qadimiy an’analarini aks ettiruvchi, o‘ziga xos falsafa va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan milliy sport turidir. Dzyudo esa yaponiyada vujudga kelgan, hozirda jahon miqyosida keng tarqalgan olimpiya sporti sifatida tanilgan. Ushbu ikki sport turini birgalikda o‘rganish talaba qizlarga ham milliy, ham xalqaro sport tajribasidan unumli foydalanish imkoniyatini yaratadi. Texnik harakatlarni to‘g‘ri va xavfsiz bajarish ko‘nikmalari nafaqat sport natijalarga erishishda, balki kundalik hayotda ham ahamiyatli amaliy ko‘nikmalar sifatida qadrlanadi.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlarni milliy kurash va dzyudo sport turlari texnik harakatlariga o‘rgatishning ilmiy-pedagogik asoslarini tahlil qilish hamda samarali o‘quv-trenirovka texnologiyalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalariga adabiyotlar tahlili orqali mavzuning nazariy asoslarini o‘rganish, qizlarning fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan o‘rgatish metodlarini tahlil qilish, milliy kurash va dzyudo texnik harakatlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish kiradi.

Milliy kurash va dzyudo sport turlarining texnik harakatlariga o‘rgatish metodikasi masalasi bir qancha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli jihatdan o‘rganilgan. Xalqaro tadqiqotlar asosida dzyudo texnikasini o‘rgatishda xavfsizlik tamoyillari va yoshga mos metodlar muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Bolalar va yoshlar bilan ishlashda to‘g‘ri yiqilish texnikasini (ukemi) o‘rgatish, murakkab texnik harakatlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishning zaruriyati ta’kidlangan. Xususan, dzyudo mashg‘ulotlarida ayollar va qizlar uchun maxsus pedagogik yondashuvlar qo‘llanishi lozim, chunki ularning anatomo-fiziologik xususiyatlari erkaklar sporti metodikasidan farq qiladi.

Rus tilida nashr etilgan tadqiqotlarda ayollar dzyudosining tarixiy rivojlanishi va pedagogik jihatlari keng yoritilgan. 1920-1930-yillarda Yaponiyada ayollar uchun maxsus dzyudo dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu sport turida xotin-qizlarning ishtiroki butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan. Rossiya va MDH mamlakatlarida ayollar dzyudosini rivojlantirishda milliy sport an’analari bilan sintezlash tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik-taktik tayyorgarlikning asoslari yuqori malakali trenerlarning tajribasi va ilmiy tadqiqotlar orqali shakllantiriladi.

O‘zbek tadqiqotchilar tomonidan milliy kurash texnikasini o‘rgatishning o‘ziga xos metodlari ishlab chiqilgan. Kurashda yetti asosiy usul (supurma, chil, qo‘shsha, yuk, yelka, bardor, yonbosh) mavjud bo‘lib, ularni o‘zlashtirishda ketma-ketlik va individuallashtirish tamoyillari muhim hisoblanadi. Qizlar bilan ishlashda ularning psixologik barqarorligi, muvozanat va koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Milliy kurashning tarbiyaviy va ma’naviy-axloqiy jihatlarini ta’kidlash muhim-

dir, chunki bu sport turi O‘zbekistonning milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

Texnik harakatlarni o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llaniladi. Vizual demonstratsiya usuli, video-tahlil vositalari, interaktiv trening dasturlari qo‘llanilishi texnik ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Qizlar guruhida ishlashda psixologik qo‘llab-quvvatlash, motivatsiya oshirish va jamoaviy ruh shakllantirish muhim pedagogik vazifalar sifatida belgilanadi. Xalqaro tajribada ayollar sporti rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilmoqda va bu borada O‘zbekiston ham ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirmoqda.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni kurash sport turlariga o‘rgatishda kompleks yondashuv zarur. Bu yondashuvda nafaqat texnik harakatlarni mexanik takrorlash emas, balki ularning fiziologik, psixologik va pedagogik jihatlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan metodikalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, milliy va xalqaro sport tajribasini integratsiyalash zamonaviy talablar darajasida samarali natijalar berishini ilmiy tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Adabiyotlar tanlanishida quyidagi mezonlar qo‘llanildi: mavzuning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati, nashr yili (oxirgi o‘n yillikdagi tadqiqotlarga ustunlik berildi), manbalarning ilmiy ishonchlilik darajasi. O‘zbek tilidagi manbalar ichida Jismoniy tarbiya va sport universiteti tadqiqotlari, milliy kurash federatsiyasi metodiklari tahlil qilindi. Rus tilidagi manbalarda Sankt-Peterburg, Moskva va boshqa yirik ilmiy markazlarning sport pedagogikasi bo‘yicha tadqiqotlari o‘rganildi. Xorijiy manbalar sifatida xalqaro sport jurnallari, Kodokan instituti nashrlari va Xalqaro dzyudo federatsiyasining metodik materiallari ko‘rib chiqildi.

Tahlil jarayonida milliy kurash va dzyudo texnik harakatlarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. Ikki sport turining qiyosiy tahlili asosida talaba qizlar uchun kompleks o‘quv dasturini tuzishning nazariy asoslari ishlab chiqiladi. Texnik harakatlarni o‘rgatishning bosqichlari: boshlang‘ich tanishish, asosiy texnikani o‘zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish bosqichlari sifatida tizimlashtirilib ko‘rsatiladi. Har bir bosqichda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan pedagogik usullar, vositalar va tashkiliy shakllar aniqlanadi.

Tadqiqotning nazariy asosini sport pedagogikasi, jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, gender yondashuvlar, shaxsni shakllantirish konsepsiyalari tashkil etadi. Metodologik bazani umumilmiy tadqiqot prinsiplari (obyektivlik, tizimlilik, rivojlanish prinsiplari) hamda pedagogik tadqiqotlarning maxsus metodlari ta’minlaydi. Tahlil natijalarining ishonchliligini oshirish maqsadida turli xil manbalar va yondashuvlarni qiyoslash, natijalarni triangulatsiyalash usullari qo‘llaniladi.

Adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni milliy kurash va dzyudo sport turlariga o‘rgatishda quyidagi asosiy yo‘nalishlar belgilandi. Birinchidan, texnik harakatlarni o‘rgatishning bosqichma-bosqich tizimi ishlab chiqilishi zarur. Boshlang‘ich bosqichda asosiy harakat ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor qaratiladi: to‘g‘ri yiqilish texnikasi, asosiy turish pozitsiyalari, harakatlanish usullari va ushlab olish texnikalari. Milliy kurashda bu yetti asosiy usulning elementar shakllarini o‘zlashtirishni, dzyudoda esa ukemi (xavfsizlik texnikasi) va kihon (asoslar) dasturini o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqichda murakkab texnik harakatlar va ularning kombinatsiyalarini o‘rganishga o‘tiladi. Bu jarayonda individual yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, chunki har bir talabaning jismoniy imkoniyatlari, psixologik xususiyatlari va o‘rganish tezligi turlicha bo‘ladi. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, qizlar guruhlarda ishlashda

jamoaviy muhit, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va raqobatning sog‘lom muhiti yaratish muhim pedagogik shart hisoblanadi. Uchinchi bosqichda o‘zlashtirilgan texnik harakatlarni mustahkamlash va turli vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Milliy kurash va dzyudo texnik harakatlarining qiyosiy tahlili bir qator o‘xshashlik va farqlarni ko‘rsatdi. O‘xshashliklar: ikki sport turida ham raqibni muvozanatdan chiqarish (kuzushi), to‘g‘ri pozitsiya olish va texnikani bajarish uchun optimal holatni yaratish (tsukuri) prinsiplari muhim ahamiyatga ega. Har ikkala sport turida ham yiqitish texnikalari oyoq, bel va qo‘l usullariga bo‘linadi hamda parterdagi ish muhim o‘rin tutadi. Farqlar asosan ushlash texnikasida namoyon bo‘ladi: milliy kurashda kamar ushlash asosiy bo‘lsa, dzyudoda kimono (judogi) turli qismlaridan ushlash imkoniyati mavjud. Shuningdek, qoidalar tizimida va baholash mezonlarida ham farqlar kuzatiladi.

Qizlarning fiziologik xususiyatlarini hisobga olish pedagogik jarayonning muhim tamoyilidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarda erkaklar bilan solishtirganda egiluvchanlik va muvozanatni saqlash qobiliyati yuqori bo‘lsa, mutlaq kuch ko‘rsatkichlari pastroq bo‘ladi. Shunga ko‘ra, texnik harakatlarni o‘rgatishda kuch elementlarini haddan tashqari oshirmasdan, texnika to‘g‘riligiga va harakatlar iqtisodligiga e’tibor qaratish lozim. Psixologik jihatdan qizlar ko‘pincha ehtiyotkorlik, mas’uliyat hissi va detallarga e’tibor berishda ustunlikka ega bo‘ladilar, bu esa to‘g‘ri pedagogik yondashuvda ijobiy omil sifatida foydalanilishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llash samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Video-tahlil tizimlari yordamida talabalar o‘z texnik xatolarini ko‘rish va tuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Interaktiv dasturlar va raqamli o‘quv materiallari mustaqil mashg‘ulotlar uchun qo‘shimcha resurs yaratadi. Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) elementlarini qo‘llash, ayniqsa, boshlang‘ich bosqichda talabalarning motivatsiyasini oshirish va o‘rganish jarayonini qiziqarli qilishda samarali hisoblanadi. Virtual haqiqat texnologiyalari esa texnik harakatlarni xavfsiz sharoitda takrorlash imkoniyatini beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida milliy kurash va dzyudo mashg‘ulotlarini tashkil etishda akademik jarayonni hisobga olish zarur. Dars jadvali, imtihon davrlari va boshqa o‘quv yuklamalari trenirovka jarayoniga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun moslashuvchan trenirovka grafigi, intensivlik va hajmni muvozanatlash, psixologik yuklamalarni boshqarish muhim tashkiliy masalalar hisoblanadi. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, haftalik 2-3 marta 90-120 daqiqalik mashg‘ulotlar talaba qizlar uchun optimal rejim hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy kurash va dzyudo sport turlarini birgalikda o‘rganish talaba qizlar uchun qator afzalliklarni yaratadi. Birinchidan, keng texnik arsenalni egallab olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, milliy va xalqaro sport tajribasini taqqoslash orqali tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Uchinchidan, turli madaniy kontekstlarda sport faoliyatini tushunish ko‘nikmasi shakllanadi. To‘rtinchidan, jismoniy tayyorgarlikning turli jihatlarini kompleks ravishda rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Oliy ta’lim muassasalarida talaba qizlarni milliy kurash va dzyudo sport turlari texnik harakatlariga o‘rgatish murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, maxsus metodologik yondashuv va tizimli ishlashni talab qiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ushbu sohadagi muvaffaqiyat ilmiy asoslangan metodikalarni qo‘llash, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga bog‘liq. Texnik harakatlarni o‘zlashtirishning bosqichma-bosqich tizimi, xavfsizlik tamoyillarini qat’iy rioya qilish va psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim pedagogik shartlar hisoblanadi.

Milliy kurash va dzyudo texnik harakatlarining o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash asosida ikkala sport turini integratsiyalashgan holda o‘rgatish samarali pedagogik yechim ekanligi aniqlandi. Bu yondashuv talabalarning texnik arsenalini kengaytirish, jismoniy va psixologik sifatlarni kompleks rivojlantirish, milliy va xalqaro sport madaniyatini egallash imkoniyatini yaratadi. Qizlarning fiziologik va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan maxsus metodikalar yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

Amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, oliy ta’lim muassasalari uchun milliy kurash va dzyudo texnik harakatlarini o‘rgatishning integratsiyalashgan o‘quv dasturini yaratish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, o‘qituvchi-trenerlar malakasini oshirish tizimida gender pedagogikasi va ayollar sporti bo‘yicha maxsus modullar kiritish zarur. Uchinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar (video-tahlil, interaktiv dasturlar, virtual haqiqat) bilan jihozlangan maxsus sport zallari va laboratoriyalarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy kurash va dzyudo sport turlari texnik harakatlariga o‘rgatish orqali talaba qizlarning jismoniy, psixologik va ma’naviy rivojlanishini ta’minlash mumkin. Bu jarayon faqat sport natijalarga erishish emas, balki sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, o‘ziga ishonch hosil qilish, stressga chidamlilikni oshirish va shaxsiy sifatlarni yetuk darajaga yetkazishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo‘nalishda amaliy tajribalar o‘tkazish, empirik tadqiqotlar amalga oshirish va olingan natijalarni ilmiy jihatdan asoslash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rakhimov A.R. (2023). Jismoniy tarbiya va sportning talabalar sog‘lig‘iga ta’siri. Jismoniy tarbiya va sport jurnali, 2(5), 34-42.

2. Karimova N.S. (2024). Xotin-qizlar sportini rivojlantirish: muammolar va yechimlar. Sport pedagogikasi, 1(8), 56-65.

3. Yusupov B.M. (2022). Milliy kurash va dzyudoning qiyosiy tahlili. O‘zbekiston sport tarixi, 3(12), 78-89.

4. Kowalczyk M., & Koperski C. (2022). Principles of judo training as an organised form of physical activity for children. International Journal of Environmental Research and Public Health, 19(5), 2605-2618.

5. Извеков В.В. (2001). Система управления подготовкой женщин в спортивной борьбе: На примере дзюдо. Москва: Физкультура и спорт.

6. Ерегина С.В. (2019). Современные подходы к обучению технике двигательных действий на примере дзюдо. Южно-Сахалинск: СахГУ.

7. Abdullayev Sh.T. (2023). Milliy kurash texnikasini o‘rgatishning pedagogik asoslari. Sport va jismoniy tarbiya metodikasi, 4(15), 23-31.

8. Silva L.S., & Leandro C.G. (2021). Training protocols and specific performance in judo athletes: A systematic review. Journal of Strength and Conditioning Research, 35(4), 1145-1158.

9. Fukuda K. (2004). Born for the mat: A kodokan kata textbook for women. San Francisco: Fukuda Keiko Sensei Foundation.

10. Primbetov A.A. (2023). Erkin kurashchi qizlarning musobaqa oldi tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi. Jismoniy tarbiya va sport universiteti axborotnomasi, 2(7), 196-201.

Faxriddin KARIMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Jismoniy madaniyat va sport faoliyati” kafedrasi, professor

PARA ARMRESTLINGCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada para armrestling sportida innovatsion texnologiyalarning rol va o‘rnini tahlil qilish orqali nogironligi bor sportchilarning texnik tayyorgarligini oshirish yo‘llarini aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy sport sohasida texnologik innovatsiyalar sportchilarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi va para armrestlingda esa bu ayniqsa dolzarb, chunki sportchilarning jismoniy imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, texnologik yordamchilarsiz yuqori natijalarga erishish qiyinlashishi haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so‘zlar. Para armrestling, innovatsion texnologiyalar, texnik tayyorgarlik, biomexanika, video tahlil, nogironligi bor sportchilar, sport texnologiyalari.

Статья направлена на определение путей повышения технической подготовки спортсменов с инвалидностью путем анализа роли и места инновационных технологий в параармрестлинге. Также отмечается, что технологические инновации в современном спорте важны для повышения эффективности спортсменов, а в параармрестлинге это особенно актуально, поскольку физические возможности спортсменов ограничены, и без технологических помощников достижение высоких результатов затруднено.

Ключевые слова. пара-армрестлинг, инновационные технологии, техническая подготовка, биомеханика, видеоанализ, спортсмены с ограниченными возможностями, спортивные технологии.

The article is aimed at identifying ways to improve the technical training of athletes with disabilities by analyzing the role and place of innovative technologies in para arm wrestling. It is also noted that technological innovations in modern sports play an important role in increasing the effectiveness of athletes, and in para arm wrestling this is especially relevant, since the physical capabilities of athletes are limited, and it is difficult to achieve high results without technological assistants.

Key words. Para-armwrestling, innovative technologies, technical training, biomechanics, video analysis, athletes with disabilities, sports technologies.

Para armrestling zamonaviy nogiron sport turlari ichida eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi nafaqat sportchilarning jismoniy kuchini, balki texnik mahoratini ham talab qiladi. Para armrestling sportchilari turli xil nogironlik turlari bilan kurashib, o‘zlarining imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishga harakat qilishadi. Biroq, an’anaviy mashq usullari har doim ham ushbu sportchilarning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondira olmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida “gi PQ-5924-son qaroriga muvofiq, nogiron sportchilarning sport natijalari va texnik tayyorgarligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Innovatsion texnologiyalarning sport sohasiga kirib kelishi, ayniqsa para sport yo‘nalishlarida inqilob yaratmoqda. Rossiya Federatsiyasida para sport rivojlanishi

tajribasi shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar sportchilarning harakat texnikasini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarida ham para sport sohasida texnologik yechimlardan foydalanish tendentsiyasi kuchaymoqda. Texnik tayyorgarlik para armrestlingda g‘alaba qozonishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Sportchining qo‘l va bilagining to‘g‘ri holatda bo‘lishi, kuchni optimal taqsimlashi va raqibning harakatlariga tez moslashishi - bularning barchasi yaxshi texnik tayyorgarlikning natijasidir. Innovatsion texnologiyalar esa bu jarayonlarni yanada aniq va ilmiy asosda tashkil etishga yordam beradi.

Tadqiqotning maqsadi para armrestlingchilarning texnik tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Bu maqsadga erishish uchun zamonaviy texnologik yechimlarning imkoniyatlari tahlil qilinadi va ularning para armrestling mashg‘ulotlaridagi qo‘llanilish usullari o‘rganiladi.

Ushbu tadqiqot adabiyotlar tahlili va nazariy qiyosiy metodlar asosida amalga oshirildi. O‘zbekiston sport sohasida innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi masalasi Rahimov va Karimov tomonidan batafsil o‘rganilgan. Mualliflar O‘zbekiston Respublikasining sport tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish holatini tahlil qilib, para sport sohasida katta potentsial borligini ko‘rsatgan. Ularning fikricha, video tahlil tizimlari va biomexanik o‘lchov asboblaridan foydalanish mahalliy sportchilarning texnik ko‘nikmalarini 12-15 foiz gacha oshirishi mumkin.

Rossiya sport ilmlarida Petrov va Sokolova tomonidan olib borilgan tadqiqot biomexanik tahlil usullarining armrestling sportida qo‘llanilishini ko‘rib chiqadi. Mualliflar armrestling texnikasining asosiy parametrlarini aniqlash uchun 3D harakat tahlil tizimlaridan foydalanish metodologiyasini ishlab chiqqan. Ularning natijalariga ko‘ra, sportchilarning qo‘l va bilagidagi kuch taqsimlanishi dinamikasini aniq o‘lchash orqali texnik xatolarni 20 foiz kamaytirish mumkin.

Ukraina sport akademiyasida Kovalenko va Shevchenko para armrestling sohasida assistiv texnologiyalarning rolini tadqiq qilgan. Mualliflar nogironligi bor sportchilar uchun maxsus ishlab chiqilgan texnologik yechimlarning sport natijalari va psixologik motivatsiyaga ijobiy ta’sirini isbotlagan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, individual moslashtirilgan texnologik yordamchilar sportchilarning o‘z-o‘ziga ishonchini 18 foiz ga oshiradi.

Belarus sport instituti olimi Volkov virtual reallik texnologiyalarining para sport mashg‘ulotlaridagi qo‘llanilishi bo‘yicha fundamental tadqiqot amalga oshirgan. Muallif VR texnologiyalari yordamida para armrestlingchilarning vizual-kinetik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasini yaratgan va uning samaradorligini tajribada isbotlagan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, VR mashg‘ulotlar an’anaviy usullarga nisbatan 22 foiz yuqori natija beradi.

Qozog‘iston milliy sport universiteti tadqiqotchilari Nazarbayev va Temirova sun’iy intellekt texnologiyalarining adaptive sportda qo‘llanilishi masalasini o‘rganishgan. Ularning ishlab chiqkan AI tizimlari para armrestlingchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan mashg‘ulot dasturlarini yaratish imkoniyatini beradi. Tizim har bir sportchining biomexanik parametrlari va rivojlanish trayektoriyasini hisobga olib, optimal mashg‘ulot rejimini tavsiya etadi.

Gruziya sport akademiyasida Meladze va Gelashvili biomexanik parametrlarni real vaqtda kuzatish tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot olib borgan. Ularning ishlab chiqkan tizimlari para armrestling sportchilarining harakat texnikasidagi xatolarni darhol aniqlash va tuzatish imkoniyatini beradi. Bu ayniqsa nogironlik darajasi

yuqori bo‘lgan sportchilar uchun muhimdir, chunki ular o‘zlarining harakatlarini vizual nazorat qila olmaydi.

Tojikiston milliy universiteti olimi Rahmonov Markaziy Osiyo mintaqasida adaptive sport texnologiyalari rivojlanishi perspektivalarini tahlil qilgan. Muallif har bir nogironlik turi uchun individual texnologik yondashuv zarurligini ta’kidlab, mintaqada bunday texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatgan.

Qirg‘iziston sport institutida Mamytov va Sultanova para sport mashg‘ulotlarida mobil texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishgan. Mualliflar smartfon va planshet kompyuterlarda ishlaydigan maxsus ilovalarning para armrestlingchilar uchun foydaliligini isbotlagan. Bu texnologiyalar sportchilarga mustaqil mashq qilish va o‘z rivojlanishini kuzatish imkoniyatini beradi.

Turkmaniston davlat jismoniy tarbiya institutida Gurbanov innovatsion texnologiyalarning nogiron sportchilarning ijtimoiy adaptatsiyasidagi rolini tadqiq qilgan. Muallif texnologik yechimlar nafaqat sport natijalarini oshirish, balki sportchilarning hayot sifatini yaxshilash uchun ham muhimligini ta’kidlagan.

Adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, para armrestlingchilarning texnik tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalar bir nechta yo‘nalishda samarali qo‘llanilishi mumkin. Birinchidan, video tahlil tizimlari sportchilarning harakat texnikasini batafsil o‘rganish imkoniyatini beradi. Yuqori aniqlikdagi kameralar va maxsus dasturiy ta’minot yordamida sportchining har bir harakati millimetr aniqlikda tahlil qilinishi mumkin. Bu ayniqsa para armrestlingchilar uchun muhim, chunki ularning harakat imkoniyatlari cheklangan bo‘lib, har bir harakat maksimal samaradorlik bilan bajarilishi kerak.

Biomexanik o‘lchov asboblari para armrestling texnikasining ilmiy asoslarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Sensorlar va o‘lchov tizimlari yordamida sportchilarning muskul faolligi, qo‘sh kuchi taqsimlanishi va energiya sarfi kabi parametrlarni aniq o‘lchash mumkin. Bu ma’lumotlar asosida har bir sportchi uchun individual mashg‘ulot dasturlari ishlab chiqiladi. O‘rganilgan manbalar shuni ko‘rsatdiki, biomexanik tahlildan foydalangan holda ishlab chiqilgan mashg‘ulot dasturlari an’anaviy usullarga nisbatan 15-18 foiz yuqori samaradorlik ko‘rsatadi.

Virtual reallik texnologiyalari para armrestlingchilarning psixologik tayyorgarligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. VR muhiti yordamida sportchilar turli xil musobaqa sharoitlarini modellashtirish va ularga oldindan tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu texnologiya ayniqsa jang tasdiqlovchi nogironligi bor sportchilar uchun foydali, chunki ular ko‘p hollarda cheklanishi muhitda yashaydilar va real musobaqa tajribasiga ega emas.

Sun’iy intellekt tizimlari para armrestlingda eng istiqbolli texnologiyalardan biri hisoblanadi. AI algoritmlari sportchilarning o‘tmishdagi natijalari, biomexanik parametrlari va shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilib, optimal mashg‘ulot rejimini tavsiya etishi mumkin. Shuningdek, sun’iy intellekt raqib sportchilarning texnik xususiyatlarini tahlil qilib, ularga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda ham yordam beradi.

Mobil texnologiyalar para armrestlingchilarning kundalik mashg‘ulotlarini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi. Smartfon ilovalar orqali sportchilar o‘zlarining mashg‘ulot jadvalini tuzishi, natijalarni kuzatishi va murabbiy bilan aloqada bo‘lishi mumkin. Bu ayniqsa qishloq joylarida yashovchi yoki harakat imkoniyati cheklangan sportchilar uchun juda foydali.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar para armrestlingchilarning nafaqat texnik tayyorgarligini, balki umumiy hayot sifatini ham oshiradi. Texnologik yor-

damchilar sportchilarga mustaqillik hissini beradi va ularning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida sport natijalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, bunday texnologiyalarning narxi yuqori bo‘lib, barcha sport tashkilotlari uchun hamyonbop emas. Ikkinchidan, sportchilar va murabbiylarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish qo‘shimcha vaqt va resurs talab etadi. Uchinchidan, texnologik yechimlar har doim ham mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan bo‘lmaydi.

Para armrestlingchilarning texnik tayyorgarligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning kompleks qo‘llanilishi alohida e’tiborga loyiqdir. Tadqiqot materiallari shuni ko‘rsatdiki, bir vaqtning o‘zida bir nechta texnologik yechimdan foydalanish sinergik effekt yaratadi. Masalan, video tahlil tizimi bilan biomexanik o‘lchov asboblarini birgalikda qo‘llashda sportchilarning harakat texnikasini takomillashtirish samaradorligi 25-30% gacha oshadi. Bu ayniqsa yuqori darajadagi para armrestlingchilar uchun muhim, chunki ular millimetr aniqlikdagi texnik o‘zgarishlar ham muhim rol o‘ynaydi. Kompleks yondashuv shuningdek, har bir sportchining individual xususiyatlariga mos kelgan texnologik yechimlar to‘plamini yaratish imkoniyatini beradi.

Innovatsion texnologiyalarning para armrestlingda qo‘llanilishi jarayonida murabbiylarning roli ham o‘zgarmoqda. An’anaviy murabbiylik usullaridan farqli o‘laroq, zamonaviy murabbiy nafaqat sport texnikasi bo‘yicha, balki texnologik vositalar bilan ishlash bo‘yicha ham chuqur bilimga ega bo‘lishi kerak. Texnologik kompetentli murabbiylar o‘zlarining shogirdlarining rivojlanish sur’atini 35-40 foiz gacha oshirishi mumkinligi aniqlangan. Bu jarayonda murabbiy texnologik ma’lumotlarni tahlil qilish, sportchining individual xususiyatlariga mos mashg‘ulot dasturlarini tuzish va real vaqt rejimida tuzatishlar kiritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur.

Para armrestling sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-psixologik ta’siri ham katta ahamiyatga ega. Texnologik yordamchilar sportchilarning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini oshirib, ularda “texnologik tenglik” tuyg‘usini yaratadi. Bu ayniqsa og‘ir nogironligi bo‘lgan sportchilar uchun muhim bo‘lib, ular texnologiya yordamida o‘zlarining jismoniy cheklovlarini qisman bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion texnologiyalar bilan ta’minlangan para armrestlingchilarning musobaqa oldidan stress darajasi 20-25 foiz past bo‘ladi va ularning sport faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshadi.

Innovatsion texnologiyalar para armrestlingda sport sanoatining umumiy raqamlashtirish jarayoniga muvofiq keng qo’llanilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko’rsatdiki, texnologik vositalardan foydalanish nafaqat sportchilarning individual ko’rsatkichlarini yaxshilaydi, balki butun sport ekotizimining samaradorligini ham oshiradi. Shu jihatdan, para armrestlingda raqamli platformalar orqali global hamkorlik va tajriba almashish imkoniyatlari paydo bo’lmoqda. Onlayn mashg’ulotlar, masofaviy murabbiylik va virtual musobaqalar kabi yangi formatlar sportchilarning geografik cheklovlardan qat’i nazar yuqori darajadagi sport ta’limini olish imkoniyatini yaratmoqda. Bu ayniqsa qishloq hududlarda yashovchi yoki harakat qobiliyati cheklangan para armrestling sportchilari uchun yangi ufqlarni ochmoqda, chunki ular endi dunyoning istalgan nuqtasidagi eng yaxshi murabbiy va mutaxassislar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda, para armrestlingchilarni texnik tayyorgarligini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish zamonaviy sport rivojlanishining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili natijalariga ko‘ra, video tahlil tizimlari, biomexanik o‘lchov asboblari, virtual reallik texnologiyalari va sun’iy intellekt tizimlari para armrestling

sportida katta salohiyatga ega. Bu texnologiyalardan tizimli foydalanish sportchilarning texnik ko‘nikmalarini 15-20 foiz gacha oshirishi mumkin.

O‘zbekiston, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni para sportga joriy etish nafaqat sport natijalari, balki sportchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi va hayot sifatini ham yaxshilaydi. Biroq, bu jarayonda moliyaviy, texnik va kadrlar bilan bog‘liq qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ularni hal etish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi zarur.

Kelajakda para armrestling sohasida innovatsion texnologiyalarning yanada keng qo‘llanilishi kutilmoqda. Bu uchun maxsus dasturiy ta’minot va apparat vositalarini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish lozim. Shuningdek, para armrestling federatsiyalari o‘rtasida texnologik tajriba almashish va birgalikda loyihalar amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.01.2020-yildagi PF-5924-son

2. Rahimov A. K., & Karimov B. M. (2022). Innovatsion texnologiyalarning O‘zbekiston sport tizimida qo‘llanilishi. Toshkent: O‘zbekiston jismoniy madaniyat va sport ilmiy-tadqiqot instituti nashriyoti.

3. Петров В. И., & Соколова Н. П. (2021). Биомеханический анализ техники в армрестлинге: современные подходы. Москва: Теория и практика физической культуры.

4 Коваленко О. В., & Шевченко А. С. (2020). Ассистивные технологии в пара-армрестлинге: украинский опыт. Киев: Национальный университет физического воспитания и спорта Украины.

5. Волков Д. А. (2023). Применение VR-технологий в тренировке параспортсменов. Минск: Белорусская государственная академия физической культуры.

6. Назарбаев С. Т., & Темирова, Ж. К. (2022). Искусственный интеллект в адаптивном спорте Казахстана. Алматы: Казахская академия спорта и туризма.

7. Меладзе Г. В., & Гелашвили, М. Р. (2021). Системы реального времени для биомеханического анализа в спорте. Тбилиси: Грузинский государственный университет физического воспитания и спорта.

8. Рахмонов Ф. Н. (2023). Перспективы развития адаптивных спортивных технологий в Центральной Азии. Душанбе: Таджикский национальный университет.

9. Мамытов К. С., & Султанова, А. Б. (2022). Мобильные технологии в параспорте Кыргызстана. Бишкек: Кыргызская государственная академия физической культуры и спорта.

10. Гурбанов О. М. (2021). Роль инновационных технологий в социальной адаптации спортсменов с инвалидностью. Ашгабад: Туркменский государственный институт физической культуры и спорта.

Gulxumor XUDOYBERDIYEVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumani, 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, "Musiqa madaniyati" fani, oliy toifali o'qituvchi

"MUSIQA MADANIYATI" DARSLARIDA MILLIY CHOLG'ULARNI O'RGANISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqola o'zbek milliy cholg'ularining qisqacha tarixi, yasalishi, tuzilishi, sozlanishi va ijro etilishi haqida bo'lib, ulardan dars va to'garak mashg'ulotlar jarayonida foydalanish tavsiya etilishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, o'zbek milliy cholg'ulariga qiziquvchi o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishlari uchun pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish va har bir cholg'u haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'zlar. Musiqa, cholg'u, o'zbek, milliy, kuy, chalish, maktab, dars, to'garak, o'quvchi, ustoz, shogirt, o'rganish, o'rgatish.

В статье рассказывается о краткой истории, изготовлении, строении, настройке и исполнении узбекских национальных инструментов, рекомендуется использовать их на уроках и в кружковых занятиях. Также дана информация об эффективном использовании педагогических технологий и каждом инструменте для самостоятельной работы учащихся, интересующихся узбекскими национальными инструментами.

Ключевые слова. Музыка, инструмент, узбекский, национальный, мелодия, игра, школа, урок, кружок, ученик, учитель, ученик, обучение, преподавание.

The article is about a brief history of Uzbek national instruments, their creation, structure, tuning, and performance, and it is recommended to use them in lessons and club activities. Also, information on the effective use of pedagogical technologies and each instrument is provided for independent study of students interested in Uzbek national instruments.

Key words. Music, instrument, Uzbek, national, melody, playing, school, lesson, club, student, teacher, apprentice, learning, teaching.

Cholg'u musiqa ijrochilik san'ati o'zbek xalqining boy musiqa madaniyatida salmoqli o'rin tutadi. O'tmish musiqiy risolalari va yozma manbalari hamda tasviriy san'at yodgorliklarida aks ettirilgan cholg'u sozlar qadim zamonlardan vujudga kelganligi va ularning xalq orasida keng tarqalganligidan ko'rishimiz mumkin. Va albatta davrlar osha ularning birmuncha takomillashganligidan darak beradi.

O'rta asrga oid va undan keyingi davrlarda yaratilgan musiqa risolalarda va ularda ijro etiladigan musiqa asarlari haqida ma'lumotlar talaygina. O'rta Osiyoda yashagan buyuk olim, faylasuf Abu Nasr Farobiyning musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: "Kishi ovoziga yaqin tovush chiqaradigan cholg'u sozlar - g'ijjak, rubob, nay va surnaydir; ushbu cholg'ular inson ovoziga juda yaqinligini ta'kidlaydi. Qolaversa, cholg'u sozlar ashulaga ham jo'r bo'ladi, ashulaning boshlang'ich musiqasini va uning orasidagi cholg'u qismlarini hosil qiladi". Farobiyning bergan ta'riflari hozirgi davrga qadar saqlanib, rivojlanib kelmoqda.

XVI- XVII asrlarda yashab ijod etgan buxorolik Najmiddin Kavkabiy va Darvish Ali Changiy risolalarida, Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi"

kitobida ham cholg‘u sozlarining mukammal ro‘yxati, ularning kelib chiqishi va sozandalar haqida qimmatli ma’lumot berilgan. Saroyda yashab ijod etgan san’atkorlarga “Saroy Hofizi” va “Saroy Mashshog‘i” unvonlari berilgan va ularni ismlari ijro etgan cholg‘u nomi bilan “Changiy”, “Dutoriy”, “Tanburiy” deya qo‘shib aytilgan. O‘zbek xalq cholg‘ularini o‘rganish “Ustoz-shogirt” an’anasi bo‘yicha bizgacha yetib kelgan. Yunus Rajabiy tomonidan “Shashmaqom” musiqiy merosimizni cholg‘u yo‘li o‘zbek xalq cholg‘ulari uchun besh chiziqli nota tizimiga olingan va notalashtirilgan. Musiqa madaniyati darslarida ushbu cholg‘ular haqida ma’lumot berib borilmoqda va o‘quvchilarni o‘zbek milliy cholg‘ulariga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatlari musiqa to‘garaklarida shakllantirib borilmoqda.

Nimani o‘qitish kerak? Qanday o‘qitish kerak? Darsni o‘quvchilar bilan salomlashib boshlar ekanman, nogohon ularning nigoh qarashlarini musiqa xonasining jovonida bir qator qilib terilgan o‘zbek milliy cholg‘ulari tanbur, dutor, rubob, do‘mbira, g‘ijjak, nay va doira cholg‘ulariga qadalgani holda qiziqib kuzatayotganini sezaman. Ayni damda ular meni tinglashsada shu fursat g‘animat musiqa cholg‘ulariga bo‘lgan qiziqishi o‘laroq o‘z his-tuyg‘u va hayratlarini yashira olmayotganligi sababini anglayotgandekman go‘yo, yaqingacha ular ushbu cholg‘ular rasmini faqat darsliklarda ko‘rgani rost, bugun esa cholg‘ular bilan yuzma-yuz turganligini ularning quvonchga to‘la yuz ko‘zlaridan bilish mumkin. Kechagina do‘mbira cholg‘usini nog‘ora cholg‘usiga adashtirgan o‘quvchimga bugun qo‘limda musiqa cholg‘u asbobini ushlagan holimda turarkanman, ularga o‘zbek milliy cholg‘ularning yaratilish tarixi, yasalishi va ijro etilishini ko‘rsatib berish bilan birga bir muddat moziyga yuzlanaman.

Ko‘ksimda faxr tuyg‘usi uyg‘ondiki har bir cholg‘u ortida uning ijodkori ya’ni ular qaysi soha vakili bo‘lmasin cholg‘u asbobida kuy chalib ashula aytish orqali o‘zlarida ma’naviy ozuqa, kuch va xordiq topa olishganligi, shuningdek, baxshi do‘mbira cholg‘usida o‘zbek bahodiri “Alpomish” dostonini madh etganligi, Komil Xorazmiy dastlabki nota yozuvi “Tanbur chizig‘i” ni yaratganligi, “Boburiylar davri”ning eng mashhur cholg‘usi g‘ijjak Abu Nasr Al-Farobiy tomonidan ixtiro qilganligi, shoir Mir Alisher Navoiy va do‘sti shoh Husayn Boyqaro bilan birga nay cholg‘usi ovoziga mubtalo bo‘lganligi, “Xorazmshohlar davri”da maqtovlarga sazovor bolgan rubob cholg‘usi usta Mahmud tomonidan yasalganligi, doira cholg‘usi dovrug‘ini chet elgacha olib chiqqan Usta Olim Komilovning kaftlaridan olingan gips nusxa Angliya muzeyida xozirgacha saqlanayotganligi, “Temuriylar davri” da musiqa asarlari dutor cholg‘usida bastalanganligi, o‘zbek mumtoz musiqasi “Shashmaqom”ning “Cholg‘u yo‘llari” ushbu milliy musiqa cholg‘u asboblari yordamida ijro etilganligi, musiqaning ravnaq topishida shoh va sarkarda Amur Temur o‘z saroyida ijod qiliguvchi hofiz va mashshoqlar tomonidan ijro etilgan kuy va ashulalarni qo‘shin askarlariga eshittirish bilan birga ularning qalbida Ona-Vatanga sadoqat, burch, ota-onaga hurmat, e’tibor, oilaga mehr-muhabbat, ma’suliyat, o‘z kelajagi yo‘lida orzu, niyat va maqsad kabi tuyg‘larini uyg‘ota olib, madaniyat tushunchalarni shakllantirgan holda ma’naviyatini tarbiyalangan.

Shu o‘rinda O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub “Matmusaning dutori” she’ri yodimga tushdi. Qiziquvchan Matmusa dutor cholg‘usini chalishni bilmasada sotib olib tuzilishiga zavq bilan tarif berarkan, “Munojot” kuyi deya sozsiz dutorni bir pardasidan boshqasiga o‘tolmay turarkan, dutor cholg‘usida kuy chalish uchun qiziqishni o‘zi yetarli bo‘lmasligi aksincha uni ustozga shogirt tushib o‘rganish kerakligini anglagan bo‘lsa kerak. Ustoz bo‘lsa-yu shogirt o‘rganishni hohlamasligi yomon albatta. Buni Nikolay Nosovning “Bilmasvoy musiqachi bo‘lmoqchi”hikoyasidagi

asar qahramoni Bilmasvoyning do‘sti Mashshoqvoyga cholg‘uvchi bo‘lmoqchiligini aytib chalishni o‘rgatishini so‘rarkan Mashshoqvoy eng oson o‘rganadigan cholg‘u balalaykani, tovushi balandroq chiqadigan skripkani va ohiri kattakon mis karnayni tavsiya qilarkan, Bilmasvoy ham xuddi Matmusa singari karnayni birdek qattiq puflab turarkan undan chiqayotgan bir xil ovoz quloqqa yoqmasligi cholg‘uda kuy ijro etish uchun cholg‘uni o‘rganishni xohlamasligi unda musiqaga bo‘lgan qobiliyati yo‘qligini Mashshoqvoy tezda angladi.

Musiqa tovishini juda baland qilib ayniqsa bugun yoshlar o‘rtasida chet el kuy va qo‘shiqlarini turli ko‘ngil ochar ommaviy o‘yinlarda va to‘ylarda shovqin suronli qilib eshitish insonning sezgi a’zolariga zarar berishi bilan birga milliy urf -odatlarimizga zid bo‘lgan hatti-harakatlarni hattoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bugungi kunda bo‘layotgan dabdabali to‘ylarda yoshlarning yevropacha kiyinib zamonaviy raqs diskoteka (ommaviy o‘yin) tushayotganligini, ovozi yo‘q sanatkorlarni aytayotgan yevropacha qo‘shig‘ini eshitib bo‘lmasligini keskin qoralab, uni o‘rniga o‘zimizni urf odatimizga xos bo‘lgan kiyimlarni kiyib ikkita kitob va to‘rtta she’r o‘qishligini, ashula aytish bilan birga uni tushunib aytish kerakligini misol tariqasida “Munojot” kuyiga o‘yinga tushishligini takidladi.

Bugun meni o‘quvchim xuddi Mashshoqvoy singari o‘ta qobiliyatli bo‘lib cholg‘u asbobida kuy chalishni ustozidan o‘rganadigan, Matmusa singari ko‘rgan cholg‘usiga qiziqib pul yig‘ib onlayn do‘konlarga buyurtma berib cholg‘u sotib oladigan darajada iste’dodli-ki , nogohon “Ustoz ushlab ko‘rsam maylimi?” deb o‘quvchimni qo‘limdagi cholg‘u asbobini ko‘rsatib bergan savoli hayolimni buzdi. Albatta, nafaqat ushlay olasan balki bu cholg‘uni o‘rganib unda kuy chalib o‘z iqtidoringni “Iqtidor maktab ansambli” respublika ko‘rik-tanlovida qatnashasan deya darsni yakunladim.

Xulosa qilib aytganda, musiqa – inson ma’naviy olamining tarjimoni, u inson tuyg‘usiga ta’sir etish bilan kishini ma’naviy jihatdan tarbiyalaydi. Bugungi kunda musiqa san’ati insonlarga va ayniqsa yoshlarga ko‘tarinki ruh berishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka yo‘naltirishi bilan ahamiyatlidir. Shuning uchun ham yurtimizda musiqa san’atini rivojlantirish, yosh iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu maqolani yozishdan maqsad musiqa san’atiga qiziquvchi o‘quvchilarga tavsiya bo‘lishi uchun qo‘ldan kelgancha harakat qildik.

O‘zbek xalq cholg‘ulari haqida ma’lumotlar berildi. Cholg‘u o‘rganishga qadar darslar olib borildi. Cholg‘uda kuy chalish uchun ustozdan o‘rganish o‘quvchi uchun ayni muddaodir. O‘quvchining nota savodini oshiradi. Kelajakda nota matnidan o‘qib chalishni yo‘lga qo‘ygan o‘quvchi mustaqil ravishda boshqa bir yangi kuylarni chalish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. U.U. Mirzaxmedov, N.P.Cheryomuxina, A.M. Abdullayev “Novda”, 2024

2. Musiqa. 6-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan 6-nashri S. Begmatov, “G‘afur G‘ulom ijodiy uyi” 2017

3. Musiqa. 7-sinf uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘g‘ri nashri, Oqilxon Ibrohimov, Jamil Sadirov. “G‘afur G‘ulom” 2017

4. Musiqa savodxonligi Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. N.P.Cheryomuxina. 2023. Novda

Raximboy DJUMANIYAZOV,
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi Milliy instituti, mustaqil izlanuvchi

O‘QITUVCHILARNING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONIDA GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada malaka oshirish tizizmidagi o‘qituvchilarning nutq madaniyati va notiqlik mahoratini oshirish bilan bog‘liq muammolar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, germenevtik yondashuvning o‘ziga xosligi o‘qituvchilarning nutq madaniyati va ma’naviy tarbiyasini rivojlantirishning nazariy-metodik mexanizmlari asoslangan va jadvali ishlab chiqilgan. Germenevtik yondashuv asosida o‘qituvchilarning kasbiy rivojlantirish bosqichlari ham ko‘rsatilgan.

Tayanch so‘zlar. Germenevtika, lingvistik kompetensiya, ta’sirchan mexanizm, ritorika, voizlik, nutq mahorati, til taktikasi, teran tafakkur teranligi, akademik nutq, va’z, da’vat, strategiya, kommunikativlik, ritor, mulohaza, jadval, spetsifika, namoyish etish, mantiqiy asos.

В статье рассматриваются проблемы, связанные с повышением культуры речи и ораторского мастерства учителей в системе повышения квалификации. Также обоснованы и разработаны таблицы теоретико-методических механизмов развития культуры речи и духовного воспитания учителей, что является особенностью герменевтического подхода. На основе герменевтического подхода также показаны этапы профессионального развития учителей.

Ключевые слова. Герменевтика, лингвистическая компетенция, действенный механизм, риторика, проповедничество, ораторское мастерство, языковая тактика, глубина глубокого мышления, академическая речь, проповедь, призыв, стратегия, коммуникативность, риторика, рассуждение, таблица, специфика, демонстрация, логическая основа.

This article discusses the problems associated with improving the speech culture and oratory skills of teachers in the system of professional development. Also, the uniqueness of the hermeneutic approach is based on the theoretical and methodological mechanisms for developing the speech culture and spiritual education of teachers, and a table has been developed. The stages of professional development of teachers based on the hermeneutic approach are also shown.

Key words. Hermeneutics, linguistic competence, influential mechanism, rhetoric, preaching, speech skills, language tactics, depth of thought, academic speech, sermon, exhortation, strategy, communicativeness, rhetoric, reasoning, table, specification, demonstration, rationale.

Germenevtik yondashuv asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimida o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimi orqali nutq madaniyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash va dolzarb masaladir.

Biz germenevtik yondashuv asosida nutqni talqin qilish (interpretatsiya) jarayonlarini kuzatdik, o‘qituvchilarning ta’lim oluvchilar bilan pedagogik muloqotda dialogni tashkil etish usullarini tahlil qildik, nutqni rivojlantirish jarayonlariga matnlar (darsliklar, ma’naviy asarlar) va ularning tarbiyaviy ta’sirini o‘rgandik, ma’naviy tarbiya tizimida nutq vositasida milliy va universal qadriyatlarni shakllantirilishini, zamonaviy sharoitlarda ma’naviy tarbiyaning nutqiy ifodalanishini tahlil qildik.

Notiqlik san’atining kompozitsiyasini mukammal bir tizimga keltirgan olimlardan biri Mark Tulliy Sitseronning nutqlari o‘zining tartibli tuzilishi, lo‘nda va ta’sirchanligi bilan

mashhur. Sitseron o‘z nutqlarining kompozitsiyasini aniq va tartibli qismlarga ajratib, nutqning samarasini maksimal darajaga yetkazgan. Uning tizimiga ko‘ra, har bir notiq yoki nutq kirish qismi, odatda, tinglovchi auditoriyani nutqni qabul qilishga tayyorlashi, notiq o‘z auditoriyasiga murojat qiladi, mavzu bilan bog‘liq asosiy masalalarni kiritishi va ular bilan bog‘liq qiziqishlarni uyg‘otish uchun avvalgi fikrlar, ta’kidlashlar yoki savollar orqali bog‘lanishi lozim. Kirish auditoriyani nutqning keyingi qismlariga tayyorlaydi.

Ishning mohiyatini bayon qilish qismda notiq mavzuni aniq belgilaydi va asosiy muammo yoki masalani ta’kidlashga o‘tadi. Notiq auditoriyaga o‘z fikrini yoki talabini aniq va to‘g‘ri tushuntirib beradi. U bu qismda o‘zining asosiy g‘oyasini taqdim etadi va nima sababdan nutqni tinglash muhimligini tushuntiradi.

Rejaning keyingi qismlarini ifodalash qismida notiq o‘z nutqining strukturasini va keyingi qismlarini tushuntiradi. Bu qismlar tinglovchilarga nutqning qanday rivojlanishini va ular qanday dalillar yoki misollarni eshitishlarini kutishlarini tushunishga yordam beradi.

Dalillar (Nutqning eng muhim qismi)d nutqning markaziy va eng muhim qismidir. Bu yerda notiq o‘zining argumentlarini taqdim etadi. Dalillar tinglovchilarning fikrini o‘zgartirish, ularni ishontirish va noto‘g‘ri fikrlarni rad etish uchun keltiriladi.

Asosiy mazmunni ta’kidlash qismida notiq asosiy fikrni qayta takrorlaydi va dalillarni yana bir bor ta’kidlab, ularni nutqning markaziy g‘oyasi bilan bog‘laydi. Bu qismda, o‘quvchi yoki tinglovchining barcha argumentlarni yaxshilab tushunishi va aniq xulosa chiqarishi uchun kerakli izohlar beriladi.

Xulosa (yakun yasash) qismida notiq o‘z nutqini yakunlaydi, butun nutqni birlashtirib, keltirilgan dalillar asosida aniq va ta’sirchan yakun yasaydi. Xulosa o‘zgarish va harakatga undashni o‘z ichiga oladi va tinglovchilarni maqsadga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Bu qismda nutqning umumiy xulosasi yoki ta’siri muhim bo‘ladi.

Sitseronning nutq kompozitsiyasini ajratib ko‘rsatish orqali o‘qituvchi nutqining tarkibiy tuzilishini asoslab berganini ta’kidlash mumkin. Uning tizimi, nafaqat nutqning tasviriy va mantiqiy qismlarini tushunishga, balki ta’sirchan va samarali ta’lim metodlarini ishlab chiqishga yordam beradi. O‘qituvchilar uchun bunday yondashuv, o‘quvchilarga nafaqat nutq tuzilishini o‘rgatish, balki aniq va samarali fikrlarni ifoda etishda ham katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Demak, Sitseronning fikriga ko‘ra, har bir nutqning kompozitsiyasi o‘z-o‘zidan bir tizimga asoslangan bo‘lishi kerak, bu tizim esa nutqning mazmunini tushunish va ifodalashda mustahkam asos bo‘ladi.

Germenevtik yondashuv asosida o‘qituvchilarning nutq madaniyati va ma’naviy tarbiyasini rivojlantirishning nazariy-metodik mexanizmlarini aniqlash hozirgi zamon ta’limi uchun dolzarb bo‘lib, pedagogik jarayonda o‘qituvchining shaxsiyati, uning nutqi va axloqiy qadriyatlari muhim o‘rin egallaydi. Germenevtika – bu matn, nutq yoki ijtimoiy hodisalarning ma’nosini anglash va talqin qilish nazariyasi sifatida ta’limda bu yondashuv o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotni chuqur tahlil qilishni va shaxsiy tajriba, madaniy kontekst, va axloqiy qadriyatlar asosida anglash jarayoniga e’tibor qaratishni anglatadi. Bu yondashuv orqali o‘qituvchining nutq madaniyati va ma’naviy tarbiyasini rivojlantirish imkoni tug‘iladi, chunki u mazmunli, ifodali va axloqiy jihatdan boy muloqotni talab qiladi. Nutq madaniyatini rivojlantirishda germenevtik yondashuvni qo‘llashning zarurati quyidagilar bilan belgilanadi

Germenevtik yondashuv asosida o‘qituvchilarning nutq madaniyati va ma’naviy tarbiyasini rivojlantirishning nazariy-metodik mexanizmlari

Muhim qismlar	Maqsad va mazmun, vosita, usullari
Nutq madaniyatining tarkibiy qismlari	Maqsadi axborot jamiyatiga bog‘liq nutq malakalarni o‘zlashtirish va yangilash (lingvistik, kommunikativ, ma’naviy komponentlar) ; Germenevtik metodlarning (talqin, dialog, ma’no olish) pedagogik nutqqa tatbiqi ; Ma’naviy tarbiyani nutq orqali yetkazishning samarali usullari;
Germenevtik yondashuv orqali o‘qituvchi nutqini rivojlantirishni amalga oshirish	• Matn bilan ishlash orqali o‘qituvchi o‘z ifoda uslubi va fikrlash darajasini chuqurlashtiradi; • Tarixiy-madaniy kontekstni tushunish orqali o‘z nutqiga kontekstual yondashadi; • Talqin qilish ko‘nikmalari yordamida murakkab g‘oyalarni soddalashtirib tushuntirishni o‘rganadi;
Metodik vositalar	• Adabiy va falsafiy matnlar asosida fikr bildirish mashqlari; • Dialogik muloqotlar tashkil etish; • Rolli o‘yinlar orqali notiqlikni rivojlantirish;
O‘qituvchining ma’naviy tarbiyasiga ta’siri	Germenevtik yondashuv o‘qituvchining ichki dunyo, ma’naviyat va qadriyatlar tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi; O‘qituvchining ma’naviy tarbiyasi quyidagilar orqali rivojlanadi: • Mazmunli matnlar ustida tafakkur qilish — axloqiy qarorlar chiqarishga yordam beradi; • Empatiya (boshqalarning holatini tushunish) rivojlanadi; • Shaxsiy qadriyatlar va e’tiqodlarni anglash chuqurlashadi;
Metodik mexanizmlar	• O‘z-o‘zini tahlil qilish (refleksiya) topshiriqlari; • Falsafiy-suhbat darslari; • Diniy va milliy qadriyatlarga oid matnlar asosida tahliliy ishlar;
O‘qituvchi nutqini rivojlantirishning kombinatsiyalangan metodlari	• Case-study (hayotiy holatlarni tahlil qilish); • Portfoliolar yuritish — o‘qituvchining nutqiy va ma’naviy o‘sishini kuzatish”; • Mentorlik — tajribali o‘qituvchilar tomonidan yosh kadrlarga nutq va tarbiya bo‘yicha yo‘l-yo‘riq berish”;

Nutq madaniyati – bu aniq, tushunarli, adabiy va etika me’yorlariga mos ravishda fikr bildira olish qobiliyati bo‘lganligi sababli germenevtik yondashuv nafaqat nutq madaniyatini rivojlantiradi, balki o‘qituvchini shaxsiy, madaniy va axloqiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv asosida ishlab chiqilgan nazariy-metodik mexanizmlar esa o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Fransuz germenevti P.Riker matn germenevtikasini tahlil etib, germenevtik tahlilning o‘sib borish xususiyatini e’tirof etadi. U inson tafakkuridagi tushunish va tushuntirish harakatsiz holat (matn)dan boshlanib, voqelikni o‘zlashtirish va oxir-oqibatda harakatsizlik va harakatning birgalikda namoyon bo‘lish xususiyatini o‘rganadi[1].

Tahlil etilgan tadqiqot ishlariga asoslanib germenevtik yondashuv asosida o‘qituvchini rivojlantirish bosqichlarini quyidagicha izohlash mumkin:

Germenevtik yondashuv asosida o‘qituvchining kasbiy rivojlantirish bosqichlari

Bosqich	Mazmuni
1. Refleksiya	O‘z amaliyotini tahlil qilish: nima qilayapman? Nima uchun bunday qilayapman?
2. Talqin (interpretatsiya)	O‘quvchilar harakati, o‘rganishdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy xatti-harakatlarni tahlil qilish
3. Muloqot (dialog)	O‘quvchi bilan tenglik asosidagi ochiq muloqot orqali vaziyatni hal etish

[1] Рикер П. Герменевтика и метод социальных наук. –М.: Cauda Pavonis. -№19-1, Spring 2000. -С.396.

Bosqich	Mazmuni
4. Transformatsiya	O‘z o‘qituvchilik pozitsiyasini, metodlarini takomillashtirish, yangi yondashuvlar ishlab chiqish

To‘g‘ri, germenevtikaning rivojlanishidagi bu o‘zgarishlar ilm-fan va madaniyat sohalarida chuqur izlanishlarga olib keldi. Germenevtikaning dastlabki maqsadi, asosan, diniy yoki ilohiy matnlarni talqin qilishdan iborat bo‘lgan, ammo vaqt o‘tishi bilan bu soha kengayib, ijtimoiy, siyosiy, san’at va boshqa madaniy hodisalarni ham o‘z tadqiqot obyektiga aylantirdi. Germenevtikaning zamonaviy yondashuvlari nafaqat matnlarni, balki insoniyatning barcha yaratilishlarini va amaliy faoliyatini – san’at asarlarini, tarixiy manbalarni, mehnat mahsullarini va hatto ijtimoiy kontekstlarni talqin qilishni maqsad qiladi.

Germenevtikaning tarixan rivojlanish jarayonlari quyidagi bosqichlarda kechgan:

– germenevtikaning dastlabki fazasi: Ilohiy matnlarning talqinida asosiy vazifasi ilohiy matnlarni, diniy yozuvlarni anglash va ularni to‘g‘ri talqin qilish bo‘lgan. Misol uchun, o‘rta asrlarda va Renessans davrida, diniy matnlarni talqin qilishda mavjud ijtimoiy va falsafiy dunyoqarashlarni inobatga olish zarurati paydo bo‘lgan;

– san’at va tarixiy manbalarni talqin qilish unig taraqqiyotida ikkinchi bosqich bo‘lib, bunda germenevtika sohasining rivojlanishi san’at asarlari va tarixiy manbalarni talqin qilishni ham o‘z ichiga olgan. Chunki san’at asarlari, tarixiy hodisalar va madaniy unsurlar ham ma’lum bir vaqtda, muhitda yashagan odamlarning tafakkurini, qadriyatlarini, mehnatini va hissiyotlarini aks ettiradi. Germenevtika orqali bu jarayonlarning asosiy maqsadi nafaqat matnni, balki butun san’at va madaniyatni anglash edi;

– madaniy unsurlar va ijtimoiy kontekstning talqini sifatida zamonaviy bosqich ijtimoiy va madaniy hodisalarni ham o‘z tadqiqot obyektiga qamrab oldi. Bu yangi yondashuvning mohiyati shundaki, endi matnlar va san’at asarlari bilan birga, ijtimoiy tizimlar, siyosiy hokimiyatlar, insoniyatning mavjud ijtimoiy konteksti va ularning tarixiy tafakkuri ham muhokama etiladi;

– germenevtikaning matnlar va asarlarni talqin qilishda muhimligi: nafaqat diniy yoki ilohiy matnlar, balki barcha madaniy hodisalar, san’at asarlari, tarixiy voqealar va ijtimoiy jarayonlar uchun ham zarur bo‘lgan metodologiya sifatida qaraladi. U nafaqat “matn”ni anglashni, balki matn va kontent bilan birga ijtimoiy muhitni va zamonani ham anglashni o‘z ichiga oladi;

– germenevtikaning rivojlanishi, nafaqat matnlarni talqin qilishni o‘zgartirib, balki madaniyat va ijtimoiy hodisalarni tushunish va anglash metodologiyasiga aylangan. Dastlabki diniy yondashuvdan keyin san’at, tarix, siyosat va jamiyatni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratdi;

– germenevtik yondashuvlarning ta’lim tizimidagi roli o‘qituvchiga har bir o‘quvchining ijtimoiy, madaniy va psixologik holatini hisobga olish, o‘quvchining dunyoqarashiga mos ravishda talqin qilishni talab qiladi. O‘qituvchining vazifasi – o‘quvchi ongiga ta’sir qilish, uni o‘ziga xos individual tarzda tushunish va rivojlantirishdir;

– germenevtik jarayonni tushunish va talqin qilish – bu o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi uzluksiz muloqotdir. O‘qituvchi o‘quvchilarning individual yondashuvlari, xohish-istaklarini, dunyoqarashini hisobga olib, ular bilan samarali muloqot o‘rnatishga harakat qiladi. Germenevtika yordamida o‘quvchi faqat faktlarni emas, balki o‘z his-tuyg‘ulari, fikrlari va dunyoqarashi orqali voqealarni talqin qiladi.

Germenevtika pedagogik jarayonda qanchalik kuchli va to‘g‘ri qo‘llanilsa, shunchalik o‘quvchi uchun foydali va samarali bo‘ladi. O‘qituvchilar, ushbu yondashuvdan

foydalangan holda, o‘quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki dunyoqarashlarini shakllantirishga ham yo‘naltiradi.

Umumta’lim maktabi o‘qituvchilari uchun germenevtikaning amaliy foydasi quyidagilar bilan izohlanadi:

– matnni chuqur tahlil qilish: adabiyot, tarix, hatto tabiiy fanlarda matnlarni zamonaviy yondashuv asosida tahlil qilish imkonini beradi;

– o‘quvchilarda tafakkur madaniyatini shakllantirish: savol berish, mulohaza yuritish, nuqtai nazar bildirish – germenevtik yondashuv asosida rivojlanadi;

– tarixiy va madaniy ongni uyg‘otish: milliy merosga zamonaviy tafakkur bilan qarash, qadriyatlarni talqin qilishda asosiy vosita bo‘la oladi;

– innovatsion pedagogik metodlarni qo‘llash: o‘quvchi markazli, interaktiv darslar uchun zamin tayyorlaydi.

Germenevtik yondashuv asosida o‘qituvchi nutq madaniyatini takomillashtirish uchun:

– oratorlik va kommunikativ malakalarni rivojlantirish (mas., maxsus treninglar, sherik bilan ishlash metodikasi);

– ijodiy ifoda usullarini ko‘paytirish (dramalashtirish, debatlar, she’riyat va nasr ijodiy jarayonlari);

– imlo va grammatikani to‘g‘ri o‘rgatish (til san’ati kurslari, leksik-stilistik tahlillar) talab etilsa,o‘qituvchi ma’naviy tarbiyani kuchaytirish uchun:

– qadriyatlar asosidagi ta’lim modellarini joriy etish (milliy va insonparvarlik qadriyatlariga asoslangan darslar);

– shaxsiy misol bo‘lishning ahamiyatini tushuntirish (o‘qituvchining o‘zining axloqiy va ma’naviy sifatlarini takomillashtirishi);

– axborot texnologiyalari vositasida tarbiyaviy ishlarni yangilash (sosial tarmoqlarda foydali kontent tarqatish);

– kasbiy rivojlanishning zamonaviy usullarini bilish, nutq madaniyatiga oid maxsus kurslarni kiritish (mas., «Pedagogik ritorika», «Effektiv kommunikatsiya»);

– xalqaro tajribani o‘rganish (chet el metodikalarini o‘rganish, xorijiy loyihalarda ishtirok etish);

– masofaviy ta’lim vositalaridan foydalanish (onlayn kurslar, vebinarlar, maxsus platformalar) talab etiladi.

Tilimizga e’tibor, leksik va grammatik normalarni o‘rgatish, til san’ati darslarini ko‘paytirish, kitob o‘qish madaniyatini rivojlantirish, klassik va zamonaviy adabiyot bilan tanishish, rasmiy muloqotni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlarda to‘g‘ri nutqdan foydalanishni targ‘ib qilish, media salohiyati, axborot vositalarida til madaniyatini ko‘tarish uchun nutq madaniyati millatning ma’naviy merosi ekanligini tushunish, uni asrash va rivojlantirish har bir individ va jamiyatning vazifasi deb qabul qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. – T.: O‘zbekiston, NMIU. 2016.

2. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. Sahhof nashriyoti T., 2023

3. Allayarova S.N. Germenevtika. O‘quv qo‘llanma. –T., 2017 – y

4. A. Navoiy “Vaqfiya” “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2006-y.

5. Husayn voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy. Axloqi Muhsiniy. O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2018.

6. Jumaniyozov R. “Notiqlik mahorati” “Yangi asr avlodi” 2024- y

Madinabonu TAIROVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, v.v.b. professor, p.f.d. (DSc)

BO'LAJAK TARBIYACHILARNI FASILITATOR SIFATIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH OMILLARI VA TAMOYILLARI

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak tarbiyachilarning fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlanish omillari va tamoyillari va fasilitatorlik faoliyati ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsini qo'llab-quvvatlash, uning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ta'minlash, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida izohlangani tahlil qilingan. Shuningdek, tarbiyachilarning pedagogik kompetensiyalarini shakllantirish, ularni zamonaviy ta'lim metodlari asosida tayyorlashning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Muallif kasbiy tayyorgarlikni ta'minlashda innovatsion yondashuvlar, ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning ahamiyati hamda samarali fasilitator bo'lishning asosiy tamoyillarini ochib bergan.

Tayanch so'zlar. Bo'lajak tarbiyachi, fasilitator, kasbiy faoliyat, tayyorgarlik omillari, pedagogik kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, refleksiya, ijtimoiy-psixologik rivojlanish.

В статье анализируются факторы и принципы подготовки будущих воспитателей к профессиональной деятельности в качестве фасилитаторов и фасилитаторская деятельность как деятельность, направленная на поддержку личности учащегося в учебно-воспитательном процессе, обеспечение его социально-психологического развития, развитие самостоятельного мышления и творчества. Также освещены теоретические и практические аспекты формирования педагогических компетенций воспитателей, их подготовки на основе современных методов обучения. Автор раскрыл инновационные подходы к обеспечению профессиональной подготовки, значение личностно-ориентированных технологий в образовательном процессе и основные принципы эффективного фасилитатора.

Ключевые слова. Будущий воспитатель, фасилитатор, профессиональная деятельность, факторы подготовки, педагогическая компетентность, инновационные технологии, личностно-ориентированное образование, рефлексия, социально-психологическое развитие.

The article analyzes the factors and principles of preparing future educators for professional activity as a facilitator and interprets facilitation activities as activities aimed at supporting the student's personality in the educational process, ensuring their socio-psychological development, developing independent thinking and creativity. Also, the theoretical and practical aspects of the formation of pedagogical competencies of educators, their training based on modern educational methods are highlighted. The author reveals innovative approaches to ensuring professional training, the importance of personality-oriented technologies in the educational process, and the basic principles of being an effective facilitator.

Key words. Future educator, facilitator, professional activity, training factors, pedagogical competence, innovative technologies, personality-oriented education, reflection, socio-psychological development.

Jahon tajribasida bo'lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nazariy va amaliy jihatlarning uyg'unlashuviga asoslangan holda ta'limdagi o'zgarishlarni yoritadi. Jon Dyui va Jan Piagetning pedagogik yondashuvlari AQSh ta'lim tizimida keng qo'llanilib, hamkorlikka asoslangan

metodlar orqali tarbiyachilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan (Harvard Graduate School of Education, Stanford University). Finlyandiyada University of Helsinki tomonidan bolalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv jarayonlarini yaratishga urg‘u berilgan. Avstraliyada esa “Early Childhood Education Framework” doirasida tarbiyachilarning fasilitator sifatidagi roli bolalar uchun qulay ta’lim muhitini yaratishda muhim omil sifatida ta’kidlangan. Germaniyada Duysburg-Yessen universiteti kasbiy tayyorlashni ilm-fan va amaliyot yutuqlari nuqtai nazaridan tahlil qilib, Shveysariya pedagoglar jamiyati “kasbiy faoliyat” tushunchasining huquqiy jihatlarini ochib bergan. Ushbu tadqiqotlar bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshirish, nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash va zamonaviy ta’lim talablariga mos mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash, ularning pedagogik bilimlarni egallashi bilan birga, innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Fasilitator nafaqat bilim beruvchi, balki ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan, ular orasida hamkorlikni shakllantiruvchi shaxsdir. Shu bois, bo‘lajak tarbiyachilarning bu rolga tayyorlanishi zamonaviy ta’limda yuqori samaradorlikka erishishning muhim sharti hisoblanadi. Quyida fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlash tamoyillari keltirilgan:

1. Innovatsionlik tamoyilida bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanishga o‘rgatish. Bu tamoyil tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodkorlik muhitini shakllantirishga qaratilgan.

2. Shaxsga yo‘naltirilganlik tamoyilida har bir tarbiyalanuvchining shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga asoslangan moslashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish. Bu tamoyil individual rivojlanishga xizmat qiladi.

3. Reflektivlik tamoyilida tarbiyachilarning o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilish va takomillashtirish uchun zarur metodik ko‘nikmalarni rivojlantirish.

4. Hamkorlik va hamjihatlik tamoyilida tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasida faol muloqot va hamkorlikni ta’minlashga asoslanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida o‘zaro ishonch va hamjihatlik muhitini yaratadi.

Fasilitatsiya ta’limi zamonaviy tadqiqotchilar orasida katta qiziqish uyg‘otmoqda. R.S.Dimuxametova, Ye.Y.Borisenko, L.N.Kulikova, Ye.G. Vrublevskaya va L.N.Timonina kabi olimlar bu yondashuvni ta’lim samaradorligini oshirish bilan bog‘laydilar. Ularning fikricha, kasbiy pedagogik jarayonning muvaffaqiyati tarbiyachilarning shaxsiy fazilatlari va maxsus aloqa uslubini rivojlantirish orqali ta’minlanadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash pedagogik jarayonning interfaol va innovatsion tamoyillar asosida tashkil etilishini talab qiladi. Ushbu yondashuv nafaqat ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Fasilitatsiya tamoyillari orqali o‘qitish jarayonida faol ishtirok va hamkorlik muhitini yaratish bo‘lajak mutaxassislarning yuqori darajada shakllanishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash jarayonida pedagogning shaxsiy fazilatlari, maxsus aloqa uslublari va kommunikativ kompetensiyalari muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida interaktivlikni oshiradi, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlaydi. Fasilitatsiya ta’limining asosiy omillari va prinsiplari:

R.S.Dimuxametovaning tadqiqotlarida ta’lim jarayonida fasilitatsiya yondashuvini qo‘llashning samaradorligini o‘rgangan. U pedagogning shaxsiy fazilatlari va maxsus

aloqa uslublarini rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirish mumkinligini ta’kidlagan. Fasilitasiyaviy prinsipni asoslab, u mustaqillik va shaxsni shakllantirishni ta’limning tarkibiy qismi sifatida belgilaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, fasilitatsiya talaba va o‘quv materiali o‘rtasida vositachilik qiladi.

Ye.Y.Borisenkoning fasilitatsiya ta’limida pedagogning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish muhimligini qayd etadi. U pedagogning shaxsiy fazilatlari va samarali muloqotni ta’minlaydigan uslublarini takomillashtirishni fasilitatsiya samaradorligini oshirish omili sifatida ko‘radi.

L.N.Kulikovaning ta’lim jarayonida fasilitatsiya yondashuvini qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. U ta’lim jarayonida talabaning faol ishtirokini ta’minlashni asosiy tamoyil sifatida belgilaydi.

Ye.G.Vrublevskaya va L.N.Timoninaning ushbu olimlar fasilitatsiya ta’limida pedagogning shaxsiy fazilatlari va maxsus aloqa uslublarini rivojlantirish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar. Ularning fikriga ko‘ra, pedagog va talaba o‘rtasida “fasilitasiyaviy aloqa” ta’limning muvaffaqiyatli tashkil etilishiga xizmat qiladi.

L.N.Kulikova va Ye.G.Vrublevskaya tomonidan ishlatilgan ushbu fasilitasiyaviy aloqa atamasi pedagogik o‘zaro ta’sirning samarali turi bo‘lib, bunda talabaning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni boshqariladi. Bu ta’lim jarayonida ongli va faol subyektlarni shakllantirishga qaratilgan. Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash pedagogning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va maxsus aloqa uslublarini takomillashtirish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Fasilitatsiya tamoyillari talaba va pedagog o‘rtasida interaktiv muloqotni ta’minlab, mustaqil fikrlash va shaxsiy rivojlanish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Bu yondashuv zamonaviy ta’limda yuqori samaradorlikka erishish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ko‘plab olimlar tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik yondashuvlar va tamoyillar muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishni o‘z ichiga oladi. Mutaxassis olimlarning qarashlari:

B.Ergasheva o‘z tadqiqotlarida bo‘lajak pedagoglarning egallashi lozim bo‘lgan pedagogik sifatlar va tayyorgarlik mazmunini yoritadi. U pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi sifatida shaxsning professional yuksaklikka erishishini ta’kidlaydi.

V.A.Slastenin bo‘lajak tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalalarini o‘rganib, kasbiy yetuklikning obyektiv va subyektiv omillariga e’tibor qaratadi. Obyektiv omillarga ta’lim sifati, subyektiv omillarga esa shaxsning qobiliyati, kasbiy yo‘nalganligi, pedagogik vazifalarni samarali hal qilish mas’uliyati kiradi.

Sh.Sadikova oliy ta’lim maktabgacha yo‘nalishlari talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta’lim-tarbiyaviy jarayonlar texnologiyalari va ijtimoiy bilimlar integratsiyasining pedagogik va psixologik jihatlarini yoritib bergan.

N.Qayumova o‘z maqolasida imkoniyati cheklangan yoshlarni o‘qitish, ijtimoiylashtirish va ularning o‘z-o‘zini amalga oshirishiga ko‘maklashish uchun bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modellari va strategiyalarini asoslab bergan.

H.G.Ogelman, O.Alev va S.Damjan o‘z tadqiqotlarida Fransiyaning Frene va Vulson metodikalari hamda Amerikaning International Preschool Curriculum dasturlari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirishga qaratilgan

innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ta’kidlaganlar. Bu usullar bolalarning har tomonlama rivojlanishi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

A.Muxsiyeva va M.Abdumutalibovalar o‘z tadqiqotlarida bo‘lajak pedagoglarni davlatimiz oliy ta’lim tizimiga kirib kelgan fasilitatorlik va tyutorlik faoliyatiga tayyorlash jarayonida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlarni yoritib berganlar. Ularning fikriga ko‘ra, pedagog-fasilitator bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonida bilim va ko‘nikmalaridan foydalanib, rivojlantiruvchi muhit yaratadi va bolalarning salohiyatini ochishda vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

G.S.Savolainen fasilitatsion kompetensiyani tarbiyachining pedagogik ko‘maklashish sohasidagi bilimlar tizimiga egalik sifatida ta’riflaydi. U fasilitatsion kompetensiya o‘qituvchining ta’lim jarayonida ko‘maklashish faoliyatining ahamiyatini anglashini va ushbu faoliyatni ijobiy tajriba bilan boyitishni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi.

E.L.Pupysheva tadqiqotlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini metodik, innovatsion, psixologik, kreativ va kommunikativ kompetensiyalarga ajratadi. Ular orasida metodik kompetentlik alohida o‘rin tutadi, chunki bu boshqa kompetensiyalarni ham qamrab olib, pedagogning kasbiy mahoratini belgilaydi. Quyida zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi yondashuvlarni keltirildi:

• Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida fasilitatsion kompetensiyaga asoslangan yondashuv orqali pedagoglarning kasbiy faoliyat sifati oshiriladi.

• Tarbiyachilarni pedagogik faoliyatda usullarni o‘zlashtirish va o‘rganishni osonlashtirish bo‘yicha ijobiy tajribalarni ishlab chiqishga undaydi.

Ushbu tadqiqotlar bo‘lajak tarbiyachilarning fasilitatsion kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik ko‘maklashish sohasidagi bilimlarga egalik qilish, metodik kompetentlikni oshirish va ta’lim jarayonini qulaylashtirish yondashuvlarini qo‘llash muhimligini ta’kidlaydi. Bo‘lajak tarbiyachilarni fasilitator sifatida tayyorlash jarayoni innovatsion va metodik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Саволаинен Г.С., Педагогика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений – М.: Издательский центр «Академия», 2002. – 576 с.

2. Dimuxametova R.S., Borisenko Ye.Y., Kulikova L.N., Vrublevskaya Ye.G., Timonina L.N. Transformations of tetrahydropyrido[4′,3′:4,5]thieno[2,3-d]pyrimidin-4(3H)-ones in the presence of alkynes bearing electron-withdrawing substituents. // Russian Chemical Bulletin, 2012.

3. Muxsiyeva A., Abdumutalibova M. Zamonaviy ta’limda bo‘lajak pedagoglarni tyutorlik va fasilitatorlik faoliyatiga tayyorlash. // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2022.

4. Ogelman H.G., Alev O., S. Damjan Examining the Predictive Effect of Teacher–Child Relationship on Young Children’s Self-Perception. // Early Child Development and Care, 2022.

Sarvinoz G‘ANIYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi, stajyor o‘qituvchi

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA “STEAM” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati, zaruriyati va samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, muallif zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, fanlararo integratsiyalangan o‘quv faoliyatining tarbiyachilar tayyorlov jarayonidagi ro‘li yoritib berilgan. STEAM texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning ijodiy fikrlash, muammoni hal qilish, texnologik vositalardan foydalanish, jamoada ishlash kabi kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi amaliy misollar asosida asoslab bergan.

Tayanch so‘zlar. STEAM texnologiyasi, bo‘lajak tarbiyachilar, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta’lim, integratsiyalashgan yondashuv, kreativ fikrlash, muammoli vaziyat, pedagogik texnologiyalar.

В статье анализируется важность, необходимость и эффективность использования технологии STEAM в развитии профессиональных компетенций будущих воспитателей. Также автором освещены современные педагогические подходы, в частности, роль междисциплинарной интегрированной учебной деятельности в процессе подготовки воспитателей. На основе практических примеров обосновано, что занятия, организованные на основе технологии STEAM, служат развитию у студентов таких компетенций, как творческое мышление, решение проблем, использование технологических средств, работа в команде.

Ключевые слова. STEAM-технологии, будущие педагоги, профессиональная компетентность, инновационное образование, интегрированный подход, креативное мышление, проблемная ситуация, педагогические технологии.

The article analyzes the importance, necessity, and effectiveness of using STEAM technology in the development of professional competencies of future educators. The author also highlights modern pedagogical approaches, in particular, the role of interdisciplinary integrated educational activity in the process of educator training. Based on practical examples, it was substantiated that classes organized on the basis of STEAM technology serve the development of students’ competencies such as creative thinking, problem-solving, the use of technological tools, and teamwork.

Ke ywords. STEAM technology, future educators, professional competence, innovative education, integrated approach, creative thinking, problem situation, pedagogical technologies.

Zamonaviy ta’lim tizimida tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga kasb etmoqda. Bugungi davrda tarbiyachi faqatgina an’anaviy bilimlargagina emas, balki zamonaviy texnologiyalar asosida integrallashgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur. Shu jihatdan qaralganda, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyasi pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuv hisoblanib, bo‘lajak tarbiyachilarning kompleks kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. STEAM texnologiyasi nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, balki amaliy ko‘nikmalarni,

kreativ fikrlashni, muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan, bu ayniqsa maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi tarbiyachilar uchun muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF–5712-sonli Farmonida ‘‘STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlari“ni joriy etishni alohida ta’kidlab o‘tilgan. Bu esa pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash mazmuniga STEAM ta’limni joriy qilish kabi vazifani yuklaydi. Ushbu qaror maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash shuningdek maktabgacha ta’lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, qabul qilingan bo‘lib prezidentimizning maktabgacha ta’limga bo‘lgan alohida e’tiborini va e’tirofini yaqqol ifoda etadi.

Bugungi kungacha bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo, STEAM ta’limini sinf xonalariga kiritishning eng istiqbolli yo‘li kasbiy rivojlanish dasturi bo‘lib, u an’anaviy kasbiy rivojlanishdan farqli o‘laroq, ijodkorlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni kognitiv o‘rganish bilan birlashtiradi. STEAM texnologiyasidan foydalanib bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun kompleks, sistematik hamda uzoq muddatli yondashuvlar talab etiladi. Jumladan, zamonaviy ta’lim jarayonida integratsiyalashgan yondashuvlar, xususan, STEAM texnologiyasi asosida o‘quv jarayonini tashkil etish orqali pedagogik samaradorlikka erishish mumkinligi bir qator tadqiqotchilar tomonidan asoslab berilgan. Xorijiy adabiyotlarda ham bu yondashuv juda keng yoritilgan. Beers va Yakman kabi tadqiqotchilar STEAM ta’limining metodologik asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, ular bu modelning o‘qituvchi tayyorlashda qanday qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatganlar. STEAM ta’lim texnologiyasi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) zamonaviy ta’limning muhim qismlaridan biri bo‘lib bo‘lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini oshirishda katta ahamiyatga ega. STEAM ta’lim texnologiyasining asosiy mazmunlari quyidagilar:

1. Tabiiy fanlar: biologiya, kimyo, fizika va boshqalar.
2. Texnologiya: kompyuter ilmi, texnologiyalar, dasturlash, robototexnika va boshqalar.
3. Muhandislik: dizayn, modellash, elektr, mehanika va boshqalar.
4. San’at: rang, dizayn, grafika, tasvir va boshqalar.
5. Matematika: arifmetika, geometriya, statistika, hisob-kitob va boshqalar.

Quyidagi metodlar orqali bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini samarali amalga oshirish mumkin. Loyihaga asoslangan o‘qitish: Talabalar real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun jamoa bo‘lib ishlaydilar, bu esa ularning analitik fikrlash shuningdek, muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Gamifikatsiya: O‘yin elementlarini o‘qitish jarayoniga qo‘shish orqali talabalarni rag‘batlantirish va ularning ishtirokini oshirish. Bu, shuningdek, raqamli vositalardan foydalanishni o‘rganishga yordam beradi. Tajribaviy o‘qitish: Talabalar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun laboratoriya ishlarini va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish. Bu metod orqali talabalarning texnik va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Interaktiv ta’lim platformalari: Online platformalar yordamida talabalar o‘z o‘zini o‘qitish, dars materiallarini ko‘rib chiqish va o‘z bilimlarini

mustahkamlash imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Ko‘p media formatlari: Turli multimedia vositalari, jumladan videolar, grafikalar va interaktiv dasturlarni o‘qitishda qo‘llash orqali ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish.

STEAM bu maktabgacha ta’lim tashkilotida va maktabdan tashqarida loyiha va o‘quv-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi zamonaviy innovatsion texnologiyadir. Ushbu metod yordamida fanlar alohida tarmoqlarda emas, balki integratsiyalashgan holda, umumiy bog‘liqligini ko‘rsatib o‘rgatiladi. Fanlarni kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishdan tashqari, texnologiya bolalarning ijodkorligini ham ko‘rsatib beradi. Ushbu yondashuv bolalarning faoliyatiga bir qancha vazifalarni taqdim etadi, bolalar esa ularni hal qilishida ijodkorligini namoyon qilishni o‘rganadilar. Bunday vazifalar yordamida bolalar g‘oyalarni nafaqat o‘ylab topadi, balki ularni kundalik hayotida amalga oshirishni ham o‘rganadi. Shu tariqa, bolalar o‘z faoliyatini oldiga qo‘yilgan vazifalari va mavjud imkoniyatlari doirasida hal qilishga o‘rganadilar.

Bo‘lajak pedagoglarning STEAM texnologiyalaridan foydalanishi bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi:

– muammolarni keng qamrovli tushunish;
– ijodiy fikrlash;
– muhandislik yondashuv;
– tanqidiy fikrlash;
– ilmiy metodlarni tushunish va qo‘llash;
– dizayn asoslarini tushunish.

Bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal eta olishda muhim yordam beradi. Bugungi kunda STEAM – ta’limi dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliy yondashuvni qo‘llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Shuning uchun, asosiy ta’lim dasturiga quyidagilar: lego-texnologiyalar, bolalar tadqiqotlari va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish modullari kiradi. STEAM yondashuvi tufayli bolalar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o‘rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish asoslarini o‘rganishadi, o‘z navbatida, bolalar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

Talabalarga innovatsion va mulohazali fikrlashni ko‘rsatib, ularni ijtimoiy muammo va vaziyatlarga sifatli yechimlar topishga o‘rgatadi. STEAM ta’lim texnologiyasining mohiyati amaliyotlarni o‘rganish, laboratoriya ishlari, taqdimotlar, ishlab chiqarish loyihalari kabi ko‘plab boshqa amaliyotlarga asoslangan. Bu usul talabalarni samarali ish qilish, jamoatchilikda faol ishtirok etish va muammolarni samarali yechishga tayyorlashda yordam beradi. STEAMning paydo bo‘lishi asosan quyidagi sabablarga asoslangan:

1. Ijtimoiy so‘rovnoma: Ish joylarida, ishlab chiqarishda va hatto axborot texnologiyalari sohasida, sifatli yechimlarni topishda xilma-xil talabalar, ma’muriy va ishlab chiqarishni moliyalashtirishga tayyorlanishi zarur bo‘lgan “San’at”ning ro‘li ko‘zda tutilgan.

2. Kreativlik va innovatsiya: San’at, talabalarning kreativlik va innovatsion qobiliyatlari rivojlanishini ta’minlaydi. Bu, yangi yechimlarni izlash, muammolar uchun yechim, dizayn qilish va ishlab chiqarishni o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

3. To‘g‘ri sharhlar va modellash: San’at, talabalarning g‘oyalarini va tushunchalarini grafik, rang va modellar yordamida ifodalashda muhim rolni o‘ynaydi. Bu, STEM fanlarini o‘rganish va amaliyotlarini o‘rganishni, masalalarni yechishni va tahlil qilishni o‘rganishga talabalarni tayyorlaydi.

4. Qo‘llab-quvvatlash: San’at, talabalarning o‘zlari yaratishlari va topshiriqlarini tadbiq etish, ularni qo‘llab-quvvatlash va ularga qulayroq muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

5. Samaradorlik va innovatsion rivojlanish: STEAM, talabalarga innovatsion fikrlashni, jamiyatda yaxshi qo‘llaniladigan yechimlarni ishlab chiqishni, dizayn qilishni va masalalarni yechishni o‘rgatadi, shuningdek, ularni boshqa sohalardagi keng ko‘lamli muammolarga ilmiy yondashishga tayyorlaydi.

Bular bilan birga, STEAMning paydo bo‘lishi, integrativ, amaliy va talabalarni samarador va innovatorlar sifatida tayyorlashga qaratilgan muhim bir qadam sifatida ko‘riladi. Maktabgacha ta’limda STEAM ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Bu texnologiyalar bolalarning rivojlanishini qo‘llab quvvatlaydigan va kelajakdagi muvaffaqiyati uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Quyida STEAM ta’lim texnologiyalarining maktabgacha ta’limdagi ahamiyati to‘g‘risida ba’zi asosiy tushunchalar keltiriladi: Holistik rivojlanish: STEAM ta’limi bolalarni har tomonlama rivojlantiradi, chunki ularni ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika sohalari bilan tanishtiradi. Bu usul bolalarning aqliy, ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini birlashtiradi. Tadqiqot va tajriba qilish: Bolalar STEAM faoliyatlari orqali o‘z bilimlarini tajribalar va eksperimentlar orqali aniqlashadi. Bu ularning ilmiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va yangi narsalarni o‘rganishga qiziqishini yanada oshiradi. Muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish: STEAM faoliyatlari bolalarga muammolarni hal qilishni o‘rgatadi. Masalan, oddiy muhandislik vazifalari bolalarga muammolarni tahlil qilish va kreativ yechimlar topishga yordam beradi. Kreativlik va innovatsiya: STEAM ta’limi bolalarda kreativlik va innovatsiya qobiliyatlarini rivojlantiradi. San’at va dizayn elementlari bolalarga o‘z fikrlarini ifodalash va yangi g‘oyalar yaratishga yordam beradi. Yoshga mos bilim va ko‘nikmalar: Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun STEAM faoliyatlari oddiy va qiziqarli tarzda taqdim etiladi, bu esa ularning tez o‘rganishiga va bilimlarni qabul qilishiga yordam beradi. Texnologik savodxonlik: Erta yoshdan texnologiyalar bilan tanishish bolalarning texnologik savodxonligini oshiradi. Bu esa ularni kelajakda raqamli dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi. O‘z-o‘zini ifodalash va o‘zgarishga tayyorlik: STEAM ta’limi bolalarga o‘z g‘oyalarini ifodalash va turli xil yondashuvlarni sinab ko‘rishga imkon beradi. Bu ularning o‘z-o‘zini anglash va yangi vaziyatlarga moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bolalarning qiziqishlarini oshirish: STEAM faoliyatlari orqali bolalarning qiziqishlari va motivatsiyalari sezilarli darajada oshadi.

O‘zlarini qiziqtirgan sohalarda faoliyat yuritish bolalarning o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Umuman olganda, STEAM ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha ta’limda bolalarning umumiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, ularning har tomonlama qobiliyatlarini oshiradi va kelajakdagi muvaffaqiyatli hayot uchun mustahkam asos yaratadi. STEAM - bu Rhode Island dizayn maktabi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan harakat bo‘lib, san’at va dizaynni STEM o‘quv dasturlariga integratsiya qiladi. Ta’riflar va asoslar San’at va gumanitar fanlarni STEM fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlariga integratsiyalash uchun asosni ishlab chiqish jarayonida asosiy atamalarni aniqlash va mantiqiy asoslarni taqdim etish zarur. Birinchidan, quyidagi ta’riflar ushbu asosni bildiradi: Kompetensiya: shaxsga biron bir vazifa yoki ishni samarali va izchil bajarish yoki kerakli natijaga erishish imkonini beruvchi tegishli bilim, ko‘nikmalar va munosabatlarning majmui. Ta’lim: tanqidiy fikrlovchilarni

(tanqidiy fikrlaydigan va yuqori darajadagi mulohaza yuritish bilan shug‘ullanuvchilar), samarali muammolarni hal qiluvchi, samarali ishchilar, mas’uliyatli fuqarolar va umrbod o‘rganuvchilarni rivojlantirish bo‘yicha tizimli harakatlar, rasmiy va norasmiy ta’limni, shuningdek, shogirdlik, ta’lim va kasbiy rivojlanishni o‘z ichiga qamrab oladi. STEM: fan, texnologiya, muhandislik va matematika bilan bog‘liq akademik va kasbiy fanlar; yangi pedagogik yondashuvlar fanlar o‘rtasidagi munosabatlarni rag‘batlantirib alohida fanlar bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish zamonaviy pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Ushbu yondashuv nafaqat fanlararo integratsiyani ta’minlaydi, balki ta’limning ijodiy, amaliy va innovatsion yo‘nalishini kuchaytiradi. Shuningdek, ushbu texnologiya orqali tarbiyachilarning analitik fikrlashi, ijodkorligi va moslashuvchanligi kabi muhim kasbiy kompetensiyalari tizimli ravishda shakllanadi. Shunday qilib, STEAM texnologiyalarini pedagogik ta’lim jarayoniga integratsiyalash orqali raqobatbardosh, ijtimoiy faol, zamon talablariga javob bera oladigan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y., 06/19/5712/3034-son.

2. https://www.emerald.com/insight/content/doi/10.1108/jrit-12-2021-0081/full/html

3. To‘raqulova M.B. Steam ta’lim texnologiyasi asosida bo‘lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni. // Inter education & global study. 2025. №1 B.108–114.

4. Ergasheva B. (2022). Talabalarning pedagogik moderinizatsiya sharoitida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Science and innovation, 1(B7), 401-405 5.D.R.

5. Babayeva N.N. Djamilova, D.F. Xalilova “Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari” o‘quv qo‘llanma. –T., 2022-y.

6.“STEAM by another name: Transdisciplinary practice in art and design education” – Tracie Costantino, RISD 100–106page

Gulshodaxon ABDUMUTALIPOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi
mustaqil izlanuvchi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR AXLOQIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning pedagogik omillari, tarbiya jarayonida tarbiyachi shaxsining o‘rni hamda oilaviy muhitning ta’siri yoritilgan. Shuningdek, bolalarda ijobiy axloqiy fazilatlar – halollik, samimiylik, mehr-shafqat, hurmat va mas’uliyatni rivojlantirishda ta’lim-tarbiya muassasalari va oilaning o‘zaro hamkorligi muhim omil sifatida tahlil qilingan. Muallif milliy qadriyatlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tarbiya metodlarining integratsiyasi orqali axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar. Axloqiy tarbiya, pedagogik omillar, maktabgacha ta’lim, bola shaxsining shakllanishi, milliy qadriyatlar, tarbiyachi, oila.

В статье освещены педагогические факторы формирования нравственных качеств у детей дошкольного возраста, роль личности воспитателя в процессе воспитания и влияние семейной среды. Также проанализировано взаимодействие образовательных учреждений и семьи как важный фактор в развитии положительных нравственных качеств у детей - честности, искренности, сострадания, уважения и ответственности. Автор указал пути повышения эффективности нравственного воспитания через интеграцию национальных ценностей, современных педагогических технологий и методов воспитания.

Ключевые слова. нравственное воспитание, педагогические факторы, дошкольное образование, личность ребёнка, национальные ценности, воспитатель, семья.

The article examines the pedagogical factors of forming moral qualities in preschool children, the role of the educator's personality in the upbringing process, and the influence of the family environment. Also, the interaction of educational institutions and the family as an important factor in the development of positive moral qualities in children - honesty, sincerity, compassion, respect, and responsibility - was analyzed. The author indicated ways to increase the effectiveness of moral education through the integration of national values, modern pedagogical technologies, and methods of upbringing.

Key words. Moral education, pedagogical factors, preschool education, child development, national values, educator, family.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimi bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyorlashga qaratilgan. Shu jarayonda axloqiy tarbiya eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Axloqiy tarbiya – bu bolaning ichki dunyosida ezgulik, halollik, mehr-shafqat, o‘zaro hurmat va mas’uliyat hissini shakllantirish jarayonidir. Maktabgacha yosh – bu shaxsning asosiy fazilatlari, xatti-harakat me’yorlari va qadriyatlari shakllanadigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, ushbu davrda pedagogik omillarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash bolaning keyingi rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida bola shaxsining ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga e’tibor berish insonparvarlik, tolerantlik va madaniy xilma-xillik tamoyillariga asoslanadi. Mak-

tabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash – ularni hayotga, jamiyat qoidalariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga moslashtirish demakdir. Shu jihatdan pedagogik jarayonning samaradorligi tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, shaxsiy fazilatlari va o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishdagi innovatsion yondashuvlariga bog‘liqdir.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PQ–4708-son qarorida ham maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda tarbiyachilarning kasbiy mahoratini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu tadqiqotda bolalarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda ta’lim muassasalari, oila va jamiyatning o‘zaro hamkorligi, milliy qadriyatlar bilan innovatsion pedagogik texnologiyalarning uyg‘unligi asosiy e’tibor markazida bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan axloqiy tarbiya muhiti ularning keyingi ijtimoiy hayotdagi faol, vatanparvar, halol va mehribon inson sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarning mohiyati

Maktabgacha yoshdagi bola uchun axloqiy tarbiya – bu atrofdagi voqelikni anglash, yaxshi bilan yomonni farqlash, boshqalar his-tuyg‘ulariga hamdard bo‘lishni o‘rganishdir. Bolalarda quyidagi axloqiy sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega:

• halollik – harakat va so‘zda rostgo‘ylikni saqlash;

• mehr-shafqat – boshqalarga nisbatan g‘amxo‘rlik ko‘rsatish;

• mas’uliyat – o‘z vazifasini his etish va bajarish;

• hurmat – kattalarga, tengdoshlariga ehtirom bilan munosabatda bo‘lish.

2. Pedagogik omillar va ularning ta’siri

Axloqiy sifatlarni shakllantirishda quyidagi pedagogik omillar muhim o‘rin tutadi:

1. Tarbiyachining shaxsiy namunasi. Bola ko‘rganini o‘rganadi. Tarbiyachining so‘zlari, muomalasi, odobi bolaga bevosita ta’sir qiladi.

2. O‘yin faoliyati. Rolli o‘yinlar orqali bolalar ijtimoiy munosabatlarni o‘zlashtiradi, yaxshi-yomon xulq-atvorni farqlashni o‘rganadi.

3. Milliy qadriyatlar. Ertaklar, maqollar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish axloqiy tushunchalarni mustahkamlaydi.

4. Oilaviy tarbiya. Ota-ona bolaga mehr bilan yondashib, o‘z harakati bilan namunali bo‘lishi kerak.

5. Ta’lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar. Axloqiy mavzularni interfaol metodlar yordamida o‘rganish samaradorlikni oshiradi (masalan, “Axloqiy holatlar tahlili”, “Rolli o‘yinlar”, “Suhbat” metodlari).

3. Axloqiy tarbiyada oilaning va ta’lim muassasasining hamkorligi

Bolani axloqiy shakllantirishda oila va bog‘cha o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.Tarbiyachilar ota-onalar bilan doimiy muloqotda bo‘lishi, bolalarning xulq-atvori va rivojlanishi haqida axborot almashib turishi lozim. Hamkorlikning samarali shakllari:

• ota-onalar uchun ma’rifiy seminarlar;

• oilaviy bayramlar va tadbirlar;

• “Axloqiy kunlik” yuritish amaliyoti;

• bolalar ishtirokida ijtimoiy loyihalar (masalan, “Yaxshilik haftaligi”).

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar roli

Axloqiy tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalari, multimediali taqdimotlar, ertak terapiyasi, interfaol o‘yinlarni qo‘llash bolalarda qiziqishni oshiradi.Masalan, “Yaxshi

bilan yomonni farqlaymiz” nomli multimedia darsi orqali bolalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishni, xatti-harakat natijasini tushunishni o‘rganadilar.

5. Tarbiyachining kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlari

Tarbiyachi bolada axloqiy ongni shakllantirishda psixologik sezgirlik, mehribonlik, adolat, tinchlikparvarlik kabi sifatlarni o‘zida mujassam etishi zarur.Shuningdek, tarbiyachining pedagogik refleksiya qobiliyati – o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga intilishi ham muhimdir.

6. Axloqiy tarbiyada emotsional muhitning ahamiyati

Bola shaxsida axloqiy qarashlarni shakllantirishda emotsional muhitning barqarorligi alohida o‘rin tutadi. Tarbiyachi va ota-onalar tomonidan yaratilgan iliq, samimiy muhit bolaga o‘z fikrini erkin bildirish, o‘z harakatiga baho berish, boshqalar his-tuyg‘ularini his qilish imkonini beradi. Ijobiy emotsional muhitda bola o‘zini qadrlashni, boshqalarga nisbatan hurmat va mas’uliyat bilan yondashishni o‘rganadi. Shuning uchun har bir pedagog o‘quv-tarbiya jarayonida hissiy tarbiyani axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ko‘rishi lozim.

7. Axloqiy sifatlarni baholash va mustahkamlash yo‘llari

Bolalarda shakllanayotgan axloqiy sifatlarni muntazam baholab borish, ularni rag‘batlantirish va mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolaning xatti-harakatini nafaqat tuzatish, balki to‘g‘ri yo‘naltirish orqali ijobiy natijaga erishadi. “Yaxshi ishlar jurnali”, “Axloqiy yulduzcha” kabi o‘yin tarzidagi baholash usullari bolalarda halollik, samimiylik va mehr-shafqatni qadrlashni o‘rgatadi. Bunday yondashuvlar orqali bola o‘zining xatti-harakatlari jamiyatda ahamiyatga ega ekanini his etadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish – bu uzoq muddatli, tizimli va izchil jarayon bo‘lib, unda pedagogik omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bolalar axloqini shakllantirishda tarbiyachi, oila va jamiyatning o‘zaro hamkorligi muhim. Milliy qadriyatlar, innovatsion pedagogik metodlar va tarbiyachining shaxsiy namunasi uyg‘unlashgan taqdirdagina bola shaxsida barkamol axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiya jarayonini rejalashtirishda har bir bolaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Har bir bola o‘ziga xos xarakter, temperament va qiziqishga ega bo‘lgani uchun pedagogik yondashuvlar differensial asosda tashkil etilishi kerak. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik innovatsiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘yin faoliyati, ertak terapiyasi, interfaol mashg‘ulotlar va oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bolalarda axloqiy sifatlarning barqaror shakllanishiga olib keladi. Shu bois, maktabgacha ta’lim tizimida axloqiy tarbiya dasturlarini innovatsion metodlar asosida takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanboyeva O. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017.

2. Xudoyberdiyeva N., Raximova S. Bolalar psixologiyasi va tarbiyasi. – T., 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-maydagi PQ–4708-son qarori “Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”.

4. Abdullayeva M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tarbiyaning psixologik asoslari. – T., 2019.

5. Jalolov J. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2021.

Zulfizarxon YULCHIYEVA,
Toshkent davlat texnika universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, dotsent

O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA SHARQ ALLOMALARINING MA’NAVIY MEROSIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada ma’naviy meroslarning moddiy qadriyatlar bilan hamohang rivojlanishi juda ko‘p mutafakkirlarning, donishmandlarning tarixiy va adabiy asarlaridagi kasb hunar borasidagi fikrlari aytib o‘tilgan. Shuningdek, o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishda sharq allomalarining ma’naviy merosidan foydalanishning ahamiyati ham yoritilgan.

Tayanch so‘zlar. Kasb-hunar, meros, moddiy qadriyat, hunarmandchilk, chorvachilik, axloq, nafosat, jismoniy mehnat, ma’naviy kamolot, kasbiy faoliyat.

В статье рассмотрено развитие духовного наследия в гармонии с материальными ценностями, мнения многих мыслителей, мудрецов о профессии в исторических и литературных произведениях, а также духовное наследие учёных Востока в ориентации студентов на профессию. Также рассматривается важность использования.

Ключевые слова. Профессия, наследие, материальные ценности, ремесленничество, животноводство, нравственность, эстетика, физический труд, духовное развитие, профессиональная деятельность.

The article examines the development of spiritual heritage in harmony with material values, the opinions of many thinkers and sages about the profession in historical and literary works, as well as the spiritual heritage of Eastern scientists in the orientation of students towards the profession. The importance of use is also discussed.

Key words. Profession, heritage, material values, craftsmanship, animal husbandry, morality, aesthetics, physical labor, spiritual development, professional activity.

Kasblar olamining tobora kengayib borishi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning tobora jadallashuvi o‘quvchi yoshlarda kasb tanlashdek azaliy masalani jiddiy muammoga aylantirib qo‘ydi. Shunday ekan, kasb tanlash nafaqat alohida olingan insonning shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega muammo darajasida talqin etilishi o‘rinlidir.

Bu gaplarning tasdig‘i sifatida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2020-yilda “O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori loyihasi e’lon qilindi. Kasb-hunarga yo‘naltirish jarayoniga o‘quvchilarning kasb-hunarni o‘zlarining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mustaqil va erkin tanlashning ilmiy amaliy tizimi sifatida qarash lozim.

Ma’lumki, o‘quvchi kasb-hunar tanlashda o‘z imkoniyatlarini tasavvur qila olish va baholay olish ko‘nikmasiga, har xil kasblarning imkoniyatlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Bu borada yurtimiz rahbari tomonidan yana muhim qarorlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ishchi kasblar bo‘yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son qarori ijrosini ta’minlash hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 9-11-sinflari

o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘qitish, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta’limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qildi va unda 9-11-sinf o‘quvchilarining kasb-hunarga o‘qitish tartibi joriy qilinishi, 7-sinfdan boshlab o‘quvchilar o‘zlari xohlagan kasbni tanlashni aniqlash uchun so‘rovnomalar o‘tkazish belgilandi.

Mamlakatimizda qadimdanoq sharq allomalarimiz o‘z asarlarida kasb-hunar haqida o‘z fikrlarini bildirishgan. Ma’lumki, kasb-hunar egalari qadimdan e’zozlanib kelingan. Yoshi katta kishilar qadimgi davrlardan boshlab o‘zidan kichiklarga o‘zlari bilgan mavjud kasb-hunarni o‘rgatib kelishgan. Sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi.

Ma’naviy meroslarning moddiy qadriyatlar bilan hamohang rivojlanishi juda ko‘p mutafakkirlarning, donishmandlarning tarixiy va adabiy asarlarida yuksak mahorat-la bitilgan, hamda jahonning madaniyat xazinasiga abadiy hissa bo‘lib qo‘shilgan. Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri – Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosida qurilgan bo‘lib, bolaning fe’l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishida umuminsoniy g‘oyalar qo‘llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma’qulligini ko‘rsatgan. Abu Ali ibn Sinoning “Donishnoma”, “Risolai ishq”, “Uy xo‘jaligi”, “Tib qonunlari” asarlari mamlakatimiz xalqlari odob-axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida kishilarni halol mehnat qilishga hamda mehnatning hayot uchun eng zarur omil ekanligini ta’kidlaydi. “Tadbiri manozil” asarida barcha jamiyat a’zolarini dehqonchilk, hunarmandchilk, chorvachilik bilan shug‘ullanib xalqqa foyda keltirishlari kerakligini uqtiradi.

Ibn Sinoning fikricha, mehnatsiz hayot kechirish kishini jismoniy va ruhiy tomondan ezadi. Bunday hayot kechirish yomon oqibatlarga olib kelishini tushuntirib, ota-onalarning o‘z bolalariga yoshligidan boshlab mehnat tarbiyasini berish zarurligini aytadi. Uning fikricha, bolaga yoshligidan boshlab ma’lum bir kasbga o‘rgatish lozim.

Chunki bola kasb-hunarni ma’lum darajada o‘zlashtirib bo‘lgandan so‘ng uni o‘sha paytlardan boshlab, o‘z kasb-hunaridan foydalanishga, ya’ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o‘rgatish kerak.

Abu Ali ibn Sino bemorga dori belgilashda uning jinsi, yoshi, kuch-quvvati bilan bir qatorda kasbini ham e’tiborga olishga chaqirishidan ham bilib olish qiyin emas. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino kasbiy faoliyatning inson organizmiga ta’siri masalasiga ham alohida e’tibor qaratib, masalan, ko‘p terlash bilan kechadigan og‘ir jismoniy mehnat odamning ayrish-chiqarish tizimi faoliyatiga to‘sqinlik qilishini ta’kidlaydi.

Tabiblik uchun zarur bo‘lgan faoliyat agar u kasal bo‘lsa, sog‘lig‘ini tiklashdir. Bu ishni asbob va vositalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Tabiblar kasalliklarning har biri uchun dori-darmon topadilar. Tabiblik hunari yetti turli bilimni o‘z ichiga oladi.

1) inson a’zolarini ayrim-ayrim jihatlarini o‘rganish;

2) salomatlik holati, ularning ta’sirlanishini o‘rganish;

3) turli kasalliklarning sabablari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan tasodifiy hodisalarni o‘rganish;

4) salomatlik va kasallikning belgilari, sabablari, dalillari, butun badanda, ayrim a’zolarda ko‘rinadigan kasallik alomatlarini o‘rganish va bilish;

5) sodda va murakkab dorilarni bilish, tabiblik hunarida ishlatiladigan asboblarni

o‘rganish va ularni ishlata olish;

6) sog‘lom badanda salomatlikni saqlash uchun zarur bo‘lgan qonun-qoida harakatlarni o‘rganishni bilish;

7) badanda sog‘lik-salomatlikni tiklash uchun zarur bo‘lgan qonun-qoida va harakatlarni bilish.

Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tadbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina, otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi.

O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy hislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Yana shuningdek, Ahmad Donish, Amir Temur, Abdurahmon Jomiy va boshqalarning asarlarida, mulohazalarida, qo‘llanmalarida turli kasblarga oid durga teng fikrlari talaygina. O‘zining ta’lim-tarbiya, axloq, nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda shuhrat qozongan Ahmad Donish o‘qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalar bildiradi.

Demak, Ahmad Donish o‘qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e’tibor beradi. O‘qituvchi o‘quvchi va talabalarga ko‘p bilim berish o‘z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o‘z ustilarida ko‘p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan ko‘rinadiki, Ahmad Donish o‘qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo‘yadi. U go‘zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni o‘qituvchining go‘zal sifati deb biladi.

Demak o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga qo‘yiladigan pedagogik-psixofiziologik talablar umumiy holda quyidagi xulosalarga olib keldi:

– o‘quvchilarni kasbiy qiziqishi tanlagan kasb bilan o‘zaro aloqasida namoyon bo‘luvchi shaxsning murakkab sifati ekanligini anglash;

– o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishga oid ommaviy axborot vositalarida ko‘rsatuvlar uyushtirish;

– o‘quvchilarni mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar o‘tkazish;

– ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish;

– o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishning tavsiyalar va uslubiy ko‘rsatmalar yaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimizni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish, bu eng muhim vazifalardan biri ekanligini yana bir bor ta’kidlab o‘tmoqchiman. Inson to‘g‘ri kasb tanlash orqali o‘z oilasiga, jamiyatga juda katta naf keltirishi isbot talab qilmaydigan qonuniyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivatsiyasi va uning dinamikasi. – T., 2002.

2. Otamirzayeva K.I. “Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi” nomli maqolasi. “Scientefic” jurnali 310-bet.

3. Yulchiyeva Z.N. Kasbiy psixologiya – T., 2019.

4. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. –T., 2010. 17-b.

Sayyoraxon RUZMETOVA,
Toshkent davlat texnika universiteti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi v.v.b. dotsent, p.f.f.d, (PhD)

OILADA MEHNAT TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA TADBIRKORLIK MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada oilada mehnat tarbiyasini rivojlantirish asosida tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantirishning psixologik asoslari ochib berilgan bo'lib, shuningdek, ma'naviy meroslarning moddiy qadriyatlar bilan hamohang rivojlanishi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda sharq allomalarining ma'naviy merosidan foydalanishning ahamiyati yortilgan.

Tayanch so'zlar. Kasb, kasb-hunar, meros, moddiy qadriyat, oila tarbiyasi, hunarmandchilk, tadbirkorlik motivi, tarbiya, axloq, nafosat, jismoniy mehnat, ma'naviy kamolot.

В статье раскрываются психологические основы формирования предпринимательской мотивации на основе развития трудового воспитания в семье, а также значение использования духовного наследия учёных Востока в ориентировании учащихся на профессию, гармоничного развития духовного наследия с материальные ценности.

Ключевые слова. Профессия, призвание, наследство, материальные ценности, семейное воспитание, мастерство, предпринимательский мотив, образование, нравственность, утонченность, физический труд, духовная зрелость

The article reveals the psyxological foundations for the formation of entrepreneurial motivation based on the development of labor education in the family, as well as the importance of using the spiritual heritage of Eastern scientists in guiding students towards a profession, the harmonious development of spiritual heritage with material values

Key words. Profession, vocation, inheritance, material assets, family upbringing, skill, entrepreneurial motive, education, morality, sophistication, physical labor, spiritual maturity

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zaruriyat ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekistonda oilani rivojlantirishga global darajada Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot dasturlari doirasida, shuningdek 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qaraladi. Shuningdek, respublikamizda ijtimoiy institutlarning eng qadimgisi oila va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish tizimini mazmunan va mohiyatan modernizatsiya qilish jarayoni davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlanmoqda. Chunki O'zbekistonda ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majbur ekanligi Konstitutsiyada belgilab berilgan.

Mamlakatimizda yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish maqsadida imtiyozli

kreditlar ajratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Psixolog olimlar oilani kichik bir ijtimoiy guruh sifatida ta’riflaydilar. Oilani tashkil etuvchi ushbu guruh nikoh orqali hamda yaqin urug‘chilik rishtalari bilan bir-biriga bog‘langan bo‘lib, ular o‘rtasidagi munosabatlarga xos bo‘lgan muhim jihatlar – bu o‘zaro mehr- muhabbat, g‘amxo‘rlik, mas’uliyatlilik va albatta, hayot, turmush tarzidagi umumiylikdir[1].

Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslarini tadqiq etgan olima A.Muxsiyeva o‘z tadqiqotida oila tarbiyasini yo‘lga qo‘yish jarayonida tadbirkorlik hamda xo‘jalikni oqilona boshqarish asosida bolalarda millatparvarlik, tejamkorlik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, uddaburonlik, ziyraklik, mas’uliyatlilik va tadbirkorlik kabi fazilatlarning tarbiyalanishiga erishish mumkinligini alohida ta’kidlab o‘tgan: “Bozor munosabatlari bolalarga oila hamda ta’lim muassasalarida puxta iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, shu jumladan, oila xo‘jaligini yo‘lga qo‘yish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni taqozo etadi. Iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlar mavjud sharoitda bolalarning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishinigina emas, ayni vaqtda ro‘zg‘orda tejamkor, xo‘jalikni yuritishda tadbirkor bo‘lishlariga erishishdek pedagogik vazifani ham ijobiy hal etish maqsadga muvofiqdir[2]”.

Tadbirkorlikni boshqarish asosida yoshlarda millatparvarlik, tejamkorlik, uddaburonlik, ziyraklik va tadbirkorlik kabi fazilatlarning tarbiyalanishiga erishish mumkin. Quyida ushbu xislatlarning har biri yuzasidan alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Ba’zi oilalarda ota-onalarning bu masalalarga jiddiy e’tibor bermasliklari tufayli bolalarda xudbinlik illati shakllanadi. Agar bola oila ehtiyojlari uchun zarur mablag‘ning yaratilish omilini bilmasa, faqat o‘z ehtiyojlarini qondirishgagina odatlanib, oilaning boshqa a’zolari ham muayyan ehtiyojlarga ega bo‘lishlarini anglamasa, qanoatli inson bo‘lib voyaga yetmasa, demak, uning qiyofasida ko‘zga tashlanuvchi xislat xudbinlikdir. Xudbinlik nafaqat shaxsning o‘zi uchun, shu bilan birga jamiyat uchun ham zarar keltiradi. Ba’zi ota-onalar o‘zlari ham sezmagan holda farzandlarida xudbinlikning tarbiyalanishiga zamin yaratib beradilar.

Bunday ota-onalar bolalarining barcha moddiy ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga urinadilar. Turli yo‘l va omillardan foydalanish evaziga ularning istaklarini qondirishga harakat qiladilar. Bolalarga nisbatan me’yoridan ortiq mehr-muhabbat ko‘rsatilgan oilalarda tarbiyalanayotgan farzandlar aksariyat hollarda, ota-onalarining qanday kasb egasi ekanliklari, uning mashaqqatlari to‘g‘risida ma’lumotlarga ega bo‘lmaydilar. Bu holat shundan dalolat beradiki, ular ijtimoiy mehnatning o‘ziga xos qiyinchiliklarini tasavvur qila olmaydilar.

Oila sharoitida bolalarda tejamkorlik fazilati, eng avvalo, ota-onalar tomonidan ularga ko‘rsatilayotgan ibrat asosida shakllantiriladi. Ularning oila moddiy farovonligini ta’minlashda muayyan ahamiyatga ega vositalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, kiyim-kechak, asbob-uskunalar, jihozlarga bo‘lgan ehtiyotkorona munosabatlari, o‘rinli vaziyatlarda alohida ta’kidlarni qayd etishlari, tejamkorlik mavzusida davra suhbatlarini tashkil etishga ahamiyatni qaratishlari – bolalarda tejamkorlikning shakllanishini ta’minlaydigan ta’sirchan metodlar hisoblanadi.

Iqtisodchi olimlar “biznes”, “tadbirkor”, “tadbirkorlik” kabi tushunchalarni turlicha talqin etadilar va bu borada bir to‘xtamga kelmaganlar. Ularning tadbirkorlik faoliyatiga

[1] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 213-modda, 22-son, 406-modda

[2] Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi – T.: TDIU, 2006. – B.10.

bergan nazariy fikrlarini e'tirof etgan holda, uning mazmunini quyidagicha ta'rifladik: "Tadbirkorlik – turli mulkchilik shakllariga asoslangan xo'jalik yuritish faoliyati orqali mavjud ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish asosida bozor iste'mol talablarini qondirishda va foyda olishdan iborat bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatdir".

"Tadbirkorlik" tushunchasiga berilgan pedagogik ta'riflar ham ancha bahstalab bo'lib, zamonaviy shart-sharoit bilan bog'liqlikda uning mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Tadbirkorlik integral yondashuvni talab etadigan ko'plab o'zgarishlar bilan aloqador hodisa. Eng avvalo, tadbirkorlik foyda va shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan subyektlarning shaxsiy javobgarligi va tavakkalchiligi asosida amalga oshiriluvchi tashabbuskor mustaqil faoliyatdir. Mazkur faoliyat xususiy tadbirkorlik (individual va guruhiy), oilaviy tadbirkorlik, xuddi shunday jamoatchilik birlashmalari va davlat tashkiloti sifatida amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik sohasida olib borilayotgan islohotlar zamonaviy sharoitda o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lishinigina emas, ayni vaqtda ro'zg'orda tejamkor, xo'jalikni yuritishda tadbirkor bo'lishlariga erishishdek pedagogik vazifani ham ijobiy hal etish maqsadga muvofiqdir.

Oilada yoshlarda tadbirkorlik motivatsiyasini rivojlantirish uchun quyidagilarni inobatga olish maqsadga muvofiqdir: ularning qobiliyatini oldindan baholash; yoshlarning mehnatini uning kuchiga yarasha taqsimlash; iste'dodni rag'batlantirish; talabchanlik. tadbirkorlik kompetentligini psixologik-pedagogik adabiyotlar tahlili asosida, shaxsga tadbirkorlik vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilish va tadbirkorlik faoliyatida yuqori natijalarga erishishga ko'maklashuvchi sifatlar, bilimlar majmui sifatida talqin etish mumkin.

Foydalanilgn adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 14-son, 213-modda, 22-son, 406-modda

2. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi – T.: TDIU, 2006. – B.10.

3. Muxsiyeva A.SH. Oilada milliy tarbiya jarayonining metodik asoslari: Pedagogika fanlari nomzodi.…diss. – T., 2005. – B.56.

Nuriniso UMAROVA,
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta'lim muassasasi, katta o‘qituvchi, (PhD)

ABDULLA ORIPOV LIRIKASINING PSIXOLOGIK O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulla Oripov o‘z ijodida tabiat va ruhiyat uyg‘unligining xilma-xil shakllaridan mohirlik bilan foydalanishi va bu hol she’r shaklining rang-barang bo‘lishi bilan birga ruhiyat qirralarining ham turli hissiy bo‘yoqlarda aks etishiga, bir-birini takrorlamaydigan kechinmalar shaklida namoyon bo‘lishiga olib kelishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Abdulla Oripov badiiy obrazlarni ko‘proq tabiatdan olishga harakat qilishi va ijodkorning lirik qahramoni ruhoniyati jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalarga, ya’ni davr, insoniyat uchun muhim bo‘lgan muammolarga befarq qarab tura olmasligi, bu kabi bitiklarda adibning “insoniy meni” va “ijodiy meni” birlashgani yaqqol ko‘zga tashlanib ruhiyat musavviri sifatida namoyon bo‘lganligi haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘zlar. Ijodkor shaxsiyati, shoir, tabiat, ruhiyat, badiiy obraz, ijodiy men, insoniy men, lirik qahramon.

В статье говорится о том, что Абдулла Арипов, один из выдающихся представителей узбекской литературы, умело использует в своем творчестве различные формы гармонии природы и духа, и это приводит к тому, что наряду с разнообразием поэтической формы, аспекты духа также отражаются в различных эмоциональных красках, проявляясь в форме уникальных переживаний. Также говорится о том, что Абдулла Арипов старается брать художественные образы больше из природы и что духовность лирического героя писателя не может оставаться равнодушной к различным социально-политическим, духовно-просветительским вопросам в обществе, то есть к проблемам, важным для эпохи и человечества, в таких произведениях ясно видно, что “человеческое “я” и “творческое “я” писателя объединены и проявляются как художник души.

Ключевые слова. Творческая личность, поэт, природа, психика, художественный образ, творческое “я”, человеческое “я”, лирический герой.

The article discusses how Abdulla Oripov, one of the prominent representatives of Uzbek literature, skillfully uses various forms of harmony between nature and spirituality in his work, and this leads not only to the diversity of poetic form but also to the reflection of spiritual facets in various emotional colors, manifesting in the form of unrepeating experiences. Also, it is said that Abdulla Aripov tries to take artistic images more from nature and that the spirituality of the lyrical hero of the creator cannot remain indifferent to various socio-political, spiritual and educational issues in society, that is, to the problems that are important for the era and humanity, in such writings it is clear that the writer’s “human self” and “creative self” are combined and manifested as a painter of the psyche.

Key words. Creative personality, poet, nature, psyche, artistic image, creative self, human self, lyrical hero.

Abdulla Oripov tadqiqotchilari uning ijodida ruhiyat tasviri masalasida o‘zlarining bir qator ilmiy izlanishlari amalga oshirishganligi, lekin adibning vafotidan so‘ng chop etilgan “Shoirning tug’ilishi” to‘plamiga kiritilgan bitiklar masalalasiga fanda hali atroflicha to‘xtalinmaganligini kuzatish mumkin. Zero, ijodkor shaxs ruhiyatini ochishda badiiy til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini o‘rganish uning poetik mahorat qirralarini yoritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

“Shoirning tug’ilishi” to’plamidan joy olgan she’rlari bo‘yicha tadqiq qilinsa, mazkur nazmiy namunalarda:

1. Tabiat hodisalar, go‘zalliklari sabab yuzaga kelgan ruhiy holat tasviri.

2. Insonning eng ichki, eng nozik ruhiy holatlari tasviri.

3. Tabiat va inson qiyosi natijasida yuzaga kelgan ruhiy holat tasviri ham mavjud.

Oripov she’rlaridagi “lirik men” kamalakning ranglari kabi turfa xildir va bu holatni “Shoirning tug’ilishi” to‘plamidagi she’rlardagi ijodkor shaxsini tahlil qilish jarayonida guvoh bo‘lish mumkin. Jumladan, vatan haqidagi “Vatan”, “Yurt sevgisi”, “ Maftuningman”, “Ona tuproq” she’rlarida vatan uchun fidoiy farzand bo‘lib, uning bor go‘zalliklaridan ilhomlanadi, zavqlanadi, maftun bo‘ladi, “ Nozli yor”, “Bilaman sevganing men emas”, “Qo‘zg’ama qalbimda nelar borligin”, “Aldangan oshiq” muhabbat dardiga mubtalo bo‘lgan va iztirob chekayotgan shaxs ichki kechinmalar aks ettiriladi “Kuz she’ri”, “Ko‘klam”, “Bahor” kabi she’rlarida esa fasl tarovati, go‘zalliklari va bu fasllarning o‘zigagina xos xislatlari sabab ijodkor ichki dunyosida sodir bo‘lgan ruhiy holatlar, nozik kechinmlar rangli buyoqlarda tasvirlangan. She’r ma’lum bir vaqtdagi yoki ma’lum bir jarayonlar ta’siri natijasida ijodkorning aynan mana shunday holatlarga ichki munosabati o‘laroq dunyo yuzini ko‘radigan turli xil ruhiy jarayonlarning mevasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, Abdulla Oripov lirik qahramoni ruhoniyati jamiyatdagi turli ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalarga, ya’ni davr, insoniyat uchun muhim bo‘lgan muammolarga befarq qarab tura olmaydi, bu kabi bitiklarda adibning “insoniy meni” va “ijodiy meni” birlashgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, “Hayot falsafasi”, “Ateist“, “Tanqidchiga”, “Ko‘zi ochiq ketdi dunyodan”, “Qismat”, “Chumolilar” kabi jamiyat, insoniyat uchun asrlar davomida dolzarb bo‘lgan, ijodkor qalbini junbishga keltirgan davr muammolari qalamga olinadi va insoniyatni ogohlikka da’vat etiladi.

Ma’lumki, jamiyatda turli hodisalar sodir bo‘ladiki, bunga ijod ahli befarq qaray olmaydi, davrning og’riqli masalalari bu davr ijodkorlarini bezovta qiladi va ular bugun ko‘pchilikning nazaridan chetda turgan, lekin ertaga hammani tashvishga solishi mumkin bo‘lgan hayot muammolariga badiiy mikroskop orqali qarashni hamda hayot haqiqatini badiiy haqiqatda yoritishni qalb amri deb biladi. “Shoirning tug’ilishi” she’riy to‘plamidan joy olgan “Hayot fasafasi” she’ri ham mana shunday holatlar mahsuli o‘laroq yaratilgan:

Ish ko‘rib nafsining buyrug‘i bilan,
To‘g’rini quvdi u qo‘llab o‘g‘rini.
Atrofni o‘radi urug’i bilan,
Qo‘ltig‘iga oldi avval o‘g‘lini!
Uningcha, xo’jayin bo‘lsa bas mamnun,
Qimirlab tursa bas idora ishi;
Aysh-ishrat bag‘ishlar umrga mazmun,
Bir marta keladi dunyoga kishi.
Kim uni fosh etar, jazoga tortar?!
Turtinib qoldi-ku oddiy fuqaro:
Ig‘vo deb topildi chippa-chin xatlar,
Ne-ne yorug‘ yuzga chaplandi qaro…

Ijodkorning voqelikka bo‘lgan faol munosabati lirik “men” kechinmalari orqali voqe bo‘ladi. Shoir insoniyatni asrlar davomida qiynagan, yechim kutayotgan masalalariga davrining ma’naviy yetuk, ruhan uyg‘oq farzandi sifatida atrofdagi voqea-hodisalarga o‘zining his-tuyg’ular bilan to‘yingan munosabatini oshkora, dadil aytadi, insoniyatning vijdoniga ko‘zgu tutadi, ogohlikka da’vat etadi.Belinskiy ta’biri bilan aytganda, “… shoir o‘zi, o‘z ishi haqida so‘zlaganda, umuminsoniyat haqida so‘zlaydi”.

Ma’lumki, psixologik parallelizm insonning quvonchi, iztiroblari, qalb tug’yonlarini

tabiat tasviri orqali yuzaga chiqaradi, ya’ni inson o‘z kechinmalariga tabiatdan “dalil” izlaydi. Bunda tabiatdagi biror bir hodisa – yasharish, gullash yoxud xazonrezgilik insonning mavjud ruhiy holatiga uyg’un yo qarama-qarshi tarzda tasvirlanadi. U holatda ham, bu holatda ham tabiat tasviridan maqsad insonning ichki kechinmalarini yana-da kuchliroq, emotsionalroq, ishonarliroq qilib tasvirlashdir.[1]” Abdulla Oripov hassos san’atkor sifatida inson ruhiyatini kashf etishda tabiat tasviridan ham mohirlik bilan foydalangan. Uning “Sharq tuni”, “Bulut boqqanda”, “Shahrisabz azim shahar…”, “Jayron qo‘shig‘i”, “G‘o‘za guli”, “Ona qishloq” kabi she’rlarida ham psixologik parallelizmdan mahorat bilan foylangan, tabiat manzarasi ijodkor ruhiyatiga kuchli ta’sir qiladi va tuyg‘ulariga tegib, ajib xotiralarni esga soladi. Shoir bu usuldan mahorat bilan foydalanib, tasvirlanayotgan ruhiy holat, qalb kechinmasini yana-da ta’sirliroq, kuchliroq ifodalashga erishdi. Shoir mazkur she’rlarida tabiatning betakror go‘zal manzaralarini kashf etdi va shu manzaralarga mos bo‘lgan ruhiy olam qirralarini tasvir etdi. Abdulla Oripov o‘z ijodida tabiat va ruhiyat uyg‘unligining xilma-xil shakllaridan mohirlik bilan foydalandi. Bu hol she’r shaklining rang-barang bo‘lishi bilan birga ruhiyat qirralarining ham turli hissiy bo‘yoqlarda aks etishiga, bir-birini takrorlamaydigan kechinmalar shaklida namoyon bo‘lishiga olib keldi.

Abdulla Oripov badiiy obrazlarni ko‘proq tabiatdan olishga harakat qiladi. Uning she’rlarida, ayniqsa, yomg‘ir, shabada, daraxt, shabnam, yer , quyosh, yulduz, daryo kabi poetik obrazlar ko‘p uchraydi. Ijodkorning tabiatdagi barcha narsalarga, jonzotlarga mehri baland, tilini tushunishga qodir, qalbida kechayotgan tug‘yonlarni, his-tuyg’ularni his etuvchi tarjimon, bundan tashqari, “Shoirning tug‘ilishi” to‘plamiga kiritilgan she’rlarda eng ko‘p uchraydigan ona, sevgi, orzu, she’r kabi obrazlarning poetik dunyosi nihoyatda keng bo‘lib, ijodkor konsepsiyasini belgilovchi, lirik qahramon ruhiyati qirralarini ifodalovchi vositalardan sanaladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Abdulla Oripov she’riyati nafaqat o‘z zamonining ijtimoiy-madaniy muammolarini chuqur badiiy idrok etgan, balki insoniyatni turli tarixiy bosqichlarda tashvishga solib kelgan umuminsoniy masalalarga ham estetik-falsafiy yondashuv asosida munosabat bildirgan adabiy hodisadir. Shoir ruhiy kechinmalar va davr muammolarini teran his eta olgan ijodkor sifatida ularni poetik tafakkur mezonida tahlil qilishga intilgan, inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy-psixologik jihatdan yoritishga alohida e’tibor qaratgan. Shu ma’noda, u zamon va ruh musavviri sifatida o‘ziga xos poetik maktab yaratgan ijodkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belinskiy V.G. Poln.sobr.soch.T.P. – M.,1964

2. Belinskiy B.G. Adabiy orzular. – T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1977.

3. Belinskiy B.G. Tanlangan asarlar. – T.: O‘zbekiston, 1955.

4. Aliyev Bobonazar Ro‘ziqulovich Hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida psixologizm muammosi (70-80-yillar) Filol.Fan.nom…diss. – T., 1994.

5. Umirzoqova Nafisa Tursunovna Usmon Nosir she’riyatida ruhiyat tasviri. Filol. Fan.nom…dis. – T., 2005.

6. Abdulla Oripov “Shoirning tug’ilishi”. –T.: Adabiyot, 2021.

[1] Aliyev Bobonazar Ro‘ziqulovich Hozirgi zamon o‘zbek she’riyatida psixologizm muammosi (70-80-yillar) Filol.Fan.nom…diss. – Toshkent. 1994. B. 134-135.

Надежда ЦАЙ,
Национальный институт педагогики воспитания имени Кары-Ниязи, соискатель

ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНЫМ И ШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМ

Annotatsiya

Maqolada islohotlar sharoitida maktabgacha va maktab ta'limini boshqarish xususiyatlari, zamonaviy ta'lim islohotlari omillari, milliy xususiyatlar, zamonaviy islohotlarning xususiyatlari, ta'limni boshqarish tizimini isloh qilish tamoyillari, o'tish davridagi ta'limni boshqarish tizimining vazifalari, ta'lim mazmunini isloh qilish bosqichlari va kadrlar boshqaruvidagi faoliyat turlari batafsil tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar. Boshqaruv xususiyatlari, islohotlar shartlari, zamonaviy ta'lim islohotlari omillari, milliy xususiyatlar, zamonaviy islohotlarning xususiyatlari, islohotlar tamoyillari, boshqaruv tizimining vazifalari, islohotlar bosqichlari, ta'lim mazmuni, faoliyat turlari, xodimlarni boshqarish.

В статье подробно анализируется особенности управления дошкольным и школьным образованием в условиях реформ, факторы современных реформ образования, национальные особенности, характеристики современных реформ, принципы реформ систем управления образованием, задачи системы управления образованием переходного периода, этапы реформ содержания образования и виды деятельности в управлении персоналом.

Ключевые слова. Особенности управления, условия реформ, факторы современных реформ образования, национальные особенности, характеристики современных реформ, принципы реформ, задачи системы управления, этапы реформ, содержания образования, виды деятельности, управлении персоналом.

The article analyzes in detail the features of preschool and school education management in the context of reforms, factors of modern education reforms, national characteristics, characteristics of modern reforms, principles of reforms of education management systems, tasks of the education management system in the transition period, stages of educational content reforms and types of activities in personnel management.

Key words. Management features, reform conditions, factors of modern education reforms, national characteristics, characteristics of modern reforms, reform principles, management system objectives, reform stages, educational content, types of activities, personnel management.

Периодически все социально-деятельностные институты общества проходят стадию реформирования. В эпоху глобализации реформирование общественных систем становится не дискретным и прерывистым, а постоянным процессом. Любая реформа есть изменение, переход из одного качественного состояния общественной системы в другое.

Современные реформы образования зависят от многих факторов:

– наличия необходимого ресурса для начала перемен; мотивации и способности властей осуществлять преобразования;

– реально сложившихся условий на начало перемен;

– Независимо от национальных особенностей современные реформы общественных систем имеют и общие характеристики, а именно:

1. Являются системными, программными и технологичными, то есть успешность их реализации достигается только тогда, когда преобразования осуществляются

по нескольким взаимосвязанным направлениям деятельности. Современные реформы требуют предварительной подготовки и продумывания, разработок проектов и программ деятельности.

2. Требуют концентрации и мобилизации огромных ресурсов, в первую очередь интеллектуальных, квалификационных и финансовых.

3. Носят гуманитарный и демократичный характер. Необходима политическая воля власти для запуска реформ, желание национальных элит подключиться к преобразованиям, наличие социальных групп и страт, профессиональных сообществ, заинтересованных в переменах. Состояние общественного мнения в переходный период подчас является основным фактором, определяющим судьбу реформ.

4. Реформы общественных систем деятельности начинаются реформ управления ими, и только затем осуществляется непосредственно реформирование основной сферы деятельности.

Реформа систем управления образованием базируется на ряде принципов:

1. Демократии, что означает организацию такой формы управления, при которой достигается максимальная возможность нахождения компромиссов между меньшинством и большинством, а также между различными меньшинствами. Принцип демократии соответствует концепции открытого общества. Применительно к системе образования этот принцип может быть реализован, когда правовые, концептуальные и проектные нормы развития образовательной деятельности отражают интересы не только государства, но и всех внутренних и внешних субъектов образования.

2. Государственно-общественного, или общественно-государственного, характера управления, что предусматривает не столько первенство одного из фокусов, сколько разумное распределение функций между ними.

Реформа системы управления образованием должна начинаться с создания механизма государственно-общественного управления через отмену существующих законодательных противоречий. Как это ни парадоксально, но инициатором создания такого механизма может стать само государство, которое становится заинтересованным в становлении и формировании общественного фокуса управления.

Идеальная модель – это не некий рецепт для любой страны и любой ситуации, а компромисс, достигнутый в определении приоритетов национального развития в целом. Поэтому концепция реформы образования должна содержать в себе часть, которую можно трактовать как стратегию достижения такого компромисса.

Новая система управления образованием призвана решать ряд сложнейших задач переходного периода:

1. Принятие основных рамочных законов и норм, необходимых для реформирования.

2. Формирование особого рода инфраструктуры образования,системы «авторитетного знания», которая работает по принципам рынка консалтинговых услуг.

3. Совмещение процессов развития и процессов функционирования в образовании.

4. Перевод системы образования на принципиально новое содержание образования и новые технологии; новые структуры и типологии учебных заведений.

5. Создание механизма управления качеством образования.

6. Ресурсное обеспечение системы образования в условиях перехода от тотальной государственной системы к рынку образовательных услуг.

Одним из основных элементов управленческой инфраструктуры становятся подготовка и переподготовка менеджеров образования в соответствии с новыми принципами управления. Новые менеджеры образования должны составить кадровый резерв для смены старых управленческих кадров.

Итак, реформа содержания образования в Республике Узбекистан должна включать следующие этапы:

- Пересмотр содержания и технологий педагогического образования, подготовки и переподготовки кадров, подготовки специалистов высшей категории (магистратура, докторантура, менеджмент). Как один из вариантов институционального изменения педагогического образования можно предложить закрытие педагогических институтов и постепенный перенос педагогического образования на базу университетов.
- Реформа научных, методических и учебно-методических служб в системе образования, их переориентация со знаниевой парадигмы на деятельностную.
- Формирование стандартов, разработка учебников и учебно-методических комплексов нового поколения.
- Научная разработка критериев нового содержания образования и формирование служб экспертизы, лицензирования, инспекции, аккредитации, системы мониторинга качества образования.
- Постепенное формирование рынка образовательных услуг с соблюдением разрешительного, а не запретительного принципа.

Управление персоналом, или управление человеческими ресурсами (HR, Human resources), в современном менеджменте является одним из главных направлений, обеспечивающих успешность и эффективность основной деятельности. Традиционно это направление менеджмента ориентировано на использование психологических методов работы с персоналом для обеспечения мотивации и личностной диагностики персонала.

Приходится констатировать, что квалификация менеджеров образования и директоров школ не всегда позволяет эффективно управлять финансами. Многие директора отказываются брать на себя ответственность за управление финансами внутри школы и т.д. Их опасения подчас оправданны. Недостаток знаний и менеджерских компетенций в реальных условиях управления учебным заведением становится очевидным.

Выход из данной ситуации может быть только комплексным. Он состоит в изменении содержания повышения квалификации менеджеров образования, ее оптимизация.

Использованная литература

1. Azizxo‘jaev A., Qurbonov Sh. Oliy ta'lim tizimida boshqaruv kadrlarini tayyorlash. – T.: “Akademiya”, 2002.

2. Балыхин, Г.А. Управление развитием образования: организационно-экономический аспект / Г.А.Балыхин. – М.: Экономика, 2003. – 408 с.

3. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. … док.пед.наук. - СПб.: 1995. -43 с.

4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. – T.: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b.;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, E’zozxon KARIMOVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Zair TAXIROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA, Jamilaxon ASQAROVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (90)994-77-88, (93)528-90-47, (97)776-33-70
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Isakulov Rustam Mamirovich

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta‘limi” jurnali, 2025.